

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI
ANDIJON FILIALI

“GUMANITAR FANLAR”
KAFEDRASI



“FALSAFA”
FANIDAN

MA'RUZALAR MATNI

(bakalavr yo'nalishi uchun)

Andijon-2018

Tuzuvchilar:

T.A. Sultonov	AndQXI “Gumanitar fanlar” kafedrası dotsenti, falsafa fanlari nomzodi
T.YA. Abdullayev	AndQXI “Gumanitar fanlar” kafedrası dotsenti, falsafa fanlari nomzodi
A.A. Abdullayeva	AndQXI “Gumanitar fanlar” kafedrası asissenti
A.B. Rayimqulov	AndQXI “Gumanitar fanlar” kafedrası asissenti

Taqrizchilar:

T. Ortiqov	ADU “Ijtimoiy fanlar” kafedrası professori, f.f.d.
Z.Sh. Xamidov	ADU “Ijtimoiy fanlar” kafedrası dotsenti, f.f.n.

FALSAFA

MUNDARIJA

	MAVZULAR	BETI
1- Mavzu	Falsafa : uning predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli	4-15
2 - Mavzu	Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari.	16-45
3 - Mavzu	Borliq-falsafaning fundamental kategoriyasi.	46-58
4 - Mavzu	O'zaro aloqadorlik va rivojlanish qonunlari. Falsafa kategoriyalari.	59-67
5 - Mavzu	Bilishning mazmun mohiyati va bilish darajalari. Falsafada haqiqat muammosi. Nazariya va amaliyot birligi.	68-110
6 - Mavzu	Jamiyatni falsafiy anglash asoslari - bilishning metodologiyasi. Axborotlashuvning falsafiy asoslari.	111-121
7 - Mavzu	Globalashuvning falsafiy muammolari.	122-151
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati	152-153

**1-MAVZU: FALSAFA: UNING PREDMETI, MAZMUNI VA
JAMIYATDAGI ROLI**

Vaqt - 2 soat

Reja

1. "Falsafa" atamasining mohiyati. Falsafaning bahs mavzulari va muammolari.
2. Dunyoqarash tushunchasi, uning mohiyati va tarixiy shakllari. Falsafa – dunyoqarash sifatida.
3. Falsafaning jamiyatdagi o'rni va vazifalari.

Tayanch so'z va iboralar

Falsafa, falsafiy muammolar, falsafaning milliyligi, falsafaning umuminsoniyligi, o'zbek falsafasi, falsafiy tafakkur usullari, falsafiy fanlar, dunyoqarash, mifologik va diniy dunyoqarash, falsafiy dunyoqarash, falsafaning asosiy vazifalari: dunyoqarashlik, ontologik, gnoseologik, praksiologik, aksiologik, tarbiyaviy.

Yer yuzidagi jamiyatlar, kishilar melodiy XXI asrda yashamoqda. O'n minglab yillar mobaynida turli jamiyatlar, turli guruh va toifa kishilar yashash uchun kurash davomida o'zaro to'qnashib, tabiat in'omidan foydalanib yoki uning zug'umiga dosh berib rivojlanishning qator bosqich va davrlarini boshidan kechirdilar. Ular shu davrlarga xos va mos yuksalish nashidasini surdilar hamda bo'xronlar va inqirozlar iztirobini ham tortdilar.

Va doim kishilar masrurlikning ahamiyatini, qadrini hamda istiqbol jumboqlarini anglashga intildilar. Hozir ham kishilar yangi XXI asrga umid va tashvish bilan boqmoqdalar. Bunday umid va tashvishlarning boisi hozirgi davrda kishilik jamiyati tub burilishlarning yangi pallasiga qadam qo'yar ekan istiqbolda ularni nima kutayotganini bilishga intilishdir. Odamlarni «bu yorug' olamda biz kimmiz va ne bir sinoatmiz, qayoqqa qarab ketmoqdamiz? Insoniyat yangi XXI-asrga qadam qo'yganda bizning o'rnimiz qasrda va qanday bo'ladi?» degan (I.Karimov) sodda, ammo chuqur falsafiy savollar o'ylantirmoqda. Qolaversa, Mustaqil O'zbekistonimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli va chuqur iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy va ruhiy o'zgarishlar kishilarimiz ongida yangi qadriyatlarni shakllantirish, yangicha fikrlash va dunyoqarashga ega bo'lishni taqozo qilmoqda.

O'tgan XX-asr insoniyat faoliyatining turli sohalarida-fanda, texnikada, ijtimoiy-siyosiy hayotda, moddiy ne'matlarni ishlab chiqish va iste'mol qilish usul va shakllarida, ma'naviy-ma'rifiy jabhalarida inqilobiy o'zgarishlar qilgan asr bo'ldi. XXI-asrga u yuksalish uchun keng imkoniyatlar va yashab qolish uchun kurashning yangicha muammolarini meros qoldirdi. Mana, shu merosda falsafaning alohida maqomi, mavqeyi va vazifalari bo'lganligidan bu fanga qiziqish ham kuchaydi.

Nega falsafaga qiziqish kuchaydi? - «Falsafa»ning o'zi nima? degan savollarning tug'ilishi tabiiy.

«Falsafa nima?», degan savol jo'n savol emas. Intuitiv holda bunga hamma ham javob berishi mumkinday, lekin qat'iy ilmiy ta'rif berish oson emas. Hozirgi zamon faylasuflaridan biri X. F. Moru "Falsafa deganda nimani tushunishni aniqlash hamma zamonlarda ham qiyin edi, lekin XX asrga kelib u yana ham qiyinlashdi va hozir deyarli aniqlab bo'lmaydiganday tuyulmoqda", deyishi bejiz emas. Asrlar davomida falsafa so'zining ma'no-mazmuniga turlicha qarashlar, uning jamiyat va inson hamda fanlar tizimidagi o'rniga nisbatan xilma-xil munosabat va yondashuvlar bo'lgan, tarixiy davrlar davomida mazkur atamaning mohiyat-mazmuni ham o'zgarib borgan. Mas., qadimgi yunon faylasufi Arastu falsafani "barcha mavjudotning boshlanishi va sabablari haqidagi fan", degan bo'lsa, Forobiy uni "hikmatni qadrlash" deb talqin qilgan. Ibn Sino falsafani "mutloq borliq haqidagi oliy fan", ingliz faylasufi T. Gobbs (1588-1679) "to'g'ri fikrlash orqali bilishga erishish", nemis faylasufi Gegel "umuman predmetlarga fikriy yondashish", L. Feyerbax "bor narsani bilish" deb, keng ma'no yuklagan bo'lsalar, L. Vitgenshteyn "fikrlarning mantiqiy aniqlanishi", V. Vindelband "umummajburiy qadriyatlar haqidagi fan", deb torroq mazmun yukladilar. Pragmatistlar falsafani "foydali narsalarni bilish jarayoni", deb uqtirdilar.

Lekin bunday xilma-xil, ba'zan bir-biriga zid qarashlar, oqimlar, maktablarni birlashtirib turuvchi narsa, omillarni, jumladan "falsafa" nima?, degan savolning javobini aniqlash uchun falsafaning muhim qirralari, xususiyatlari va funktsiyalarini bilish kerak.

"Falsafa" atamasi yunoncha so'z bo'lib, lug'aviy ma'noda "filo"-sevmok, "sofiya" donolik, ya'ni donolikni, donishmandlikni, hikmatdonlikni sevish tarzida sharhlanadi (bu atama fikr tizimiga qadimgi yunon mutafakkiri Pifagor (miloddan avvalgi 580-500 yillar) tomonidan kiritilgan).

Falsafa miloddan avvalgi VII-III asrlarda endigina shakllanib kelayotgan nazariy fikrlarni ifodalanish shakli sifatida yuzaga keldi.

Ilk falsafiy tafakkur olamni yaxlit va bir butun holda tasvirlashga va unda odamning ishtirokini bilishga qaratilgan edi. Qadimgi dunyoda fanlarning barchasini, ular qanday ilmiy masalalar bilan shug'ullanishidan qat'iy nazar, falsafiya deb ataganlar. Falsafaning paydo bo'lishi tasodif emas, balki tarixiy zaruriyat: Qadimgi YUnoniston, Hindistonda, Xitoy va Markaziy Osiyoda miloddan avvalgi VII-III asrlarda ma'rifatning favqulodda yuksalishi yuz berib, bu davrda san'at, ilm, ijtimoiy-siyosiy amaliyot sohaları tez sur'at bilan o'sib kishilarni yangicha fikrlashga undagan, donishmandlikka ehtiyoj tug'ilgan.

Dastlab donishmandlar olam va unda insonning o'rniga, inson erkinligi va qadriyatlariga e'tiborni qaratganlar. Insonni ular koinot kabi keng va kuchli mavjudot tarzida tavsiflashga, tabiat sirlarini bilib, uni insonga xizmat qildirishga intilganlar, falsafa hamma bilimlarni jamlovchi, tartibga soluvchi, g'oyalarni ifodalovchi universal fanga, fanlar otasiga aylangan. SHunday jozibasi bilan Qadimgi YUnon falsafasi boshqa xalqlarning, xususan, Sharq mutafakkirlarining e'tiborini o'ziga qaratgan.

Sharq falsafiy tafakkurida falsafa olam sirlarini bilish, hayot va insonni qadrlash, umr mazmuniga qarash va hikmatlarni e'zozlash ma'nosida ishlatilgan. Sharqda falsafa fikrlash san'ati deb talqin qilingan.

Tafakkur taraqqiyotida falsafa naturfilosofiya, ya'ni tabiatga oid ilmiy bilimlarning tizimi bo'lishi barobarida qotib qolgan fikr va qadriyatlarga qarama-qarshi hurfikrlilik shakli va vositasi bo'lib xizmat qilgan.

YAngi davrda falsafa ilmiy fikrlash usullari, shakllari va jarayoni haqidagi bilimlar tizimi, fikrni talqin qilish yo'li va usuli (germenevtika) dan iborat aqliy faoliyat, deya talqin etildi.

Tabiat haqidagi ilm (meditsina, fizika, ximiya, biologiya, texnologiya va informatika kabi)larning rivojlanishi olamning falsafiy talqini zarurmi?, degan savolni tug'dirdi. Inson va jamiyat haqidagi sotsiologiya, psixologiya, pedagogika, etika va estetika fanlarining kamol topishi ham falsafiy tafakkurga nisbatan munosabatning o'zgarishiga olib keldi. Haqiqiy ilmiy izlanishlar bu sohalarda falsafaning ahamiyati o'sayotganini ko'rsatgani holda, yuzaki qarashlar bilan kifoyalanayotgan kishilar uchun falsafa samarasiz urinishdek ko'rindi.

Aslida, davr, ilmiy yuksalish va kishilarning har tomonlama faolligining oshishi falsafaning yangi darajaga ko'tarilishini zarur qilib qo'yimoqda. Istiqlol mafkurasi, milliy istiqloq g'oyasi yangilangan milliy falsafaning zarurligini ko'rsatib qo'ydi.

Olam va inson haqida, davrga oid ko'p axborotga ega bo'lishning o'zi kishilarni faylasuf qilib qo'ymaydi. Suqrot, Arastu, Aflotun, Konfutsiy, Zardusht, Moniy, Xorazmiy, Forobiy, imom Buxoriy, imom Termiziy, Beruniy, Ibn Sino, Naqshband, Navoiy, Kant, Gegel kabi donishmandlar o'z zamoni to'plagan ma'naviy boylikni, o'z hayotiy kuzatishlari va tajribalarini umumlashtirish, insonga xos xato va kamchiliklardan saboq chiqarish, bashariyat tomonidan to'plangan bilim va tajribalarni o'zlashtirish, yangi g'oyalarni ilgari surish orqali faylasuf darajasiga ko'tarilganlar.

Xullas, falsafa-davr ruhi ko'zgusi. U davrimiz ko'lamini, mohiyat-mazmunini bilish vositasi, usuli va nazariyasi, ayni paytda bashariyat vijdonini jamlovchi atama va amaliyot sifatida zamondoshlarimizga juda zarur. Zamondoshlarimizda donolikka intilish, donishmandlarga xos bilim, e'tiqod va imonning bo'lishi ularni inson sifatida ulug'laydi. Har bir inson faylasuf bo'la olsa, ezgu fazilatlarini o'zida mujassamlashtirsa, bu bilan o'zligini to'laroq, teranroq anglaydi va erkinroq bo'la oladi. Zero, foydali ilm inson erkinligining eng zaruriy shartlaridandir.

Demak, "falsafa" atamasi keng ma'noda, tarixiy nuqtai nazardan donishmandlikni sevish, hikmatni e'zozlash, bo'lsa, tor ma'noda madaniyat, san'at, aqliy yoki hissiy bilish vositasi sifatida ta'riflangan. Falsafa olamning mohiyatini va odamning olamdagi o'rnini anglash, inson erkin faoliyati uchun zarur fikr va amaliyot usulini topish, davr ilgari surgan muammolarni echish yo'lida fikrlash, oldinda turgan vazifalarni to'g'ri anglay olishni bildiradi.

Falsafa olam, undagi inson va insonning olamga bo'lgan munosabatlari haqidagi eng umumiy nazariy qarashlar tizimidir.

Har bir fan o'z bahs mavzusi, muammolari, usullari va uslubiylari, qonun va tamoyillari, vazifalariga ko'ra ilmning boshqa sohalaridan farq qiladi. Har qanday fan singari falsafaning ham o'z bahs mavzulari va muammolari, vazifalari bor.

Zikr qilganimizday, falsafa olamni va unda insonning o'rnini umumiy, nazariy o'rganadi: "olam-odam" tizimi. Boshqa fanlarda olamdagi narsa va jarayonlar alohida olingan buyum yoki hodisa sifatida o'rganiladi. Masalan, fizika tabiatdagi kuch va harakatning qonuniyatlarini, ximiya buyumlarning atom va molekulyar tuzilishini, undagi o'zgarish, qonuniyatlarni, biologiya hayotning tabiiy qonunlarini, astronomiya koinotdagi jismlarning harakat qonunlarini o'rganadi. Falsafa esa shularning hammasini yaxlit olamning hodisalari sifatida o'rganadi.

Sotsiologiya, tarix, pedagogika, antropologiya va shu kabi fanlar jamiyat va unda inson faoliyatining turli jihatlarini o'rganadi. Falsafa insonning koinotdagi va erdagi, jamiyatdagi o'zni, faoliyat qonunlari, hayot maqsad-ma'nosini, boshqa mavjudotlardan farqli jihatlarini o'rganadi.

Inson va jamiyatning ma'naviy dunyosini bir qator insonshunoslik fanlari, ayniqsa etika, estetika, psixologiya kabi fanlar o'rganadi. Falsafa mana shu ma'naviy hodisa va jarayonlarni olam va odam munosabatlari masalasi darajasida, ya'ni universal muammolar doirasida o'rganib, ularning olamning bir butun tizimidagi o'rnini, jamiyat uchun ahamiyatini tushunish imkonini beradi. Xullas, falsafa koinotning, tabiatning, jamiyatning va inson ongining mavjudligi, o'zgarishi va rivojlanishining qonuniyatlarini o'rganuvchi fandir.

Falsafiy muammolar rang-barang va serqatlam. Ularni abadiy, azaliy va o'tkinchi muammolarga bo'lish mumkin. Olamning mohiyati, mavjudligi, rivojlanishi, hayot va inson, odam umrining mohiyati, borliq va yo'qlik kabi ko'plab azaliy muammolarni chuqur anglab olinishi muayyan tarixiy davrlarga xos, ya'ni o'tkinchi muammolarni bilish va echimini topish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Qaysi falsafiy muammo-bosh muammo-falsafaning asosiy masalasi, degan savol qadimgi va ayni paytda zamona savolidir. Ba'zi faylasuflar falsafaning bosh muammosi xudoni bilish desalar, yana birlari insonni bilish, dedilar, uchinchilari, borliqning ilk ibtidosini aniqlash, desalar, to'rtinchilari, olamni qadriyatli o'lchash, demoqdalar va h.k.

Darhaqiqat, falsafiy muammolar sirasida tizimni tashqillantiruvchi, yaxlitlantiruvchi o'q-tomir muammo bormi?

Har qanday fanning bahs mavzui doimiy o'zgarishda bo'ladi. Fanlar empirik darajadan nazariy darajaga ko'tarila borish, o'z-o'zining mohiyatini chuqurroq va har taraflama bila borish jarayonida o'z bahs mavzuini teranroq anglaydi. Falsafa bundan istisno emas.

Barcha falsafiy muammolar uch asosiy guruh savollarida o'z ifodasini topadi:

1. Olam o'zi nima?; 2. Odam-chi?; 3. Olam va odam o'rtasidagi munosabatlar qanday? Qaysi falsafiy muammoni olmaylik, zikr qilingan shu uch mummodan biriga taalluqli bo'ladi.

Falsafaning markaziy masalasi - odamning olamga bo'lgan munosabati masalasi - falsafaning bahs mavzusi va uning dunyoqarashlik tabiatidan kelib chiqadi.

Falsafiy ma'noda "olam-odam" tizimi buyumning qarama-qarshi tomonlarini ifodalovchi o'ta keng tushunchalar sifatida namoyon bo'ladi. Ular olamga odamning dunyoqarashlik munosabatini turli davrlarda va turli falsafiy maktablarda ifodalangan "men" va "men emas", "subyekt" va "obyekt", "makrokoinot" va "mikrokoinot", "ruh" va "tabiat", "ong" va "materiya", "moddiylik" va "ideallik" kabi tushunchalariga teng.

"Olam-odam" muammosi o'zining 1) ontologik, 2) gnoseologik, 3) aksiologik va 4) praksiologik kabi shakllariga ega bo'lib, ular u yoki bu davr falsafiy tafakkur yo'nalishini ifodalaydi.

Ontologik shakl. Antik falsafada bu vazifa "olam nima?", olamning asosida nima yotadi, uni voqe etib turgan narsaning mohiyati nimadan iborat?, degan masala bo'lgan. Bu masala qadimgi YUnoniston va Rimda «substantsiya» tushunchasi va uning talqini tarzida o'rta tashlangan.

Substantsiya deganda olamning va dunyodagi narsalarning mohiyati to'g'risidagi fikr tushunilgan. Pifagorning fikricha, substantsiya-bu olamni, hamma narsani tashqil etuvchi son va raqamlardir. Aflotun nazdida, substantsiya-bu g'oyalar, Demokrit ta'limotiga ko'ra, olam va narsalarning asosida bo'linmas zarra-atomlar yotadi, bu borliqning substantsiyasidir.

Bu masalaga yondashish va uni hal qilinishiga qarab falsafada turli oqim va yo'nalishlar yuzaga kelgan.

Monizm (yunoncha-monos, ya'ni yakka ma'nosini anglatadi)-olam bir negizga asoslangan, deb ta'lim beruvchi falsafiy ta'limotdir (materialistik monizm va idealistik monizm).

Dualizm (lotin tilida-dua, ya'ni ikki degan ma'noni ifodalaydi)-olamning negizi ikki asos, ya'ni modda va materiya bilan birga ruh va g'oya, ya'ni ideyadan iborat, deguvchi qarashdir. (frantsuz faylasufi R. Dekart (1596 -1650), Ibn Sino...).

Plyuralizm (lotin tilida-plyural, ya'ni ko'plik degan ma'noni anglatadi) - olamning asosida ko'p narsa va g'oyalar yotadi degan g'oyani e'tirof etuvchi ta'limotdir (nemis faylasufi G. Leybnits (1646-1716)).

Materializm -olamning asosida materiya, ya'ni moddiy narsalar yotadi, degan g'oyaga asoslagan falsafiy ta'limot. Bu ta'limot inson faoliyatida moddiy omillarning ustuvorligini ta'kidlaydi (sodda materializm, metafizik materializm, antropologik materializm, dealektik materializm va h.k.).

Idealizm-olamning asosida ruh yoki g'oyalar yotadi, dunyo voqeligi va rivojida g'oya va ruhlar ustivor, deb ta'lim beradigan falsafiy ta'limot (obyektiv va subyektiv idealizm).

Antik davrda va o'rta asrlarda falsafaning markaziy muammosi ontologik shaklda namoyon bo'ldi.

YAngi davrda atomizm va mexanika chuqur o'rganilgan va etakchi nazariyalar bo'lib qoldi va olimlar dunyoni tugal manzarasi yaratilganligi haqida karomat qildilar. Ontologik shakl o'rnini gnoseologik, metodologik masalalar egalladi ("Olamni bilish mumkinmi, qanday qilib?"). YAngi davrda sanoat va tabiiy

fanlarning gurkirab rivojlanishi falsafada mantiq, metodologiya, bilish nazariyalarini ustuvor mavqe egallashiga sabab bo'ldi.

Falsafada dunyoni anglash, uning umumiy qonuniyatlarini bilish bilan bog'liq masalalar ilgari muhim bahs mavzusi bo'lib kelgan (gnoseologiya masalasi). Faylasuflar-gnoseologik muammolarni hal qilishda ikki guruhga bo'linganlar-gnostiklar, ya'ni olam voqeligi va mohiyatini inson bilishi mumkin, degan g'oyaga asoslanganlar hamda agnostiklar-ya'ni inson olamning mohiyatini bilmaydi, degan g'oyaga suyanuvchi faylasuflar. Bilishning mohiyatiga shubha bilan qarovchilar skeptiklar deyilgan.

Yangi va Eng yangi davrda (XIX-XX asr) "olam-odam" muammosining eng aktual masalasi "mavjud dunyo mukammal-mi?" (aksiologik shakl), shuningdek "olamni amaliy o'zgartirish mumkin-mi va qanday qilib?" (praksiologik shakl), degan savollar tizimi paydo bo'ldi. Bu insoniyatning kelajak haqida qayg'urishi, o'z istiqbolini bilishga intilishi edi.

Falsafada milliylik va umuminsonlik tamoyili amal qiladi, YUqorida, falsafiy muammolar tahlilida, bu muammolar o'z mazmuni, mohiyatiga ko'ra, umuminsoniy ekanligiga e'tibor bergan bo'lsangiz kerak. Darhaqiqat, falsafa umumbashariy muammolarni qamrab oladi va butun insoniyat oldida ko'ndalang turgan global masalalarning echimini topishga xizmat qiladi, dunyo xalqlarining kelajagini bashorat qilib, yorqin istiqbolga undaydi. Bu - falsafaning ezgu maqsadi, vazifasidir. Ammo falsafa o'z genezisiga, kelib chiqishiga, shuningdek namoyon bo'lish shakliga ko'ra milliydir. Falsafiy ta'limotlar odatda muayyan millat, uning vakili tomonidan ilgari suriladi. Mas., Sokrat, Aflotun, Arastu, yunon falsafasi; Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Markaziy Osiyo falsafasi; Kant, Hegel, nemis mumtoz falsafasi va h.k. Ular o'z xalqi, millati muammolari, qarashlari, maqsad-intilishlarini ifodalaydi. Lekin tom ma'nodagi milliylik, haqiqiy milliylik o'z qobig'ida qolib ketishi mumkin emas. Jahon falsafasining taraqqiyoti, ravnaqi milliy falsafiy oqim, maktablarning xizmati natijasidir.

O'zbek milliy falsafasining asoslari o'rta asrlarda yaratildi, u Sharq tsivilizatsiyasiga, jahon madaniyati, fani, falsafasi rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatdi, tengsiz ma'naviy ozuqa bo'ldi. Mustaqillik milliy falsafamizning qayta oyoqqa turishida muhim omil bo'ldi. Hozirda o'zbek falsafasining rivojlanishi imkoniyatlari kuchli, buning uchun obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar etarli. Birinchi Prezidentimiz I. Karimovning asarlarida istiqbol falsafasining nazariy asoslari ishlab chiqilgan, uslubiy yo'l-yo'riqlari belgilab berilgan. Bu sohada Prezidentimiz SHavkat Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, Vatanimiz istiqbolini ko'zlab olg'a surilayotgan kontseptual g'oya va fikrlar keng ko'lamli tub islohotlarni ro'yobga chiqarishning nazariy va amaliy asosi, yo'riqnomasi vazifasini o'tamoqda.

Olamdagi va odamdagi o'zgarish, rivojlanish, umumiy aloqadorlik va bog'liqlik qay tarzda ro'y berishi, qanday sodir bo'lishi mumkin? kabi masalalar ham falsafaning azaliy muammolari qatoriga kiradi. Mana shunday muammolarning echimiga yondoshishning xilma-xilligi bir qator falsafiy tafakkur usuli va ta'limotlarni yuzaga keltirdi. Dialektika, metafizika, sofistika, eklektika, dogmatika, sxolostika kabi tafakkur usullari, yondashuvlar shular jumlasidandir. Hozirgi davrda

germenevtika va sinergetika kabi falsafiy tafakkur usul va ta'limotlari yuzaga kelgan. Falsafiy yondashuv va metodlar olam qonuniyatlarini tushunishga yordam beradi va faylasuflar bu usullardan o'z tadqiqotlarini amalga oshirish va izlanishning natijalarini talqin qilish va izohlashda keng foydalanadilar.

Falsafa usul(metod)gina emas, balki uslub (metodologiya) hamdir, ya'ni bilishlik va amaliy faoliyatni tashqil qilish va tuzilish yo'llari va tamoyillari tizimi, shuningdek bu tizim haqidagi ta'limotdir.

Dialektika-qadimgi yunon tilida bahslashish, suhbatlashish, haqiqatga erishish va uni tushuntirish san'ati, degan ma'noni anglatgan.

Hozirgi davrga kelib u nafaqat fikr san'atiga, balki olamdagi narsa va hodisalarni doimo o'zgarishda, o'zaro aloqadorlikda, taraqqiyotda, degan ta'limot va bularni tushuntirish nazariyasiga, yangi ilmga erishish usuliga aylandi.

Metafizika (yunoncha «fizikadan keyin», «katta fizika» ma'nosini ifodalaydi) olam va undagi turg'un, muayyan vaqt davomida nisbatan o'zgarmay turadigan barqaror jihatlarni olamning mohiyati sifatida talqin qiluvchi ta'limot (falsafada metod va metodologiya muammosi 9-mavzuda maxsus yoritiladi).

II. Har bir kishining dunyoga nisbatan o'z qarashi, o'zi va o'zgalar, hayot va olam to'g'risidagi tasavvurlari, xulosalari bo'ladi. Ana shu tasavvurlar, tushunchalar, qarashlar, yondashuvlar va xulosalar muayyan kishining boshqa odamlarga, narsa va hodisalarga munosabatining va kundalik faoliyatining mundarijasini belgilaydi. Mana shu ma'noda dunyoqarash-olamning mohiyati, tuzilishi, odamning undagi o'rni va maqomi haqidagi qarashlar, tasavvurlar, belgilar, yondashuvlar tizimidir.

Dunyoqarash-bu, eng avvalo, insonning zaruriy ravishda dunyoni sezishi, anglashi, tushunishi, bilishi natijasida yuzaga keladigan qarashlar tizimidir. Dunyoqarashning asosiy masalasi-"men" (subyekt olami) va "men emas" (subektga nisbatan tashqi olam) munosabatidir.

Dunyoqarash o'z tarkibiga va darajasiga ko'ra murakkab va serqatlam, serqirradir. Dunyosezuvchanlik va dunyotushunuvchanlik dunyoqarash darajalaridir. Dunyosezuvchanlik-dunyoqarashning emotsional-ruhiy tomoni. Dunyotushunuvchanlik-intellektual bilishlik tomoni.

Har qanday dunyoqarash o'z tarkibiga: bilim, baholar, ishonch va e'tiqodni qamraydi.

Dunyoqarash tarkibiga tasavvur, tushunchalardan tortib, tafakkurda mantiqiy jihatdan nazariy asosda qayta ishlangan falsafiy, siyosiy...bilimlarni, nuqtai nazarlarni, e'tiqod, ishonch kabilarni kiritamiz. Dunyoqarash tarkibi, shu bilan birga, kishilarning kundalik turmushidagi hayotiy, amaliy malaka va ko'nikmalarining, kasbiy va ilmiy bilimlarining jamini o'z ichiga jamlaydi.

Dunyoqarashning bir kishiga yoki alohida shaxsga xos shakli individual dunyoqarash deyiladi. Kishilar guruhiga, muayyan partiyaga, millatga yoki butun jamiyatga xos dunyoqarashlar majmui esa, ijtimoiy dunyoqarash deb yuritiladi. SHuningdek, jins, yosh bilan bog'liq, kasbiy, milliy, davlat va boshqa tuzilmalar dunyoqarashi (dunyoqarash subektlari) kabilarni ham mavjud.

Dunyoqarashning shakllari xilma -xil: hayotiy-kundalik (buni hayotiy falsafa deb ham ataydilar), mifologik, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy va hokazo.

Mifologik dunyoqarash dunyoqarashning ilk tarixiy turidir. Mifologik (mifologiya-yunoncha: mifos-naql, rivoyat, afsona, logos-fikr, ta'limot degani) dunyoqarash ibtidoiy ongda voqelikning hayoliy in'ikosi bo'lib, qadimgi davr kishilari uchun xarakterlidir. Qadimgi davr kishilari o'zlari yaratgan rivoyat va afsonalarda tabiat va jamiyatning turli hodisa va voqealarini umumlashtirib, hodisalarni jonlantirib, ularga ham insonga xos fazilat va illatlar, xususan yovuzlik va ezgulik hislatlarini berib tasvirlaganlar, dushmanlarni engganlar. Masalan, qadimiy merosimiz namunasi-«Avesto»da yaxshilik ramzi Ahuramazda va yomonlik timsoli-Axrimon o'rtasidagi kurashda oxir oqibatda ezgulik g'alaba qozonadi, degan e'tiqod asosiy o'rinni egallagan va hayotbaxsh g'oyalar ilgari surilgan.

Ibtidoiy jamiyat dunyoqarashining asosiy shakli bo'lgan mifologik dunyoqarash o'z davrida turli vazifalarni bajargan. Birinchidan, bu dunyoqarash ma'lum xalqning umumiy qarashlarining shakllanishi bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan, bu dunyoqarashda ma'lum xalqning, jamiyatning ma'naviy, madaniy qadriyatlari (axloqiy, estetik, diniy, badiiy, ilmiy, falsafiy...) mujassamlashtirilgan edi. Uchinchidan, bu dunyoqarashda tabiat va jamiyatning, olam va odamning, bir butun borliqning umumiy birligi, ichki va tashqi aloqadorligi, insoning ma'naviy dunyosi ilk boshlang'ich holida o'z ifodasini topadi. Nihoyat, bu dunyoqarashda o'tmish bilan hozirning hamda kelajakning bog'lanishi, ular o'rtasidagi uzviy aloqa aks etgan bo'ladi.

Mifologik dunyoqarash insoniyatning bolalik dunyoqarashi deyilsa to'g'ri bo'ladi. Mifologik dunyoqarash insoniyat ma'naviy talabini ma'lum vaqtdagina qondiradi.

Dunyoqarashning boshqa tarixiy turi **diniy dunyoqarash**dir. U ilohiy kuchlarning real mavjudligiga, bu kuchlarning inson taqdiriga ta'sir etishiga, ishonch-e'tiqodga asoslangan...

Dinning shu kundagi muhim vazifalari: axloqiy ideallarni va umuminsoniy qadriyatlarni himoya qilish, Er yuzida tinchlikni saqlash uchun kurash, tenglik va adolatni himoya qilish. Dinning kishilar ko'ngliga dalda berish, ularni sabrli bo'lishga da'vat etish, qiyinchiliklarni bartaraf etishda ruhiy madad berish vazifasi ham bor.

Falsafiy dunyoqarash dunyoni ilmiy tushuntirishga harakat qiluvchi nazariy qarashlar tizimidir. Falsafa, avvalo, dunyoqarashning alohida ko'rinishidir. U diniy, mifologik va kishilardagi jo'n qarashlardan quyidagi xususiyatlari tufayli farqlanadi:

1. His-hayajon va iymon-e'tiqoddan ko'ra ko'proq fikrni ustuvor qo'yish; falsafagacha bo'lgan dunyoqarash (mifologik, diniy)lardan tub farqi, falsafa o'zining ilk qadamini shubhalanishdan boshladi (narsa, voqea, jarayonlar haqiqiymi, yoki yo'q, deb).

2. Fikr shakllanishining, amal qilish va namoyon bo'lishining mantiq qonun va tamoyillariga asoslanishi; nazariy dunyoqarash bo'lgan falsafa-mantiqiy tizimlashtirilgan dunyoqarashdir;

3. Dalil-isbot bilan asoslanganligi, tajriba va amaliyotga suyanishi;

4. Universalligi, ya'ni tavsiflash mavzusi va bilish obykti sifatida ayrim olingan buyum yoki jarayonni emas, balki olam va odam aloqadorligi, umuman hayot ma'no-maqsadi masalasini dunyoviy masalalar doirasida hal etishi;

5. Bilimlar, atama va tushunchalarni yuqori darajada mavhumlashtirish vositasida aniq bilimlarga erishishga qaratilganligi;

6. Xolislik negizida jamiyat, insoniyat manfaati yotishi;

7. Oxirgi maqsadi kishilar tomonidan olamni va o'zlikni yangi davr talablariga muvofiq o'zlashtirish va o'zgartirishga qaratilganligi.

Agar din tasalli berish bilan, mifologiya ruhiy zo'riqishni bartaraf etish bilan o'z funktsiyasini yakunlasa, falsafa inson tomonidan olamni ma'naviy o'zlashtirish va kishining o'z muhitini o'zgartirishga yo'naltirish bilan yakunlanadi. Kundalik yoki jo'n dunyoqarashdan falsafa o'z mazmunining, ta'limotining aniq ma'noga egaligi, tub falsafiy tushuncha (ong, mohiyat va shu kabi), atama va (odam, olam, borliq va shu kabi) iboralar hamda (aloqadorlik, inkorni-inkor va shu kabi) qonunlar vositasida ifodalashi bilan farqlanadi.

Falsafiy dunyoqarashning rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan belgilanadi. Avvalo, falsafa jamiyat to'plagan bilim va tajribalarga asoslanadi. Ikkinchidan, falsafa davr ilgari surgan muammolarni anglash va echimini topishga qaratilgan bo'ladi. Uchinchidan, vorisiylik qonuniyatiga amal qiladi, ya'ni avvalgi falsafiy fikrlar davr muammolarining echimi bilan bog'liq holda boyitiladi, yangi usul va yondashuvlar yuzaga keladi. To'rtinchidan, har bir falsafiy fikrning yangi bosqichida insonga munosabat masalasini echilish ahamiyati ortib boradi. Falsafiy dunyoqarash olam, odam va uni bilish, amaliy-o'zgartiruvchilik faoliyati haqidagi aniq bilimlar asosida shakllanadi, yangi miqyos va teranlikda boyib, rivojlanib boradi.

Falsafiy dunyoqarashning rivojlanishida quyidagi tamoyillar amal qiladi:

Falsafiy dunyoqarash ilmiydir, chunki u narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'lanish, aloqadorlik va munosabatlarni kundalik ong darajasidagina emas, balki nazariy ong darajasida ham ifodalaydi.

Falsafiy dunyoqarashning tarixiylik tamoyili jamiyat, uning mahsuli bo'lgan ilm, ma'naviyatning uzluksiz rivojlanishiga asoslangan.

Falsafiy dunyoqarash mantiqiy izchillik tamoyiliga asoslanganligi tufayli olamni xolis, ilmiy, aniq ravshan va izchil aks ettiradi.

Boshqa dunyoqarash shakllari mazmunini tashqil qilish tufayli falsafa universalidir.

Inson manfaatlariga, orzu-niyatlariga mos kelishi tufayli falsafa maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi.

Falsafiy bilim negizida muayyan g'oya yotgani sababli falsafiy dunyoqarash g'oyaviydir. Masalan, bugungi o'zbek (O'zbekiston xalqlari orzu-niyatlarini ifodalovchi) milliy falsafasi mustaqillik, o'zlikni anglash, kelajakni belgilaydigan istiqlool g'oyasiga tayanadi.

Falsafiy dunyoqarashning eng muhim xususiyati nazariya va amaliyot birligi negizida rivojlanib, u ilmiy tezislarning amaliyotga yanada yaqinroq yo'naltirilayotgani bilan tavsiflanadi.

Falsafiy dunyoqarashning vazifalari dunyoqarashni shakllantirish, baholash, boshqarish, nazorat qilish, birlashtirish, tarbiyaviy.

Falsafiy dunyoqarash real kuzatishlar, mantiqiy tahlillar, umumlashtirish, nazariy xulosalar chiqarish, isbotlar asosida fikr yuritishdir. Falsafiy qarashlar, fikrlar real dunyo va real inson hayoti to'g'risidagi erkin, tanqidiy, aqliy mushohadalarga asoslanadi. Bu dunyoqarashda inson tabiatning bir qismi sifatidagina emas, balki alohida bir borliq tarzida o'rganiladi. Falsafiy dunyoqarashda inson ongidan «tashqarida» mavjud bo'lgan narsalar, hodisalar dunyosi va insonning «ichki» dunyosi, dunyo va insonning o'zaro turlicha munosabatlari markaziy o'rinni egallaydi. Tabiat va jamiyatni, moddiy va ma'naviylikni o'zida nazariy jihatdan ifodalovchi keng tushunchalar tizimi falsafiy dunyoqarashni asoslaydi. Ular falsafiy dunyoqarashning hamma sohalari xarakterini belgilaydi.

Falsafiy dunyoqarash dunyoni, uning umumiy manzarasini shunday darajada bilishki, bu bilimlar insonning amaliy va nazariy faoliyati bilan bog'liq dunyoni sezish, idrok qilish va tushunishning nazariy qayta o'zlashtirilgan tizimidir.

Falsafiy dunyoqarashda empirik bilimlar, faktlar tafakkurda umumlashtirilgan, mavhumlashtirilgan, aniqlashtirilgan holda qayta ishlanib nazariy o'zlashtirilgan bo'ladi.

Falsafiy qarashlar doimo ma'lum maqsadga muvofiq insonning amaliy va nazariy faoliyati bilan uyg'unlashgan umumiy tushunchalarda, ya'ni falsafiy kategoriyalar tizimida ifodalanadi.

YUqorida ta'kidlaganimizdek, falsafa fan sifatida o'zining o'rganish muammolariga, o'z o'rganish obyektiga, ya'ni o'z bahs mavzulariga ega. U mohiyati jihatdan borliq, inson, insonning dunyoga va o'ziga bo'lgan munosabatlari to'g'risidagi nazariy qarashlar tizimi bo'lib, falsafiy bilimlar tizimi tarzida namoyon bo'ladi.

Falsafiy bilimlar tizimi tafakko'rning quyidagi yo'nalishlarini o'z ichiga oladi:

Ontologiya-olam, inson va jamiyatning obyektiv yalpi mohiyati, ya'ni borliq to'g'risidagi falsafiy ta'limotdir, insonning olamga bo'lgan munosabati haqidagi falsafiy bilim sohasidir.

Gnoseologiya-(epistemologiya) bilish falsafasi bo'lib, olamni anglash, bilish nazariyasi, bilishning shakli, usullari va imkoniyatlari to'g'risidagi ta'limot.

Metodologiya-olamni nazariy bilish va o'zgaruvchan faoliyat usullari to'g'risidagi ta'limot.

Aksiologiya-qadriyatlar va qadriyatshunoslik to'g'risidagi falsafiy ta'limot.

Praksiologiya-insonning predmetli-o'zgartiruvchan, amaliy faoliyati to'g'risidagi falsafiy ta'limot.

Mantiq (logika)-tafakkur shakllari (tushuncha, hukm, xulosa) va tafakkur vositalarini (ta'rif, qoida, muhokama, tafakkur qonuniyatlari), ularning mazmunidan qat'iy nazar xolis o'rganuvchi ta'limot.

Etika-axloq falsafasi.

Estetika-nafosat falsafasi.

Falsafa tarixi.

SHu bilan birga inson falsafasi (antropologiya), ijtimoiy falsafa(sotsiologiya), tabiatshunoslik falsafasi, madaniyat falsafasi (kulturologiya), san'at falsafasi, mafkura falsafasi (ideologiya), din falsafasi (teologiya), siyosat falsafasi (politologiya), huquq falsafasi, texnika falsafasi, fan falsafasi, global muammolar falsafasi kabi sohalar ham mavjud.

Bu sohalarining har biri hozirda o'zining shakllangan muammolari, kategorial apparati va muammolarni hal qilish metodlari mavjud bo'lgan mustaqil fan statusini olgan.

Bular ijtimoiy- falsafiy fanlar tizimini tashqil qiladi.

III. Ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida falsafaning o'rni va mavqeyi haqida gap ketganda, falsafa-bu eng avvalo fan, u ham boshqa fanlar kabi o'z predmetiga, o'rganish obyektiga egaligini ta'kidlash joiz. Falsafaning ham, aniq fanlarning ham, ijtimoiy-gumanitar fanlarning ham o'rganish obyekti bir - "olam-odam" tizimi. Ammo ularning bu olamga yondashuvlari, tadqiqot predmetlari turlicha. Bu ham olam tabiatidan. O'zgarish va rivojlanishdagi yaxlit olam ayni paytda turfa olamdirdi, u bir vaqtning o'zida ham eng umumiy, umumiy ham xususiy qonunlarga bo'ysinadi. Eng umumiy qonunlarni falsafa, xususiy qonunlarni boshqa fanlar, shu jumladan ijtimoiy-gumanitar fanlar o'rganadi. Boshqacha aytganda, falsafa alohida fanlar singari olamning u yoki bu tomonini emas, balki bir butun holda o'rganadi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining eng umumiy qonuniyatlarini tadqiq qiladi.

Falsafa fanlarning, shu jumladan, ijtimoiy-gumanitar fanlarning eng muhim yutuqlarini chuqur o'rganib, umumlashtirib, "o'zlashtirib" boshqa fanlar mulkiga aylanishiga xizmat qiladi. Bir fan yutug'i falsafiy o'zlashtirish tufayli boshqa fanlar yutug'iga aylanadi. Ilmiy falsafiy nazariya bilan qurollangan olim boshqalarga nisbatan o'z fanining mohiyatini, istiqbolini chuqurroq biladi. Falsafa va boshqa fanlarning o'zaro aloqasi tabiiy, qonuniy va zaruriy bo'lib bu ularning hayotiyligini ta'minlaydi.

Ijtimoiy - gumanitar fanlar tizimida falsafaning o'rni dunyoqarash va metodologiya sifatidagi mavqeyi bilan ahamiyatlidir.

Falsafiy g'oya va nazariyalarning yo'nalish va vazifalarini quyidagicha tasnif etish mumkin:

Ontologik (dunyoqarashni shakllantirish) vazifasi:

- inson qarashlarining shakllanish imkoniyatlari, usul va vositalarini, dunyoqarashning kundalik ong darajasidan nazariy g'oyalar darajasiga ko'tarilish jarayonini, mifologik dunyoqarashdan farqlarini aniqlash;

- milliy dunyoqarashni shakllantirishdagi turli fan yo'nalishlarining muayyan vazifalarini, ularning bir-biri bilan g'oyaviy hamkorlik qilish va uyg'unlashish tamoyillarini aniqlash;

- ilmiy dunyoqarashning milliy va umuminsoniy manfaatlariga mos kelishini ta'minlashdan iborat.

Metodologik (uslubiy) vazifasi:

- falsafa fanining boshqa fan sohalarida tadqiqot obyektni o'rganishga qaratilgan eng umumiy printsiplar, usul va vositalar tizimi bo'lib xizmat qilishi. Chunki, falsafa fanlar metodologiyasi sifatida borliqni bilishning usul va vositalari haqidagi ta'limotdir.

Gnoseologik (epistemologik) vazifasi: bilimlarning haqiqiyliги nuqtai nazaridan borliqni bilish uchun umumiy tizimni yaratish.

Praksiologik vazifasi: falsafiy g'oya va nazariyalarning amaliyot bilan bog'liqligi, ularning ijtimoiy hayotga ommaviy tatbiq etishidir.

Evristik vazifasi: inson ongi, shuuri va sezgilarini kashf etishga safarbar qilish, ya'ni tabiat, jamiyat va inson tafakkuri rivojlanishining yangi qonunlarini kashf etishga rag'batlantirish.

Tarbiyaviy vazifasi: kishida poklik, halollik, komillik fazilatlarini, yuksak axloqiy me'yorlarni anglash, mas'uliyatni his etish tuyg'ularini, kishida huquqiy ong va ijtimoiy nazoratning boshqa usul va vositalaridan foydalanish madaniyatini, muhitga nisbatan oqilona munosabatini shakllantirib, inson, jamiyat va uning yashash muhitini muhofaza qilishning nazariy asoslarini belgilab beradi.

Yuqorida zikr etilganidek, falsafiy tafakko'ning rivojlanishi insoniyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq. Zero, hayotdagi jamiyat uchun ahamiyatli voqea-hodisalarning barchasi kishilar ongida aks etadi. Taraqqiyot jarayonida yangi tarixiy davrlarga mos badiiy, axloqiy, falsafiy qarash me'zonlari yuzaga keladi, ya'ni ma'naviy o'zgarishlar ro'y beradi. Bu murakkab kechadi. Ayniqsa inson tafakkurining o'zgarishi, dunyoqarashning yangicha tamoyillariga ega bo'lishi uzoq davom etadigan jarayondir. Bu bizning hozirgi hayotimizga ham aloqador.

Adabiyotlar

SH.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Tosh.: "O'zbekiston", 2017.

SH. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta'minlashning muhim omilidir. –"Xalq so'zi" gaz-si, 2017 yil 10 yanvar.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2017 yil 7-fevral – Xalq so'zi, 2017 yil 8-fevral.

Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2017 yil 20 aprel. - Xalq so'zi, 2017 yil 21-aprel

Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: Sharq, 1998

Karimov I. Yangi hayotni eskicha qarash va yondashuvlar bilan qurib bo'lmaydi. T.: O'zb., 2005.

Falsafa asoslari (Q. Nazarov va boshqalar). Darslik. Tosh., 2005.

Falsafa (M. Ahmedova va boshqalar). Darslik. T., 2006.

Falsafa: qomusiy lug'at. T.: "Sharq", 2004.

SHermuhammedova.N. Falsafa. O'quv-uslubiy majmua. "Noshir" T.: 2012

Tulenova K.J. va boshqalar. Falsafa. O'quv-uslubiy majmua. TDPU. 2012

Xayrullaev M.M. Markaziy Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati. T.: Fan. 1994.

Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. Tosh., 1992.

Komilov N. Najmiddin Kubro. Tosh., 1995.

Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. 1- kitob. T., Sharq, 2004.

Falsafa asoslari (Q. Nazarov va boshqalar). Darslik. Tosh., 2005.

Falsafa (M. Ahmedova va boshqalar). Darslik. T., 2006.
Falsafa: qomusiy lug'at. T.: Sharq, 2004.
SHermammedova.N. Falsafa. O'quv-uslubiy majmua. "Noshir" T.: 2012
Tulenova K.J. va boshqalar. Falsafa. O'quv-uslubiy majmua. TDPU. 2012
Alisher Navoiy. Lisonut – tayr. T., 1981.
Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T., 2002.
Hamidov Z. Sh. Yusuf Xojibning falsafiy qarashlari. Andijon, 2017

2 – MAVZU: QADIMGI VA O'RTA ASRLAR, YANGI VA ENG YANGI DAVRLAR FALSAFASI

Reja

- 1. Sharq–jahon tsivilizatsiyasining markazlaridan biri. Qadimgi Hind, Xitoy va Markaziy Osiyo falsafiy qarashlari.**
- 2. Qadimgi Yunoniston falsafasi, uning falsafiy maktablari.**
- 3. O'rta asrlar Evropasida falsafiy tafakkur.**
- 4. Markaziy Osiyo falsafasi va uning o'ziga xos xususiyatlari. So'fizm.**

I. Falsafa insoniyat sivilizatsiyasining o'ziga xos in'ikosi, jahon ma'naviy qadriyatining bir ko'rinishi, uning paydo bo'lishi va rivojlanishi ijtimoiy hayot taqozosi hamda ma'naviy ehtiyojning natijasidir. Bugun e'tiborimizni falsafiy tafakko'ring vujudga kelishi sabablari, uning amaldagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan birga qanday rivojlanib, takomillashib borganini qadimgi Misr, Bobil, Hindiston, Xitoy va Yunoniston falsafiy fikrlari misolida ko'rib chiqishga qaratamiz. Bu mamlakatlardagi ilk falsafiy qarashlarning o'ziga xos jihatlarini va ularning jahon falsafiy merosini asoslash va rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatishga harakat qilamiz.

Falsafiy tafakko'ring eng qadimiy madaniy-ma'naviy negizlari Sharqqa borib taqaladi. Sharq mamlakatlari jahon tsivilizatsiyasining beshigi, deb bejiz aytilmaydi. Vaviloniya (Bobil) va Misrda milodgacha 4 ming yillikning oxiri va 3 ming yillikning boshida, Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyoda 3 ming yillikning o'rtalari va 2 ming yillikning boshida, Yunoniston va Rimda esa milodgacha bo'lgan 1 ming yillikda tabiiy-ilmiy, diniy-falsafiy fikrlarning yuzaga kelishi kuzatiladi.

Vaviloniyada, xususan, Xammurapi davrida (eramizgacha 4 ming yillikning boshlari) ishlab chiqarish rivojlandi, moddiy va ma'naviy boyliklar, madaniyat vujudga keldi, astronomiya, matematika, geografiya fanlarida ma'lum yutuqlarga erishildi.

Vavilon olimlari algebra asoslarini, kvadrat va kub ildizlar chiqarishni bilganlar, astranomlar yuldo'zlar xaritasini chizganlar, er. avv. 2 asrda yashagan Seleka hatto olamning geliotsentrik tuzilishi haqida faraz ham qilgan. Vaviloniyada dastlabki tabiiy-ilmiy qarashlar vujudga kelgan. O'sha davrda yaratilgan "Xo'jayinning o'z quli bilan suhbat" badiiy asarida boylik bilan qashshoqlikning, ochlik va to'qlikning, yaxshilik va yovuzlikning asoslari falsafiy tahlil qilinadi; tinchlik, totuvlik, yaxshilikka da'vat qilinadi: "Tepalikka chiqib qaragin, shaharlardagi vayronaliklarni ko'rgin, o'lgan ulug' va oddiy odamlarning kalla suyagiga nazar tashlagin. O'lim hammani baravar qilgan, ularni bir-biridan ajratib

bo'lmaydi". Bu yodgorlikda qul donishmand, hayotning mazmunini to'g'ri tushunadigan qilib tasvirlangan.

«Gilgamesh haqidagi doston», «Adapa», «Etapa» haqidagi afsonalarda ham o'sha davr ma'naviy hayotiga doir falsafiy qarashlar ilgari surilgan.

Misr xo'jaligining asosini sug'orishga asoslangan dehqonchilik va chorvachilik tashqil qilar edi. Bu davrda sug'orish inshootlari va boshqa qurilish ishlari, naqqoshlik, o'ymakorlik, kulolchilik kabilar rivoj topdi. Ishlab chiqarishning o'sishi bilan tabiat to'g'risidagi bilimlar ham kengaya va chuqurlasha bordi.

Qadimgi Misr adabiyotining nodir asari "Arfachi qo'shig'i"da dunyodan lazzatlanishga, shu dunyoda harakat qilishga chaqiradi.

«Nasihatnoma»da misrliklarning ilk falsafiy tasavvurlari aks etgan. Unda bilimning xosiyati, fozil kishilarning qadr-qimmati haqida so'z boradi.

Qadimgi Misr yodgorliklarida tabiat hodisalarining moddiy ibtidosi haqida fikrlar bor. Ularda hamma narsaning asosi suvdir, butun koinotda havo mavjud, deyilgan.

Misrning rivojlanib borayotgan xo'jaligi ilmiy bilimlarning kengayib borishini va ularning hayotga tadbiiq etilishini taqozo qilar edi. Misrda tarixda birinchi marta kalendar yaratilgan. Kalendarda bir yilda 12 oy, har oyda 30 kun va yana 5 qo'shimcha kun borligi, umuman bir yil 365 kun ekanligi ko'rsatilgan.

Misrliklar Erni tekis emas, balki quti ko'rinishida, deb o'ylaganlar. Geografiya, kimyo, matematika, geometriya, tib fanlari o'rganilgan. Hakimlari inson anatomiyasi, undagi qon aylanishini to'g'ri tasavvur qilganlar. Turli kasalliklarni batafsil bayon etib beruvchi tibbiy matnlar ham saqlanib qolgan.

Umuman, qadimgi Bobil (Vaviloniya) va Misrdagi ma'naviy hayot, falsafiy fikrlar insoniyatning keyingi rivojiga o'z ta'sirini ko'rsata olgan. YUnon tarixchisi Plutarxning xabar berishicha, Milet maktabining asoschisi Fales "Hamma narsaning ibtidosi va bosh sababchisi suv", deb faraz qilishni misrliklardan o'rgangan.

Hindistonda falsafiy fikrlar eramizdan oldingi XIX-XV asrlarda, ya'ni "Veda" (bilim) lar davri deb atalgan davrda vujudga kelgan va 4ta Vedada o'z ifodasini topgan. Vedalarning eng muhimi Rigveda (madhiyalar, duolar to'plami) bo'lib, miloddan bir yarim ming yil ilgari maydonga kelgan. Qolganlari esa Yajurveda (qurbonlik qilish yo'llari), Samaveda (qo'shiqlar to'plami) va Adxarvaveda (sehrli fikrlar to'plami) lardan iborat. Miloddan 1000 yil avval "Upanishad" (mahfiy ta'limot) oqimi vujudga kelib, uning vakillari Vedalarni izohladilar, rivojlantirdilar. Vedalar-xudolar, tabiatning ilohiy kuchlariga nisbatan aytilgan madhiyalarda xudo ulug'lanadi... SHu bilan bir qatorda yagona olamiy tartib-rita tushunchasi ham vedalarda uchraydi. Vedalarda "olamiy jon" – braxman (Vedada "braxman" ko'p qirrali bo'lib, bir necha ma'nolarda ishlatiladi: mas., koinlar varnasi a'zosi, vedalar qismlari, veda xudolaridan biri ismi, ko'p qiyofali odam mohiyati va h.k.) bilan yakka shaxs jonining birligi haqidagi, jonning o'lmasligi, ko'chib yurishligi g'oyasi bor. Vedalarda olam, inson, uning axloqi haqidagi masalalar ham o'z ifodasini topgan. Moddiy olam, jumladan, inson ham atman-braxman (atman-jon, ruhiy javhar)dan paydo bo'lgan va oxir-oqibat yana unga qaytadi. Uning hayoti umumiy qonuniyat-sansara va taqdirlanish qonuni (karma) bilan uzviy aloqada. Inson o'z maqsadiga erishishi uchun muayyan axloqiy

qonun – qoidalarga, tamoyillarga, karma va dixarma (har bir insonning o'z hayot kechirish tarzi) ta'limotiga rioya qilishi shart. Karma qonuniga ko'ra, har bir inson er yuzidagi sa'y-harakatlari, qilmishiga yarasha taqdirlanadi yoki jazolanadi.

Tanosuh - jonning ko'chib yurishi haqidagi ta'limot shu qonunga asoslangan. Keyinchalik Vedalarni turlicha talqin etuvchi maktablar vujudga kela boshlaydi:

"Buddizm" (Budda), "Jaynizm" (Vardxamana), "CHarvakalar" (Brixaspati), "Nyaya" (Gotama), "Vaysheshika" (Kanada) va boshqalar.

Vedalardan tashqari qadimgi hindlarning "Mahobxorat", "Ramayana" kabi epik asarlari, "Manu qonunlari", "Arxashastra" kabi yodgorliklari ham borki, ular o'zlarining chuqur falsafiyligi bilan kishilarni lol qoldiradi. Buni biz "Mahobxorat" asaridan yaqqol bilamiz...

Qadimgi falsafiy maktablarning ko'pchiligi Vedalarning mohiyati yo'lidan bordilar, braxmanizm ta'limotini u yoki bu darajada ma'qulladilar. Bular vedalarni muqaddasligini tan oluvchi astika maktablari deyiladi (Vedanta, sankhya, yoga, vaysheshika, nyaya, mimansa).

Bularga zidrog noortodoksal yo'nalishdagilar charvaka (yoki lokoyata)lar, jaynizm va buddizm maktablari bo'lib-ularni nastika maktablari deb ataldi.

Ilk buddizm manbalarida charvaka (miloddan avval VIII-II asrlar) larning qarashlari haqida ma'lumotlar anchagina. Ular mamlakatdagi hukmron braxmanizm diniga qarshi chiqqanlar. Ular tabiat hodisalarini ilohiy kuchlarga bog'lamasdan tushuntiradilar, dunyodagi voqea-hodisalar to'rt moddiy unsur-o't, suv, havo va tuprog birikmasidan kelib chiqqan, deb uqtiradilar. Ularcha, inson o'lgach, undagi er unsuri-erga, suv unsuri-suvga, o't unsuri-o'tga, havo elementi-havoga aylanadi. Insondagi sezgilar fazoga ketadi. SHunday qilib, o'lgandan keyin yashash yo'qdir.

CHarvakalar inson tana va ruh (jon) birligi, ruh - ong tananing xossasi deb bilganlar. Insondagi "men" tanasiz yashamaydi. Tana o'lishi bilan ong ham yo'q bo'lib ketadi. CHarvakalar ta'limoticha, to'rt unsur alohida-alohida olinganda ularda ong mavjud emas. Shu to'rt unsur ma'lum tartibda birikkandagina ong paydo bo'ladi.

Ular hissiy bilishni bilishning birdan-bir manbai deb biladilar: "Bevosita idrok etish bilishning birdan-bir vositasidir (Brixaspati)". Charvakalar erdagi go'zal hayotni, axloqni targ'ib qildilar. "Aqlli, donishmand kishi hayot kechiraman, rohat qilaman desa, qishloq xo'jaligi, chorvachilik, savdo-sotiq, siyosat va davlatni boshqarish ishlari bilan yaxshi tanish bo'lishi kerak".

Charvakalar Hindiston aholisining kastalarga bo'linishiga qarshi chiqib, hamma insonlar teng bo'lishi kerak, degan g'oyani olg'a suradilar. Hindiston respublikasining faylasufi S.Radxakrishnan o'zining "Hind falsafasi" kitobida charvakalar birovlar hukmron, boshqa birovlar ularga bo'ysunishini adolatdan emas, deb hisoblagan edilar, chunki charvakalar fikricha, hamma odamlar tabiatan baravardir, deb yozadi.

Nyaya (mantiq) maktabi (asoschisi miloddan avvalgi III asrda yashagan Gotama) asosan mantiqiy muammolar, to'g'ri fikr yuritish va hodisalarni aniq-ravshan bilish kabi masalalar bilan mashg'ul bo'lgan. Bilish nazariyasida sensualistik nazariya tarafdoridir.

Nyaya vaysheshikaga ergashib, undan atomistik nazariyani qabul qilgan. Vaysheshika o'z navbatida nyaya ta'limotidagi mantiqiy usul va vositalarni qabul qilgan. SHuning uchun bu ikkala falsafiy ta'limot nyaya-vaysheshika maktabi deb ham ataladi. Vaysheshika maktabi qadimgi Hindistonda mavjud bo'lgan tabiiy-ilmiy bilimlar, tabiatshunoslik fanlari bilan bog'liq bo'lib, undagi yutuqlarni nazariy asoslashga harakat qilgan.

Yoganing ma'nosi "qo'shilish" bo'lib, muayyan qonun-qoidalar dasturiga amal qilish orqali bajarilgan jismoniy harakatlar tufayli xudo bilan birlashish, qo'shilishni bildiradi.

Jaynizm ta'limoti (asoschisi miloddan avvalgi VII-IV asrlarda yashagan Vardxamana Vaxamira) vakillari yagona xudoga ishonmaganlar, payg'ambarlarini (tirtxankarlar) ilohiylashtirib, ularga sajda qilganlar. Ular tabiat hodisalarini jonli deb, jonning bir tanadan ikkinchisiga ko'chib yurishini, karmani tan oladi.

Ilk jaynizmda olam abadiy, u ikki javhardan –jonsiz (ajiva) va jonli (jiva)dan tashqil topadi. Materiya-abadiy javhar, u harakat manbai. Materiya miqdori o'zgarmaydi, jismlar miqdori esa doimiy o'zgarishda bo'ladi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojidadagi sakrash (bronzadan temirga o'tish bilan bog'liq), tovar-pul munosabatlarining paydo bo'lishi, urug'-qabila munosabatlarining zaiflashuvi, dastlabki davlatlarning vujudga kelishi, mavjud ijtimoiy-ma'naviy, axloqiy qarashlarga tanqidiy munosabatlarining kuchayishi, ilmiy bilimlarning o'sishi kabilar Xitoy falsafiy tafakkurining tug'ilishida muhim omillardan bo'ldi.

Miloddan 2000 yil avval Xitoyda dehqonchilik va hunarmandchilik ancha rivojlangan edi. Temir ishlab chiqarish keng qo'llanila boshlandi. Savdo rivojlandi. Astronomiya, biologiya, tibbiyot, san'at sohalarida katta yutuqlarga erishildi. Eramizdan oldingi 7-6 asrlarda Xitoyda bir necha yirik davlatlar paydo bo'ldi; bular Tsi, Tszin, Tsin, Chu va Sun.

Qadimgi Xitoy olimlari quyosh-oy kalendarini tuzganlar, Quyosh tutilishini oldindan bilganlar. Eramizdan oldingi 4 asrda Xitoy olimlaridan biri hatto yuldo'zlar katalogini tuzgan. O'sha vaqtlardayoq xitoyliklar kompasdan foydalanganlar va hokazo.

Ilmiy bilimlar, bir tomondan, qadimgi Xitoy madaniyatini rivojlantirishga imkon bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan, falsafiy fikrlarning vujudga kelishi va rivoji uchun zamin tayyorladi. Chunonchi, eramizdan avvalgi 9-7 asrlarda yozilgan Xitoy madaniy yodgorliklarida dastlabki ilmiy va falsafiy xulosalar uchraydi. Ularda dunyoning kelib chiqishi, undagi mavjud narsalarning mohiyati, tabiatdagi doimiy o'zgarishlarning sabablari to'g'risida ilg'or qarashlar bayon etilgan.

Qadimgi yodgorliklardan "O'zgarish kitobi" (I-tszin) (miloddan avvalgi XII –VI asrlar) da butun voqea va hodisalarning asosini besh unsur-metall, yog'och, suv, olov va tuproq tashqil etadi, deyilgan. "She'rlar kitobi" (Shi-tszin)da (miloddan avvalgi I ming yillik) o'sha vaqtda mavjud bo'lgan tabaqaviy ziddiyatlar haqida fikr yuritiladi: "Birovlar muhtojlikda va vahimada hayot kechirsa, boshqalar vino va musiqadan rohatlanib, farovonlikda yashaydi".

Ilk falsafiy tasavvurlarga ko'ra, osmon va er bilan chegaralaniladigan olam in hamda yan tamoyillariga amal qiladi. YAn tamoyili narsalar mohiyatiga faol kirib

boruvchi kuch sifatida talqin qilinsa, in esa passiv kuzatuvchi, zulmatni ifodalovchi tushunchadir.

Yan va In harakati-bir butunlik o'zgarishining dialektik harakati. Narsa, hodisalarning o'zaro "hamkorligi" ularning o'zgarishi orqali ta'minlanadi.

Yan va Inning o'zaro harakati natijasida momaqalldiroq, shamol, olov, suv, qaytish va osoyishtalik paydo bo'ladi. Yan va Inning o'zaro harakatidan "Dao" kelib chiqadi. Dao-harakatdagi narsalar va olamning yo'nalishi. Bunda osmon, er va inson o'z yo'nalishlari bo'yicha alohida harakat qilsalarda, ular doimo birga bo'ladi.

Inson bilishi borliqdagi obektlarni bir-biridan farq qila olish, belgilash va uqib olishga qaratilgan.

Qadimgi Xitoydagi falsafiy oqimlardan biri daosizmdir ("dao" - yo'l, qonun). Eramizdan avvalgi VI asrda vujudga kelgan. Bu oqimning asoschisi Lao-tszi (meloddan avv. 604 yilda tug'ilgan) hisoblanadi. U -"Yo'nalishlar va fazilatlar haqida risola" asari muallifi. Daosizmning asosiy g'oyasi shundan iboratki, tabiat va inson hayoti ilohiy qonunlarga muhtoj emas, u umumiy Dao qonuniga asoslangandir. Dao ongdan tashqarida yashaydi va u hamma narsaning asosini tashqil qiladi. Daosizmda stixiyali dialektika unsurlari bo'lib, u dunyodagi hamma narsa o'zgarishda, harakatda, abadiy narsa yo'q, butun voqea, hodisa, narsalar qarama-qarshilikka ega deb uqtiradi. "Bir xil narsalar ketib, boshqa narsalar keladi, ba'zi narsalar gullaydi, ba'zilar so'nadi va hokazo". Bu fikrlarni ular jamiyatga tadbiiq qilishga harakat qilganlar.

Daosizm eramizning V asriga kelib rasmiylashgan davlat dini bo'lib qolgan. Daosizmga asoslangan dinda tabiiy jarayonlar ilohiylashtirilgan. Daosizm dini zaminida bir-birlaridan keskin farqlanuvchi turli mazhablar vujudga kelgan. Ular ilohiyot masalalari, aqidalar, marosimlarni mustaqil talqin qilishlari, dindor burchlariga turlicha qarashlari bilan ajralib turadilar. Daosizm diniga e'tiqod qiluvchilar ichida mutloq zohidlar ham, ularning aksilari ham bor.

Konfutsiylik qadimgi Xitoyda keng tarqalgan ta'limotlardan biri bo'lib, uning asoschisi Konfutsiy-Kun Futszi (er.avv. 552-479 y.y.) hisoblanadi. Konfutsiychilik – davlat dini, diniy shaklga keltirilgan odob –axloq falsafasidir. Konfutsiy qadimgi Xitoyda bitilgan 5 ta mumtoz kitob ("Qo'shiqlar kitobi", "Tartib kitobi", "Tarix kitobi", "Bahor va kuz kitobi", "O'zgarishlar kitobi") ni to'plash, sharhlash, tashviqot qilish bilan mashhur bo'lgan. Bu kitoblar mazmuni beshta oddiy, lekin buyuk insoniy fazilatdan iborat. Bu donolik, insoniylik, sadoqat, keksalarni hurmat qilish va jasoratni qamrab olgan bo'lib, bular kishilar xatti – harakati, xulq - atvorini belgilovchi axloqiy qoidalar, amaliy dastur bo'lib xizmat qilgan. U qadimgi Xitoyda insonparvarlik (jen) g'oyalarini birinchi bo'lib olg'a surdi, tarbiya masalalariga alohida ahamiyat berdi. "Odam hayvonmi yo farishta" degan savolni o'rta tashlab, har ikkisi degan javobni falsafiy asoslashga harakat qildi. Uningcha, odamlar o'z tabiatiga ko'ra farqlanmaydilar, faqat tarbiya ularni tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. Tabiat va jamiyatda li, ya'ni tartib, qoida mavjud. Mana shu li tushunchasi taraqqiyotning asosidir.

Konfutsiy olamdagi barcha mavjudotlar, shu jumladan inson taqdirini oliy qudratga bog'laydi. Bunda u inson tarbiyaning mahsuli, degan fikrga zid xulosaga keladi.

Konfutsiyning ideal inson, mard kishi, mehribon ayol ta'limotiga mos, insonlar ijtimoiy kelib chiqishi bilan emas, balki insoniy fazilatlari bilan komillikka erishuvi mumkin. Odamiylik, rostgo'ylik, adolatlilik, samimiylik, poklik kabi xislatlar inson komilligining belgilaridir. Uning fikricha, insonlar o'rtasida o'zaro muhabbat, hurmat tamoyillari hukmron bo'lishi kerak. Konfutsiy davlat tepasida aqlli odamlar turishi kerak, ular o'z xatti-harakatlari, xulq-atvorlari bilan butun xalqqa o'rnak bo'lishlari kerak, deydi.

Konfutsiylik o'tgan avlodlarga sig'inishni, diniy an'analarni to'g'ri va muqaddas deb hisoblashni o'zining asosiy vazifasi, deb hisobladi, oila tarbiyasiga keng o'rin berdi. Uning g'oyalari jahon falsafasida axloqiy tamoyillar rivojida, birodarlik, adolat, erkinlik g'oyalari takomilida muhim ahamiyat kasb etdi.

Demak, qadimgi Xitoy falsafasi jahon falsafiy merosiga qo'shilgan buyuk hissadir.

O'tmish merosimizni chuqur o'rganish, qimmatli qadriyatlarimizni qayta tiklash ma'rifiy-madaniy va tarbiyaviy ishlarimizda benihoya katta ahamiyatga ega. Prezidentimiz Islom Karimov: "o'z taraqqiyot va islohot yo'limizdan tezkorlik bilan ilgari siljishga kuchli ruhiy quvvat beradigan milliy madaniyatimiz, Sharq falsafasining hayotbaxsh va teran bulog'laridan bahramand bo'lish muhimdir", deb ko'rsatib o'tganlar. Darhaqiqat, o'tmishni to'g'ri anglab etish kelajagimizni to'g'ri belgilashga imkon beradi, shu kungi hayot yo'limizni aniqlashda muhim omil bo'ladi.

Turon, shu jumladan hozirgi O'zbekiston kishilik madaniyatining eng qadimiy beshiklaridan biridir. Bu erdagi topilmalar yuz ming yillar burungi davrlardan sado beradi.

Eramizdan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalaridagi Turonning iqtisodiy-geografik va etnografik xaritalari Baqtriya, Xorazm, So'g'diyona, Marg'iyona, Parfiya, Amudaryoning quyi oqimi, Zarafshon vohalari, Parkana (Farg'ona) va boshqa joylarni o'z ichiga oladi. Bu joylarda turmush tarzi, urf-odatlar va tili jihatidan bir-birlaridan uncha katta farq qilmagan turli qabila va elatlar: massagetlar, xorazmiylar, so'g'dlar, parfyanlar va boshqalar yashar edi.

Bu vodiylarda o'troq dehqonchilik, hunarmandchilikning turli shakllari rivoj topdi, savdo kuchaydi, o'ziga xos madaniyat va san'at shakllandi, oromiy alifbosi asosida mahalliy Yozuvlar paydo bo'ldi.

Markaziy Osiyoning iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojida Buyuk ipak yo'lining ahamiyati beqiyos edi. Mamlakatimiz G'arb va Sharqni, SHimol va Janubni birlashtiruvchi o'ziga xos markaz edi... Eron, Misr, Pokiston, Rim, Xitoy, Hindiston va Evropa mamlakatlari bilan savdo-sotiq yo'lga qo'yilgan edi.

Turon xalqlarining eng qadimgi zamonlarga oid turmush tarzi, madaniyati, adabiyoti Gerodot, Kteziy, Poli En kabi antik tarixchilar ijodida bir qadar yozib qoldirilgan.

Mamlakatimiz xalqlarining ilk falsafiy qarashlari qadimgi miflar va eposlarda o'z ifodasini topgan.

Markaziy Osiyoda bir necha asrlar osha yuzaga kelgan mif va afsonalar insoniyat ma'naviy madaniyati taraqqiyotiga, xususan, qahramonlik haqidagi

dostonlarning paydo bo'lishiga zamin bo'lib xizmat qiladi. «To'maris», «SHiroq», «Zariadr va Odatida», «Zarina va Striangiya», «Uch og'ayni botirlar», «Manas», «Qahramon», «Malikai Husnobod» kabi qissalar, «Alpomish», «Qirqqiz», «Go'ro'g'li», «Avazxon», «CHambil qamali», «Oysuluv» singari dostonlarda ham milliy, ham umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan falsafiy g'oyalar ilgari surilgan...

Mamlakatimiz madaniy-ma'rifiy tarixida Zardo'shtiylik alohida o'rin egallaydi.

Vatandoshimiz Zardo'sht (Zardo'st) Sepitoma (er.avv.589-512 yil) asos solgan zardo'shtiylik dini ilgari ko'p xudolilikka hamda olovga sig'inish e'tiqodlariga qarshi chiqib, yakka xudolikka asoslangan birinchi kitobiy din – "Avesto" ("Hayot yo'riqnomasi")ni yaratgan (40 yoshlarda).

Ilohiy kitob bizgacha etib kelmagan. Kitobning taqdiri haqida Beruniy shunday yozadi: "Doro ibn Doro xazinasida "Avesto" kitobining 12 mingta qoramol terisiga tilla bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar uni kuydirib yuborishi natijasida kitobning 5 dan 3 qismi butunlay yo'q qilingan".

"Avesto" eramizdan burungi 250 yillarda, Arshoxiylar davrida yana tiklana boshlagan. "Avesto" 4 kitobdan iborat bo'lib, uning 3 tasi qadimgi tilda (ya'ni Avesto tilida) va 1 tasi pahlaviy tilida tiklangan.

Zardo'sht talqinida Axuramazda oliy ibtido bo'lib, u tanho, yagona. U hamma mavjudotlarning yaratuvchisi va boshqaruvchisi sifatida ezguklikni barqaror qiluvchi, odamlar qalbini munavvar etuvchi Oliy ruh timsolida namoyon bo'ladi.

Dunyodagi barcha yaxshiliklar, obodonchiliklar dastlabki odam Iima tomonidan tarqalgan odamlar orqali amalga oshiriladi. Farovonlik va ezgulik hukm surgan bu davr 1-bosqich hisoblanadi. Lekin odamlar taqiqlangan hayvon go'shtidan iste'mol qilganliklari uchun yovuz dev Axriman (Anxra-Manu) tomonidan jazolanadilar, ular qattiq ayoq va sovuqda, muzlikda qoladilar. Iima uy qurib odamlar va barcha jonzodlardan bir juftdan saqlab qoladi... bu- 2-bosqichda yovuzlik bilan ezgulik kurash olib boradi. Avestoda 3-bosqich-insoniyat kelajagi yorqin bo'yoqlarda tasvirlanadi. Dunyoda haqiqiy farovonlik va insoniylik davri boshlanadi.

"Avesto" dunyoni inson uchun sinov maydoni, deb tushuntiradi.

Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal inson butun umr davomida amal qilishi lozim bo'lgan ichki va tashqi omillardir. Mana shu 3 xislatga ega bo'lgan inson oliy haqiqatga musharraf bo'ladi. Bunga etishishning vositasi mehnatdir. Inson mehnat orqaligina xudo inoyatiga noil bo'ladi.

Ekin ekish - erdagi devlarni, yovuzliklarni mahv qilishdir.

Kitobda jamiyatning asosi sanalmish oilaning muqaddasligi bilan bog'liq tushunchalar batafsil asoslab berilgan. Oila a'zolarining asosiy vazifalariga keng to'xtalangan.

Demak, inson qalbida, tabiatda va jamiyatda ikki kuch (ruh) mavjud bo'lib, ular o'rtasida abadiy kurash boradi va bu kurashda ezgulik yovuzlik ustidan g'alaba qiladi.

Qisqasi, "Avesto" Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, ijtimoiy-falsafiy fikrlarini o'zida ifodalagan muhim yozma yodgorlikdir.

I.A.Karimov tashabbusi bilan O'zbekiston hukumati va YUNESKO tomonidan ushbu kitob yaratilganligining 2700 yilligi 2001 yil 3 noyabr kuni Urganchda nishonlanishi bugun biz yashab turgan o'lkada buyuk davlat, buyuk madaniyat, buyuk ma'naviyat bo'lganligining yana bir e'tirofidir.

Zardo'sht ta'limoti Evropa falsafasiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. XX asr Evropa falsafasining nazariy asoschisi Fridrix Nitsshe o'z qarashlarini yaratishda Zardo'sht ta'limotidan keng foydalangan. "Zardo'sht butun borliqning eng oliy suratda namoyon bo'lishi", deydi u "Zardo'sht tavallosi" asarida...

Buddaviylik dini Markaziy Osiyoga er.avv. II-I asrlarda kirib kelgan. Kushonlar davrida buddaviylik dini hukmron dinga aylangan. Bu din xalq manfaatlariga mosroq bo'lgani sababli ham Markaziy Osiyoga keng tarqalgan. Buddaviylikning Markaziy Osiyoga yoyilishi va amal qilishi 4 bosqichda kechib, to XIV asrlargacha davom etgan.

Buddaviylik o'z davrida o'zbek va hind xalqlari o'rtasida ma'naviy ko'prik xizmatini o'tagan.

Keyingi davrda (II-III asr) Eronda yangi oqim - moniylik ta'limoti yuzaga keldi. Mazkur ta'limotni zardo'shtiylik va xristianlikning sintezi deyish mumkin. Moniy (216-276) oromiy va forsiyda axloqiy va diniy asarlar yaratgan. Bizgacha ular etib kelmagan. Moniy «Moniylik Yozuvi» alifbosini ham tuzgan.

Moniy ta'limoti zardo'shtiylikning yaxshilik va yomonlik ta'limotiga asoslangan bo'lib, dualistik xarakterga ega. Moniy uqtirishicha, yaxshilik – nur dunyosi va yomonlik – zulmat dunyosi o'rtasida abadiy kurash boradi, inson ikki unsuridan (ruh-nur farzandi, jism-zulmat mahsuli) tashqil topgan. Moniylik demokratik ruhi bilan zardo'shtiylikdan farqlanadi. Moniy hukmron zardo'sht ruhoniylari tomonidan jazolandi.

V-VI asrlarda tengsizlik siyosati va zulmiga qarshi bo'lgan diniy-falsafiy oqim va harakat-mazdakizm vujudga keldi. Mazdak (470-529 yillar) sosoniylarga qarshi dehqonlar harakatiga boshchilik qilgani uchun o'limga hukm etilgan.

Mazdakizm-dualistik falsafa. Uning ta'limoticha, tabiat 3 unsuridan: suv, olov va tuproqdan tashqil topib, ularning qo'shiluvi ijobiy va salbiy hodisalarga olib kelgan. U jamiyatda hammaning barcha sohadagi tengligini olg'a surgan. Mazdak xalqning ozodlik, erkinlik uchun olib borgan harakatlariga rahnamolik qilgan. Bu harakatni Markaziy Osiyo va Ozarbayjonda ko'plar qo'llab-quvvatlagan.

Demak, Markaziy Osiyo jahon ma'naviy, moddiy madaniyatiga, ilm-fan, falsafa, ilohiyoti rivojiga munosib hissa qo'shgan, o'ziga xos turkiy tsivilizatsiya asoslarini yaratgan.

II. Miloddan avvalgi VIII-VI asrlarda Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo, iqtisodiy va madaniy aloqalarda O'rta er dengizi bo'ylarida joylashgan Kichik Osiyo shaharlari Milet va Efes katta ahamiyat kasb etdi. Bu shaharlarda ijtimoiy munosabatlar tez rivojlanib, ular yunon falsafasi, fani va madaniyatining beshigi bo'lgan. Eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda Ioniya shahri eng rivojlangan shaharlardan bo'lib, bu erda sodda falsafa va stixiyali dialektika vujudga keldi.

Qadimgi yunon falsafasi ("Antik falsafa") deganda hozirgi Gretsiya (YUnoniston hududidagi shahar – davlat (polis) larda, shuningdek, Kichik Osiyo, O'rta er dengizi, Qora dengiz bo'ylari va Qrimda, Osiyo va Afrikaning ellin

shaharlarida, Rim imperiyasida yashagan faylasuflar tomonidan yaratilgan falsafa tushuniladi.

Meloddan oldingi VIII-II asrlardagi YUnon–Rim jamiyatining ongi mifologik fantaziya emas, balki ijodiy tafakkur edi.

Qadimgi yunon falsafasi tabiiy ilmiy bilimlar bilan uzviy bog'liqlikda vujudga keldi. Tabiatshunoslik metafizika (borliqning birlamchi asosi to'g'risidagi ta'limot) bilan uzviy bog'liqlikda rivojlandi.

Bu davr falsafasining yana bir xususiyati, u olamga tabiat, xudolar va insonning yaxlit birligi sifatida qarar, bu esa inson hayoti me'yorlarini belgilash, insonning olamdagi o'rni, rolini aniqlash hamda ezgulikka erishishning muhim asosi bo'lib xizmat qiladi.

Olimlar tomonidan qadimgi yunon falsafasi taraqqiyoti, odatda, to'rt davrga bo'linadi:

Suqrotgacha bo'lgan falsafa (mil.avv. VII-V asrlar);

Klassik davr (mil.avv. V asr o'rtalari- IV asr oxirlari);

Ellinizm davri (mil.avv. IV asr oxiri va II asr boshlari).

Rim davri (mil.avv. I asrdan milodiy V asrgacha).

Suqrotgacha bo'lgan davr falsafasi: a) Milet maktabi (Fales, Anaksimandr, Anaksimenes); b) Geraklit maktabi; v) Eley maktabi; g) Atomistlar maktabiga bo'linib, ular tabiat hodisalari va koinotning mohiyatini izohlashga, butun borliqning birlamchi asosini topishga harakat qildilar. Bunda falsafiy bilish metodining o'xshatish (qiyoslash) usuli qo'llanildi.

Klassik davrda sofistlarning falsafiy-ma'rifatparvarlik faoliyatlari, Suqrot ta'limoti va uning maktabi, Aflotun, Arastu ta'limotlari shakllandi. Bu davr faylasuflari ham tabiat va koinotning mohiyatini tushuntirishga harakat qildilar, biroq ular qadimgi faylasuflardan farqli ravishda bu muammoni hal etishga chuqurroq, izchilroq yondashdilar.

Ellinizm davri falsafasiga antik axloq va falsafiy qadriyatlar inqirozga uchrashi, g'ayritabiiy kuchlar oldidagi qo'rquvning kamayishi, o'tmishdagi buyuk shaxslarni inkor etish, davlat va uning institutlariga hayrixohlik bilan qarash, real voqelikdan uzoqlashishga intilish, baxt va lazzatlanishni oliy qadriyat sifatida e'tirof etish xos bo'ldi.

Rim davri falsafasiga qadimgi yunon va qadimgi Rim falsafasining o'zaro ta'siri hamda antik falsafa sifatida uyg'unlashuvi; falsafa, faylasuflar va davlat institutlarining o'zaro yaqinlashuvi; inson, jamiyat va davlat muammolariga e'tiborning ortishi; o'lim va "narigi dunyo" muammolariga qiziqishning kuchayishi; antik falsafa va xristianlik falsafasining asta-sekin qo'shilishi kabilar xos edi.

Qadimgi yunon falsafasida kosmogoniya (olamning kelib chiqishi to'g'risidagi ta'limot), kosmologiya (olamning tuzilishi to'g'risidagi ta'limot) va keyinchilik uning o'rnida vujudga kelgan ontologiya (borliq to'g'risidagi ta'limot) hamda etika bir-biridan ajralmas bo'lib, olamning tuzilishini ratsional tushuntirishga qaratilgan edi. Olam nima, degan masala Suqrotgacha bo'lgan faylasuflar ("fiziklar") asarlarining mazmunini tashqil etgan bo'lsa, "Olam mavjudmi?", "Uning o'zgarmas va abadiy asosini nima tashqil etadi?", "Qanday qilib adolatni va

ijtimoiy tartibni qaror toptirish mumkin?”, degan masalalar keyingi davr falsafasining bahs mavzui bo’lib qoldi.

Umuman olganda, qadimgi yunon falsafasi uchun quyidagi xususiyatlar xosdir:

- polislarning iqtisodiy jihatdan rivojlanishi antik falsafaning taraqqiyoti uchun moddiy asos bo’ldi;

- qadimgi yunon falsafasining bosh g’oyasi koinotni butun borliqning asosi deb bilish, unga ta’zim qilish, moddiy olamning kelib chiqishi muammolariga qiziqish kuchayishi;

- kosmotsentrizm va antropotsentrizmning uyg’unlashuvi hamda xudolar mavjudligining falsafiy e’tirof etilishi;

- insonga tabiatning bir qismi sifatida qarash asosida falsafada materializm va idealizmga asos solinishi va hokazo.

Falsafiy fikrning shakllanishida eramizdan oldingi VIII asrda Gomer tomonidan yozilgan "Iliada" va "Odissey" eposlari katta rol o’ynagan. YUqorida aytilganidek, ilk falsafiy qarashlar Kichik Osiyo g’arbidagi Ioniya orolida joylashgan Milet shahrida vujudga keldi. Bu shahar o’zining qulay geografik sharoiti tufayli YUnoniston bilan Eron, Misr, Vaviloniya va Qora dengiz mamlakatlari o’rtasidagi savdo, sanoat va madaniy aloqalar markaziga aylangan edi. Milet naturfalsafa maktabining asoschilari Fales, Anaksimandr, Anaksimenes mavjud olamning moddiy asosini topishga intilganlar. Fales (er.av. 624-547) borliqning asosi- suv, deb hisoblaydi. Uningcha, hamma narsa suvdan paydo bo’lgan va oxir-oqibatda yana suvga aylanadi. Anaksimandr (er.av.610-546)ning fikricha, borliq asosida sifat jihatdan nomuayyan, cheksiz "apeyron" yotadi. Anaksimenes (eragacha 585-525) hamma narsaning asosini havo, deb biladi. Havoning turli darajada to’planishi va yoyilishidan narsalar paydo bo’ladi, deydi u.

Bu faylasuflar olam moddiy va mangu, tabiat jonli, deb uqtiradilar. Mas., Fales magnitning joni bor, shuning uchun temirni o’ziga tortadi, deydi.

Geraklit Kichik Osiyoning Ioniya o’lkasi Efes shahrida dunyoga kelgan (eragacha 520-460). U Milet maktabi namoyondalaridan farqliroq, borliqdagi barcha buyum va hodisalarning sababi olov, deb ta’kidlaydi. YAgona olamdagi buyum, hodisalarning turli-tumanligi va o’zaro bog’liqligi, cheksizligi, ziddiyatlilikiga hamda ular sifatining nisbiyligiga, Geraklit ta’limoticha, boshlang’ich o’tning mangu harakati va o’zgarishi sababchidir. Gerakliticha, kishi ongi o’tning o’tkinchi holatidir. Uning falsafasidagi eng qimmatli narsa stixiyali sodda dialektikadir. Geraklit uqtirishicha, borliq doimiy harakat, jarayondan iborat. Dunyoda doimiy, o’zgarmas narsa yo’q, undagi hamma narsa oqib, o’zgarib turadi. Moddiy olamdagi doimiy dialektik jarayonni u daryodagi suv oqimiga o’xshatadi. Geraklit ta’limoticha, daryoga ikki marta tushish mumkin emas. Olam dialektikasi to’g’risidagi bu tasavvur Geraklit tomonidan to’g’ri va aniq ifoda qilingan bo’lib, u hamma narsa bor va shu vaqtning o’zida yo’q, chunki hamma narsa oqib turadi, o’zgarib boradi, hamma narsa vujudga kelib, yo’qolib boradi, degan qarashdan kelib chiqadi... Xaqiqatning nisbiyligi: daryo suvi baliq uchun toza, odam uchun yaroqsiz bo’lishi mumkin, deydi.

Geraklit hissiy va aqliy bilishni farqlaydi, uning cheksiz va murakkabligiga e'tibor qaratadi.

Ioniya falsafasi ta'sirida miloddan avvalgi VI asr oxirida Italiya falsafasi shakllandi va u Pifagor maktabi va Eley maktabida namoyon bo'ldi.

Miloddan avvalgi 580-500 yillarda yashab ijod etgan Pifagor raqamlar borliqning ibtidosi, butun dunyo raqamlar uyg'unligi va o'zaro munosabatidan iborat, deydi. U raqamlarga jon bag'ishlab, turli hodisalar-adolat, aql-idrok, muvaffaqiyat va hokazolar raqamlarga tegishli, deb hisobladi. Uningcha, olam qonunlarini bilmoq-ularni boshqaradigan sonlarni bilmoqdir. Borliq qarama-qarshiliklardan iborat. Mas., cheklilik-cheksizlik, sokinlik-harakat, yakkalik-ko'plik va h.k. Pifagorchilar jonning ko'chib yurishini tan olganlar. Pifagor fikricha, demokratiya bu tartibotning buzilishidir.

Eley falsafiy maktabi vakili Ksenofan (eramizdan avvalgi VI-V asrlarda) Kichik Osiyoda dunyoga kelgan, mazkur maktabini asoslagan. Ksenofan ko'pxudolikka hamda insonlarga xos sifatlarni hayvonlarga, o'simlik dunyosiga daxldor, deb biluvchi ta'limotga qarshi chiqib, mifologiyani rad etishga harakat qilgan.

Xudolar inson ijodining mahsuli, degan g'oya Ksenofan dunyoqarashining negizida turadi. U panteyist sifatida tabiatni ilohiylashtiradi. Uningcha, tabiat o'zgarmas va harakatsizdir. Hamma narsa erdan unib chiqadi va oxir oqibat yana erga qaytadi. Faylasuf qadimgi yunon olimlaridan birinchi bo'lib bilishning imkoniyati va chegarasi haqida fikr yuritgan: inson haqiqatni bilishga qodir emas.

Ksenofan g'oyalari uning shogirdi Parmenid (er.avv. 504 yili Eleyda tug'ilgan) tomonidan rivojlantirilgan. U olamni tafakkur va sezgilar yordamida bilish o'rtasidagi tafovutni ko'rsatib beradi. Parmenid tafakkur bilan u aks ettiradigan olamni "yaxlit", abadiy va qo'zg'almas sifatida talqin etadi. U antik davrning birinchi metafizigi hisoblanadi. Parmenidning shogirdi va do'sti Zenon (er.avv. 490-430 yillar) o'z ustozining ta'limotini rivojlantirdi. Uning "Dixotomiya" ("ikkiga taqsimlash"), "Axillis va toshbaqa", "YOy", "G'alla donasi" aporiyalari mashhur.

Sofistlar falsafasi qadimgi yunon madaniyatida alohida ahamiyatga ega. Sofistlar (yunoncha-dono) falsafa markaziga olamni emas, odamni qo'ydilar. Antropologiya va gnoseologiya muammolari bilan shug'ullanganlar. Ular ilk agnostiklar sifatida obyektiv haqiqatni inkor etganlar va relyativistik pozitsiyada turganlar. Protogor: "inson barcha narsalarning o'lchovi", deb barcha narsalarning nisbiyligini, subyektivligini asoslashga urindi.

Sofistlar mohir o'qituvchilar, diplomatlar, notiqalar, sud mahkamalarida ishlovchilar bo'lib, ular haqiqat, osoyishtalik, adolat o'rnatishga xizmat qilganlar.

YUnonistonda atomistik nazariyani Levkipp (er.avv.500-440) va Demokrit asosladilar. Demokrit (er-gacha 460-370) ta'kidlashicha, olam mayda, bo'linmas zarralar va bo'shliqdan iboratdir. Atomlar abadiy va o'zgarmasdir; ular o'zaro bir-biridan shakli (A va R), tartibi (AR va RA) va holati (R va) bilangina farq qiladi. Atomlarning birikishidan olamdagi narsalar hosil bo'ladi, ular doimo harakatda. Ong ikkilamchi, atomlar mahsulidir.

Demokrit atomistik va determinizm printsipini o'zining kosmologik nazariyasiga ham tadbiq etdi. Atomlar fazodagi tartibsiz harakatlari jarayonida, bir tomondan, o'zaro to'qnashib, bir-birini emiradi, ikkinchi tomondan, bir-biriga qo'shilib tuproq, suv, havo, o't va ulardan qayun shaklida harakatlanuvchi ko'p dunyolarni vujudga keltiradi.

Demokrit hissiy va aqliy bilishni farqladi. Falsafa tarixida birinchi bo'lib, bilish jarayoni-in'ikos jarayoni ekanligi haqidagi fikrni aytdi. Uningcha, sezgilar va tushunchalar-narsalarning obrazidir. Ong moddiy dunyoning sezgilarda aks etishidir. U tabiat va jamiyatdagi zaruriylik va sababiylikka alohida e'tibor berdi, lekin tabiatdagi tasodifiylikni tan olmadi. Uningcha, yaxshi boshqarilayotgan davlat buyuk qo'rg'ondir. Davlat manfaatlari hamma narsadan ustun turmog'i lozim.

Suqrot (er-gacha 447-399)-qadimgi yunon mumtoz falsafasining asoschisi, afinalik buyuk faylasuf bo'lib, uning ijodida odam bilan bog'liq muammolar markaziy o'rinni egallagan. Uning sevgan shiori "O'z-o'zingni angla!"dir. U ongning subyektiv va obyektiv mazmunga egaligini uqtirdi. Haqiqat aql va bahs orqaligina aniqlanadi, dedi. Suqrot inson hayoti, insonning jamiyatdagi o'rni va maqsadi hamda adolatli ijtimoiy tuzum muammosiga jiddiy e'tibor berdi.

Falsafa odamlarga ezgulik va yovuzlikni anglab olishda yordam berishi zarur. Zeroki, axloqsizlik amalda haqiqatni bilmaslikdir. Mabodo u yomonlik nima ekanini qalban anglab etsa, u yomonlik qilishga qodir emas, degan fikrni olg'a suradi Suqrot. Faylasufning uqtirishicha, falsafaning vazifasi komil insonni tarbiyalash, etuk shaxsni shakllantirish va mana shu orqali adolatli demokratik davlatni barpo etishdir. U o'z davrida hukmronlik qilib kelayotgan Afina demokratik tuzumiga qarshi chiqib, yangi xudo haqidagi o'z fikrlarini bayon qilganligi uchun ruhoniylar tomonidan dahriylikda hamda yoshlarni axloqan buzishda ayblanib sudga berildi. Suqrot ustidan chiqarilgan hukmga e'tiroz bildirmay, o'z ixtiyori bilan zahar ichib o'ladi.

Pifagor, Suqrotning idealistik qarashlarini rivojlantirib, tizim holiga keltirgan faylasuf Aflotun (er-gacha 427-347) edi. U Demokritning g'oyaviy raqibi edi. U o'zining falsafasini dialoglar shaklida ifodaladi. Aflotunning falsafiy qarashlari uning "Bazm", "Teatet", "Fedon" dialoglarida, siyosiy qarashlari "Davlat", "Siyosat", "Qonunlar" asarlarida aks etgan.

Aflotun "g'oyalar dunyosi va soyalar duyosi" ta'limotining asoschisidir. Aflotun ta'limoticha, olamda "g'oyalar dunyosi" birlamchi, moddiy dunyo ikkilamchi; "g'oyalar dunyosi" vaqt va fazoga bog'lik emas, mangu, harakatsiz, o'zgarmasdir, u haqiqiy dunyodir. Moddiy dunyo o'tkinchi, vaqtinchadir. Aflotun qarashicha, "g'oyalar dunyosi" dagi eng oliy g'oya - yaxshilik, baxt g'oyasi - xudodir. Aflotun turli xil "umumiy g'oyalar" (mas., stul g'oyasi, daraxt g'oyasi, hayvon g'oyasi...) mavjudligini aytadi. Haqiqatda esa "umumiy g'oyalar" moddiy dunyodagi buyumlar to'g'risidagi kishi tushunchalaridir. Aflotun bu tushunchalarni moddiy asosidan ajratib, mustaqil deb biladi.

Aflotun ta'limoticha, bilishning obyeksi "g'oyalar dunyosi" dir, u faqat sof tafakkur orqali bilinadi. Moddiy dunyo, buyumlar to'g'risidagi tasavvurimiz esa hissiy bilish orqali bilinadi. Hissiy bilish-haqiqat emas.

«Davlat», «Qonunlar», «Siyosat» asarlarida jamiyat haqidagi, uning ideal siyosiy tuzumi to'g'risidagi qarashlarini markaziy ta'limoti - g'oyalar nazariyasi bilan uzviy bog'liq holda ilgari surgan. Uning fikricha, davlatning to'rtta shakli mavjud: teokratiya; oligarxiya; demokratiya; tiraniya. Aflotun aristokratik davlat tarafdori. Uning ideal davlat to'g'risidagi orzulari negizida adolat g'oyasi yotadi. Aflotun aytganidek, jamiyat barcha a'zolarining odil jamiyatdagi qonunlarga bo'ysunishi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy garovidir.

Mutafakkir insondagi axloqiy fazilatlar va salbiy illatlar tug'ma ekanligini ta'kidlaydi.

Aflotun falsafasi o'rta asrlarda ham, hozirgi zamon falsafasida ham turli falsafiy oqimlarning nazariy asosi bo'lib qolmoqda.

Aflotunning shogirdi, safdoshi, ayni paytda, uning tanqidchisi buyuk faylasuf Arastudir. Arastu (er-gacha 384-322)ning yirik asarlari "Metafizika" (yoki "Birinchi falsafa"), "Fizika", "Jon to'g'risida", "Analitika", "Kategoriyalar", "Etika", "Siyosat", "Ritorika" kabilar bo'lib, ularning ko'pi bizgacha etib kelgan.

Arastu fan taraqqiyotining ungacha bo'lgan barcha yutuqlarini umumlashtirib, fanlarning yagona tizimini yaratdi. Nazariy fanlar-umumlashtirish nuqtai nazaridan, -"birinchi falsafa", matematika va fizikadan iborat. Birinchi falsafa barcha fanlardan yuqori turib, borliqning o'zgaras asoslari-mohiyatini tadqiq etadi. Borliq quyidagi kategoriyalar: mohiyat, sifat, miqdor, munosabat, makon, vaqt, holat, harakat kabilar bilan orqali ifodalanadi.

Aristotel-Arastu ta'limoticha, borliq tuproq, suv, havo, olov va "ilohiy efir" (osmon, yuldo'zlar)dan iborat. Tabiat unsurlari to'xtovsiz bir-biriga o'tib turadi, hamma narsa asosida moddiylik yotadi. Moddiy dunyo-obyektiv, abadiy. Haqiqatni bilish-tabiat hodisalarini bilishdir. Sezgilari, tasavvurlar, tushunchalar real narsalar mahsulidir. U Platon - Aflotunning "g'oyalar dunyosi"ni rad qilib, narsalar, hodisalarning mohiyati ularning o'zida, deydi. Uningcha, g'oyalar, tushunchalar ikkilamchidir.

Arastucha, to'rt xil sabab bor: moddiy sabab yoki materiya, shakliy sabab yoki shakl, vujudga keltiruvchi sabab va so'nggi sabab yoki maqsad. Narsalar shakl va materiyadan paydo bo'ladi... shakl tufayligina materiya imkoniyatdan voqelikka aylanadi. Materiya - passiv, shakl-faol. Shakllarning shakli, oliy shakl-xudo, dunyoviy ruh. U "dastlabki turtki"ning ijobiy rolini ta'kidlaydi.

Borliq abadiy bo'lganidek, unga tegishli harakat ham abadiydir, lekin harakatning manbai "harakatsiz harakatlantiruvchi" kuch-xudodir. Harakat potentsial va aktual ko'rinishdadir.

Arastuning ta'kidlashicha, bilishning obyekti va mavzui voqeyiy olam, borliqdir. Bilishning maqsadi oddiy hissiyot, jonli mushohadadan borib, mantiqqa asoslangan mavhumlik cho'qqisini egallashdir.

Arastu moddiy dunyo bilishning, sezgilarning, tajribaning asosi, sezgilari bizga ayrim, aniq buyumlar tasavvurini bersa, aqlimiz umumlashtiradi, deydi. Arastu logika-mantiq nazariyasini izohlab berdi, kategoriyalar, tushunchalar, mulohaza va xulosalar to'g'risidagi ta'limotlarni asosladi. Falsafa tarixida ilk bor kategoriyalarni turkumlashtirdi...

Arastu fikricha, ichki ziddiyatlarni hamma erda uchratish mumkin. Biroq qarama-qarshiliklarning birligi voqelikda emas, balki imkoniyatdagina bo'ladi.

Arastu ellinlar tajribasini umumlashirib davlat to'g'risidagi ta'limotini yaratadi. Uningcha, inson siyosiy mavjudot bo'lib tug'iladi. Jamiyatni davlatdan ajratib bo'lmaydi. Jamiyat a'zolari uch toifadir: boylar, kambag'allar va o'rta hollar... Insonning qadr-qimmatini uning aqliy faoliyatida ko'zga tashlanadi.

Qadimgi YUnonistonning buyuk mutafakkiri merosi jahon xalqlari falsafiy tafakkuri rivoji tarixida, shu jumladan, Markaziy Osiyo mutafakkirlari ijodida muhim ro'l o'ynadi.

Qadimgi YUnonistonning mashhur faylasuflaridan yana biri ellinizm davri falsafasining taniqli namoyondasi Epikur (er-gacha 341-270)dir. Uning 300ga yaqin asari bo'lib, eng asosiylari "Tabiat to'g'risida", "Gerodotga xat", "Atomlar va bo'shliq to'g'risida" kabilar. Demokritning atomistik nazariyasini yanada rivojlantirdi. Epikur tabiat, moddiy borliq kishi ongiga bog'liq bo'lmagan holda mavjud, tabiatdagi barcha hodisalar qonuniy ravishda sodir bo'ladi, degan edi.

Epikur atomlar og'irligi bilan ham farqlanadi, deydi va o'zicha atom og'irligi va hajmini aniqlashga uringan. U atomlar to'g'ri chiziqdan chetlashadigan harakatga ham qobiliyatli deb faraz qildi... Epikur olamlar cheksiz, son-sanoqsiz bo'lib, ba'zilar biz yashayotgan dunyoga o'xshasa, ba'zilar o'xshamaydi, deb uqtiradi.

Stoitsizm ("stoya" yunoncha bahslashuv joyi, asoschisi Zenon) antik davrdagi falsafiy maktablardan bo'lib, miloddan avvalgi IV asr oxirlaridan melodiy III asr oxirigacha faoliyat ko'rsatgan. Vakillari - Panetiy, Posidoniy va boshqalar. Ular Arastu mantiqini rivojlantirishga katta hissa qo'shdilar, Arastu singari to'g'ri fikrlashning asosiy qoidalarini ziddiyatsizlik va ayniyat qonuni bilan bog'laydilar. Stoiklar obyektiv mavjud jismni sezish va idrok etishni bilishning ilk manbai, deb hisoblaydilar va bilim paydo bo'lishi muammosini sensualistik nuqtai nazardan hal etadilar.

Ular o'zlarining tabiat to'g'risidagi tasavvurlarida an'anaviy to'rt moddiy element to'g'risidagi qarashlarga asoslanadilar...

YUnoniston siyosiy mustaqillikni qo'ldan bergach, falsafaning rivojlanishi Rimga o'tdi.

Miloddan avvalgi II asrda Rim qadimgi dunyoning eng qudratli davlatiga aylandi. Bu davrdagi Rim falsafasi Lukretsiy Kar, TSitseron, Seneka, Mark Avreliy, Plotin, Porfiriylar nomi bilan bog'liq.

Rimlik faylasuflardan biri Lukretsiy Tit Kar (er-gacha 99-55) o'zining "Narsalarning tabiati haqida" asarida atomistik nazariyani to'ldiradi, tugalroq tasvirlaydi. Lukretsiy fikricha, hamma narsa abadiy mavjud bo'lgan materiyadan paydo bo'ladi. Materiya bo'shliqda harakat qiluvchi atomlardir. Lukretsiy materiyaning saqlanishi qonunini faraz qilgan. Materiya miqdoran o'zgarmaydi, u hamma vaqt bir xildir. Yo'qdan bor bo'lish mumkin emas. Sezgi va ongni Kar moddiy hisoblab, jon mayda, harakatchan atomlardan iborat, jon tashqi ta'sirni qabul qilib, kishi tanasiga o'tkazadi, jon bilan tana doim birgadir, jon, ruh kishi tanasi bilan birga o'ladi, deydi. Lukretsiy dinni kishilarning tabiat qonunlarini bilmaganligi mahsuli, deydi.

Neoplatonizmning asoschisi rimlik Plotin (205-270) yagona ilohiy kuchni-xudoni butun borliqning asosi va manbai, deydi. Qolgan ruhiy, hissiy narsalar shu ilohiy oqishning-emanatsiyaning natijasidir... Inson hayotining oliy maqsadi o'z jonining xudo bilan qo'shilishiga erishuvdir. Kishi bunga ekstaz yo'li bilan erishadi...

Neoplatonizm tasavvuf manbalaridan biri bo'lgan. Demak, yunon falsafasida koinot bir butun yaxlitlik holida olib qaraladi. Tabiatga qarashlar sodda, stixiyali dialektik xarakterga ega.

529 yilda Vizantiya imperatori Yustinian dekreti bilan Afinadagi Aflotun Akamediyasining yopilishi natijasida ming yillik tarixga ega bo'lgan Antik falsafa o'z faoliyatini to'xtatdi.

Qadimgi yunon falsafasi jahon falsafiy rivojining o'ziga xos asosidir. Insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan yunon faylasuflarining ilg'or g'oyalari shu kunlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, aksincha ular yangi g'oyalarning yaratilishida o'ziga xos turtki bo'lib xizmat qilmoqda.

Qadimgi Sharq va Antik dunyo falsafiy fikrlarini o'rganish tarixiy, ilmiy va ma'rifiy zarurat bo'lib, jahon ma'naviy hayotini, shu jumladan, falsafasini bu davr falsafasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu davr falsafasi insoniyat bolaligi falsafasi va o'zligini tanish falsafasi bo'lib, jahon fani va madaniyatining gullab-yashnashi uchun mustahkam asos bo'ldi.

III. Xristianlik milodning I asrida Rim iperiyasining tarkibida bo'lgan Falastinda paydo bo'ldi. U o'sha davrda hukm surayotgan g'ayriinsoniy ijtimoiy noroziliklarga javob tarzida, umidsizlikka tushgan quyi qatlam vakillari manfaatlarining ifodasi sifatida namoyon bo'ldi. Milodning I-V asrlari xristianlikning qaror topishi va Rim imperiyasini parchalanib, uning o'rnida o'rta asr G'arbiy Evropa tsivilizatsiyasining yuzaga kelish davri - o'tish davri bo'ldi.

Milodiy to'rtinchi asrning ikkinchi yarmida xristianlik etakchi davlat diniga aylandi, Rim imperiyasi ikkiga bo'lindi. 375-568 yillarda ro'y bergan german qabilalarining ko'chishi G'arbiy Rim imperiyasining qulashiga olib keldi. Antik davr tugab, O'rta asrlar davri boshlandi.

G'arbiy Evropa tsivilizatsiyasi uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lgan o'rta asrlar davri uch bosqichga bo'linadi: 1) ilk o'rta asrlar (V-X asrlar); 2) klassik o'rta asrlar (XI- XV asrlar); 3) so'nggi o'rta asrlar (XV- XVII asrlar). G'arbiy Evropa uchun o'rta asrlar natural xo'jalik hukm surgan va tovar-pul munosabatlari past darajada rivojlangan davrdir. Mazkur davr uchun cherkovning kuchli ta'siri, inkvizitsiya va jamiyatni o'ta mafkuralashtirilganligi xosdir.

YUnon falsafasi, ko'rib o'tganimizdek, ko'pxudolik (politeyizm) bilan bog'liq bo'lib, nazariyalarining xilma-xilligiga qaramasdan kosmologik xarakterda edi. O'rta asrlar falsafiy tafakkuri o'z ildizlari bilan yakkaxudolik (monoteyizm)ga borib taqaladi. U o'z mohiyatiga ko'ra teotsentrik, ya'ni borliq markaziga xudoni qo'yadi. Uning uchun butun mavjudlikning belgilovchisi tabiat emas, balki xudodir.

Xristian monoteyizmi asosida ikki asosiy printsip: yaratuvchilik g'oyasi va haqiqatni ochib berishlik g'oyasi yotadi. Yaratuvchilik g'oyasi O'rta asr ontologiyasi asosida yotsa, haqiqatni ochib berishlik g'oyasi bilish haqidagi

ta'limotning asosidir. O'rta asr falsafasining teologiyaga har tomonlama bog'liqligi mana shundan.

Xristian aqidasi ko'ra, xudo dunyoni hech narsadan yaratdi. Ilohiy qudrat har soniyada o'zining qudratini bildirib turadi. Olamning, tirik va notirik tabiatning bir yaratuvchilik harakati bilan yaratilganligi haqidagi diniy ta'limot kreatsionizmdir (kreatsionizm - lot.yaratish). Butun mavjudotning olti kun ichida xudo tomonidan yaratilganligi haqidagi Tavrotda aytilgan fikr kreatsionistik fikrdir. Agar antik xudolar tabiat ichida bo'lgan bo'lsa, xristian xudosi tabiatdan tashqarida, undan yuqorida. O'rta asr falsafasida koinot abadiy borliq, jonli yaxlitlik emas. U yaralgan, xudo yaratuvchidir.

O'rta asr falsafasi ikki traditsiyaning sintezi: xristiancha haqiqatni ochib berishlik va antik falsafa sintezi sifatida amal qildi. Bu davr falsafasini gnostika, apologetika, patristika, realizm, nominalizm kabi oqimlar belgilagan.

Gnostika (yun.-gnosis-bilim) eramizning 150 yillarida o'zining cho'qqisiga erishgan diniy-falsafiy oqim bo'lib, bu oqim vakillari xristianlik teologiyasini qadimgi Sharq fanlari hamda neoplatonizm va pifagorizm bilan birlashtirgan edilar. Gnostika bilib bo'lmaydigan, o'zini emanatsiyada namoyon qiladigan "yomonlik" manbai materiyaga qarama-qarshi turadigan ruhiy bosh ibtidoni e'tirof etadi. Xudo ruh sifatida yovuzlikdan mutlaqo sof, inson o'zining ruhiy jihati bilan xudoga mos. Misrlik Valentin (II asr) va suriyalik Vasilid (II asr) asosiy gnostiklardirlar. Gnostitsizm g'alabasi tufayli 354 yilda Pompey sobori xristianlikni Rim imperiyasining dini deb e'lon qildi. Gnostitsizmning asosiy yo'nalishi-dualizmdir.

Apologetika (yun.apologetikos-himoya qiluvchi)-teologiyaning bir tarmog'i (II-III asrlarda faoliyat ko'rsatgan). Apologetika o'z asarlarida xristianlik tamoyillarini xristian bo'lmagan oqimlar va olimlardan himoya qilgan ilk xristian olim, Yozuvchi, faylasuflarning yig'ishtirma (umumlashtirilgan) nomi. Apologetlar o'zlarining nomalarida xristianlik axloqiy tamoyillarining afzalliklarini asosladilar, xristianlikni davlat dini sifatida qabul qilish zaruratini himoya qildilar. Ular asarlarida mushriqlar (ko'pxudolik) tomonidan xristianlikka qo'yilgan ayblar-g'ayri odatiy harakatlar, dabdababozlik kabilarni inkor qilganlar (inkor qilish) va xristianlikning sofligini esa tasdiqlaganlar (tasdiqlash tamoyili) (vakillari Iustin, Tertullian va boshq.).

Patristika (lot.-pater-ota)-xristian diniy-falsafiy taraqqiyotining yanada rivojlanish bosqichi III-V asrlarga to'g'ri keldi. Bu davrda patristika ko'payib ketgan diniy bid'atchi mazhablarga qarshi kurashishni kuchaytirish, xristian ilohiyotining falsafiy asoslarini tahlil qilish, inson, jamiyat va bilish masalalarining diniy tamoyillarini ishlab chiqish bilan shug'ullandi. Patristika rivojlanishining keyingi davrida (VI-VIII asrlar) xristian ilohiyoti ilmini tartiblashtirish, yunon faylasuflari asarlarini lotin tiliga tarjima qilish va xristianlikka moslashtirishga harakat qildi.

Asosiy vakillari Ioan Zlatoust (347-407), Avreliy Avgustin (354-430 yillar, muqaddas-Blajenny nomini olgan) lardir. Avgustin faylasuf va ilohiyotchi sifatida 100ga yaqin kitob, 500 ta da'vat va 200 ga yaqin nomalar yozgan. Uning mashhur asarlaridan biri 401 yilda yozilgan "Tavba" bo'lib, bunda u o'zining

xristianlikka bo'lgan hayotini aks ettirgan va istig'for qilgan hamda "Bibliya" boblarini ramziy talqin qilgan.

Avreliy Avgustin antik falsafaga yangicha talqin berib, XIII asrga qadar ijtimoiy tafakko'ning asosi hisoblangan diniy-falsafiy ta'limotni ishlab chiqib, o'rta asr G'arb ma'naviy–diniy hayotiga katta ta'sir ko'rsatgan. U xristian falsafasiga asos soldi. U va uning izdoshlari diniy falsafada xudoni va ilohiy muhabbatni anglash inson ruhining asosiy maqsadi, yagona hayot qadriyati, deb bilganlar. Uningcha, xudo eng oliy darajadagi mohiyatdir. Xudo oliy borliq, oliy substantsiya, oliy (nomoddiy) shakl, oliy ezgulikdir. Odam butun mavjudotlar sirasida oliysi, erkin irodaga ega, lekin u to'liq xudo tomonidan belgilangan taqdir asosida faoliyat ko'rsatadi. Yaratuvchini faqat pok qalb, chuqur e'tiqod orqali bila olish mumkin. Tabiat, borliqni aql orqali birmuncha bilsa bo'ladi.

Yagona mohiyat va haqiqat sifatidagi Xudo metafizik ta'limotning mazmunini tashqil etadi. Xudo bilimning manbai sifatida bilish nazariyasining, yagona ezgulik va go'zallik bo'lgani uchun axloqning predmetidir. Xudo alohida qudrat va mehribonlik egasi bo'lgani uchun dinning asosiy masalasidir. U faqat cheksiz borliq bo'lib qolmasdan, balki mukammal muhabbat hamdir.

Antik falsafaning g'oyalari, ayniqsa Platon, Aristotel g'oyalari sxolastikaning (sxolastika-yun.-maktabga xos) falsafiy asosi bo'lib xizmat qildi. Sxolastika o'rta asrlar Evropa falsafasining patristikadan keyingi bosqichidir. (O'rta asrlar Evropa falsafasining asoschisi Alkuin (730-804) hisoblanadi). Sxolastika-o'rta asr "maktab falsafasi", uning vakillari bo'lmish sxolastlar diniy dunyoqarashni nazariy jihatdan asoslab berishga urindilar.

O'rta asr sxolastikasida universalilar katta o'rin tutdi. Universalilar(lot.-umumiy)larni tushinishda realizm va nominalizm o'rtasida kurash ketdi.

Realizm (lot.realis – voqelik, mavjudlik) moddiy va ma'naviy narsalarni inson ongidan tashqarida, borliqning jabhasi sifatida mavjudligini, realligini tan oladigan tafakkur yo'nalishidir (uning asosiy vakillari Ioan Skot Eriugena (800-877), Anselm Kenterberiyskiy – kenterberiyalik Anselm (1033-1109), Foma Akvinskiy (1225-1274) dir). Bu yo'nalishga ko'ra, har qanday narsaning mohiyatini namoyon etuvchi, unga nisbatan yaratuvchi, birlamchi bo'lgan nomoddiy asos-substantsiya tashqil qiladi.

Realistlar empirik olamdagi alohida olingan predmetlarning haqiqiy reallikka egaligini tan olmadilar. Ularcha, universalilar buyumgacha mavjud, ilohiy aql faoliyatining natijasidir. Tabiatdagi predmetlar umumiy tushunchalarni ko'rinish shaklidir. Realistlar umumiy tushunchalar mangu bo'lib, tabiatdagi predmet va hodisalar vaqtincha, o'tkinchi, degan xulosaga keldilar.

Nominalizm (lot.nominalis-nomlarga oid) yakka, alohida narsalarni umumiylik abstraktsiyasidan (tushuncha, g'oya, universalidan) oldin mavjud bo'lishini e'tirof etadigan falsafiy yo'nalishdir. Nominalizmning asosiy vakillari Ioan Rastselin (1050-1112), Ioan Duns Skot (1265 - 1303), Uilyam Okkam (1300 - 1350).

Nominalizmga ko'ra, umumiylik obraz, mohiyat va tushuncha sifatida yakka predmetlardagi o'xshash, aynan tomonlarni, xossalarni ifodalaydi. Umumiy tushunchalar ikkilamchi, ular real mavjud emas, balki tabiatdagi ayrim buyum va

hodisalarning nomidangina iborat, deydi nominalistlar. Ularcha, faqat muayyan narsa, hodisalargina real mavjud, umumiy tushunchalar esa kishi tafakkurining mahsulidir. Moddiy narsa, hodisalarsiz umumiy tushunchalar ham yo'q, deydi nominalistlar.

Nominalizmning mashhur vakili Uilyam Okkam fikricha, faqat konkret narsalar real mavjuddir, universalilar (umumiy tushunchalar) obyektiv ahamiyatga butunlay ega emas. Bilish masalasida u - sensualist. Materiya o'z-o'zicha voqelikdir, u ideal "shakllarga" muhtoj emas. Obyektiv olamni bilish tajribadan boshlanadi, moddiy substantsiyaning boshi ham, oxiri ham yo'q, u abadiydir, degan edi Okkam.

O'rta asr katolitsizmi va sxolastikasining falsafiy asosi realizm bo'lib, uning konkret ko'rinishlaridan biri tomizmdir (XIII asr). Bizning kunlarda u "neotomizm" ta'limoti sifatida ish yuritmoqda.

Bu oqimning asoschisi italiyalik yirik sxolast faylasuf Foma Akvinskiy bo'lib, u o'rta asr sxolastikasini sistemalashtiruvchisidir. Tomizm Aristotel va xristianlik ta'limotining aralashmasidan iborat. Foma Akvinskiyning "Ilohiyot umumlashmasi" ("Summateologii") asari 300 maqoladan iborat bo'lib, 600 masalani qamrab olgan. Bu asar umuman sxolastik ilohiyotshunosligining asosidir. U ilohiyotni bir tizim sifatida o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, I qismi xudoning mavjudligi masalasi, II qismi "xudoga qarab harakat" aqidasi. Uningcha, dunyo ierarxik narvondan iborat bo'lib, eng quyi qismida er va 4 unsur dan iborat olam, eng yuqorisida esa xudo turadi. Aristotel (Arastu) izidan borib, shaklni birlamchi, boshlang'ich va faol ijodiy kuch deb, moddiy predmetlarni esa, uning ijodi mahsuli va passiv kuch, deb ta'kidladi. U butun borliqning ijodkori deb xudoni bildi: xudo sof shakldir, butun shakllarning manbaidir. Materiya, uningcha, faqat "imkoniyatdir", shakl esa materiyasiz mavjud bo'la oladi.

Oliy shakl-shakllar shakli-bu xudodir, narsalar esa materiya va shaklning, ya'ni moddiylik va ruhiylikning birligidir. Jon birlamchi va o'lmas bo'lib, tana esa jondan ajralishi bilan halok bo'ladi.

Foma Akvinskiy umumiy tushuncha masalasida aqlni ikkiga bo'ladi: 1) tabiatdan tashqaridagi aql, boshqacha aytganda "Xudo aqli"; 2) tabiiy aql, boshqacha aytganda inson aqli. Xudo aqli insoniy aqlga manba va yo'l ko'rsatuvchidir.

Foma Akvinskiycha, ilohiyot "Muqaddas kitob" dagi masalalar bilan shug'ullansa, falsafa hissiy obyektlar bilan, "kishi aqlining haqiqatlari" bilan mashg'ul bo'ladi. Ilohiyot, deydi u, xudodan chiqib, u yaratgan narsalargacha borib etsa, falsafa esa xudo yaratgan narsalardan chiqib ilohiyotga borib etadi, demak falsafa ilohiyotni to'ldiradi.

Foma ijtimoiy tenglikka mutloq qarshi chiqadi. Uningcha, davlatning eng afzal shakli monarxiyadir.

IV. VII asrda islomning paydo bo'lishi Arabiston yarim orolidagi xalqlar va elatlar hayotida yirik tarixiy voqea bo'ldi.

Arablar Markaziy Osiyoni bosib olishi arafasida Markaziy Osiyoda yagona markazlashgan davlat yo'q edi. Islom dinining Markaziy Osiyoga kirib kelishining asosida erli aholini musulmonlashtirish yotadi, deyish voqelikka bir tomonlama

qarash bo'lar edi. Turkiy tildagi birinchi gazetaning ("Tarjimon") muharriri Ismoil Gaspirinskiy (1851-1914) yozadiki: "Hamma – arablar islom va qur'onni tarqatish maqsadida istilochilik qildilar, deydi va shunday yozadilar. Men bunday o'ylay olmayman, chunki arablar Suriya, Iroq va Misrning boy hosildor erlarini istilo qilish uchun tashlanganliklarini yaxshi ko'rib turibman" (Gaspirinskiy I. Russko-vostochnoe soglashenie. Мысли, заметки и пожелания. Бухарасарай, 1896, str.9-10).

Buyuk vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy 712 yili Qutayba Xorazmni bosib olib, kim Xorazm Yozuvini bilsa, ularni o'ldirganini, bu erdagi olimlarni yo'q qilib, adabiyot, fanlarga taalluqli kitoblarni kuydirib yo'qotganligini qattiq achinish bilan yozgan (Biruni Abu Rayxon. Избранные произведения. Том I. Т., 1957, str.48,63).

Islom o'ziga xos diniy-falsafiy ta'limotdir. Islom diniy ta'limotining-kalom falsafasining asoslari qur'on, hadis singari muqaddas manbalarda, sunnalarda, shuningdek, VIII-XII asrlarda vujudga kelgan ilohiyot adabiyotida o'z ifodasini topgan.

XI-XII asrlarda «Qur'on» va Sunna asosida islom qonun- qoidalari majmui-shariatni ishlab chiqish tugallangan, u musulmonlarning ijtimoiy-iqtisodiy, diniy, huquqiy va axloqiy hayotini tartibga solishga xizmat qilgan.

Islom falsafasining negizi bo'lgan, VII asrdagi arablar hayoti va qarashlarining ko'p jihatlarini ifodalagan «Qur'on» tarixiy, madaniy qadriyat, er yuzi musulmonlarining dasturilamali, diniy ahkomlar manbaidir. Unda diniy-falsafiy tasavvurlar va rivoyatlar, qabila-urug'chilik hayoti tarziga xos an'ana, urf-odat va marosimlar, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy qonun-qoidalar, jumladan, oila-nikoh, ajdodlar va avlodlarga munosabat, mulkchilik va vorislik, savdo-sotiq, qarz muomalalariga xos ko'rsatmalar va boshqalar o'z aksini topgan. Qur'on oyatlari kambag'allarga, beva va etimlarga, gadoylarga yordam berish, sabr-toqatli va rostgo'y bo'lish, yolg'ondan va o'z so'ziga bevafoqlikdan xazar qilish, birovni taxqirlamaslik, xoinlik, buzuqlik, fohishalik, mayxo'rlik, qimorbozlik kabilarni taqiqlash kabi qoidalarni qat'iy qilib qo'ygan...

VIII asrda islomda turli mazhablar paydo bo'la boshladi. Mutakallimlar va mutazaliylar shular jumlasidandir. Mutakallimlar (ar.kalom-so'z, nutq) ta'limotiga ko'ra, qur'on kalomi qanday yozilgan bo'lsa, shunday tushunish, tushuntirish kerak, islom aqidalari qanday bo'lsa, shunday qabul qilinishi joiz. Inson taqdiri azalda bitilgan, deydi. Ularcha, dunyo Olloh tomonidan yaratilgan mayda zarralardan iborat.

Ular fazo va vaqtning cheksizligini rad qiladilar, sezgilarga ishonmaydilar. Bilimlarning voqelikka mos yoki mos emasligi ilohiy xohishga bog'liq. Hamma narsa ilohiy qudrat orqali amalga oshadi, namoyon bo'ladi, deyдилar. Ular ortodoksal ilohiyotni asoslashga uringanlar.

Mutazaliylar (ar. ajralib chiqqanlar) ilk islomda mutakallimlarga qarshi bo'lgan ilohiyot oqimlaridan biri-arab xalifaligida sof falsafiy fikrlarning tashabbuskorlari sifatida tanildilar. Ular hissiy tajriba, an'anaviy bilimlar bilan bir qatorda aqliy bilish g'oyasini olg'a surdilar. Mutazaliylar falsafiy masalalarni o'rganishga, ularni aql ko'zi bilan bilishga katta e'tibor berdilar. Ular ta'limotidagi yana bir muhim narsa inson irodasining erkinligi to'g'risidagi masaladir. Inson

o'z xatti-harakati bilan erkindir, deb ta'kidlaydilar. Inson ozod ekan, xudo yaxshilikni taqdirlaydi, yovuzlikni jazolaydi. Olloh insonlarga aql-zakovat, fahm-farosat, umrni berib qo'yar ekan, inson uni erki bilan ixtiyoriy bajaradi. SHu sababga ko'ra ham inson o'z qilmishi uchun haq oldida javob beradi, deb uqtiradilar.

Mutazaliylar g'oyalari Sharq ijtimoiy-falsafiy fikrida chuqur iz qoldirdi. Markaziy Osiyoda ana shu g'oya ilm-fan, falsafa rivojida muhim ahamiyat kasb etdi...

Sunna (ar.as-sunna-yo'l, yo'nalish, ko'chma ma'noda "rivoyat", "odat", "xatti-harakat") islomda «Qur'on»dan keyingi, uni to'ldiruvchi manba, islom ilohiyoti va shariatining ikkinchi asosidir.

Sunnalar payg'ambarlardan kelayotgan qoida va yo'l-yo'riqlar sifatida ifodalangan.

Musulmon sunnalari Rasulullohdan naql qilingan hadisi shariflar orqali shakllanadi. Hadis (ar."xabar","hikoya", "bildirish") Muhammadning hayoti, faoliyati va ko'rsatmalari, uning diniy, axloqiy dasturlari haqidagi rivoyat, hikoyatlardir. Hadislarda islom ahkomlari, ya'ni farz, vojib, sunnat, halol, harom, makruh kabi amal turlaridan tashqari, odob-axloqqa doir dasturlar talqin etilgan.

Jahonning eng ko'zga ko'ringan muhaddislaridan biri Ismoil al-Buxoriydir (810-869). Aytishlaricha, u 600 mingga yaqin hadis to'plagan, ulardan 7250 tasini ishonchli, ya'ni "sahih" deb to'plam qilgan: "al Jome' as-sahih" ("sahih -al-Buxoriy").

Uning "al-Adab al-Mufrad" ("Adab durdonalari") asari axloq va odob borasida eng nodir, eng sahih hadislar jamidir.

Muhaddislar imomi Abu Abdullo Muhammad ibn Ismoil Buxoriy o'z shogirdi Abu Iso Termiziyni maqtab, kamtarinlik bilan: "Sen mendan bahra topganingdan ko'ra men sendan ko'proq bahra topdim" degan edi. Abu Iso Termiziy Bug'iy (824-892) asarlari "Jome' as-sahih" (uni "Sahihi Termiziy", "Sunan" deb ham ataydilar), "SHamoili Nabaviya" va boshqalardir.

Iqtisodiy hayot va savdo-sotiq rivoji ilm-fanga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi. Bog'dod, Marv, Samarqand, Buxoro kabi shaharlar ma'naviy-madaniy markazlarga aylandi. Jahonda birinchi marta Bog'dodda Baytul-hikma - Fanlar akademiyasi tashqil topdi va bu erda dunyoning buyuk olimlari, faylasuflari, ilohiyotchilarining noyob asarlari jamlandi (Mazkur dargohda xizmat qilgan 500 olimning aksariyati Markaziy Osiyoda tug'ilib, voyaga etganlar edi). Qadimiy va mashhur kitoblarni, xususan, yunon olimlari asarlarini arab tiliga tarjima qilish, sharhlar yozish avj oldi. Tabiiy va ijtimoiy fanlarga bo'lgan qiziqish bu fanlar rivojiga chuqur ta'sir etdi, falsafiy fikrlar taraqqiysiga olib keldi.

Markaziy Osiyo madaniyati tarixida Renessans-Uyg'onish, birinchi navbatda, qaramlikdan qutilish, mustaqil tafakkur, mustaqil ijod, ma'naviy yuksalish davri bo'ldi.

Markaziy Osiyodagi ilk Uyg'onish madaniyati bu davr falsafasining o'ziga xos jihatlarini ham belgiladi:

1. Bu davr falsafasida islom dini, tasavvuf falsafasi chuqur iz qoldirdi.
2. Bu davr falsafasi o'z negizi asosida rivojlansa-da, yunon va hind falsafasining kuchli ta'sirini unda ko'rmaslik mumkin emas. Markaziy Osiyolik

o'rta asr faylasuflarining yutug'i shundaki, ular yunon va hind falsafasini tanqidiy o'zlashtirdilar va yangi bosqichga ko'tardilar.

3. O'sha davr tabiatshunoslik ilmining yutuqlari falsafa ilmiga mohirona payvand qilindi. Bu Markaziy Osiyo falsafasining tabiiy-ilmiy asoslarini mustahkamladi.

4. Falsafiy asarlar asosan o'sha davrning eng etuk ilmiy tili bo'lgan arab tilida yaratilgan. Bu uning yutug'i ham edi. U jahon jamoatchiligi, ilm ahliga tez va bevosita etib bordi, keng o'rganildi.

5. Bu davr falsafasi Sharq gumanizmi, qadriyatlari, axloqi, demokratiyasiga asoslandi; umuminsoniy qadriyatlar, axloq, demokratiyani rivojiga munosib hissa qo'shdi.

6. Bu davr falsafasida komil inson muammosi ustuvor ahamiyat kasb etdi.

Umuman, Markaziy Osiyo ilk Uyg'onish davri madaniyati, shu jumladan, falsafasi jahon tsivilizatsiyasiga o'zining munosib hissasini qo'sha oldi va haqli ravishda uni dunyo falsafiy tafakkuri rivojida o'ziga xos bir bosqich deb qaralishi kerak.

Endi mazkur davrning buyuk mutafakkir faylasuflaridan ayrimlarini ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Xorazm o'nlab buyuk daholarning vatanidir. Ana shulardan biri, shubhasiz, Abu Abdullo Muhammad ibn Muso al-Xorazmiydir (780-850).

Dunyo riyozat ilmiga bebaho hissa qo'shgan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy avval Marvda Ma'mun saroyida, so'ng halifalik markazi Bag'dodda xizmat qilgan va birinchi Akademiya "Baytul-Hikma" ("Donolik uyi")ga rahbarlik qilgan. U "Al-jabr val-muqobala", "Hind hisobi bo'yicha kitob", "Astronomik zij", "Er surati haqida kitob", "Quyosh soatlari haqida kitob", "YAhudiylar eralari va bayramlarini aniqlash haqida risola", "Tarix kitobi" kabi asarlar muallifidir. Xorazmiy algebrani fan sifatida yaratdi. Algebra "Al-jabr" so'zi bilan boshlanadigan asarning lotincha talaffuzi bo'lsa, algoritm "al Xorazmiy" nomining lotincha atalishidir. Uning asarlari 11-12 asrlardayoq lotin tiliga tarjima qilingan.

Xorazmiy musulmon dunyosida birinchi bor dunyoda sodir bo'layotgan tabiiy jarayonlarni o'rganishga hisob-sanoq metodini qo'lladi. Hindistonda vujudga kelgan o'nlik tizimi u tufayli Evropaga ma'lum bo'ldi.

Xorazmiy musulmon Sharqida birinchi bor jug'rofiyani asosladi. Erning aholi yashaydigan joylarini ko'rsatuvchi xaritalar tuzdi, har bir shaharning joylanishi, koordinatlari (uzunlik va kengligi), holatlarini ko'rsatib berdi. Uning bizgacha etib kelgan to'rt xaritasida Erni etti iqlimga bo'lib izohlaydi... Umuman, IX asrning birinchi yarmi fanda Xorazmiy davri deb ataladi...

Jahonda buyuk deb tan olingan olimlardan yana biri Ahmad ibn Muhammad al-Farg'oniyydir (vaf.861 y). U ham "Baytul hikma"da ijod qilgan.

Farg'oniyyning 6 ta kitobi dunyoga mashhur: "Astronomiya ilmi usullari haqidagi kitob", "Al-Farg'oniyy jadvallari", "Oy Erning ustida va ostida bo'lganda vaqtni aniqlash risolasi", "Usturlob bilan amal qilish haqidagi kitob", "Etti iqlim hisobi", "Usturlobni yasash haqidagi kitob".

Al-Farg'oniyy ilmiy g'oyalari geotsentrizmdan geliotsentrizmga o'tishda o'ziga xos ko'prikk bo'lgan. U sayyora va yuldo'zlar sferalari radiuslarini birinchi

marta aniqlab berdi. Ekvator bilan ekliptika tekisliklari, Oy va Quyosh tutilishlarini tadqiq qilib, voqealar oraligini aytib berdi. Er eng kichik yuldo'zlardan ham kichik, degan fikrni asosladi. Er shari belbog'ining uzunligini o'ta aniq darajada topdi: 40 ming 800 km deb (hozirda u 40 ming 8 km. deyiladi). Nil daryosi suvini o'lchaydigan asbob yaratdi...

Stereografik proektsiyalar nazariyasining kashfiyotchisi al-Farg'oniylidir. Bu nazariyani buyuk matematik Eyler XVIII asrda geografik kartalar tuzish nazariyasiga tadbiq qildi va "Rusiya imperiyasining bosh kartasi"ni tuzishda ishlatdi.

Mashhur Dante "Ilohiy komediya"sida al-Farg'oniylig'oyalarini tarannum etishi, Evropada uni Alfraganus deb hurmatlashlari bejiz emas.

YAqin va O'rta Sharqda "Sharq Aristoteli", "Ikkinchi muallim" unvoniga sazovor bo'lgan mashhur va atoqli faylasuf Abu Nasr ibn Muhammad Forobiy (873-950) dir.

Forobiy yaratgan asarlar soni 160 dan ortiq. Bulardan: "Ixso-al-ulum", "Aristotel mantiqiga talqinlar", "Hikmat asoslari", "Katta musiqa kitobi", "Fuqarolik siyosati", "Fozil shahar aholilarining raylari", "Mantiqqa kirish", "Qonunlar kitobi", "Substantsiya haqida so'z" kabi asarlarni ko'rsatish mumkin. Forobiy asarlarini ikki guruhga ajratish lozim: a) antik yunon faylasuflari va tabiatshunos olimlari (Aristotel, Platon, Evklid, Galen, Zenon va b.)ning ilmiy meroslarini sharhlash va targ'ib qilishga bag'ishlangan risolalar; b) o'sha davr fanining tabiiy va ijtimoiy-falsafiy fikri sohalariga, uning dolzarb masalalarini ishlab chiqishga, tabiatshunoslik, musiqashunoslik, filologiya, jamiyatshunoslikning muhim sohalariga bag'ishlangan asarlardir.

Forobiydan bir asrdan ko'proq keyin yashagan buyuk daho Ibn Sinoning e'tiroficha, u Aristotelning "Metafizika"sini 40 marta o'qigan, yodlagan ham, biroq bu asarning ma'nosini, maqsadini tushuna olmagan hamda uni bir burchakka itqitib qo'ygan. Ittifoqo bir kuni Forobiyning "Metafizika" asariga yozilgan sharhlari kitobini sotib olib, o'qigandan keyingina Aristotelning bu asari maqsadini uqib olgan.

Forobiyning falsafiy sistemasi Aristotelning universal sistemasi singari zamonasining barcha muhim muammolarini o'z ichiga qamraydi. Forobiyning asarlarida falsafaning eng umumiy tuzuklari-olamning tuzilishi, mavjudlik yo'llari, bilish, mantiq masalalari, inson va tabiatning o'zaro munosabati, shuningdek, ayrim aniq fanlarning falsafiy masalalari, ijtimoiy-axloqiy masalalar o'z ifodasini topgan.

Forobiy o'zini falsafaga bag'ishlagan kishidan axloqiy poklikni, to'g'rilikni, mehnatni sevishni, adolatli bo'lishni talab etadi.

Forobiy dunyoqarashining asosini, ya'ni dunyoning tuzilishi haqidagi tushunchasini panteyizm tashqil qiladi. Mavjudot emanatsiya yo'li bilan yagona boshlang'ichdan bosqichma-bosqich vujudga kelgan, yakkalikdan ko'plikka, bir xillikdan rang-baranglikka borgan. Forobiy fikricha, borliq (mavjudot) olti bosqichdan iborat bo'lib, bu bosqichlar butun mavjud narsalarning asosidir, ular o'zaro sabab va oqibat munosabatlari tarzida uzviy bog'langandir. Birinchi bosqich-birinchi sabab (as-sabab al-avval, ya'ni alloh), ikkinchi bosqich-osmoniy jismlar (as-sabab as-soni), uchinchisi-faol aql (al-aql al-faol), to'rtinchisi-jon (an-nafs), beshinchisi-

shakl (as-surat), oltinchisi-materiya (al-modda). SHunday qilib, ilohiyot va borliq bir butunlikni tashqil qiladi.

Vujud ikki turlidir: "zaruriy vujud" , ya'ni o'z-o'zicha bor narsalar, "vujudi mumkin", ya'ni boshqa narsalar tufayli vujudga keladigan narsalar.

Forobiy talqinida modda ko'plab belgi va xususiyatlarga, ya'ni u sifat, miqdor, substantsiya (javhar), aktsidentsiya (oraz), imkoniyat, voqelik, zaruriyat, tasodif, son, makon, vaqt kabilarga ega. Olloh esa massaga ham, ta'rifga ham ega bo'lmagan zaruriy vujud, mutlakdir.

Forobiy ta'limotida, Er va samoviy unsurlar jism, ya'ni moddiylik xossasiga ega. Barcha narsalarni u olti turga bo'ladi: osmon jismlari, aqlli vujud (odam), aqlsiz hayvonlar, o'simliklar, minerallar hamda to'rt unsur-olov, havo, tuproq va suv. To'rt unsur hamma jismlarning asosi bo'lib, materiyaning eng oddiy (sodda) turlaridir, jismlarning qolgan besh turi ana shu birlamchi unsurlarning qo'shilishi natijasida vujudga kelgan.

Forobiy bilish masalalarini... tahlil qilar ekan, shunday yozadi: "seziluvchi narsa sezgilarga qadar mavjud bo'lgani kabi bilinuvchi narsa ham bilimga qadar mavjuddir". Uningcha, odam o'z bilimlarini tashqaridan, atrofdagi hodisalarni bilish jarayonida oladi. Bilish jarayoni o'z ichiga ko'p vosita va usullarni: sezgi, idrok, xotira, tasavvur, mantiqiy fikr, aql va nuqtai nazarni oladi.

Forobiy bilish bilmaslikdan bilishga, sababiyatni bilishdan oqibatni bilishga, hodisadan mohiyatga qarab borishini uqtiradi.

U hissiy va aqliy bilishni farqlaydi. Sezgilarni sezgi a'zolari vazifalariga muvofiq beshga bo'ladi. Sezgini dastlabki bilimning manbai deb biladi. Buyumning in'ikosi o'sha buyumning o'ziga muvofiq bo'lsa, sezgi haqiqiy bo'ladi...

Forobiy jonning ko'chib yurishi mumkinligini inkor etadi va bu masalada Platonni tanqid qiladi.

Forobiy mantiq masalalariga katta e'tibor beradi va shu sababga ko'ra ham uni "Mantiqiy" ham deyishgan. Zero olim mantiqda ilmiy bilish usulini ko'radi; tushuncha, hukm, xulosa, isbotlash kabilar sohasida o'zining salmoqli yangi fikrlarini olg'a suradi.

Forobiy ilmlar tasnifi masalasiga ham katta e'tibor beradi. U ilmlarni amaliy (kasb, hunar) va nazariy (fan) qismga bo'ladi. Ilmlarning manbai-bu vujuddir, uning xilma-xil xususiyatlari va sifatlaridir. Nazariy bilimlar doirasida falsafa asosiy o'rinni egallaydi. Forobiy fikricha, falsafa borliqning mohiyati haqida, butun mavjud narsalarning mazmuni haqida mukammal va to'liq bilim beradigan fan. Falsafaning o'z qonun va qoidalari bor. Forobiy ham falsafani "fanlar fani" sifatida talqin etadi.

Forobiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, inson jamoasi haqidagi ta'limoti serqirra va keng qamrovlidir. Uning o'z maqsadlari, yo'llari, uslublari, qator masalalari, muammolari, nuqtalari bor. Bu qarash davlat, ta'lim-tarbiya, axloq, ma'rifat, diniy e'tiqod, urush va yarash, mehnat, iqtisodiy va ma'naviy hayot, rahbarlik, intizom, tartib kabi mavzularni qamragan.

Forobiy fozil shahar-davlatni kishining sog'lom organizmiga o'xshatadi. Inson tananing salomatligini saqlash, uning normal faoliyatini davom ettirish uchun uning a'zolari doimo bir-birlariga bog'liq holda o'zaro yordam berib turadi.

Fozil shaharda ham xuddi shunday: uning a'zolari o'zlarining turli kasb-hunarlarini, bilimlari, ish faoliyatlari bilan bir-birlarining ehtiyojlarini qondirib, o'zaro yordam berib turadilar.

Forobiy davlatni boshqarishning 3 usulini ko'rsatadi: yakka shaxs hokimiyati, kishilarning katta bo'lmagan guruhi hokimiyati hamda davlatni xalq tomonidan saylab qo'yilgan etuk shaxslar tomonidan boshqarilishi.

Forobiy dinga, Kur'onga nihoyatda katta hurmat va ishonch bilan qaradi. Uni axloq-odobning asosi deb bildi.

Umuman, Forobiyning g'oyalari Sharqdagina emas, balki Evropada ham ilg'or ijtimoiy-falsafiy fikrning rivojida muhim rol o'ynadi.

Buyuk daho Abu Rayhon Beruniy Xorazm farzandidir. U 973 yilda tug'ilgan va 1048 yili G'aznada vafot etgan.

U xorazm, arab, fors, yunon, sanskrit (qad. hind tili), yahudiy tillarini puxta o'rgandi... 1004 yilning boshlarida Beruniy Ma'mun II tomonidan Xorazmga chaqirib olindi va 1009-1017 yillarda "Donishmandlar uyi"- "Ma'mun akademiyasi"ni boshqargan. Ilmiy markazda Ibn Sino, Abu Sahl al-Masihiy, Mansur Saolibi, Ibn Iroq kabi o'nlab daholar ijod qildilar. Akademiyada Fales, Pifagor, Empedokl, Evklid, Sokrat, Platon, Aristotel, Galen, Gippokrat, Ptolomey kabi yunon va rim olimlarining asarlari aslida va arab tilidagi tarjimalari mavjud edi...

1016 y. "Quyosh harakatini aniqlash yo'li" asarini yozdi.

G'azna davrida (1017yildan) Beruniy "Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash kitobi" ("Hindiston", 1030 y.), "Turar joylar orasidagi masofani tekshirish uchun joylarning chegaralarini aniqlash" ("Geodeziya", 1018-1025), "Al-Qonun al-Ma'sudiy", "Kitob at-tafxim" ("Falakiyot san'ati muqaddimasini tushuntirish kitobi" 1029-1034), "Hikmatli minerallarni aniqlash kitobi" ("Mineralogiya", 1048), "Kitob as-Saydana" ("Farmokognoziya" - "Meditinada dorishunoslik", 1048 y.oxiri) singari asarlarini yozdi.

Umuman, Beruniy 150 dan ortiq noyob asarlar yozgan bo'lib, shulardan 30dan ziyodi bizning davrimizgacha etib kelgan.

Beruniy dastlabki asarlaridayoq, jumladan, "Yodgorliklar"ida tabiatni izchil tadqiq qila boshlaydi. Beruniy birinchi bo'lib Er yuzidagi hamma jismlar Er markaziga tortilishini, Er kurra ekanini hamda tabiat obyektiv bo'lib, o'z qonuni bo'yicha o'zgarib turishini, inson hayvondan fikrlashi bilan farq qilishi kabi fikrlarni olg'a surgan.

Beruniy o'zining "dengizlar nazariyasi"ni ishlab chiqishi bilan jug'rofiya fanida inqilob qildi. Olim Afrika janub tomonidan okean bilan o'ralgan, deb Ptolemey nazariyasini inkor etdi.

Beruniy dunyoda birinchi marta Erning sferik jug'rofiy tasvirini-Er globusini yaratdi.

Sharq faylasuflari, shu jumladan Beruniy ham, inson va jamiyatning mukammallashuvi g'oyasiga odamlarning ma'naviy-ijtimoiy va axloqiy nuqsonlardan, razillikdan poklanishi masalasi sifatida qaraganlar. SHu ma'noda Sharq faylasuflari ko'pincha falsafani tibbiyot fani bilan qiyos qilganlar: tibbiyot

inson vujudidagi kasalliklarni davolashga xizmat qilsa, falsafa inson ruhiyatidagi, ongidagi kasalliklarni davolashga xizmat qilmog'i lozim.

Zamondoshlari tomonidan "SHayx-ur-ra'is" (ya'ni olimlar boshlig'i) deb atalgan Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh al-Xasan ibn Ali Ibn Sino 980 yil avgust oyining oxirlarida Buxoroga yaqin Afshona qishlog'ida dunyoga keldi. Va 1037 y. 57 yoshida Hamadonda vafot etdi.

YOzma manbalarda uning 280 dan ortiq asar yozganligi ta'kidlanadi (bizgacha esa uning 160 ta asari etib kelgan). Bulardan 150gi falsafiy masalalarga, 50 tibbiyotga, 48 tasi boshqa tabiatshunoslik fanlariga bag'ishlangan. U badiiy asarlar ham yozgan.

Ibn Sino asarlari orasida "Al-Qonun fi-t-tib" ("Tib qonunlari") kapital asari (5 tomlik) tibbiyot ilmining qomusi bo'lib, o'rta asr tibbiyot ilmi taraqqiyotining oliy cho'qqisi hisoblanadi. Osiyo va Evropaning barcha o'quv muassasalarida 500 yil mobaynida tibbiyot kursi shu asar asosida o'qitilgan.

Abu Ali Ibn Sinoning falsafiy va tabiiy-ilmiy qarashlari uning jahonga mashhur asari "Kitob ash-SHifo" ("Davolash kitobi")da bayon qilingan. Bu asar 18 tomdan iborat bo'lib, 4 qismga -mantiq, tabiiy fanlar, matematika (riyoziyot) va falsafaga bo'linadi. Bu asarda falsafa, matematika, ximiya, botanika, zoologiya, geologiya, astronomiya, psixologiya kabi fanlar haqidagi fikrlari bayon etilgan. Bu asar G'arb va Sharq falsafiy tafakkuri taraqqiyotiga juda katta ta'sir o'tkazgan.

Ibn Sino falsafiy qarashlarining shakllanishida aristotelizm muhim rol o'ynagan, biroq u Aristotel ta'limotining oddiy targ'ibotchisi bo'lib qolmadi. Bu haqda Ibn Sino mana nima deydi: "Biz uni (Aristotelni) oldingi peripatetiklar ichida eng buyuk olim deb hisoblaymiz, chunki u o'z do'stlari va o'qituvchilari bilmagan kashfiyotlarni qildi, fanlarni klassifikatsiya qildi, juda yaxshi sistemaga soldi, ko'p muammolarni to'g'ri hal etib, uni o'z xalqiga xabar qildi...Aql-zakovatga murojaat etib, Aristotelning xatolarini tuzatish lozim edi. Ammo uning izdoshlari bu ishni qilmadilar... Biz esa, ular xohlagan, ammo bajara olmagan ishlarni bajardik, uning ta'limotining ayrim tomonlarini to'ldirdik".

O'tmish falsafiy merosiga ijodiy yondoshgan Ibn Sino o'z falsafiy sistemasini yaratdi.

Ibn Sino nuqtai nazaricha, falsafa hamma fanlarning yig'indisidir, ya'ni hamma mavjudot to'g'risidagi fandir. Hamma mavjudot, uningcha, g'oyaviy, jismoniy va aqliy qismlarga bo'linadi. Falsafaning asosiy vazifasi-haqiqatni, hamma ijobiy narsalarni bilishdan iborat. O'zining "Risalat-fi-l-ahd" nomli asarida fan va falsafaga ta'rif beradi. Uning fikricha, fan-buyumlar to'g'risidagi insoniy aql vositasi bilan qo'lga kiritilgan bexato bilimlardan iborat. Falsafa esa buyumlar to'g'risidagi ishonchli asoslar va haqiqiy dalillar bilan isbot qilingan bilimlardan iboratdir.

Demak, Ibn Sino fikricha, fan buyumlar mohiyati to'g'risidagi aniq va to'g'ri bilimlardan, falsafa esa buyumlar mohiyati to'g'risidagi aniq va to'g'ri dalillar bilan isbot etilgan bilimlardan iborat.

Ibn Sino "Aksom-ulum al-aqliya" nomli asarida falsafani ikkiga bo'ladi:

- 1) nazariy falsafa yoki birinchi fan;
- 2) amaliy falsafa.

Nazariy falsafaning vazifasi shunday narsalarni bilishki, ularni biz bilishimiz shart, lekin bu bilim tajribadan ajralgan (aprior) xarakterga ega, hayotda amaliy ahamiyatga ega emas. Amaliy falsafaning vazifasi bizning amaliy ishimiz bilan bog'liq buyum va hodisalarni o'rganishdan iborat.

Ibn Sino ikki substantsiyani-moddiy va g'oyaviy substantsiyani borliqning ibtidosi deb tushunadi...

Uningcha, olamda barcha mavjud narsalar ikkiga bo'linadi-zaruriy vujud va imkoniy vujud. Bular munosabati sabab va oqibat munosabatidir. Bu jarayonda olamdagi hamma narsalar emanatsiya tarzida (ya'ni quyoshdan chiqayotgan nur shaklida) asta-sekinlik bilan amalga oshadi, namoyon bo'ladi. SHu tartibda, imkoniyat shaklida mavjud bo'lgan aql, jon, jism va shular bilan bog'liq holda osmon sferalari kelib chiqadi, mavjud narsalarga aylanadi. Bular hammasi substantsiya (javhar)dir. Bundan tashqari, borliqda aktsidentsiya-narsalarning xususiyatlari, rangi, hajmi, hidlar mavjud. Jism shakl va moddadan tashqil topadi.

Materiya va shakl munosabatida Aristotel shaklni materiyadan ustun qo'ygan bo'lsa, Ibn Sino shaklning materiyaga bog'liq ekanligini alohida ta'kidlaydi: "Jismoniy shakl materiyaga bog'liq, bu shakl va bu materiyadan jism tashqil topadi. Demak, materiyasiz va undan mustaqil ravishda jismoniy shakl yo'q".

Ibn Sino fikricha, materiyaning eng sodda, bo'laklarga bo'linmaydigan shakli to'rt unsur: havo, olov, suv va tuproqdan iborat. Ularning o'zaro birikuvi natijasida murakkab moddiy narsalar tashqil topadi. Murakkab narsalar o'zgarib, turli shakllarga ega bo'lishi mumkin, ammo ularning moddiy asosi bo'lgan to'rt element yo'qolmaydi, abadiy saqlanadi.

Ibn Sino uqtirishicha, harakat-buyumning o'zgarishi, bir holdan boshqa holga o'tishidir.

Sukunat (tinchlik)ning obyektiv xarakterini e'tirof etgan mutafakkirning uqtirishicha, u harakatning qarama-qarshisidir.

Ibn Sino tinchlikni tabiiy va majburiyga bo'ladi.

Ibn Sino aytishicha, inson bilimlari real obyektiv narsalarni bilish yordamida vujudga keladi. Bilish hissiy bilish va tushunchalar yordamida fikrlashdan tashqil topadi. Sezgida narsa-hodisalarning ayrim, tashqi belgilari, konkret tomonlari bilinsa, aql ularning mohiyatini, ichki tomonlarini abstraktsiyalashtirish va umumlashtirish yordamida bila oladi.

Sabab turlarini Ibn Sino 4 turga bo'ladi: moddiy, faol, shakliy va tugallovchi sabablar (yoki ma'lum bir maqsadni ifodalovchi sabab).

Ibn Sino birinchilardan bo'lib tabiiy muhit va inson hayoti o'zaro munosabatlarini har tomonlama tahlil qilish zaruratini fahmlaydi...

Ibn Sino haqiqiy insoniy fazilatlarga va adolatli ideal jamiyatga shu mavjud dunyoda erishuv mumkin, deydi. Uningcha, jamiyat kishilarning o'zaro kelishuvi asosida qabul qilinadigan adolatli qonunlar yordamida boshqarilishi kerak. Jamiyat a'zolarining hammasi bu qonunga itoat etishi, qonunni buzish va adolatsizlik jazolanishi lozim.

Sino odamning yashashi uchun eng zarur sharoit ijtimoiy munosabatlar ekanini uqtiradi. U "Odam ijtimoiy jondir", degan fikrni olg'a suradi.

Demak, ilk uyg'onish davri mutafakkirlari falsafiy qarashlari jahon falsafiy merosiga qo'shilgan buyuk hissa bo'lishi bilan birga hozirgi kunimizda ham turli falsafiy oqimlarning bahs – munozaralari obykti bo'lib xizmat qilmoqda. Mustaqilligimiz davrida ma'naviy qadriyatlarimizni boyitmoqda.

Tasavvuf va tasavvuf falsafasi Sharq musulmon xalqlarining ma'naviy hayoti tarixida o'chmas iz qoldirgan diniy- falsafiy oqimlardan biridir. U o'zining o'n asrdan ortiq taraqqiyoti davomida davr talablaridan kelib chiqib turli xil shakl va yo'nalishlarda rivojlandi. Sharqshunos olim E.E. Bertels "so'fiylik shuncha keng va har tomonlamaki, unga istagan kontseptsiya, dunyoqarashni kiritish mumkin", deganda haq....

So'fiylik islom dini asosida VII asrning oxiri va VIII asrning boshlarida Basrada kelib chiqqan bo'lib (islomgacha kelib chiqqan degan qarashlar ham bor) o'z ta'limotini Qur'on va Hadislarga asoslanib rivojlantirdi. Biroq u o'tmishdagi boshqa e'tiqodlar, dinlardan ham oziqlangan.

So'fiylar Allohni jon-dilidan sevish, uning zoti va sifatlarini tanish va bilish, ko'ngilni nafs xirs g'uboridan poklab, botiniy musaffo bir holatda Iloh vasliga etishish va bundan lazzatlanish g'oyasini keng targ'ib qilganlar. Inson ruhi ilohiydir va demak, asosiy maqsad-ilohiy olamga borib qo'shilmog'dir, deganlar.

IX asr boshlarida tasavvufning nazariy asoslari ishlab chiqildi va alohida ilm sifatida o'rganila boshlandi. Uning to'rt bosqichi asoslandi.

SHariatga ko'ra, so'fiylar shariatning, ya'ni islom huquq tizimi, axloqiy mezonlari, amaliy faoliyatlarining barcha talablarini tan olishi va sidqi dildan bajarishlari kerak, shundagina ular tariqatga ko'tarila oladilar. **Tariqatda** solik o'ziga murshid-pir topishi va unga qo'l berib so'fiylik yo'liga kirishi, o'z piriga so'zsiz itoat etishi, o'z shaxsiy istaklaridan voz kechib, uning izidan borishi shart.

Ma'rifat bosqichida so'fiylar koinotning birligi xudoda mujassam bo'lishini, olam-Xudoning emanatsiyasi ekanligini, ya'ni u Xudodan bosqichma-bosqich kelib chiqqanligini, yaxshilik bilan yomonlikning nisbiyligini aql bilan emas, qalb bilan anglashlari zarur. Bunda u pir darajasiga ko'tarilib, murid oladi. **Haqiqat** bosqichida "haqiqatga erishuv" so'fiyning "shaxs sifatida tugab" Allohga etishishi, unga singib ketishi va natijada abadiylikka erishishidir.

Haqiqat tasavvufda dinning ichki mohiyati, shariat esa tashqi yuzidir. Haqiqatga etgan solik Ollohdan o'zgaga bog'liq bo'lmasligi, azaliy va abadiy borliqning sadosi Olloh ekanligi, undan boshqa hamma narsa foni bo'lishini teran biladi. Haqiqat ahli bashariy sifatlardan ilohiy sifatlarga yuksalgan kishilardir. Ular uchun shariat-so'z, tariqat-yo'l, ma'rifat ishq bo'lsa, haqiqat-holdir.

So'fiylikning maqomat va tariqat asoslarini ishlab chiqish, tasavvuf yo'riqlari, vazifalarini belgilash va ilohiy haqiqatlarni el orasida yoyishda Zunun Misriy (796-861), Boyazid Bistomiy (vaf. 875) Jo'nayd Bog'dodiy (vaf.910), Mansur Halloj (858-922), Abdusaid Abduhayr (967-1049), Abdulloh Ansoriy (1006-1089) kabi o'nlab allomalarning xizmati buyukdir. Ularning ko'plari o'ziga xos maktab yaratganlar.

XII-XIII asrlarda Tayfuriya, Jo'naydiya, Kubroviya, Kassoriya, Malomatiya, Movlaviya, Sayyoriya, Nuriya, Qodiriya, Saxliya, Suhravardiya, Ne'matullohi, Bektoshiya, YAssaviya, Naqshband tariqatlari kelib chiqdi va faoliyat ko'rsatdi.

Bu jarayon keyingi asrlarda ham davom etdi.

Tasavvufning **borliq** haqidagi ta'limoti panteyistik (lot.pan-hamma, teo-xudo) tabiatga ega. Sharq falsafasida panteyizmning ikkita shakli mavjud bo'lgan. Biri "vahdat al-vujud" (ya'ni "olam birligi") deb ataladi. So'fiylar Tangrini haqiqiy va mutloq borliq deb biladi. Tangri esa toqdir. SHuning uchun ham unga "vahdati vujud" deb nom berilgan, ya'ni u borliqning birligidir. Zotan borliq "kasrat" (ko'plik) dan emas, "vahdat" dan iborat. Vahdati vujudning ibtido va intihosi yo'q, u boqiy. Koinotdagi xilma-xillik bo'lsa, zohiriy va o'tkinchi farqlanishlardir. Ularga baqolik xos emas. SHu bois, borliq-olamni Tangri sifatlarining tajallisidan iborat deb bilish lozim. Tangri-Vujud, mavjudot-uning orazi, zuhuri, xolos. Tangri birdan-bir reallik, qolgan barcha narsalar uning shu'las, nuri... Panteyizmning ikkinchi shakli "vaxdati mavjud" bo'lib, "mavjudot birligi" deb ataladi. Uning namoyondalari moddiy olamni, tabiatni obyektiv mavjudligini e'tirof etib, uni xudo deb ataydilar, ularning fikricha, xudo moddiy olamga singib ketgan bo'lib, shu moddiy olamning o'zi birdan-bir yaratuvchidir.

Tasavvuf falsafasi vahdati vujudga asoslangan (Ayrim tariqatlarni hisobga olmaganda).

Tasavvuf olamni, barcha mavjud narsalarni ikkiga bo'ladi: zaruriy vujud (vujudi vojib) va imkoniy vujud (vujudi mumkin). Zaruriy vujud hech narsaga bog'liq bo'lmagan bir butunlikni tashqil etib, u dono va biluvchi Tangridir. Qolgan hamma narsalar imkoniy tarzda mavjud bo'lib, undan kelib chiqadi.

So'fiylik ta'limoticha, tabiiy materiyadan tashqil topgan barcha narsalar uchta narsaga zarurat sezadi. Bular: 1) makon; 2)vaqt; 3) harakat. Tabiiy materiya bu uchta narsasiz yashay olmaydi...

Tasavvuf qarama-qarshiliklar birligini tan oladi. Unda olamni dialektik tushunish elementlari mavjud.

Tasavvuf ta'limotida bilish muammosiga keng o'rin berilgan. U olamni, ko'rib o'tganimizdek, ikkiga bo'ladi: ilohiy va moddiy dunyo. Moddiy dunyoni bilish hissiy bilishdan boshlanib aqliy bilish bilan yakunlanadi.

So'fiyning bilishdan asosiy va bosh maqsadi-bu ilohiy mohiyatni, ilohiy haqiqatni bilishdir ...

Tasavvuf falsafasida ijtimoiy-axloqiy masalalar muhim o'rinni egallaydi. Ayniqsa, insonning botiniy olami, ichki ziddiyatlari, ruh va jism orasidagi kurash so'fiylarni ko'p qiziqtirgan. Ular insonda azaliy ikki qarama-qarshi kuch ruhoniylar va shaytoniy quvvatlar borligini, inson Allohning bandasi sifatida shayton qutqusini engib, rahmoniy fazilatlariga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlaydilar. Insonning hayotdagi o'rni, jamiyat bo'lib yashash tartiblariga ham shu mavqedan turib qaralgan; chunonchi ijtimoiy nizolar, urush-janjallar, mulkiy tengsizlikning tub mohiyati, bosh sababini ham tasavvuf inson tabiatidan qidiradi, insonning axloqini tuzatishni uning tabiatidagi salbiy kuchlarni engishdan boshlash kerak, deb tushuntiradi.

Xullas, tasavvuf dil pokligi va Ruh komilligiga o'rgatadigan diniy-falsafiy ta'limotdir.

Markaziy Osiyo xalqlari orasidan etishib chiqqan so'fiylar va ular asos solgan tariqatlar butun dunyo ma'naviy hayotida ma'lum va mashhurdir.

Turk-islom dunyosida buyuk mutasavvuf olim deb tan olingan, Sharq tasavvufida o'chmas iz qoldirgan "YAssaviya" tariqatining asoschisi va turkiy klassik she'riyatining daho vakili Xoja Ahmad YAssaviy XII asrda yashab ijod etdi. U Sayramda SHayx Ibrohim xonadonida tavallud topgan, vafot etgan vaqti 1166-1167 y. (1993 y.musulmon Sharqi YAssaviyning 900 yilligini nishonladi). YAssaviy buyuk mutasavvuf YUsof Hamadoniyni shogirdlaridan. Ahmad YAssaviyning dunyoqarashi, falsafasi uning "Hikmatlar" asarida o'z ifodasini topgan. "Hikmatlar" turkiy adabiyotning noyob yodgorliklaridan biri bo'lib, muallifning islom dini, kalom falsafasi va tasavvufni chuqur o'zlashtirganini, o'sha davr ijtimoiy tartiblari, xalq hayotini yaxshi bilganidan dalolat beradi.

Uning tasavvuf falsafasida insonning o'zligini bilib olishi barcha masalalardan ustuvoridir. Zero odam o'zini, o'z "men"ligini bilsagina haqni biladi, haqqa etishadi. Lekin haqqa etishish oson emas, uning o'ziga xos qiyinchiliklari, sir-asrorlari, bosqichlari bor. Ahmad YAssaviy fikricha, "shariat" siz "tariqat", "tariqat" siz "ma'rifat", "haqiqat" bo'la olmaydi. Bulardan har biri ikkinchisi uchun bir bosqich bo'lib, uni to'ldiradi va takomillashtiradi. Bu to'rt bosqich kishi hayoti va faoliyatining asl mohiyatini tashqil etadi, bu bosqichlardan muvaffaqiyatli ko'tarilishgina komillikning asosidir.

YAssaviy "Mavtu qabla anta mavti" ("o'lmasdan burun o'ling") tezisini ilgari surar ekan, fanolikni da'vat qiladi... Uning fano falsafasini xoksorlik bilan barobar beozorlik, sevmak, muhtojlikdan o'zni qutqarmoq ma'nolarida ham mushohada etmoq kerak. U fano orqali erkka intilish, ilohiy hurlikka muhabbat mayllariga alohida urg'u bergandir. YAssaviy uchun fano abadiyatga intilishdir.

YAssaviyning axloq falsafasida gunoh dardi orqali Haqqa etishish uchun ko'ngilni keng tutish, dilozorlikni gunohi azim deb talqin etish, kamtarlik, sabr-qanoatlikni odat qilish, "tufroq bo'lish" alohida o'rin egallaydi.

Kubroviya tariqatining asoschisi Najmiddin Kubro - Ahmad ibn Umar Abul Janob Najmiddin al-Xeva'iy al-Xorazmiydir (1145-1221). Bu tariqat butun dunyoda mashhurdir. Bu ta'limot muxlislari musulmon dunyosida hozirda ham ko'p.

"Najmiddin", "Kubro" so'zlari shayxga berilgan yuksak ilmiy darajalardir ("dinning yulduzi", "ulug' olim" ma'nolarini anglatadi).

Najmiddin Kubroning "Risalat min muallif ani SHayx-ul-millat va ad-din al-Kubro", "SHarhi risolai odob az-zikr", "Risolai SHayx Najmiddin" singari asarlari bor.

Kubro ta'limoticha, Olami Kabir-ilohiy olam, olami Sag'ir-inson. Inson ichki ruhiy kechinmalar, toat-ibodat yo'li bilan olami Kabirdagi ilohiy haqiqatni izlaydi, unga dili va iymoni bilan asta-sekin yaqinlashaveradi. Xudoni bilish, uning birligini tan olish, ilohiy qudratning mohiyatini dildan anglash olami Kabirni bilish yo'lidir. Bu haqiqatga asosan zikr, intuitsiya, ichki ruhiy tahlil orqali erishiladi. Tasavvufga inson muammosini olib kirish Kubroning buyuk xizmatlaridan biridir.

Tasavvuf mavhum tafakkur, tarkidunyochilik doirasidan chiqib, haqiqiy inson muammosini o'rgana boshlagach, falsafaga aylanadi. Kubroda inson faqat ilohiyotga intiluvchi, o'zini butunlay unutgan mavjudot emas, balki ijtimoiy imkoniyatlari bor bo'lgan kuch sifatida ham talqin qilinadi.

Kubro ruhoniylar kechinmalar, noziq holatlarni puxta bilganidan, shunga muvofiq "latoif" nazariyasini ishlab chiqadi. Bu nazariyaga binoan, inson ruhi ko'zga ko'rinmas bir latif markazlardan iborat. Bu ong va tuyg'u, ruh va jism orasidagi bir narsa, uni ilg'ab olish ham mushkul. So'fiy ana shu markazlarni o'tkirlashtirib borishi darkor. "Latoif" insonning ilohiy xislatidir.

Najmiddin Kubroning juvonmardlik g'oyalarini tariqatga, so'fiylar hayotiga izchil singdirib yuborishi uning tasavvuf tarixidagi yana bir xizmatidir.

Markaziy Osiyo, YAqin va O'rta Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan, o'z davriga nisbatan ilg'or oqim bo'lmish "naqshbandiya" tariqati Xoja Muhammad Bahovuddin Naqshband (1318-1389) nomi bilan bog'liqdir. Bu tariqat "Xojagon" nomi bilan ham mashhur. Mazkur nom Xoja Abduxoliq G'ijduvoniylar ismi va ta'limotiga ishoradir. "Naqshbandiya" tariqatining birinchi ma'naviy otasi va asoschisi Abduxoliq G'ijduvoniylardir. YUsof Hamadoniylar Xurosonga ketgandan so'ng G'ijduvoniylar (YAssaviylardan keyin) uning ishini davom ettirgan. YUsof Hamadoniylar (4 ta), G'ijduvoniylar (4 ta) va Naqshband (3ta) tomonidan ishlab chiqilgan 11 ta qoida Naqshbandiya tariqatining asosiy mezonlari bo'lib qoldi (bu haqda qarang: Falsafa: qomusiy lug'at, 297- 298 -betlar).

Naqshbandiya ta'limotini XIV asrda har tomonlama puxta asoslagan, mustahkamlagan va butun musulmon olamiga yoygan Xojai buzrug-Bahovuddin Naqshbanddir. U 1318 yilda Buxoro yonidagi qasri Hinduyon qishlog'ida tug'ildi. So'ngra Xazrat sharofati bilan bu qishloq "Qasri orifon" deb atala boshlandi. "Naqshband" tahallusi - "Ollohnin dilga jo, naqsh qilish" ma'nosida.

Naqshband ta'limotining asosida ixtiyoriylar ravishdagi faqirlik yotadi. Naqshbandlik tariqati chuqur bunyodkorlik ruhi bilan sug'orilgan. Bu ta'limot "Dil ba yoru dast ba kor" tamoyiliga amal qiladi. O'z ta'limoti mohiyatidan kelib chiqib, Naqshband umrini dehqonchilik bilan, o'z xohishiga ko'ra faqirlik va yo'qsillikda o'tkazgan, hukmdorlardan o'zini yiroq tutgan. Naqshbandlik tariqatida nafaqat imon – e'tiqod, ilohiy qoidalar, balki dunyoviy g'oyalar, insonparvarlik, axloq –odob qoidalari mujassamlashgan.

Naqshbandlik ta'limoti butun musulmon dunyosida besh asrdan ziyod muhim rol o'ynadi. Bu g'oya o'z davrida ilm-ma'rifatning, madaniyat va adabiyotning yirik namoyondalari bo'lgan Jomiy, Navoiylar, Mashrab, Mahtumqul kabi yuzlab ulkan mutafakkirlarning, temuriylar, boburiylar va boshqa o'nlab shoh, amir, malikalarning hayoti va g'oyasiga aylandi va ular orqali keng mehnatkash ommaga singdi.

Mustaqil O'zbekistonimizda o'lkamizda vujudga kelgan tariqatlar har tomonlama chuqur o'rganila boshlandi. Elimiz buyuk mutafakkir, mutasavvuf donishmandlarning halollik, poklik, imon, adlu insof, mehr-shafqat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi ilg'or umumbashariylar g'oyalaridan to'la bahramand bo'la boshladi.

I.A. Karimov “Alloh qalbimizda, yuragimizda” risolasida aytganidek, biz bu mutafakkirlarimizning qutlug’ merosidan butun xalqimiz, jumladan, yoshlarimizning ham bahramand bo’lishiga, ularning mana shunday ma’naviy muhitda kamol topishiga, islom dinining insonparvarlik falsafasi, buyuk g’oyalari yosh avlod yuragidan ham joy olishiga sharoit yaratmoqdamiz.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev din arboblari bilan uchrashuvda ularning Respublika ma’naviy-ma’rifiy hayotida juda katta ishlarni amalga oshirayotgani va yosh avlodni tarbiyalashda ular faoliyati muhim ahamiyat kasb etishini aloxida takidladi. Respublikamizda Islom tsivilizatsiyasini tashkil etilayotganligi hamda ko’blab ma’naviy-diniy ob’yektlarni qurilayotgani ham diqqatga sazovor.

II-BO’LIM. ONTOLOGIYA – BORLIQ FALSAFASI

3-Mavzu: *Borliq-falsafa kategoriyasi*

Vaqt-2 soat

Reja:

1. Olam va odam. Borliq kategoriyasi. Borliqning shakllari hamda ularning o’zaro munosabatlari.
2. Substantsiya muammosi. Materiya tushunchasi. Hozirgi zamon fani moddiylikning turlari, ko’rinishlari, ularning o’zaro bog’liqligi haqida.
3. Harakat – borliqning asosiy mavjudlik usuli. Harakatning asosiy shakllari. Fazo va vaqt.

Tayanch so’z va iboralar

Olam, odam, substantsiya, monizm, dualizm, plyuralizm, borliq, yo’qlik, mavjudlik, reallik, individual borliq, ijtimoiy borliq, real borliq, virtual borliq, materiya, harakat, rivojlanish, makon, zamon, hayot, ong, “vujudi vojib”, “vujudi mumkin”.

Adabiyotlar

SH.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Tosh.: “O’zbekiston”, 2017.

O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2017 yil 7-fevral – Xalq so’zi, 2017 yil 8-fevral.

Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. T.: Ma’naviyat, 2008

Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T.: Xalq merosi. 1993, 130-149, 174 -181 betlar.

Alisher Navoiy. Lisonut – tayr. T., 1981.

Falsafa asoslari (Q. Nazarov va boshqalar). Darslik. Tosh., 2005.

Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. I –kitob. T.: Sharq, 2004.

Falsafa (M. Ahmedova va boshqalar). Darslik. T., 2006.

Falsafa: qomusiy lug’at. T.: Sharq, 2004.

Falsafa: qisqacha izohli lug’at. T.: Sharq, 2004.

SHermammedova.N. Falsafa. O'quv-uslubiy majmua. "Noshir" T.: 2012
Tulenova K.J. va boshqalar. Falsafa. O'quv-uslubiy majmua. TDPU. 2012
Filosofiya (Pod. red. V.D.Gubina i dr.). Uchebnik. M.: Russkoe slovo, 1998.
Qurbonova L. Borliq falsafasi. Andijon, 2009

Ma'ruza mavzusining maqsadi: Olam va odam munosabati, borliq hamda uning asosiy turlari, substantsiya muammosi, hozirgi zamon fani moddiylikning turlari, ko'rinishlari, ularning o'zaro bog'liqligi haqida, harakat va uning asosiy shakllari, fazo va vaqt haqidagi bilimlarni shakllantirish va kengaytirish.

Olam va undagi odam muammosi eng kadimiy falsafiy muammolardan bo'lib, insonning o'zligini tanishi va dunyo voqea, hodisalarini o'rgana boshlashi bilan bog'liqdir. Bu muammolar har bir davrdagi talab, ehtiyoj, dunyokarash va bilim darajasi doirasida hal kilingan. Lekin hech bir zamonda o'zining to'laroq echimini, ya'ni ko'pchilikni qanoatlantira oladigan holatdagi javobini topmagan. Olam va odam muammosi, ularning mavjudligi va yashashi, ular o'rtasidagi munosabatlar, yani falsafaning asosiy masalasi bilan bog'lik muammolar hozirda ham jahon donishmandligining diqqat markazida, uzoq kelajaqda ham shunday bo'lib qolishi aniq. Yana shuni tayin ki, insoniyatning ilk davrlarida bu muammolar lo'nda, sodda tarzda qo'yilgan bo'lsa, davrlar o'tib tobora murakkablasha bordi va hal kilinishi qiyinlashmoqda.

Olam-insonni o'rab turgan dunyo haqidagi keng qamrovli tushuncha, malum manoda voqelikning ifodasi.

Odamzod umrguzaronlik qilayotgan bu dunyo o'zining barcha borlig'i, jozibadorligi, yaxshiyu yomoni bilan, murakkabligiyu muammolari bilan yagona olamni tashqil qiladi.

Olam tushunchasi, eng avvalo, odam va uning faoliyati kechadigan makonni aks ettiradi. Olam odam bilan, odam uchun —olam. Aks holda u mavhumlikdir.

Olam – borliqning odam nazarda tutgan unsurlardan tashqil topgan, odam tomonidan bilingan, anglangan qismi. Borliqning namoyon bo'lish holatidir.

Odam – bioijtimoiy vujud, tana va ruhning birligi. U- olamning tarkibiy kismi. Odamlar olam voqeligini, undagi narsa, voqea, jarayonlarning real mavjudligini, obyektivligini ilgaritdan tushunib etganlar hamda o'z faoliyatlarini unga moslashtirishga harakat qilganlar. Lekin ularning bu moslashishi uni, ya'ni olamni o'zlashtirish, o'z ehtayojlari, maqsadlaridan kelib chiqib, «xonakilashtirish» hisobiga amalga oshgan.

Aytib o'tganimizday,tor manoda olam odamzod yashaydigan makon. Lekin Sharqda, shu jumladan o'zbeklarda qadimdan o'n sakkiz ming olam haqida so'z borgan. Eslang, Navoiy g'azaliyotidagi talqinlarni. Hozirda ham ilmiy, badiiy adabiyotlarda olamning kokret ko'rinishlari olam tushunchasi bilan ifodalanishini Siz yaxshi bilasiz: hayvonot olami, o'simliklar olami, ma'naviy olam, kino olami, nafosat olami, kitoblar olami va h.k.

Butun cheksiz turli-tuman olamning birligi haqida gapirish mumkin-mi? Qadimgi faylasuflar olam, undaga konkret buyum, hodisa, jarayonlarni o'rganar ekanlar, olamdagi barcha narsalarni boshlang'ich asosini—unsurini topishga, yani dunyodagi mavjud xilma—xilliklar nimadan kelib chiqqan, degan savolga javob

berishga uringanlar. Mazkur muammoni hal etishga urinish, butun mavjudlikning umumiy asosi hakidagi tasavvurlar falsafada substantsiya (lot. — mohiyat, asosida Yozuvchi) kategoriyasini ishlab chiqilishiga sabab bo'ldi. **Substantsiya** turli— tuman konkret buyumlar, voqea, hodisalar va jarayonlarning ichki birligini bildirib, u shu buyumlar, voqea, hodisalar, jarayonlar orqali namoyon bo'luvchi mohiyatdir.

Qadimgi faylasuflarning ayrimlari olamdagi barcha buyum, narsalar qandaydir umumiy moddiylikdan tashqil topgan, deb tasavvur qilganlar. YA'ni materialistlar, buyum va hodisalar o'zgarsada, ammo ularning umumiy asosi—substantsiya o'zgarmaydi, deb bilganlar. Masalan, miletlik Fales barcha narsalarning asosida "suv" yotadi desa, efeslik Geraklit "olov"ni asos—substantsiya, deydi. Pifagor raqamlar borliqning ibtidosi, matematika qonuniyatlari olam tuzilishining asosi degan g'oyani o'rta tashlasa, Aflotun olamda g'oyalar dunyosi biralamchi, haqiqiy borliq—abadiy g'oyadir, moddiy dunyo esa ikkilamchi, "g'oyalar dunyosi"ning mahsulidir, degan edi. Substantsiya Berklida individ ongi, Gegelda "g'oya" taraqqiyoti mahsuli hisoblanadi. Forobiy uqtirishicha, substantsiya (javhar) tushunchasi modda — materiya tushunchasiga teng va mazmunan bir xil bo'lib, u to'rt elementdan — suv, tuproq, havo, olovdan—moddadan tashqil bo'luvchi jismlarga nisbatan qo'llanilib, ularning o'zgarmas asosini anglatadi. Substantsiya jismlarning o'zgarmas va yo'qolmas asosini, aktsidentsiya (oraz) o'zgaruvchan, yangilanib turuvchi belgilarini aks ettiradi. Aktsidentsiya (oraz) mustaqil holda bo'lmay, substantsiyaga xosdir va o'tkinchidir, ya'ni jismlardan ajralgan shakl, rang, hid kabi belgilar yo'qdir.

Abu Ali Ibn Sino "Donishnoma" asarida borliqni ikkiga bo'ladi: substantsiya (javhar) va aktsidentsiya (oraz). Substantsiya-moddiylik va ruhiylik - birlamchi asos. Aktsidentsiya esa substantsiya orqasidan boradi, lekin uning asosi emas.

Ibn Sino, boshqa o'rta asr Sharq mutafakkirlari kabi, ikki substantsiyani — moddiy va ruhiy substantsiyani borliqning ibtidosi, deb tushunadi.

Olamning asosida yotuvchi substantsiyani izlashning yana bir ko'rinishi narsalarning tarkibidagi eng kichik bo'linmas unso'rni, ya'ni substrat (lot. — asos)ni topishga bo'lgan urinishdir. Bunday holni biz atomistik oqimlar namoyondalarida ko'rishimiz mumkin...

Dunyoning birligini bir substantsiyadan keltirib chiqaruvchi talimot monizm(yunoncha—bir) falsafasini asoslaydi. Substantsiya sifatida ruhni ham, materiyani ham olish mumkin. SHuning uchun materialistik monizm bilan idealistik monizmni farqlamoq kerak. Materialistik monizm izchil talimot sifatida olam asosida faqat materiya yotadi, deydi... Idealistik monizm izchil talimot sifatida olam asosida faqat ideya, g'oya yotadi, deydi.

Monizmga dualistik (lot.— ikki) talimot qarama—qarshi turadi. Bu talimotga asosan dunyo bir—biridan mustakil ikki ibtidodan, ya'ni materiya va ruhdan tashqil topgan. Bu nazariyaga ko'ra, moddiylik butun jismiy - ashyoviy reallik sohalarini birlashtirsa, ideallik butun manaviylik sohalarini birlashtiradi (R.Dekart). Bu talimot tarafdorlari Arastu, Sharq mutafakkirlari Ar — Roziy, Beruniy, Ibn Sino va boshqalar.

Olamning asosini izlashning mazkur ikki asosiy kontseptsiyasidan tashqari yana plyuralistik (plyuralizm — lot. ko'p, xilma—xil) qarash ham borki, bunga ko'ra, borliq asosida ko'p mustaqil moddiy va g'oyaviy ibtidolar mavjuddir. Bazi plyuralistlar moddiy substantsiyaga ustuvorlik beradilar. Mas., qadimgi Xitoy, Hindiston, YUnon materialistlari borliq olov, havo, er, suvdan iborat, deb hisoblaganlar. Ba'zilar esa, aksincha, manaviy (ideal) substantsiyaga moyildirlar. Mas., Max, Avenarius dunyo unsurlari sezgilarning turli shakllari kompleksidan tuzilgan, deydi. YAna shunday faylasuf — plyuralistlar borki, ular dunyo asosida ko'plab moddiy va ma'naviy (bir xil darajada) unsurlar yotadi, deb hisoblaydilar.

Ko'rinadiki, olam tushunchasi keng qamrovli bo'lishi bilan birga xilma-xil yo'nalishli, ayni paytda, nisbiy mohiyatga ega tushuncha bo'lib, ma'lum ma'noda voqelikka tizimli yondashishni talab qiladi.

Olam haqidagi tushuncha turli tadqiqotchilar, kishilarda turlicha talqin qilinishining sababi, birinchidan, bu tushunchaning o'ta kengligi va muayyan ma'noda mavhumligidan deb bilinsa, ikkinchidan, uni o'rganuvchining maqsadi, vazifasi, e'tiqodi, bilim darajasidan izlamoq kerak. Ba'zilar olamni barcha narsalarni, hodisalarni qamrab oluvchi universal tizim sifatida tushunsalar (bu ma'noda olam kosmologik koinot tushunchasiga mos keladi), yana boshqa birlari uni cheksiz, chegarasiz, yana ayrimlari cheklangan obyekt sifatida talqin qiladi.

Diniy—kosmologik qarashlarda olam xudo tomonidan yaratilgan deyiladi. Mas., islom dinining muqaddas kitobi bo'lgan Qur'onning "Baqara", "Arrahmon", "An'om" va boshqa suralarida ushbu fikr olg'a suriladi. Ularda olamning yaratuchisi olloh ekanligi va u xohlagan paytda uni o'zgartirishi mumkinligi haqida gap boradi. Islom dinidagi kosmologik qarashlarda turli—tuman olamlar hakida gap boradi. Umuman hamma jahon dinlarida ham olamning yaratilganligi, olamni "bu dunyo" va "u dunyoga ajratilganligi to'g'risida so'z yuritiladi.

Hozirgi zamon kosmologiyasida fanga asoslangan bir qancha qarashlar bo'lib, ularda olam o'tkinchi, tabiiy ravishda paydo bo'lgan, degan g'oya yotadi. Ular olamning boshlanishi haqida gapiradilar. Mas., astronom olim Ser Jeyms Jins aytadiki:

«Olam yaralishidan avval undagi moddalar gazdan iborat bo'lgan va shu gazlarning o'zaro birikishi natijasida sayyoralar kelib chiqqan». Doktor Jamu esa: "dunyo vujudga kelayotgan vaqtda, u tartibli tarqoq gazdan iborat bo'lgan..."deydi. Angliyalik olim Stiven Loking fikricha, olam vujudga kelmasdan ilgari nima bo'lgan, degan savol mantiqsizdir. Vaqtning kelajakka olib boruvchi yo'nalishigina mavjud bo'lgan holati olamning boshlanishidir, ya'ni o'tmish yo'q, faqat kelajak mavjuddir.

Fanda olamga oid murakkab masalalarni amaliy tajribalardan kelib chiquvchi mantiqiy dalillar asosida isbotlashga uriniladi. Mavjud ilmiy mantiq doirasidan chetga chiquvchi sirli va g'aroyib hodisalar fanning maxsus o'rganish obyekti sifatida tadqiq qilinmaydi, izohlanmaydi.

Falsafa olam va uning muammolarini o'rganish va sharhlashda fan, din, san'at va adabiyot kabi sohalarining xulosalariga tayanadi, ushbu xulosalarni umumlashtirib fikr bildiradi. SHu sababga ko'ra ham falsafa olam tushunchasini

kosmologiyadagi, dindagi va boshqa sohalaridagi olam tushunchalaridan kengroq, boyroq, sermazmunroq talqin qiladi.

Keng qamrovli, murakkab olamni tahlil qilishda, odatda, turli nuqtai nazardan, muayyan maqsadni ko'zlab fikr yuritiladi va mana shunga ko'ra ular nisbatan konkretlashtiriladi (ba'zi adabiyotlarda quyidagi olam ko'rinishlari borliq ko'rinishlari, shakllari tarzida beriladi).

Moddiy olam faqat moddiy narsalarni, jismlarni qamrab oladi. Uni jismoniy, fizik olam deb ham nomlashadi...

Ma'naviy olam inson, jamiyatning ruhiy dunyosini aks ettiradi. Ruhiy olam odamning bilim, tajriba va hayolotini ham o'z ichiga oluvchi keng qamrovli tushunchadir.

Aktual (faol) olam aynan shu damda biz bilan birgalikda mavjud bo'lgan olamdur. Buni dolzarb olam ham deb nomlanadi.

Potentsial olam—kelajaqda bo'lish imkoniyati bor, bo'lishi mumkin bo'lgan olam.

Real olam—hozirda mavjudligi shubhasiz, barcha e'tirof etadigan olam qismi.

Virtual (lot.—ehtimoldagi) olam kelajakda mavjud bo'lishi ehtimoli bor olam.

Konkret olam—ma'lum, aniq bo'lgan olam.

Abstrakt olam—xayoldagi, tasavvurdagi, idealdagi olam.

Jamiyat o'zining xilma-xil ko'rinishlari bilan ijtimoiy olamni tashqil qiladi. Konkret odam, individ o'z individual olamiga ega.

YUqorida sanab o'tilgan va sanab o'tilmagan boshqa olam (borliq) ko'rinishlari yaxlit bir butunlikni tashqil etadi.

Xullas, falsafaning asosiy masalasi hisoblangan olam va odam muammosi bugungi kunda ham eng dolzarb masalalardan biri sifatida o'rganilishi qonuniy va tabiiydir.

"Borliq" tushunchasi o'tmish va hozirgi zamonning ko'pgina mutafakkirlari falsafasining asosini tashqil qiladi. Falsafada "borliq" va borliq to'g'risidagi ta'limot (ontologiya) doirasida hammavaqt keskin munozaralar bo'lgan, bo'lmoqda.

Kundalik hayotda biz buyum, odamning qandayligini faqat uning konkret xossalarni o'rganish bilangina bila olamiz. Borliq nima ekanini anglashda, aksincha, konkret, hatto umumiy xossalardan ham yiroqlashish zarur (chunki unga eng umumiylik xos).

Borliq tushunchasi yuksak darajada mavhumlashtarishga asoslangan. Borliqning muqobil tushunchasi yo'qlikdir. Agar borliq qandaydir biror narsaning, hodisa va jarayonning borligini bildirsa, yo'qlik hech narsani bildirmaydi, u nomavjudlikdir. Ilmiy doirada yo'qlik nima, degan savolga javobning o'zi ham yo'q. Yo'qlik o'ta mavhum tushuncha bo'lishi bilan bir qatorda nisbiy tushuncha hamdir. Mas., materialistik nuqtai nazarda "u dunyo" va uning ko'rinishlari: jannat va do'zah yo'qlikdir. Lekin diniy nuqtai nazardan jannat ham, do'zah ham real mavjudlik, borliqdir. Bu muammo ustidagi bahslashuv azaliy va abadiydir.

Qadimgi YUnoniston faylasuflari ham borliqning mohiyatini tushunishga harakat qilganlar. Parmenid fikricha, dunyo ikki qismga bo'linadi: inson hissiy

organlari tomonidan bilib olinadigan o'zgaruvchan, vaqtincha, oquvchan dunyoga va faqat aql bilan bilib olinadigan abadiy, o'zgarmas dunyoga. Borliq, deydi Parmenid, bu aql bilan anglanadi, borliqni ko'rib bo'lmaydi, u ziddiyatlardan holi. Boshqacha qilib aytganda, faylasuf borliq va aqlni aynanlashtiradi. Geraklit esa, aksincha, borliq deganda hislar bilan qabul qilinadigan uzluksiz o'zgarishdagi moddiy olamni tushungan. Demokrit borliqni bo'linmas mayda fizik zarra—atom bilan aynanlashtiradi. Atomlar, Demokrit fikricha, bo'shliqlar bilan ajratilgan. Bo'shliq yo'qlik bilan aynan bo'lib, uni bilib bo'lmaydi. Faqat borliqni bilish mumkin.

Platon Parmenid g'oyasini rivojlantirib va yangicha talqin qilib, uqtiradiki, borliq abadiy va o'zgarmas bo'lib, faqat aql bilan bilib olinadi. U Demokrit singari borliqning ko'pligini uqtirib, uni ideal, jisimsiz narsa deb bildi. Ayni paytda Platon borliqni (o'zgarmas va abadiy g'oyalar dunyosini) o'tkinchi hissiy buyumlar olamidan aniq farqlaydi. Haqiqiy borliq—bu abadiy, jisimsiz(tanasiz) g'oyalar, deb uqtiradi.

Ko'rinadiki, qadimgi yunon mutafakkirlarining borliq muammosiga qarashlari turlicha, o'ziga xos. Lekin ular qarashlarida umumiy jihatlar ham yo'q emas. Masalan, barcha faylasuflar o'z ta'limotlarida borliq va yo'qlikni farqlaydilar va o'z qarashlarini mana shu tushunchalar asosiga qurishga harakat qiladilar.

O'rta asr Markaziy Osiyo falsafiy tafakkurida ham borliq va yo'qlik, doimiylik va o'tkinchilik, "bu dunyo" va "u dunyo" to'g'risidagi mulohazalar kizg'in bahs mavzui bo'lgan. Bu sohadagi qarashlar tabiiy—ilmiy (Forobiy, Beruniy, Ibn Sino), tasavvufona va kalom falsafasi xarakterida bo'lgan.

Abu Nasr Forobiy ontologik ta'limoti asosida emanatsiya g'oyasi yotadi. U "Fozil odamlar shahri" asarida ilk yagona ma'naviy ibtido borliq, ya'ni olloh yakkayu yagona va yukori darajadagi mukammallikdir, undan emanatsiya yo'li bilan barcha borliq vujudga keladi, deb uqtirar ekan, borliqlarni turlaydi. Moddiy va ruhiy borliqlar, ular mukammalligi bilan farqlidirlar; o'z darajalariga egadirlar. Borliq shakllari o'zaro aloqadadirlar, deydi.

Ibn Sino fikricha, olam yaxlit, murakkab borliqdir. Imkoniy vujudning zaruriy vujudan kelib chiqishi borliq qonuniyatining natijasidir.

XVII—XVIII asrlarda, ya'ni fan, texnika, ishlab chiqarish jadal rivojlanish bosqichiga kirgan bir davrda borliq haqida yangicha qarashlar vujudga keldi. Materialistlar borliqni fizik reallik sifatida qaradilar. Borliqni tabiat bilan aynanlashtirdilar.

Kant, Gegel borliqni ko'proq ruhiy—ideal aspektda o'rgandilar...

Demak, **borliq** kategoriyasi eng yuqori nuqtadagi umumiyashtirish, mavhumlashtirish natijasi bo'lib, u mavjudlik belgisiga ko'ra barcha xilma—xil hodisalar, buyumlar va jarayonlarni birlashtiradi: tabiat obyektlari, ularning xossalari, aloqalari va munosabatlari, inson jamoalari va alohida odamlar, ijtimoiy institutlar, inson ongining holatlari va boshqalar.

Borliq, muxtasar aytganda, mavjud bo'lgan, hozirda mavjud, mavjud bo'ladigan narsalar, shuningdek obyektiv va subyektiv realliklar jamidir. Borliqning bosh sohalari: tabiat, jamiyat, ong. Borliqning turlari: moddiy va ma'naviy.

Borliqning **shakllari** quyidagilardir:

- 1) Narsalar borlig'i — tabiiy borliq. Uning ko'rinishlari:
 - a) "birlamchi" tabiiy borliq; b) "ikkilamchi" tabiiy borliq.
- 2) Inson borlig'i. Uning ko'rinishlari:
 - a) buyumlar orasidagi inson borlig'i; b) o'ziga xos inson borlig'i.
- 3) Ijtimoiy borliq:
 - a) alohida olingan odam borlig'i, individ borlig'i;
 - b) jamiyat borlig'i.
4. Ma'naviy borliq:
 - a) individuallashtgan ma'naviy borliq;
 - b) obyektivlashtgan ma'naviy borliq (ijtimoiy ma'naviyat).

Borliqning ushbu shakllarining o'ziga xos jihatlari mavjud.

1. Tabiiy borliq keng manodagi tabiat tushunchasiga to'g'ri keladi. "Birlamchi" tabiiy borliq - notirik va tirik tabiatdir. U **obyektiv** va dastlabki—ilk reallikdir.

"Ikkilamchi" tabiiy borliq — insoniyat tomonidan yaratilgan buyumlardir, u "birlamchi" tabiiy borliqqa qat'iy bog'langandir.

"Ikkilamchi" tabiiy borliq bir tomondan, obyektiv, ilk reallik, "birlamchi" tabiatning xom ashyosi bo'lsa, ikkinchi tomondan u — inson mehnati va bilimining mahsuli. Uning bosh xususiyati **ijtimoiy-tarixiy tsivilizatsiyalashtgan borliq** ekanligidir.

"Birlamchi" va "ikkilamchi" tabiiy borliq o'zaro yaxlitlikni tashqil etadi, ayni paytda o'zaro aloqada; farqli, hatto ziddiyatlidir...

«Ikkinchi» tabiat obyektiv, real, lekin inson, insoniyat ongidan mutlaqo mustaqil emas, balki nisbiy mustaqil.

2. Buyumlar olamidagi inson borlig'i o'ziga xos, betakrordir. Inson tabiatda, boshqacha aytganda, buyumlar olamida yashaydi. U tabiatning bir qismi, oliy mahsulidir. Uning mavjudligining dastlabki sharti tanasidagi hayotdir. Odam jismi, tanasi-vujudi tabiat jismi, tanasidir. Tananing mavjudligi odamni o'tkinchi (o'luvchi) mavjudot qilib qo'yadi. Tabiatning o'tkinchi buyumlariga xos xususiyatlarning barchasi inson jismiga ham xosdir.

Odam dastlabki, eng muhim ehtiyojlarini (oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy) qondirishni tabiat orqali amalga oshiradi (ijtimoiy mavjudot sifatida). U tabiat qonunlariga amal qiladi, irsiyat qonunlarini hisobga oladi.

Alohida olingan odam borlig'i - **tana va ruhning dialektik birligidir**. Odam o'zi uchun ham "birlamchi", ham "ikkilamchi" tabiatdir... Fikrlar va his-hayajonlar—inson individi borlig'ining muhim tomonidir.

Inson borlig'i dastavval ijtimoiy borliqdir. Insonlarning o'zaro munosabatlari, moddiy ishlab chiqarish jarayoni va undagi munosabatlar jamiyatning borlig'ini, ijtimoiy borliqni tashqil etadi.

Inson borlig'ining o'ziga xos tomoni, u uch har xil borliq o'lchovlarining qo'shiluvi—kesishishi, o'zaro ta'siridadir. Inson mavjudligining birinchi o'lchovi—uning fikrlovchi va his kiluvchi "buyum" (tana) sifatida real mavjudligidir. 2—o'lchovi—odam ayni paytda Nomo sariens turiga mansub individual zot bo'lib, u dunyo evolyutsiyasi, tur rivoji o'rami bilan bog'liqdir.

Odam ijtimoiy—tarixiy mavjudot—bu 3—o'lchov. Bu o'lchovlar birga qo'shilib inson borlig'ining boshlang'ich xarakteristikasini beradi, asosini belgilaydi.

Inson borlig'i ayrim odamlar va avlodlar ongiga nisbatan obyektiv, reallikdir. Odamlar ayrim, alohida olingan odamning ongigacha, undan tashqarida va unga bog'liq bo'lmagan holda yashaydi.

Lekin odamlar borlig'i ongga, ruhiyatga mutlaqo bog'liq emas, deb bo'lmaydi. Odamlar borlig'i tabiiylik va ruhiylikning, individuallik va ijtimoiylikning kompleks va nodir birligidir. Har birimiz reallik ongimiz ham biz bilan birga reallikdir.

3. Ijtimoiy borliq — obyektiv ijtimoiy reallik, o'ziga xos ijtimoiy materiyadir. Bu haqda jamiyat to'g'risidagi ma'ruzalarda batafsil so'z yuritiladi.

4. Jamiyat hayoti va ishlab chiqarish jarayoni ikki katta guruhga bo'linadi: jamiyatning moddiy hayoti va ma'naviy hayoti va shunga mos ravishda jamiyatning moddiy ishlab chiqarishi va jamiyatning manaviy ishlab chiqarishi. Ma'naviylik—murakkab xilma—xillikning birligi — yaxlitligi bo'lib, u o'z ichiga **ong, ongsizlik** (o'zining mavjudlik va amal qilishining konkret shakllarining butun xilma—xilligi bilan), tabiiy tillar va sun'iy belgi—ramzlar tizimi shakllarida moddiylashgan, gavdalanayotgan **bilimlarni** qamraydi. Ma'naviy mahsulot va jarayonlarga shuningdek, inson muloqotining norma, tamoyillari (printsipalari), axloq, huquq norma va mezonlari, badiiy ijod kiradi.

Ma'naviylik o'zining mavjudlik—borliq shaklidagi farqiga qarab shartli ravishda ikkiga bo'linadi:

1. individning konkret hayot faoliyatidan ajralmagan manaviy borliq—**individuallashgan ma'naviy borliq:**

2. individdan tashqaridagi, boshqacha aytganda **obyektivlashgan ma'naviy borliq.**

Individuallashgan ma'naviy borliq—bu eng avvalo individ ongidir; individning hissi, ehtirosi, kayfiyati, fikri, taassuroti, shuningdek barqaror g'oyalari, e'tiqodi, va qadriyatlar, ko'rsatmalari va hokazolaridir. Individuallashgan ma'naviy borliq shaklining o'ziga xosligi shundaki, konkret ong jarayonlari ayrim odamlar tug'ilishi va o'lishi bilan tug'iladi va o'ladi. Lekin bu individual ong faoliyatining barcha natijalari "o'ladi"

degani emas. Muloqot jarayonida boshqa odamlarga bevosita uzatilgan, shuningdek obyektivlashishga ulgurgan ong saqlanib qoladi.

Til - individuallashgan va obyektivlashgan ma'naviy borliqning yorqin misoli.

Til, tsivilizatsiya, madaniyat, fan, ommaviy ong, ruhiyat, mafkura, kollektiv (jamo) ongsizligi, ijtimoiy ong, uning shakllari, g'oyalar, qarashlar, nazariyalar, ideallar, normalar, qadriyatlar kabilar jami obyektivlashgan ma'naviylikni tashqil qiladi.

II. Borliqning moddiy shakli—materiyadir. Materiya tushunchasi barcha moddiy obyektlarga xos xususiyatlarni umumiy tarzda ifodalash uchun xizmat qiladi. U abstraktsiya, fikrning mahsulidir, olamda "umuman materiya" uchramaydi. Balki moddiylikning konkret ko'rinishlari bor, xolos.

Materiya tushunchasining uch falsafiy jihatiga: 1-dan, materiya tushunchasi falsafiy kategoriya ekanligi, 2-dan, bu kategoriya obyektiv reallikni, moddiy voqelikni ifoda etishi, 3-dan, materiyaning bilish mumkinligiga e'tiborni qaratmoq joiz.

Materiyaning bu falsafiy tushunchasi materiyaning muayyan ko'rinishlarini, uning tuzilishi va xossalari o'rganishda metodologik ahamiyat kasb etadi.

Moddiy obyektlar to'g'risidagi hozirgi zamon ilmiy tasavvurlari asosida moddaning murakkab tizim tarzida tuzilganligi g'oyasi yotadi. Moddiy dunyoning har qanday obyekti tizim (sistema) sifatida, ya'ni elementlar va ular o'rtasidagi aloqalar bilan xarakterlanuvchi alohida yaxlitlik tarzida qaralishi mumkin.

Notirik tabiatda borliqning tashqiliy tuzilishi darajalarini elementar zarralarni o'rganishdan boshlagan ma'qul. Ma'lumki, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida tibbiyot ilmida buyuk kashfiyotlar qilindi: 1895 yilda Rengen ilgari noma'lum bo'lgan nurlarni, Bekkerel 1896 yilda radioaktivlik hodisasini, 1897 yilda Tomson elektronni, 1904 yilda Plank kvant nazariyasini, 1905 yilda Eynshteyn xususiy nisbiylik nazariyasini kashf etdilar. Demak, elektrondan tashqari, barcha zarralar XX asrda aniqlandi. Ularning xossalari marojismlar xossalariidan tubdan farq qilar ekan. Barcha elementar zarralar bir paytning o'zida ham korpuskulyar, ham to'liqlik xususiyatga ega bo'lib, ularning harakat qonuniyatlari (kvantfizikasi o'rganadi) ajralib turadi.

Elementar zarralar va ularning o'zaro ta'sirlari kashf qilingunga qadar fan borliqning ikki — modda (jism) va maydon ko'rinishlarini farqlar edi.

Klassik fizikada jismning uchta asosiy holati: qattiq, suyuq va gazsimon holati ma'lum bo'lsa, hozir plazma, vakuum, antijism va boshqa holatlari aniqlandi.

Maydonning o'zi bir qancha ko'rinishlarga ega: elektromagnit, gravitatsion, elektron — pozitron, mezon maydonlari va boshqalar.

Tinch holatdagi massa jismning eng zaruriy alomati hisoblanadi. Agar zarralar to'plami tinch holatdagi, uzluqli massaga ega bo'lmasa, jism hisoblanmaydi. Maydon tinch massaga ega emas, fazoda uzluksizdir. Jismning tezligi eng kichik tezlikdan to'g'ri tezligigacha bo'lishi mumkin, maydon esa faqat yorug'lik tezligi bo'yicha tarqaladi. Lekin kvant fizikasi taraqqiyoti jism — modda va maydon farqlari nisbiy ekanini aniqladi. Maydon va jism o'zaro bir — biriga o'tib turadi. Elementar zarralar (proton, neytron, mezon, kvark, lepton...) va ularning xossalari shu qadar rang — barangki, hali hozir fanda ularning yagona nazariyasi yaratilganicha yo'q. Lekin shu narsa tobora ravshan bo'lib borayaptiki, hozirgi zamon fani mikrodunyoga qanchalik chuqur kirib borsa, koinotning yirik masshtabli tizimini tushunish imkoniyati shu darajada kengaya borayapti.

Borliq tuzilishining elementar darajasi zleментар zarrachalar bilan birga g'aroyib fizik obyekt vakuumni ham qamragan.

Fizik vakuum bo'shliq bo'lmay, borliqning alohida holatidir. Vakuumda zarrachalar va fizik jismlar joylashgan, unda murakkab jarayonlar doimo bo'lib turadi... Elementar zarralar, fizik vakuum "ostida" nima borligi hozirgi zamon faniga malum emas. Elementar zarralardan moddiylikning o'ziga xos ko'rinishi - **atomlar** tashqil topadi, atomlarning o'zaro ta'siridan moddiylik tuzilishining yangi, navbatdagi darajasi **molekula** shakllanadi. Molekuladan so'ng **makrojism** paydo bo'ladi. Makrojism moddiylikning alohida turi — planetaning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Planeta murakkab ichki tizimga ega bo'lgan jism bo'lib, yadro,

litosfera, ayrim hollarda atmosfera va gidrosferadan iborat. Yulduz va planetalar **planetalar tizimini** tashqil qiladi. Yulduzlar, planetalar tizimi, yulduzlararo chang va gazlarning ulkan to'plami galaktikalarni asoslaydi. Er ana shunday galaktikalardan biri — gigant ellips ko'rinishidagi spiral tarzidagi tizimning tarkibiga mansub. Galaktikamizni tashqil qilgan yulduzlarning asosiy qismi diametri 100 ming yorug'lik yiliga, qalinligi 1500 yorug'lik yiliga teng hajmdagi diskka to'plangan. Quyoshimiz galaktikaning chekkasida joylashgan bo'lib, galaktika yadrosi atrofida aylanadi. Bu aylanishning bir martasiga ketgan vaqt 200 mln. yildir, ya'ni Quyosh o'z galaktikasini 200 mln. yilda bir aylanib chiqadi, bu galaktika yili deyiladi.

Galaktikalar to'plami — galaktikalar tizimini, galaktikalar tizimi esa — nihoyat **Metagalaktikani** tashqil qiladi. Galaktikalar tizimi bir — biridan uzoqlashmoqdalar. Bu jarayon Metagalaktikaning kengaya borishi deyiladi va u metagalaktika mavjudligining xususiyati hisoblanadi. Metagalaktika hozirgi zamon kosmologiyasi tasavvuricha, bundan 20 mlrd. yil avval o'ta kichik hajmdagi vakuumdan Katta portlash natijasida paydo bo'lgan. Fan bu portlashni fizik vakuum tizimidagi qayta qurish bilan, uning bir holatdan ikkinchi holatga fazali o'tishi bilan bog'laydi.

Metagalaktikaning "narigi tomoni" fanda hali umuman o'rganilmagan.

Metagalaktika rivojlanishining muayyan bosqichida notirik tabiat molekulalaridan hayotning moddiy tashuvchilari shakllandi. Notirik tabiat kabi tirik tabiatning ham bir qator tashqiliy tuzilishi darajalari bor: 1) **hujayragacha bo'lgan daraja tizimi** (nukleyin kislotalari — DNK va RNK — oksidlar); 2) **hujayralar**; bir hujayrali organizmlar darajasida mustaqil hayot kechiruvchi jon zodlar... 3) ko'p hujayrali organizmlar (o'simliklar, hayvonlar ko'rinishida); 4) organizmusti tizimlari. Masalan, a) populyatsiya; b) biotsenozlar.

Populyatsiya — bir turdagi zotlarning (hamkorlikda yashashi) — hamjamiyati.

Bular o'zaro umumiy genofondi bilan bog'langan, chatishishi va avlod qoldirishi umumiy. Har qanday populyatsiya alohida yaxlit tizimdir. O'rmondagi fillar to'dasi, asalarilar guruhi... Bir turdagi o'zidan ko'payuvchi

o'simliklar... Populyatsiyaning yaxlitligini shu guruhga kiruvchi ayrim organizmlar xulqi va ko'payishi boshqaradi. Masalan, arilarning uyada ko'payib ketishi, ularning bo'linishiga olib keladi... CHigirtkalar to'pining haddan tashqari ko'payib ketishi... ularning ko'payishini to'xtatadigan mexanizmini ishga soladi.

Biotsenoz holati populyatsiyalarning o'zaro va atrof muhit bilan tasirlanishuvi natijasida yuzaga keladi. Biotsenozning yaxlit tizimida populyatsiyalar shunday bog'langanki, bunda birining hayot faoliyati ikkinchisining yashash shart—sharoitidir. Masalan, o'rmon u erdagi jon zodlar, shuningdek o'simliklar olamining, ularning o'zaro munosabatlarining yaxlit tizimini ta'minlovchi biotsenozdir... Undagi biror bir jon zodning yo'q qilinishi umuman biotsenozga o'nглаb bo'lmas darajada salbiy oqibatlar, halokatlar olib kelishi mumkin...

Biotsenozlarning o'zaro bog'langan harakati hayotning yalpi tizimini — biosferani yaratadi. Mazkur yaxlit tizimda turli biotsenozlar o'zaro ta'sirda bo'libgina kolmay, ular kosmik fazo, tabiiy muhit, havo qatlami va hokazo bilan ham chambarchas bog'langandirlar. Bu aloqalarning buzilishi Erdagi butun hayot sohasini o'zgartirib yuboradi. Erdagi hayotning dinamik muvozanatini saqlab qolish uchun turli organizmlar, populyatsiya, biotsenozlarning ko'payishi uchun muayyan sharoitlar yaratish va ularning rang—barangligi darajasini ta'minlash zarur.

Odamlar Erdagi hayot sohasining bir qismidirlar. Ishlab chiqarishning doimo o'sa borishi atrof muhitga, biosferaga o'nглаb bo'lmas darajada futur etkazishi mumkin. Bu erda inson, insoniyatning hayot —momot masalasi turibdi...

Biosfera rivojining muayyan davrida moddiy tizimning alohida turi —kishilik jamiyati paydo bo'ladi va taraqqiy topadi. Bu sharoitda kishilik jamiyatining turli ichki tizimlari: oila, sinflar, millatlar va hokazo vujudga keladi.

Odam, odamzod va uning turli—tuman tashqilotlari tabiiy va ijtimoiy muhitning mahsuli...

Hozirgi davr ilmiy dunyoqarashi insoniyat borlig'i masshtablarini tushunishni kengaytiradi; dunyo manzarasini ilmiy tasvirlashning o'sishi bo'lsa abadiy hisoblangan dunyoqarash masalalarini (mas., odamning dunyodagi o'rni, insoniyatning kelajagi haqidagi masalalarni) falsafiy fikrlash uchun yangi va hech kutilmagan muammolar, materiallar beradi.

III. Borliqning tarkibligi, unda ma'lum turdagi moddiy tizimlarning mavjudligi har qanday obyektida ichki va tashqi aloqalarni shart qilib qo'yadi. O'zaro ta'sirlanish obyektning xossalari, munosabatlari, holatlarining o'zgarishiga olib keladi. Har qanday o'zgarish falsafada harakat tushunchasi bilan nomlanadi.

Harakat borliqdan tashqarida bo'lishi mumkin emas. Harakat jismning ichki xossasi, ajralmas belgisidir. U borliq singari mutloqdir. Harakat borliqning yashash usulidir.

Sokinlik (tinchlik) tushunchasi buyumning barqarorligini ta'minlaydigan, uning "o'z"lik sifatlarini saqlaydigan harakat holatlariga nisbatan qo'llaniladi.

Harakat va sokinlik obyektiv xarakterdadir.

Harakatning mutloq va abadiyliga hamda sokinlikning nisbiy va vaqtincha xarakteri. Geraklit: bir daryoga ikki marta tushish mumkin emas... Harakatning uzlukli va uzluksizligi. Zenonning "YOy", "Axillis va toshbaqa", "Dixotomiya" — "taqsimlash" (o'rtadan bo'lish qoida) aporiyalari. Pushkinning Diogen va talaba haqidagi sheri...

"Harakat yo'q!", degan edi Zenon. Gegel Zenonning ushbu fikri hakida to'xtalib, harakatning mohiyatini formal mantiq nuqtai nazaridan izohlab bo'lmasligini, chunki harakat ayni paytda muayyan nuqtadagi ham borliq, ham yo'qlik ekaniga e'tiborni qaratadi. Harakatni dialektik mantiq yordamidagina izohlash mumkin. Zero, obyekt ayni bir paytda muayyan nuqtada ham bor, ham yo'qdir.

Harakatning ikki asosiy turi:

1) **Buyum sifatini uzgartirmaydigan harakat:** har qanday buyum ham jarayondir.

2) **Buyum sifatini o'zgartiradigan harakat:** rivojlanish jarayoni — bu hammavaqt bir sifatdan ikkinchisiga o'tish, yangi tizimlarni shakllantirish uchun qilingan ilgarilama harakatdir.

Harakatning asosiy shakllari: mexanik, fizik, ximik(notirik tabiatda), biologiq (tirik tabiatda) va ijtimoiy(jamiyatda)...

Fanlar taraqqiysi natijasida harakatning yangi shakllari hakida turli munozaralar bo'lmoqda.

Har bir harakat shaklining Koinotda, shu jumladan kishilik jamiyatida o'z o'rnini va bajaradigan vazifasi bor. Biz harakat shakllarini izohlashda mexanitsizmga berilmasligimiz, ijtimoiy harakatni biologik harakat darajasi doirasida (ijtimoiy darvinizm) tushuntirishga harakat qilmasligamiz kerak.

Harakat va taraqqiyot... Taraqqiyot — ilgarilama harakat. Progress—izchil, keng qamrovli tizimli taraqqiyot.

Fazo va vaqt haqidagi tasavvurlarimiz jo'n va tabiiy... Lekin "fazo" nima? "Vaqt"—chi? degan savolga asosli javob berish ancha mushkul. Ular bilan bog'liq tushunchalar, muammolar zamonaviy fan yutuqlari asosidagina hal etiladi. Bu ham tabiiy fanlar, ham ijtimoiy fanlarning tadqiqot mavzusidir.

Moddiy obyektlarning muayyan o'rin, hajm, uzunlik kenglikka egaligi, boshqa obyektlar qatoridan joy egallashi, ular bilan chegarada bo'lishi kabilar **fazo** tushunchasining eng umumiy jihatlaridir. **Fazo** — bu vaqtning muayyan lahzasida olamni tashqil etuvchi nuqtalarning o'zaro joylashish tartibi, ko'lami, vaziyatlari o'lchamidir.

Fazo borliqning asosiy mavjudlik shaklidir. **Vaqt** ham borliqning mavjudlik shakli bo'lib, moddiy jarayonlarning, voqea-hodisalarning amalga oshishidagi ketma-ketlikni, tartibi va davomiyligini tavsiflaydi. Fazo va vaqt obyektiv xususiyatga ega.... Lekin Kant va Berкли... subyektiv deydi. Gegel tabiat fazo ichida, lekin vaqtdan tashqarida rivojlanadi, deb mazkur tushunchalarni bir —biridan ajratib yuboradi.

Fazo va vaqtning umumiy jihatlari:

- obyektivligi;
- abadiy, azaliyligi;
- cheksiz, chegarasiz, bepayonligi;
- ziddiyatliligi;
- borliqning ajralmas belgisi – atributi ekanligi.

Fazo va vaqtning umumiy jihatlaridan tashqari moddaning xususiyati bilan belgilanuvchi farqlari ham borki, ular metrik va topologik tiplar... O'lchash, miqdor bilan bog'liq xususiyatlar metrik xususiyatlar deb ataladi. Fazo va vaqtning tub sifatli jihatlarini topologik xususiyatlar ifodalaydi. Mas., fazoning uch o'lchovligi (fazo cheksiz kubiklardan iborat), qaytariluvchanligi, vaqtning ilgarilama harakati.

Falsafa tarixida fazo va vaqt to'g'risida turli qarashlar bo'lgan. Ularni ikki guruhga bo'lib o'rganish mumkin: substantsional va relyatsion qarashlar. Substantsional

qarash fazo va vaqtni moddiy obyektga bog'liq bo'lmagan, o'zlaricha mavjud bo'ladigan, alohida mohiyat, deb uqtiradi. Ularcha, fazo moddiy obyektlar turadigan joy—sahna, ularda jarayonlar rivojlanadi. (Demokrit, Epiko'ring atomlarning bo'shliqda joylashishi nazariyasi; I.Nyuton qarashlari),

Ilmiy falsafa fazo va vaqt obyektiv, ya'ni inson va insoniyatga bog'liq bo'lmagan materiya borlig'ining shakllari deb qaraydi, shu bilan birga ularning jism va uning harakati bilan ajralmas aloqasini takidlaydi. Relyatsion qarashning eng yorqin vakillaridan biri G.V. Leybnits fazo va vaqt mohiyati masalalarida Nyuton bilan munozaraga kirishib, fazo va vaqt obyekt va jarayonlar orasidagi alohida munosabatlar ekani, ular obyektiv jarayonlardan tashqarida yashashi mumkin emasligini uqtiradi.

Fazo va vaqt tabiatini falsafiy tushunishda A.Eynshteynning nisbiylik nazariyasi (1905 y.) dadil qadam bo'lgan. Nisbiylik nazariyasi vujudga kelmasdan burun, Nyuton fizikasiga binoan, fazo va vaqt mutloq tushuncha deb hisoblanib, uzunlik, vaqt va massa o'zgarmas, mutloq qiymatga ega, deb hisoblanar edi. Nisbiylik nazariyasi (avvalgi qarashning qo'llanish doirasi chekli ekanini ko'rsatib) fazo va vaqtning yangi xususiyatlarini kashf etdi, fazo va vaqt bir — biriga, shuningdek jismga bog'liq bo'lishini ko'rsatib berdi.

Nisbiylik nazariyasi fazo va vaqt orasidagi chuqur aloqani aniqladi, ya'ni tabiatda yaxlit **fazo—vaqt** mavjud ekan... Fazo masofasi qisqarsa, vaqt masofasi shuncha darajada uzayadi va aksincha... Bu fazo va vaqtdagi o'zgarishlar harakatdagi moddaning mohiyatidan kelib chiqadi. YA'ni fazo va vaqt obyektiv bo'lsada, ularning xossasi harakatdagi buyum bilan bog'langan. 1916 yil Eynshteyn umumiy nisbiyat nazariyasini yaratdi, bunga ko'ra vaqt va fazo geometriyasi tortilish maydonining xarakteri bilan belgilanadi. Moddiy dunyoning uch asosiy sferasi: notirik tabiat, tirik tabiat, jamiyat fazo-vaqt tarkibining o'ziga xosligi bilan farqlanadi.

Makrodunyoda fazo —vaqt, asosan, Evklid geometriyasi asosida amal qiladi. Galaktika va Metagalaktika masshtabida fazo - vaqtning egriligi, tortiluvchi massaning o'zaro ta'siri bilan bog'liq ravishda muhim rol o'ynay boshlaydi. N.I.Lobachevskiy (1792—1856) o'zining noevklid geometriyasida; uchburchaklar yig'indisi 180 gradusdan kichik bo'lishi mumkinligini asoslab, fazo — vaqtning Koinot miqyosida egri bo'lishini isbotladi. B.Rimanning (1826— 1866) noevklid geometriyasida uchburchaklar yig'indisi 180 gradusdan katta bo'lishini aniqladi.

Borliqning barcha tashqiliy tuzilishdagi darajalari, aloqalari, har bir moddiy obyektning yalpi koinot evolyutsiyasining mahsuli sifatida tushunish falsafaning eng qadimgi muammolaridan biri bo'lgan— dunyoning birligi muammosini yangilaydi..

Dunyoning birligi uning turlarida yanada konkretlashadi: olamning moddiy va ma'naviy shakllari birligi va unda ma'naviyatning etakchiligi, harakat va uning shakllarining birligi, borliq va uning mavjudlik shakllarining birligi, tabiat, jamiyat va insonning birligi, koinotning birligi va h.k.

Dunyoning moddiy birligi hozirgi zamon tabiatshunoslik fanlarining yangi yutuqlari bilan ham isbotlanmoqda. Noorganik olam bilan organik olam, tabiat bilan

jamiyat, Er, Quyosh va butun Koinot, moddiy va ruhiy dunyo o'zaro aloqada, bir-birini to'ldiradi, boyitadi.

III-BO'LIM. RIVOJLANISH FALSAFSI

4-Mavzu: O'zaro aloqadorlik va rivojlanish qonunlari. Falsafa kategoriyalari

Vaqt 2-soat

Reja:

1. Rivojlanish, o'zgarish va taraqqiyot tushunchalari.
2. Umumiy aloqadorlik, bog'lanish va rivojlanish haqidagi falsafiy qarashlar.
3. Qonun. Falsafiy qonunlar.
 - a) Ayniyat, tafovut, qarama – qarshilik va ziddiyat tushunchalari va ular dialektikasi.
 - b) Miqdor va sifat voqeligi.
 - v) Inkorni inkor dialektikasi.
4. Kategoriya tushunchasi. Sistema, element, struktura.
5. Ayrimlik, yakkalik, hususiylik, umumiylik. Butun va qism.
6. Mazmun va shakl.

Tayanch so'z va iboralar

O'zgarish, taraqqiyot, o'zaro aloqadorlik, dialektika, metafizika, taraqqiyot, qonun, qonuniyat, ayniyat, tafovut, qarama – qarshilik, ziddiyat, miqdor, sifat, me'yor, sakrash, inkor, inkorni inkor, vorislik, yangilanish.

Adabiyotlar

- SH.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Tosh.: "O'zbekiston", 2017.
- SH. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta'minlashning muhim omilidir. – "Xalq so'zi" gaz-si, 2017 yil 10 yanvar.
- O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2017 yil 7-fevral – Xalq so'zi, 2017 yil 8-fevral.
- Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008
- Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.: O'zb., 2000.
- Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. T.: O'zb., 2010
- Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. I –kitob. T.: Sharq, 2004.

Falsafa (M. Ahmedova va boshqalar). Darslik. T., 2006.
Falsafa: qomusiy lug'at. T.: Sharq, 2004.
Falsafa: qisqacha izohli lug'at. T.: Sharq, 2004.
Falsafa asoslari. Darslik. Tosh.: O'zb., 2005.
SHermammedova.N. Falsafa. O'quv-uslubiy majmua. "Noshir" T.: 2012

Borliq va undagi voqea-hodisalar o'z mohiyatiga ko'ra doimiy harakatda, o'zgarish va rivojlanishda, taraqqiyot va tanazzulda.

O'zgarish — borliqdagi barcha obyektlar va hodisalarning universal, eng umumiy xususiyati. O'zgarish buyum, narsa, voqea-hodisalarning yoki uning biron bir xossasi, belgisi, xususiyatlarining almashinuvi, bir holatdan ikkinchi bir holatga o'tishi jarayonidir. U har qanday harakat va o'zaro ta'sirni ifodalaydi. Zero, mavjudlik, eng avvalo, harakatlanmoq va o'zgarmoq demakdir.

Har qanday o'zgarish ma'lum ma'noda jarayondir. O'zgarishlarni o'z mazmuniga ko'ra tub va juziy o'zgarishlarga bo'lish mumkin. Ichki va tashqi, zaruriy va tasodifiy, muhim va muhim bo'lmagan o'zgarishlar... Mexanik, fizik, ximiyaviy, biologik va ijtimoiy o'zgarishlar.

Borliqning ajralmas belgilari ichida uning mavjudlik usulini ifoda etuvchi xususiyati harakatdir. Borliq harakatsiz o'zining tizimiy yaxlitligini saqlay olmaydi. Harakat eng avvalo ichki ziddiyatli jarayondir, ya'ni u buyum, voqea-hodisadagi barqarorlik va beqarorlikning, o'zgarish va osoyishtalikning birligidan iborat. Harakat, bir tomondan, moddiy jismlar o'rtasidagi va ularni tashqil etuvchi unsurlar o'rtasidagi aloqadorlikning natijasi, ikkinchi tomondan, ulardagi o'zgarishlar sifatida namoyon bo'ladi.

Taraqqiyot - tizimni yangilashga olib keluvchi ilgarilama o'zgarish.

Taraqqiyot (rivojlanish) moddiy obyekt va ma'naviy omillarning 1) yangi sifatlarini yuzaga keltiradigan; 2) takrorlanmaydigan, aniq yo'nalishda yuz beradigan; 3) qonuniyatli asosda ro'y beradigan tub o'zgarishlardir. Mazkur uch xususiyat mavjud bo'lgandagina o'zgarish taraqqiyot darajasiga ko'tariladi. Taraqqiyot tizimlarida mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklar birligi va kurashi jarayonida, mikdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga aylanishi, yangi sifat tomonidan eski sifatning inkor etilishi orqali yuz beradi. Taraqqiyot olamning umumiy tavsifi emas, balki olamdagi moddiy va ma'naviy tizimlarning xususiyatidir. Konkret tizimlardan tashqarida taraqqiyot yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Taraqqiyotning muhim tomoni shundaki, u zamon bilan bog'liq, har qanday taraqqiyot ma'lum vaqt davomida sodir bo'ladi. Taraqqiyot quyidan yuqoriga, soddadan murakkabga, tor doiralardan keng doiralarga ichki, ziddiyatli, spiralsimon ilgarilashdir.

Taraqqiyot dialektikaning asosiy tamoyillaridan biridir. Taraqqiyotning yo'nalishlari xilma-xil va ko'pqirralidir. Odatda tabiiy, ijtimoiy va ilmiy taraqqiyot turlari ajratiladi. Tabiiy taraqqiyot tabiatdagi narsa, voqea-hodisalarning ichki, zaruriy va qonuniy, ayni paytda stixiyali rivojlanishi tarzida namoyon bo'lsa, ijtimoiy taraqqiyot jamiyatdagi voqea-hodisalarning ma'lum ma'noda ongli rivojlanishi tarzida sodir bo'ladi...

Progress - murakkab tizimlarning yuqori va mukammal bosqichga o'tishini ta'minlaydigan rivojlanish turidir.

Regress - narsa, voqea, jarayonning inqirozi, orqaga kaytishidir.

O'zaro aloqadorlik taraqqiyot kabi dialektikaning asosiy tamoyillaridandir. O'zaro aloqadorlik ikki va undan ortiq buyum, voqea- hodisaning bevosita yoki bilvosita bog'lanishi, munosabatda, ta'sirda bo'lishi holatidir. Borliqda biron bir narsa, hodisa, jarayonlar yo'qki o'zaro aloqada, munosabatda, bog'lanishda bo'lmasin. Borliqdagi barcha aloqalarni tizimlashtirib eng umumiy, umumiy va xususiy aloqadorlikka ajratish mumkin. O'zaro aloqadorlik va bog'lanishlarning ko'lami, mohiyati, ta'sir kuchi va doirasiga qarab ichki va tashqi, zaruriy va tasodifiy, bevosita va bilvosita, muhim va muhim bo'lmagan turlariga bo'lish mumkin...

Tabiat va jamiyatdagi jarayonlarda o'zgarish, harakat, taraqqiyot va o'zaro aloqadorlik doimo birgalikda faoliyat ko'rsatadi, ularni birini ikkinchisidan faqat nazariy jihatdan ajratish mumkin. Bunga o'nlab misollarni, siz talabalar, o'zlaringiz keltira olasizlar...

Borliq va uning konkret turlari, shakl, ko'rinishlari o'z mavjudligida, faoliyatida umumiy aloqadorlik, bog'liqlik va rivojlanish tamoyillariga amal qiladi. Falsafa bu tamoyil, qonunlar va kategoriyalarni amal qilish yo'llari, usullarini o'rganadi.

Olamdagi va odamdagi o'zgarish, rivojlanish, umumiy aloqadorlik va bog'liqlik qay tarzda ro'y berishi, qanday sodir bo'lishi mumkin? kabi masalalar mana shunday muammolarning echimiga yondoshishning xilma-xilligi bir qator falsafiy tafakkur usuli va ta'limotlarni yuzaga keltirdi.

Usul (yunoncha-metod)-eng umumiy ma'noda maqsadga erishish yo'li, muayyan tarzda tartibga solingan faoliyat. Falsafiy ma'noda - bilish vositasi sifatida, o'rganilayotgan buyumni tafakkurda qayta hosil qilish yo'lidir. Bilish usullari asosida voqelikning obyektiv qonunlari yotadi.

Uslubiyat (Metodologiya) - 1) biror fanda tatbiq etiladigan tadqiqot usullarining majmuidir; 2) ilmiy bilish usuli haqidagi ta'limotdir.

Usullar o'z mohiyati, amal qilish doirasiga ko'ra, ENG umumiy, umumiy va xususiy usullarga bo'linadi... Bu usullar o'zaro bog'liq, bir-birini boyitadi va yaxlit bir tizim tarzida faoliyat ko'rsatadi.

Usul-amaldagi nazariyadir.

Dialektika, metafizika, sofistika, eklektika, dogmatika, sxolostika kabi tafakkur usullari, yondashuvlar shular jumlasidandir.

II. Dialektika-(qadimgi yunon tilida bahslashish, suhbatlashish demakdir) taraqqiyot to'g'risidagi ta'limot, ilmiy bilish usullaridan biridir. Dialektika qadimda bahs-munozaralar orqali haqiqatni aniqlash yo'li, usuli, haqiqatga erishish va uni tushuntirish san'ati tarzida talqin etilgan. Dialektika haqidagi falsafiy bilimlar rivojlanib borishi bilan uning mazmuni ham boyib bordi. Dialektika borliqdagi barcha narsalar, hodisalar, jarayonlar o'zaro aloqada, bog'lanishda, o'zgarishda va rivojlanishda, deb talqin qiluvchi ta'limot sifatida e'tirof etildi.

Falsafa tarixida dialektika to'g'risida xilma-xil qarashlar bo'lgan. Antik davr dialektikasi sodda va stixiyali bo'lib, asosan, hayotiy tajribaga asoslangan. Dialektika atamasini Sokrat birinchi bo'lib qo'llagan, u dialektikaning mayevtika (harf yaratish

san'ati) bilan taqqoslagan. Geraklit umumiy o'zgaruvchanlikning universalligi, Zenonning aporiyalari, Eley maktabi vakillarining harakat va borliq shakllari, Demokritning atomlar mavjudligi va harakati, Aristotelning o'zgaruvchanlik muammosini taraqqiyot omili, ziddiyatlar, inkor, vorislik, bilish xususiyatlari, mazmun va shakl, metodlar haqidagi qarashlari antik dialektikaga qo'shilgan muhim hissadir. YAngi zamon dialektikasi Kant, Fixte, Gegel qarashlarida muhim o'rin tutadi. Dialektikani taraqqiyotning umumiy nazariyasi sifatida Gegel asoslab bergan. U Aristoteldan keyin dialektikani fan darajasiga ko'targan faylasufdir.

Falsafa mutaxassislari dialektikaning turli xillari bor, deb hisoblaydilar. Mas., obyektiv dialektika, subyektiv dialektika, idealistik dialektika, materialistik dialektika, metafizik dialektika va boshqalar. Dialektika falsafiy metod hamdir. Unga ko'ra, olamda abadiy harakat, o'zgarish, doimiy aloqadorlik, vaqtning ortga qaytmasligi, voqealarning ketma-ketligi, rivojlanish va taraqqiyotda inkor va vorislik mavjuddir.

Dialektika fan va metod sifatida tarixiylik, mantiqiylik kabi turli tamoyillar asosida olam, odam va bilim jarayonlarini o'rganadi, ularning doimiy o'zgarishini ifodalaydi.

Vorisiylik, abadiy va azaliy uzuluksizlik, doimiy aloqadorlik, rivojlanish va taraqqiyot, olamning rang-barangligi va uyg'unligi, yangining engilmasligi kabilar dialektika tamoyillari sifatida amal qiladi.

Falsafada o'zgarish va rivojlanish tamoyillariga asoslangan tafakko'rni dialektik tafakkur, ana shunday dunyoqarashni dialektik dunyoqarash, yondashuvni dialektik yondashuv, izlanish usulini dialektik usul (metod) deb atash odatga aylangan. SHu bilan birga dialektikani talqin qilish va unga asoslanishning o'ziga xos ko'rinish va maktablari mavjud.

Metafizika (yunoncha «fizikadan keyin», «katta fizika» ma'nosini ifodalaydi) olam va undagi turg'un, muayyan vaqt davomida nisbatan o'zgarmay turadigan barqaror jihatlarni olamning mohiyati sifatida talqin qiluvchi ta'limot. Metafizik usul ham hayotda, ilmiy izlanishda va falsafiy tafakkurda o'z o'rniga ega. Hozirgi zamon fizika, ximiya, biologiya va texnika fanlarining shakllanishida, muayyan qarashlar tizimining yuzaga chiqishida metafizik falsafiy qarashlarning xizmati katta.

Falsafa va uning tarixida dialektik va metafizik usullardan tashqari sofistika, eklektika, dogmatika, sxolastika kabi tafakkur usullari ham qo'llanilgan va qo'llanilmokda. Hozirgi davrda germenektika, sinergetika va boshqa bir qator falsafiy tafakkur usul va ta'limotlari yuzaga kelgan. Falsafiy yondashuv va metodlar olam qonuniyatlarini tushunishga yordam beradi va faylasuflar bu usullardan o'z tadqiqotlarini amalga oshirish va izlanishning natijalarini talqin qilish va izohlashda keng foydalanadilar.

Falsafa usul(metod)gina emas, balki uslub (metodologiya) hamdir, ya'ni bilishlik va amaliy faoliyatni tashqil qilish va tuzilish yo'llari va tamoyillari tizimi, shuningdek bu tizim haqidagi ta'limotdir.

Sofistika - qadimgi yunon tilidan olingan tushuncha bo'lib, ataylab xilma-xil ma'noga ega bo'lgan tushunchalarni ishlatish orqali kerakli, ammo doim ham haqiqatga to'g'ri kelmaydigan, ko'chma mazmunga erishish usulidir.

Eklektika (yun.-tanlovchi)-fikir ketma-ketligiga amal qilmasdan, biron tomoyilga rioya qilmagan holda turli, hatto bir-biriga zid g'oyalarni bir falsafiy ta'limotda birlashtirish usuli. Dialektika usulidan chekinib dogmatik xulosaga kelish eklektikaga taalluqlidir. **Dogmatika** (yun.-fikir, ta'limot) aqidaparastlik ko'rinishlardan biri bo'lib, biron haqiqatni mutloqlashtirish, borliqdagi, fikrdagi o'zgarishlarni e'tirof etmaslikdir. Biron ijobiy g'oya dogmatik qo'lida teskarichilik quroliga aylanishi mumkin.

Sinergetika-olamning borliqdagi tizimlarning o'z-o'zini tashqil etishi, makon va zamonda narsa va voqealarning azaliy ketma-ketligi, turli tizimdagi narsalarning o'zaro aloqadorligi, ularning tizimi sababiy bog'lanishlar asosida mavjudligini e'tirof etishga asoslangan ilmiy qarashlar majmui, tafakkur uslubi. U XX asrning II yarmida ilmiy-texnika inqilobini falsafiy tahlil va talqin qilish negizida yuzaga keldi. G.Xaken, N.Prigojin uning asoschilaridandir. Sinergetika asosan fizika, kimyoviy, biologik hodisalarning hamda iqtisodiy, texnik, ijtimoiy jarayonlarning o'z-o'zini tashqil etish, o'z-o'zini boshqarish, -tartiblilikdan tartibsizlik (xaos) ga o'tishi, chiziqli va chiziqsizlik kabi xolatlarning mohiyati va qonuniyatlarini izohlaydi. Agar dialektik ta'limot ko'proq chiziqlilik tafakkuriga asoslangan bo'lsa, sinergetika chiziqsizlik tamoyilini yoqlaydi. Ushbu tamoyil taraqqiyot oldindan belgilab qo'yilgan yo'ldan ketmay, har bir narsaning ichki bir xususiyati va tashqi aloqadorligi negizida har safar yangi va betakror yo'ldan borishini ko'rsatadi. Dialektik usul bilan uyg'un bo'lgan bu ta'limotning dovrug'i o'sib bormoqda.

Ana shunday turli - tuman qarashlarga asos bo'lgan usullar har bir faylasuf va falsafiy ta'limotlarda o'z o'rniga ega bo'lib kelmokda (tegishli mavzularda bularga yana to'xtalamiz).

III. Mazkur masala dialektika tamoyillari, qonunlari va kategoriyalarining mazmun va mohiyatini, ularning mavjudlik va amal qilish jarayonlari mexanizmini aniqlashni maqsad qilib oladi.

Printsip (tamoyil) - biron bir ta'limotning asos qilib olingan negiz qoidasi (nizomi) bo'lib, bilishlik va amaliy faoliyatimizda unga ongli va izchil rioya qilinadi. Mas, dialektikaning asosiy printsiplari umumiy aloqadorlik va bog'liqlik tamoyili va taraqqiyot tamoyilini olaylik...

Qonun - muayyan shart-sharoitda voqealar rivojining xususiyati va yo'nalishlarini belgilaydigan, ma'lum bir qat'iy natijani taqozo etadigan, obyektiv dunyodagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy, ichki, barqaror munosabatlaridir.

Qonuniyat tushunchasi qonun tushunchasiga nisbatan kengroq, umumiyroq ma'noda qo'llaniladi. Agar qonun konkret, zaruriy bog'lanish bo'lsa, qonuniyat tabiat yoki ijtimoiy hayotning muayyan sohasi izchil taraqqiyotini belgilovchi qonunlarning butun tizimining jamlangan faoliyatidir.

Munosabat barcha hodisalar o'zaro aloqadorligi, o'zaro bog'liqligining momentidir.

Qonunlarning obyektivligi... Xususiy, umumiy va eng umumiy qonunlar... Tabiat va jamiyat qonunlari, ularning umumiy jihatlari va o'ziga xos xususiyatlari... Dinamik va statik qonunlar...

Falsafa qonunlari obyektiv dunyo, jamiyat va tafakkur hodisalarining o'zaro bog'liqligi va rivojlanishining eng umumiy va muhim tomonlarini ifodalaydi, moddiy va ma'naviy borliqni o'rganish va o'zgartirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

a) Qarama - qarshiliklar birligi va kurashi rivojlanishning ichki manbalari, sabablari, impulslarini ko'rsatib beradi.

Taraqqiyotning manbaini qidirish juda qadimdan boshlangan.

Kishilar o'sha davrlardayoq qarama-qarshi tomonlar, ular o'rtasidagi ziddiyatlar haqida fikrlar bildirganlar. CHunonchi, "Avesto" da ezgulik va yovuzlik olami o'rtasidagi kurash bosh mavzu bo'lib, asardagi butun voqealar ana shu asosga qurilgan.

Xitoy, Hindiston ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixida ham qarama-qarshiliklar, ularning birligi, ziddiyatlar to'g'risida salmoqli fikrlar mavjud.

Dialektik tafakko'ring asoschilaridan biri Geraklitning "Tabiat haqida"gi parchalar tarzida etib kelgan asarida harakat, taraqqiyot ziddiyatlar tufayli amalga oshadi, degan ajoyib faraz ilgari suriladi. U qarama-qarshiliklar kurashini abadiy mavjud bo'lgan "yalpi logos", ya'ni qonuniyat deb atagan.

Nemis milliy falsafasining vakili Gegel ziddiyatlar to'g'risidagi ta'limotni chuqur ishlab chikdi va "ziddiyat har qanday harakatning va hayotiylikning tomiridir", degan nihoyat ahamiyatli fikrni tafakkur jarayoni bilan bog'ladi va ziddiyatlarni kelishish yo'li bilan bartaraf qilinadi, dedi.

Qarama-qarshilik narsa, hodisalarning bir-birining taqozo qiladigan, ayni paytda bir-birini inkor etadigan jihat, xususiyat, mayllar birligidir. Mas., magnitning qutbiy tomonlari, plyus va minus, jarangli va jarangsiz, unli va undosh, o'ng va chap, ezgulik va yovuzlik, hayot va o'lim, yaxshilik va yomonlik h.k.

Ayniyat - qarama-qarshiliklar birligi holati bo'lib, bu qarama-qarshi tomonlarning bog'liqligi va nisbatan mos kelishini ifodalaydi.

Tafovut tomonlarning ma'lum darajada o'zaro farqlanishidir. **Ziddiyat** qarama-qarshi tomonlar o'rtasidagi keskinlashgan tafovutlarning namoyon bo'lish shaklidir.

Ayniyat, tafovut, ziddiyat, qarama-qarshilik, konflikt buyum va hodisalarning ichki holati, rivojlanish darajasi va bosqichlaridir.

Qarama-qarshi tomonlar birligining buzilishi miqdoriy rivojlanishning sifat o'zgarishiga o'tishiga, yangi buyum, hodisaning vujudga kelishiga olib keladi. .

Tabiat va jamiyatdagi ziddiyatlar ichki va tashqi, asosiy va asosiy bo'lmagan, antagonistik va noantagonistik ziddiyatlar tarzida namoyon bo'ladi. Ularni konfliktologiya fani o'rganadi.

Ichki ziddiyatlar obyektiv dunyodagi hamma o'zgarishlarning, bir-biriga aylanishlarning tomiri, sababidir. Asosiy, bosh ziddiyatni to'g'ri aniqlab olish fan va amaliyotda o'ta muhimdir...

Umuman olganda, yuqorida keltirilgan ziddiyatlar nisbiy va ular bir-biriga o'tib turadi.

Ijtimoiy hayot va uning konkret sohalari ichki ziddiyatlarini bartaraf qilishda konsensus - kelishuvlarning ahamiyati beqiyosdir. Bu usul jahon xalqlarining milliy totuvlikka, o'zaro hamkorlikka, birlikka, barqarorlikka erishishida muhim ahamiyatga ega bo'lmokda.

Tanqid, o'z-o'zini tanqid ham ziddiyatlarni bartaraf qilishning muhim vositasidir...

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" ma'ruzasi chuqur tahlil hamda tanqidiy yondashuv bilan diqqatga sazovordir.

b) Olamning mavjudligi - miqdor va sifat voqeligi tarzida namoyon bo'lib uni falsafaning mikdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi qonuni o'rganadi. Bu qonun taraqqiyot jarayonining xarakterini, eskidan yangiga o'tish yo'li va shakllarini, o'zgarishlar nimadan boshlanib qanday, nima bilan tugashini ko'rsatib beradi. Taraqqiyotning ichki mexanizmini aniqlaydi.

Mikdor va sifat o'zgarishlari birligi narsa va hodisalarning mikdor, sifatleri o'rtasidagi muayyanlikni, mikdorning ortib borishi sifat o'zgarishiga qanday ta'sir ko'rsatishini va boshqa shular bilan bevosita bog'lik bo'lgan masalalarni yoritadi.

Sifat buyum, voqea-hodisalarning muayyanligini-«o'z»ligini ta'minlaydigan, ularga barkarorlik bag'ishlaydigan xususiyat va belgilar yig'indisidir. Sifat buyum va voqealarni boshqalaridan farqlovchi shunday ichki muayyanlikki, uning o'zgarishi boshqa buyum va voqeani yuzaga keltiradi.

Narsa va hodisalarning sifati faqatgina uni boshqa narsa va hodisalardan ajratib turmay, balki uning narsa va hodisalar bilan o'zaro bog'liq, chambarchas aloqada ekanligini ham ko'rsatadi.

Narsa, voqea-hodisalarda **ko'p sifatlilik**...

Predmet va hodisalarning sifati ularning "xossa"si orqali ifodalangan bo'ladi. Garchi "sifat", "xossa", "xususiyat" kategoriyalari ba'zan bir xil ma'noda ishlatilsa -da, ularning farqini bilmoq kerak.

Sifat buyum va hodisalarning umumiy tomonlarini aks ettirsa, ya'ni mohiyatini ifodalasa, xossa, xususiyat-sifatning tashqi ifodasi, muayyan buyum, hodisaning boshqasiga munosabatidagi sifatdir, uning tomonidir. SHu sababdan ham sifat o'zgarishi eng avvalo xossaning o'zgarishi bilan bog'liq. Sifat - xossalarning butunligi.

Narsalarning hamma xossalari ob'ektiv sharoit bilan bog'liq bo'lib, ma'lum bir paytda konkret bir xossa belgilovchi xarakterga ega bo'ladi. Mas., benzinni olganimizda uning asosiy xususiyati, xossasi yonish xususiyatiga egaligidir, lekin ba'zi paytda bu xususiyat ikkinchi o'ringa tushib qolishi mumkin.

Xossa, xususiyat, belgilar mutloq xarakterga ega bo'lmay, nisbiy, relyativ xarakterga egadir.

Narsa va hodisalardagi son, hajm, daraja kabi tomonlarning muayyanligiga **miqdor** deyiladi.

Miqdor bilan sifat o'rtasida umumiy tomon-ob'ektivlik xususiyati borligidan tashqari, ular o'rtasida ayrimalar ham bor. Sifat buyumga aynan teng kelsa, mikdorda bu holatni ko'rmaymiz, miqdor uzoq davrgacha o'z holatini saqlab qola olmaydi. Mas., aytaylik suv nol gradus bilan yuz gradus o'rtasida suyuqlik holatini saqlab qoladi, yuz gradusga isitilsa, bug'ga aylanadi... Sovuq, iliq, issiq suv... Bu

holat miqdoriy o'sish yoki kamayishning ham ma'lum chegarasi-me'yor chegarasi borligini ko'rsatadi. V. Gegel miqdorning bu xususiyatiga to'xtalib "Miqdor o'zgarishi sodir bo'layotganida dastlab bu o'zgarish butunlay begunoh bo'lib ko'rinadi, lekin bu o'zgarish yana qandaydir boshqacharoq bir holatni pana qilib turadi, ammo begunoh bo'lib ko'ringan bu miqdor o'zgarishi shunday bir hiyladirki, shu hiyla vositasi bilan sifat o'zgarishi tuzoqqa ilinadi" (Gegel, Asarlar, I- t., 1929 y., 186-bet).

Demak, miqdor, miqdoriy o'zgarishlar sifat bilan, buyum bilan ichki jihatdan aloqador, bu aloqadorlik yashirin xarakterga ega.

Har bir buyum, narsa, voqea, hodisa miqdor va sifat muayyanligidan iborat, bu birlik ularning rivojlanishini ta'minlaydi, me'yor darajasini ko'rsatib turadi. **Me'yor** narsa va hodisalarning birligini ifodalovchi falsafiy kategoriyadir. Me'yor narsa va hodisaning shunday bir paytini aks ettiradiki, bu chegarada miqdorning o'zgarishi sifat o'zgarishiga olib kelmaydi. Me'yor chegarasining buzilishi ob'ektiv jarayon bo'lib, bu yangi sifatni maydonga keltiradi, yangi sifatning yana miqdoriy o'sishi asosida me'yor chegarasi buzilib, o'rnini yana yangisi egallaydi.

Me'yorning buzilishi, miqdorning o'zgarishi ko'p hollarda taraqqiyot bilan bog'liq bo'ladi.

Miqdorning asta-sekin ortib borishi evolyutsion o'zgarishga olib keladi. Evolyutsion rivojlanish davrida odatda buyum, hodisaning ichki o'zgarishi yuz beradi, ular o'zlarining mohiyatini saqlab qoladilar.

Sakrash-eski sifatning inkor etilishi va yangi sifatning qaror topishi, uzluksizlikning uzilishidir. Sakrash evolyutsion bosqichning tugallanishidir.

Sakrash rivojlanishning eng intensiv shaklidir. Sakrashlar sekin yoki shiddatli bo'lishi mumkin. SHiddatli sakrashning o'ziga xos xususiyati eski sifatning yangi sifatga keskin va qat'iy, bir zarb bilan o'rin bo'shatib berishidir. Mas., tabiatda elementar zarralarning, ximiyaviy elementlarning sifatli o'zgarishi. Jamiyatdagi inqilobiy o'zgarishlar shiddatli sakrashlardir.

Sekin, evolyutsion (tadrijiy) yo'l bilan sakrashda eski sifat elementlari ohista o'lib, yangi sifat elementlarining ko'payishi kuzatiladi. Mas., insonning paydo bo'lishi va rivojlanishi singari murakkab jarayon birdaniga sodir bo'lishi mumkin emas edi.

Evbolidning "Kal", "Uyum" misollari.

Mustaqil O'zbekiston yo'li-tadrijiy rivojlanish yo'li. O'zbekistonning tarixan juda qisqa, atigi 26 yil davomidagi mustaqil rivojlanishi jarayonida tub o'zgarishlar amalga oshirildi.

O'zbekistonning iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim sohalarida tub sifat o'zgarishlari amalga oshirilmoqda. Buning yorqin misoli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyevning respublika mustaqilligining 26 yilligiga bag'ishlangan marosimdagi nutqida keltirilgan fakt va raqamlardir (Qarang: O'zbekiston Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma olti yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. –Xalq so'zi, 2017-yil 1-sentyabr.).

v) O'zgarish, rivojlanish jarayonida o'z-o'zini inkor etish tamoyili amal qiladi. **Inkorni-inkor** eski bilan yangi orasidagi vorisiylik, dialektik bog'liqlikni, taraqqiyotning quyi bosqichidagi ba'zi jihatlarning yuqori bosqichda **takrorlanishini** bildiradi.

Inkorni-inkor rivojlanishning yo'nalishini ifodalaydi.

Tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalarning takrorlanish xarakteriga ega ekanliklarini qadimgi dunyo mutafakkirlari ham bilganlar va ular bu takrorlanish tamoyillarini aniqlashga harakat qilganlar.

Bir latifada Oksford universitetning ikki talabasi mehmonxona xo'jayinini jamiyat voqea-hodisalari har yuz yilda bir marta takrorlanadi, deb laqqillatmoqchi bo'lgani, mehmonxona xo'jayini ularning bu "kashfiyoti" bilan o'zlarini mot qilgani haqida gap ketadi.

Lekin Pifagor dunyoni doiraviy, aynan qaytarilish nazariyasining muddatini ham aniqlashga uringan.

Inkorni-inkor dialektikasi birinchi marta Hegelning falsafiy tizimida o'z ifodasini topdi. Tezis-antitezis-sintez...

Amaliy hayotda inkor yo'q deyish, rad qilish, yo'qotish... Mexanik, metafizik inkor.

Dialektik inkor o'zining bir qator xususiyatlariga ega: 1) ob'ektiv; 2) narsa, hodisaning ichki rivojlanishi natijasi; 3) to'liq bo'lmagan inkor; 4) vorisiylikka asoslanadi; 5) ilgarilama harakatning qonuniy bosqichi, taraqqiyotni ifodalaydi; 6) konkret-tarixiy; 7) inkor etilayotgan narsaning ijobiy tomonlarini umumlashtiradi, ya'ni sintezlashtiradi.

Inkor jarayondir, u doimo harakatda, yangilanishda. Har qanday yangi davr o'tib eskiradi, o'rnini yangi egallaydi. Bu jarayon uzuliksizlik xarakteriga ega. **YAngining engilmasligi** tamoyilining mohiyati shundaki, yangi konkret shart-sharoitdan, davr ehtiyojidan kelib chiqadi, uni davrning o'zi yaratadi. Davrga mos bo'lmagan belgilar, xossalar, xususiyatlar birin-ketin uloqtiriladi va nihoyat eski buyum, hodisaning o'ziga ham navbat etadi. Demak, har qanday yangi eskini inkor qilish asosida yuzaga keladi. Bu cheksiz jarayondir. Biror buyum, narsa rivojida ketma ket kelgan ikki inkor bir tasdiq alomatidir. Inkorni-inkor deyilishi mana shunga ishoradir. Inkorni-inkor qonuni taraqqiyotni quyidan yuqoriga, soddadan murakkabga, spiralsimon tarzda kechishini ko'rsatadi. Spiralsimonlik taraqqiyotda uchlari tutashmaydigan doiraviylikni bildiradi. Inkorni inkor universal xarakterga ega. Mustaqil O'zbekistonimiz hayotining barcha sohalarida tub o'zgarishlar amalga oshirilmokda: iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy, maorif va boshqa jabhalarda. Bu tub o'zgarishlar vorisiylik va davomiylikka asoslangan. I. A. Karimovning "YAngi uy qurmay turib, eskisini buzmay" nomli risolasi nomiga e'tibor bering. Prezidentimizning bu da'vati xalqimizning amaliy faoliyatida o'zining moddiy ifodasini topmoqda. Mustaqillikni mustahkamlash jarayonida milliy mafkurani shakllantirish va komil insonni tarbiyalash eng muhim dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

Mazkur qonunning amal qilishini to'g'ri tushunish fan, ishlab chiqarish amaliyotidagi yutuqlarimiz kalitidir.

5-Mavzu: Bilishning mazmun va mohiyati va bilish darajalari. Falsafada haqiqat muammosi.

Vaqt -2soat

Reja:

1. Bilish nazariyasining predmeti. Gnoseologiyaning mohiyati va mazmuni. Optimizm. Skeptitsizm. Agnostitsizm.
2. Bilimning asosiy turlari.
3. Bilim shakllarining o'ziga xos xususiyatlari.
4. Noilmiy bilim shakllari.

Tayanch tushunchalar

Gnoseologiya, epistemologiya, empirizm, idrok, pertsepsiya, transtsendental, optimizm, skeptitsizm, agnostitsizm, gnoseologik relyativizm, bilim, bilim shakllari, mehnat, amaliyot, kundalik amaliy bilim, o'yin vositasidagi bilim, mifologik bilim, badiiy bilim, diniy bilim, meditatsiya, falsafiy bilim.

Adabiyotlar

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2017 yil 7-fevral – Xalq so'zi, 2017 yil 8-fevral.

Karimov I. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008

Ibrohimov A., Sultonov H., Jo'raev N. Vatan tuyg'usi. T., 1997 30-37, 41-51 – betlar.

Falsafa asoslari (Q. Nazarov va boshqalar). Darslik. T., 2005.

Falsafa (M. Ahmedova va boshqalar). Darslik. T., 2006.

Falsafa: qomusiy lug'at. T.: Sharq, 2004.

Falsafa: qisqacha izohli lug'at. T.: Sharq, 2004.

SHermammedova. N. Falsafa. O'quv-uslubiy majmua. "Noshir" T.: 2012

Tulenova K.J. va boshqalar. Falsafa. O'quv-uslubiy majmua. TDPU. 2012

Bilish nazariyasining predmeti. «Gnoseologiya» - sof falsafiy kategoriya. Uning nomi yunoncha gnosis – bilim, ilm va logos – ta'limot, fan so'zlaridan kelib chiqqan. So'zma-so'z ma'nosi - «bilish haqidagi ta'limot (fan)», «ong haqidagi ta'limot (fan)». Falsafiy adabiyotlarda, shu jumladan falsafiy qomuslar va lug'atlarda «gnoseologiya» atamasi «bilish nazariyasi» deb tarjima qilingan. SHu bilan bir qatorda, ayni shu mazmunni ifodalash uchun falsafiy adabiyotlarda «epistemologiya» so'zi ham qo'llaniladi.

SHuni ta'kidlash lozimki, gnoseologiyaga tatbiqan bilish nazariyasi va epistemologiya nomlarining qo'llanilishini o'rinli deb bo'lmaydi. Zotan, «episteme» so'zi «pistis» - e'tiqod so'zi bilan uzviy bog'liq. Biroq, biz biladigan (gnosio) va biz ishonadigan (pistio), mavjudligiga e'tiroz bildirmaydigan narsalar – falsafiy va ilmiy bilimlarning hozirgi darajasida mazmunan har xil tushunchalardir. SHu bois

G'arbiy Evropa falsafasida epistemologiyani mazmuni ikki xil, ba'zan esa – uch xil talqin qilinadi.

Umuman olganda, hozirgi zamon falsafasida gnoseologiya bilish jarayonining umumiy, aniqroq aytganda – falsafiy mohiyati hamda umumiy muammolariga e'tiborni qaratadi. Epistemologiya esa, bizning muayyan narsalar haqidagi bilimlarimiz va (yoki) e'tiqodlarimizning ishonchlilik darajasini o'rganadi.

Demak, epistemologiya gnoseologiyani tarkibiy qismi yoki uning amaliy ifodasidir. Tom ma'nodagi epistemologiya hozirgi kunda ilmiy, haqiqiy bilimning mazmunini, shuningdek diniy e'tiqodlarning gnoseologik mohiyatini o'rganish bilan shug'ullanadi. Bunda esa bilish (ong)ning mohiyati to'g'risida bahs yurituvchi falsafiy ta'limot ma'nosidagi «gnoseologiya» atamasidan foydalaniladi. SHu bilan biz avval gnoseologiya muammolari doirasini aniqlab olishga harakat qilamiz.

Gnoseologiya yoki bilish nazariyasi falsafiy bilimlar (falsafa fani) bo'limi bo'lib, unda 1) insonning dunyoni bilish imkoniyati 2) insonning o'zlikni anglash jarayoni; 3) bilishning bilmaslikdan bilim sari yuksalishi, 4) bilimlar tabiati va ularning mazkur bilimlarda aks etuvchi narsalar bilan o'zaro nisbati o'rganiladi.

SHunday qilib, umuman olganda, gnoseologiya ong, bilish, bilimni o'rganish bilan shug'ullanadi.

SHaxsiy va ijtimoiy tajribada biz ongni mavjudligini aniq sezamiz, ongni o'z-o'ziga, boshqa odamlarga va umuman jamiyatga ta'siri natijalarini fiziologik darajada his qilamiz va ko'ramiz. Biroq bu jarayonda ongni o'zi ko'rinmaydi. Moddiy dunyo hodisalaridan farqli o'laroq, ongni kuzatish mumkin emas. U go'yo vaqt va makon chegaralaridan tashqarida turadi. Gnoseologiyani vazifasi bu ko'rinmas ongni idrok etish, uning moddiy narsa va hodisalar dunyosi bilan o'zaro aloqalarini aniqlash, uni o'z muhokama va tadqiqot predmetiga aylantirishdan iborat.

Gnoseologiyani asosiy muammosi bizning barcha bilimlarimiz tajribada sinalganmi? degan «oddiy» masalani echishdan iborat: Bu savolga javob izlash va masalani echimini topishda gnoseologiyada ikki muholif an'ana: bilimlarimiz tajribada sinalganini qayd etuvchi empirizm va buni inkor etuvchi ratsionalizm to'qnashadi.

Ratsionalizm (ratsionalistlar) insonda tug'ma g'oyalar, adolat, insoniylik, uyg'unlik g'oyalari va tajribadan olinishi mumkin bo'lmagan boshqa g'oyalar mavjudligidan kelib chiqadi. Zotan, tajriba to'la adolat, yalpi insoniylik mavjud emasligini, bizni qurshagan dunyoda uyg'unlik ustidan xaos hukm surishini ko'rsatadi. Bunda ayrim ashaddiy ratsionalistlar (masalan, Platon, Avgustin va ularning hamfikrlari) ko'rsatib o'tganidek g'oyalar inson aqliga xos tug'ma g'oyalar bo'lib, ularni inson faqat o'z aqlidan olishini qayd etadilar; boshqa, mo'tadil ratsionalistlar (masalan, Leybnits, Volf, Baumgarten) esa, g'oyalar aqlga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lsa-da, biroq ular faqat aqlda tafakkur va falsafiy mushohada yuritish jarayonida tug'ilishini ta'kidlaydilar.

Empirizm (empiristlar, Frensis Bekon, Lokk, Gobbs, YUm, Feyerbax), aksincha, inson, insoniyat shaxsiy yoki ijtimoiy tajribaga ega bo'lgunga qadar biron-bir g'oya mavjud bo'linishni inkor etadilar. Ular barcha g'oyalar inson ongi zamirida

yo shaxsiy tajriba, yo boshqalar tajribasi, butun insoniyat tajribasini umumlashtirish orqali tug'ilishini qayd etadilar va bu tezisni isbotlashga harakat qiladilar. Ularning fikriga ko'ra, tajriba inson ongida uning sezgilari va o'zini qurshagan dunyoni idrok etishi orqali aks etadi. Falsafada idrok etishni **pertsepsiya** (lotincha «perception» - idrok etish) deb atash odat tusini olgan. Pertsepsiya o'zini qurshagan dunyodagi narsalar va hodisalarni sezgilar orqali idrok etishga aytiladi, borliqni aql bilan anglash, bilish, ularni g'oyalarda ifodalash esa **appertsepsiya** deb ataladi.

Gnoseologiya inson bilimining chegaralari to'g'risidagi masalani echishni ham o'z ichiga oladi. Ko'pgina empiriklar (masalan, David YUm, Dyubua Raymond, agnostiklar) va ratsionalistlar (masalan, Kant va uning hamfikrlari) inson nafaqat umumiy narsa va hodisalarni, balki muayyan, konkret narsalarni ham bilishi mumkin emas, degan fikrga qo'shiladilar. Ayrim narsalar, hodisalar va kontsepsiyalar borki, ular pertsepsiyamizning chegaralariga ham, tafakkurimiz, refleksiyamiz (lotincha «reflexes» - orqaga qaytish) doirasiga ham sig'maydi. Masalan, Kant Koinot ibtidosi yoki ibtidosizligi, Xudoning borligi yoki yo'qligi, jonning boqiyliigi yoki foniyligi, axloqning sababiyliigi yoki sababsizliigi aqlning bilish chegaralariga sig'maydigan, oqilona o'rganib bo'lmaydigan transtsendental (lotincha «transcendentalism» - chegaraga sig'maydigan) masalalardir, deb hisoblagan. XX asr pozitivistlari, empirizm g'oyalarini himoya qilgan yirik olimlar (Moris SHlik, Rudolf Karnap, A.J.Ayer) Katnning transtsendental muammolarini mantiqsiz deb e'lon qildilar.

Gnoseologiya inson bilimi va bilishga doir juda ko'p muammolar bilan shug'ullanadi. U bizning bilimlarimiz qay darajada e'tiqod, qay darajada ko'r-ko'rona ishonch va qay darajada real borliqning haqiqiy in'ikosi ekanligini aniqlashga harakat qiladi. So'nggi o'n yilliklarda gnoseologiyada bilimlar o'rtasidagi farq, «nimani bilaman», «qanday bilaman», «shaxsiy tajribamdan bilaman», «dalilga ko'ra bilaman» kabi iboralar mazmunining o'zaro nisbati masalalari muhokama qilinmoqda. Bir so'z bilan aytganda, gnoseologiya borliqni to'liq qamrab olib, unda biron-bir tafsilotni nazardan qochirmaslikka harakat qiladi. Demak gnoseologiya falsafaning eng muhim omilidir.

Gnoseologiyaning mohiyati va mazmuni. Optimizm. Skeptitsizm. Agnostitsizm. Bilish jarayoni rivojlanish qonuniyatlarining shakllari, haqiqatning tagiga etish imkoniyatlari nuqtai nazaridan o'rganiladi. Uning har xil modellari, yondashuvlari mavjud. Materialistik modellar zamirida dunyoning inson ongida aks etish tamoyillari: Demokritda – obrazlar (eydoslar), YAngi davr faylasuflarida – sensor signallari, Berklida – subyektning sezgilari yotadi. Leybnits bilishni ilohiylashtirilgan g'oyaning inson tug'ma tushunchalariga ta'siri deb hisoblagan. Gegel taklif qilgan modelning zamirida mutlaq g'oyani anglash yotadi. Max, Avenarius va boshqa subyektiv idealistlarda (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) bilish jarayoni – bu sezgilarning bo'sh va tejamlil aloqasini amalga oshirishdir.

Inson aqli bilish pillapoyasidan yuqoriga ko'tarilar ekan, har bir yangi pog'onada qayta-qayta quyidagi savolga javob topishga harakat qiladi: dunyoni bilish mumkinmi?, bilishning chegaralari bormi? Falsafada bu savollarga javob beruvchi uch asosiy yo'nalishni farqlash mumkin: optimizm, skeptitsizm va agnostitsizm (Kant va boshqalar). **Optimistlar** dunyoni bilish mumkinligini

ta'kidlaydilar, **agnostiklar**, aksincha, buni rad etadilar (I.Kant – «narsa o'zida»). Skeptiklar esa, dunyoni bilish mumkinligini inkor etmaydilar (XVIII asrda D.YUm), biroq bilimning haqiqiyligiga shubha bildiradilar. Odatda, skeptitsizm paradigmalar, qadriyatlar, ijtimoiy tizimlar va hokazolar o'zgarayotgan davrda (yoki uning arafasida), ilgari haqiqiy deb hisoblangan xulosalar fan va amaliyot olgan yangi ma'lumotlar nuqtai nazaridan soxta, asossiz bo'lib chiqqan holda ravnaq topadi. Skeptitsizm psixologiyasiga xos xususiyat shundan iboratki, u darhol nafaqat eskirgan, balki yangi, shakllanayotgan fikrlar, g'oyalarni ham toptay boshlaydi. Bu psixologiya zamirida tadqiqotchining yangilikka tashnalligi va inson tafakko'rining kuchiga bo'lgan ishonch emas, balki qachondir qabo'l qilingan «qulay» tamoyillarga tayanish yotadi. Skeptitsizm ta'limot sifatida, hech shubhasiz, zararlidir, chunki u insonning bilish borasidagi deyarli barcha imkoniyatlarini kamsitadi.

Bilimga chanqoq bo'lgan, bilishga harakat qilayotgan odam optimist: «Men buning nimaligini bilmayman, biroq bilishga umid qilaman», deydi. Agnostik esa, «Men buning nimaligini bilmayman va hech qachon bila olmayman», deb ta'kidlaydi. YUzaki skeptitsizm, ko'r-ko'rona fanatizm kabi, dunyoqarashi tor odamlarda ko'p uchraydi. F.Laroshfuko ta'biri bilan aytganda, kalabin odamlar odatda o'z dunyoqarashi doirasidan chetga chiqadigan hamma narsani qoralaydi. Biroq oqilona darajadagi skeptitsizm foydali va hatto zarur. Bilish usuli sifatida skeptitsizm shubha shaklida amal qiladi, bu esa haqiqatning tagiga etish sari tashlangan qadamdir. SHubha eskirgan, qotib qolgan aqidalarning tagiga suv quyadi, ularga putur etkazadi. U – rivojlanayotgan fanning muhim unsuri. Bilimsizlik qayd etadi va inkor qiladi, bilim – shubhalanadi.

Biroq bu uch yo'nalishni farqlash, bizningcha, masalani soddalashtirishdan boshqa narsa emas. To'g'ri, agnostiklar dunyoni bilish mumkinligini inkor etadilar, ammo bu ko'r-ko'rona, hech narsaga asoslanmagan inkor etish emas. Ular ko'rsatayotgan ko'pgina savollarga chindan ham hali javob topilmagan. Agnostitsizmga olib keluvchi asosiy muammo shundan iboratki, narsa yoki hodisani bilish jarayonida bu narsa yoki hodisa albatta bizning tafakkur va sezgi a'zolarimizda aks etadi. Bu narsa yoki hodisa bizning tafakkur va sezgi a'zolarimizda aks etish natijasida qanday ko'rinish kasb etgan bo'lsa, biz ular haqida shunday ma'lumotga ega bo'lamiz. Narsalar va hodisalar aslida qanday ekanligini biz bilmaymiz va bilishimiz mumkin ham emas. Qarshimizda bosh-adog'i yo'q dunyo yastanib yotadi, biz esa unga o'z formulalarimiz modellarimiz va tushunchalarimiz bilan yaqinlashib, cheksizlikni o'z tasavvurlarimiz bilan ilg'ab olishga harakat qilamiz. Tushunchalar, kategoriyalar va nazariyalar «tugunlari»ni qay darajada qattiq qilib tugmaylik, dunyoni tushunib etishga shu yo'sinda da'vogar bo'lishimiz to'g'rimi? Bundan chiqdi, biz o'z bilish usullarimiz bilan chegaralangan dunyoda yashaymiz va olam haqida haqqoniy bir gap aytishga qodir emasmiz.

Biroq bilish fanining rivojlanishi agnostitsizmning bu amaliy xulosasini har qadamda rad etadi. Masalan, pozitivizm asoschisi O.Kont insoniyat Quyoshning kimyoviy tarkibini aniqlashga qodir emas, deb ta'kidlagan edi. Biroq keyinchalik spektral analiz yordamida Quyosh tarkibi aniqlandi. XIX asr fanining ba'zi bir namoyandalari atomlar amalda mavjud emas, ular faqat tafakkur mahsuli, deb

hisoblar edi. Biroq E.Rezerford atomlar amalda mavjud ekanligini isbotlab berdi, oradan yarim asr o'tgach, genlarning keng kimyoviy tarkibi aniqlandi.

SHunga qaramay, bugungi kunda ham agnostik xulosalarni neopozitivizm, fenomenologiya, ekzistentsializm, pragmatizm va hokazolarda kuzatish mumkin. Ularning agnostitsizmi nafaqat gnoseologik xususiyatga ega bo'lgan sabablar, ichki mantiq bilan, balki ma'lum darajada D.YUm va O.Kont falsafasi boshlab bergan an'ana bilan ham belgilanadi. Agnostitsizm haqida so'z borar ekan biz beyixtiyor I. Kantga murojaat qilamiz

Kant agnostitsizmining qisqacha mazmuni quyidagicha: biz biladigan narsa (fenomen) va o'z holicha mavjud bo'lgan narsa (noumen) mutlaqo har xildir. Biz hodisalar mohiyatini qay darajada teran anglamaylik, bizning bilimimiz baribir o'zicha mavjud bo'lgan narsalardan farq qiladi. SHunday qilib, I. Kant fikricha, bizning ongimiz, hissiyotimiz, tafakkurimizga bog'liq bo'lmagan narsalar olami mavjud. Uni faylasuf «narsa o'zida» sifatida ta'riflaydi. I.Kantning fikricha, bilish jarayoni «narsa o'zida»ning sezgi a'zolarimizga bevosita ta'siri ostida his-tuyg'uning uyg'onishidan boshlanadi. Vaholanki, his-tuyg'ular, tushuncha va hukmlar o'z holicha «narsa o'zida» haqida muayyan nazariy bilim berishga qodir emas. Lekin bundan ishonchli bilim yo'q ekan, degan xulosaga kelmaslik kerak. Matematika va tabiatshunoslik aynan shunday ishonchli bilim manbaidir. Ammo ular qay darajada ishonchli bo'lmasin, «narsa o'zida» haqidagi haqiqiy bilim bo'la olmaydi. Kant bizning tafakkurimizda shakllangan tushunchalar «narsa o'zida»ni qay darajada to'g'ri yoki noto'g'ri aks ettira oladi, degan savolga aniq javob mavjud emas, deb ta'kidlaydi.

Gnoseologik relyativizm – borliq hodisalari va voqealarini bilish o'zgaruvchanligi, o'tkinchiligini mutlaqlashtiruvchi agnostitsizmning yo'nalishlaridan biridir. Relyativizm tarafdorlari dunyoda hamma narsa o'tkinchi, haqiqiy dunyoviy darajada ham, hattoki ilmiy darajada ham bizning olam hodisalari haqida olgan faqat shu paytdagi bilimlarimizni ifodalaydi, kecha haqiqat deb hisoblangan narsa bugun ishtiboh, xato sifatida tan olinadi: huddi dori kabi, haqiqatning ham saqlanish muddati bor. Nisbiy mushohadalar bundan ham omonatroq. Bu ijtimoiy hayotda, axloq normalari va estetik didlarda ayniqsa yaqqol seziladi. YAqindagina shak-shubhasiz deb e'tirof etilgan narsa endi do'zaxdan chiqqan balo sifatida inkor etiladi. Baholar kaleydoskopdagi rangli dog'lar kabi o'zgaradi. Bundan go'yo bilish jarayoni – muvaffaqiyatsizlikka uchrashi tayin bo'lgan haqiqat ketidan «quvish», degan umumiy xulosa chiqariladi. Bizning barcha bilimlarimiz go'yo noaniqlik va noahiqiqiylik dengizida suzadi, u faqat – va faqat! – nisbiy, shartli konventsial (lotincha «conventional» - shartnomaga muvofiq) va subyektivdir.

Skeptiklarga xos bo'lgan bu yondashuv antik davridayoq yuzaga kelgan. Dunyoda hamma narsa shu qadar tez o'zgaradiki, unda mutlaqo o'zgarmas bo'lgan hech narsa mavjud emas, deb hisoblagan Kratil ta'limoti ashaddiy relyativizmga misol bo'lishi mumkin. Barcha bilimlarimizni faqat nisbiy deb hisoblash, mohiyat e'tibori bilan, bilishda o'zboshimchalik hukm surishini tan olish bilan barobardir. Bu holda bilish nisbatan o'zgarmas, ishonchli narsalar mavjud bo'lmagan, haqiqat bilan ishtiboh o'rtasida farq qolmaydigan, har qanday qoida va tamoyilga ishonch

yo'qoladigan, binobarin, hayotda hech narsaga amal qilib bo'lmaydigan uzluksiz oqimga aylanadi. Bilish nazariyasida mutlaq relyativizm – bu tafakkur «boyli»ning namoyon bo'lish shakllaridan biri. Unga quyidagi mushohada xos: haqiqat albatta mutlaq bo'lishi kerak, agar haqiqat mutlaq bo'lmasa, u haqiqat emas. Bu fikr zahirida nafaqat nisbiy, balki mutlaq haqiqatga ham ishonchsizlik yotadi. Relyativizm namoyandalari odatda haqiqiy deb hisoblangan qoidalar keyinchalik soxta deb inkor etilgan va aksincha, soxta deb hisoblangan qoidalar fan rivojlanishi jarayonida haqiqiy deb e'tirof etilgan hollar fan tarixida ko'p ekanligiga ishora qiladilar. Ilmiy bilishning harakat yo'li – amalda to'g'ri chiziqli emas, balki kesimlarida yangilash hollari yuz berishi mumkin bo'lgan egri chiziqdan iborat. Biroq bu bizning barcha bilimlarimiz safсата ekanligini isbotlamaydi. Relyativist «bilimda nisbiylik unsuri mavjud» degan to'g'ri qoidani «bilim doimo nisbiydir», binobarin, bilim kerak emas, degan yangilash qoidaga almashtiradi. «Bu eng yomon fikr: agar men hamma narsani bila olmasam, men hech ish qilmayman».

Bilimning asosiy turlari. Bilim nima? Bilim tushunchasiga aniq ta'rif berish qiyin, balki hatto mumkin ham emas. Gap shundaki, birinchidan, bu tushuncha eng umumiy tushunchalardan biri hisoblanadi, umumiy tushunchalarga esa doim aniq ta'rif berish qiyin. Ikkinchidan, bilimning juda ko'p turlari mavjud va ularning hammasini yonma-yon qo'yib bo'lmaydi. SHuni e'tiborga olib, bilim nima ekanligini aniqlashga harakat qilib ko'ramiz. Odatda, biz nimanidir bilishimiz haqida gapirganimizda, o'zimiz bu «nimadir» haqida ancha to'g'ri tasavvurga egamiz, deb hisoblaymiz. SHuningdek, bizning tasavvurimiz xom xayol yoki faqat o'z shaxsiy fikrimiz emasligiga ham ishonchimiz komil bo'ladi. Nihoyat, biz bu ishonchni mustahkamlovchi qandaydir dalillar keltirishimiz mumkin. SHunday qilib, o'z shaxsiy hayotimizda biz amaldagi holatga mos keladigan va ma'lum asoslarga ega bo'lgan ishonch, e'tiqodni bilim deb hisoblaymiz.

Teran ma'no bilan sug'orilgan bu bilim talqinining umumiy ruhi gnoseologiyada ham saqlanib qolgan. Ayni vaqtda, gnoseologiya bu talqin zahirida mujassam ba'zi bir holatlarni aniqlaydi va ularga oydinlik kiritadi. «S subyekt qandaydir P predmetni biladi» degan standart gnoseologik talqin quyidagi uch shartni o'z ichiga oladi:

- **haqiqiylik (muvofiglik) sharti** – «**agar P haqiqiy bo'lsa, u holda S P ni biladi**». Biz CHimyon Toshkentdan shimolroqda joylashganligini bilaman, basharti CHimyon chindan ham Toshkentdan shimolroqda joylashgan bo'lsa. Agar biz Amudaryo Tinch okeaniga qo'yiladi, deb aytsak, bizning bu fikrimiz bilim emas, balki yangilash fikr, xato bo'ladi.

- **ishonchlilik (e'tiqod, maqbo'llik) sharti** – «**agar S P ni bilsa, u holda S P ga ishonadi (uning mavjudligiga e'tiqodi komil bo'ladi)**». Masalan, agar biz O'zbekistonda dengiz bor desak, biz uning amalda mavjudligiga ishonamiz. Odatda bilim shunday ishonch yoki shunday e'tiqod hisoblanadi va ularni ajratish mumkin emas. SHunday bir vaziyatni tasavvur qiling: siz oyna oldiga kelib, tashqarida yomg'ir yog'ayotganini ko'rasiz. Siz: «YOmg'ir yog'yapti, lekin men bunga ishonmayman», deysiz. Bu iboraning anoto'g'riligi bilimimiz bizning e'tiqodimiz ekanligini ko'rsatadi.

• **asoslilik sharti «S P ni biladi, basharti u o'zining P ga bo'lgan ishonchini asoslab bera olsa».** Bu shart bilimni to'g'ri chiqadigan taxminlar yoki tasodifan mos kelish hollaridan farqlash imkonini beradi. Aytaylik, siz besh yashar bolaqaydan: «Quyosh sistemasida nechta sayyora bor?», deb so'ratingiz va «To'qqizta», degan javobni eshitdingiz. Siz bola sayyoralar sonini tasodifan to'g'ri aytdi deb hisoblaysiz. Agar u o'z javobini hech bo'lmasa buni onasidan eshitganini aytib, asoslab bera olmasa, siz bolaqayda bu dalil haqida haqiqiy bilim mavjud emas, degan to'xtamga kelasiz.

SHunday qilib, bu «uch qismli» talqinga muvofiq, quyidagi muxtasar ta'rifni berish mumkin: **bilim – bu haqiqatga mos keladigan va asoslangan ishonchdir.**

Bu ta'rif ancha sodda bo'lib, uni bilimning barcha turlariga nisbatan tatbiq etish mumkin. Bu so'zlar zahirida muayyan muammo yotadi. Masalan, biz Nyuton mexanikasi haqiqatga etarli darajada muvofiq emas va uning o'rnini Eynshteynning aniqroq nazariyasi egalladi, deb hisoblaymiz. Biroq buning natijasida Nyuton nazariyasi o'zining bilim xususiyatini yo'qotgani yo'q-ku? Eynshteynga qadar, uning haqiqiylikiga ko'pchilikning ishonchi komil bo'lgan davrda u bilim edimi? SHunga o'xshash so'zlarni hozirda fan tarixidan o'rin olgan minglab nazariyalar sha'niga aytish mumkin. Bilimni qanday qilib asoslash mumkin va *etarli asoslar* mavjudmi?

Bu savol ham ancha mavhum. Gipoteza, faraz odatda bilim shakli sifatida qaraladi, biroq olimlar o'zlari ilgari surayotgan gipoteza yoki farazlarning to'g'riligiga ba'zan ishonchi komil bo'lmaydi. Balki bilimni standart tushunish haddan tashqari taxminiy va nisbiydir? Qisman shunday, biroq bilim – bir ta'rif chegaralariga sig'dirish juda qiyin bo'lgan rang-barang hodisa ekanligi muhimroq. Agar «bilmoq» so'zi tilimizda qanday qo'llanilishiga nazar tashlasak, bilim turlari juda rang-barang ekanligini ko'rishimiz mumkin. Quyidagi gaplarni ko'rib chiqamiz. Men bu mashinani qanday qilib tuzatish mumkinligini bilaman. Men gitara chalishni bilaman. Men Po'latni o'n yildan beri bilaman. Men Toshkentni yaxshi bilaman. Men uchburchak burchaklarining yig'indisi ikki to'g'ri burchakka teng ekanligini bilaman. Men kit sut emizuvchilar oilasiga mansub ekanligini bilaman.

Bu bir qarashda o'xshash gaplarda «bilaman» so'zi har xil ma'nolarda keladi. Dastlabki ikki gapda bilish nimanidir bajara olishni anglatadi. Gnoseologiyada u «*bilim-ko'nikma*» deb ataladi. Keyingi ikki misolda bilish – bu «*bilim-tanishuvlik*» demakdir. U inson yoki qandaydir obyektning tanish qobiliyatini anglatadi. So'nggi gaplarda bilim «*nimanidir bilish*»ni ifodalaydi, chunonchi: u narsalarda qandaydir xossalalar, nisbatlar, qonuniyatlar va shu kabilarning mavjudligini tavsiflaydi. Bilim bu erda ma'lum **axborot** ko'rinishida keladi deb aytish mumkin.

Ko'rib to'rganimizdek, «bilim-ko'nikma» va «bilim-tanishuvlik» bilimning standart talqiniga uncha mos kelmaydi. Umuman olganda, ularga nisbatan haqiqiylik va asoslanganlik tushunchalarini tatbiq etish mumkin emas. Po'latni yaxshi yoki orqavarotdan bilish mumkin, biroq biz uni «to'g'ri» yoki «ishonchli» bilishimiz mumkinmi? Biroq, bu erda shuni ta'kidlash lozimki, yuqorida zikr etilgan

bilim turlari o'rtasidagi chegaralar aniq emas. Masalan, sizning Toshkent haqidagi bilimingiz siz shaharning kattaligi, aholisining soni, u O'zbekiston poytaxti ekanligi va hokazolar haqida ma'lum axborotga ega ekanligingizni nazarda tutadi. Biroq bu bilim – avvalo shahar bilan tanishlik, unda yaxshi mo'ljal ola bilish demak.

Gnoseologiyada asosiy e'tibor muayyan narsalar haqidagi bilimni tahlil qilishga qaratiladi. Zero, faqat shunday bilimni asosli va asossiz, ishonchli va ishonchsiz, haqiqiy yoki soxta bilim sifatida aniq baholash mumkin. Bilimni asoslash usullari, uning ishonchliligi, haqiqiylikni aniqlash mezonlarini izlash qadimdan bilimni falsafiy tahlil qilishning asosiy omili bo'lib keladi.

Biroq, hatto bilimning shu turini falsafiy tushunishda ham muammolar bisyor. O'ttiz yilcha muqaddam epistemologlar shunday misollarni o'ylab topdilar, ular da ishonch, e'tiqod bilimning yuqorida zikr etilgan uchala xususiyatiga ega, biroq, shunga qaramay, ular bilim hisoblanmaydi. Mana, shunga o'xshash oddiy misollardan biri.

Masalan, o'qituvchi falsafadan yozilgan referatlarni tekshirayotib, talabalardan biri – Valiev o'z ishini kompyuterda terganini ko'rdi. O'qituvchi darsda bu guruhda o'qiydigan talabalarning qaysi birida uyida kompyuter borligini so'rashga qaror qiladi. Valiev o'zida chindan ham yaxshi kompyuter borligini va bu kompyuterda u ishlashni o'rganganligini aytdi. Qolgan talablarning birortasi ham o'zida bunday buyum borligini aytmadi. Shunga asoslanib o'qituvchi guruhda bir talabada kompyuter bor ekan, degan xulosaga keldi. O'qituvchining bunga ishonchi komil va u o'zining bu e'tiqodiga etarli darajada asoslangan va ishonchli bilim sifatida yondashadi. Biroq, endi faraz qilaylikki, Valievda kompyuter aslida yo'q va u yolg'on gapirib, o'zi yoqtiradigan bir talaba qizning e'tiborini o'ziga qaratmoqchi bo'lgan. Ammo boshqa talaba – Alievning uyida kompyuter bor, biroq u ma'lum sabablarga ko'ra buni oshkor etmaslikni lozim topgan. Natijada o'qituvchi o'zi dars beradigan guruhda kamida bir talabada kompyuter bor deb hisoblar ekan, u asoslangan va o'z nuqtai nazaridan haqiqatga mos keladigan ishonch, e'tiqodga ega bo'ladi. Biroq bu e'tiqodni bilim deb hisoblash mumkin emas, chunki uning haqiqiylikni zahirida faqat tasodifiy haqiqatga muvofiqlik yotadi.

Albatta, bunday misollarni bor-yo'g'i tafakkur o'yini deb hisoblash mumkin. Biroq, haqqoniy tasavvurlar soxta fikrlardan kelib chiqqan yoki ularga asoslangan hollar hatto fanda ham uchraydi. Ammo bunday qarshi misollarga yo'l qo'ymaslik uchun bilimga yanada qattiqroq talablar qo'yish, masalan, bilim roliga da'vogar e'tiqodlar faqat ishonchli va xatosiz deb qarash mumkin bo'lgan fikrlar va ma'lumotlarga tayanishini talab qilish mumkin. Bilim zahirida aniq, ishonchli va xatosiz asoslar yotishi lozim, degan tasavvur bilish nazariyasidagi eng nufo'zli yondashuv hisoblanadi. Unga antik faylasuflarning asarlaridayoq duch kelish mumkin, eng aniq ko'rinishda va dasturilamal sifatida u YAngi davrda mashhur faylasuflar F.Bekon, R.Dekart va J.Lokk tomonidan ta'riflab berilgan. Bu yondashuvni klassik fundamentalizm deb nomlash, uning barcha muqobillarini esa, hozircha undan ma'lum darajada chetga chiqish sifatida tavsiflash mumkin.

Bilim shakllari - Inson o'zini qurshagan olamni anglab etadi, uni har xil usullar yordamida o'zlashtiradi. Bu usullardan ikkita eng muhimini qayd etish mumkin. Birinchi – moddiy-texnikaviy usul – tirikchilik vositalarini ishlab

chiqarish, mehnat, amaliyot. Ikkinchi – ma'naviy (ideal) usul; uning doirasida subyekt va obyektning bilishga doir munosabatlari ular o'rtasidagi ko'p sonli munosabatlarning biridir. O'z navbatida, bilish jarayoni va unda olinadigan bilimlar amaliyot va bilishning tarixiy rivojlanishi mobaynida tabaqalanadi va o'zining har xil shakllarida mujassamlashadi. Bilishning bu shakllari, garchi o'zaro bog'liq bo'lsa-da, lekin bir-biriga o'xshamaydi va har bir biri o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Bilish, ma'naviy faoliyat shakli sifatida, jamiyat paydo bo'lgan davrdan va jamiyat bilan birga ma'lum rivojlanish bosqichlaridan o'tib kelmoqda. Bu bosqichlarning har birida bilish jarayoni insoniyat tarixi mobaynida yuzaga kelgan rang-barang va o'zaro bog'langan ijtimoiy-madaniy shakllarda amalga oshiriladi. SHu bois yaxlit hodisa sifatidagi bilishni biron-bir shaklga, hatto so'zning o'z ma'nosidagi bilishni to'liq «qoplamaydigan» ilmiy shaklga ham bog'lash mumkin emas. SHu sababli gnoseologiya umumlashtirish uchun faqat bir soha – ilmiy bilimdan va hatto yuksak darajada rivojlangan tabiatshunoslikdan material olib, o'z xulosalarini chiqara olmaydi.

Kundalik amaliy bilim. Tabiat haqida, shuningdek odamlarning o'zlari, ularning yashash sharoiti, ijtimoiy aloqalari va hokazolar to'g'risida elementlar bilimlar beruvchi kundalik-amaliy bilimlar bilishning tarixan eng birinchi shakli hisoblanadi. Bilishning bu shakli kundalik hayot, odamlar amaliy tajribasidan kelib chiqqan. SHu asosda olingan bilimlar garchi mustahkam bo'lsa-da, biroq tartibsiz, tarqoq xususiyatga ega bo'ladi, ma'lumotlar, qoidalar va shu kabilarning oddiy majmuini tashqil etadi. Kundalik bilish sohasi juda rang-barang. U sog'lom fikr, e'tiqodlar, belgi-alomatlar, shaxsiy tajribadan chiqarilgan dastlabki xulosalar, ularning an'analar, rivoyatlar, o'gitlar va hokazolarda ifodalangan ko'rinishlari, intuitiv ishonch, sezgilar va shu kabilarni o'z ichiga oladi.

Kundalik bilim – bu har xil faoliyat shakllari – jumladan ishlab chiqarish faoliyati, estetik faoliyat, siyosiy faoliyat va hokazolarning ta'sirida shakllanadigan turmush bilan bog'liq tushunchalar majmui avlodlar to'plagan jamoa kollektiv tajribasi mahsuli hisoblanadi.

SHaxsiy darajada kundalik bilim muayyan shaxsning emotsional kechinmalari va o'z hayot tajribasini anglab etishi bilan bog'liq. Inson dunyoni nafaqat ilmiy o'rganish, balki o'z hayoti, kundalik amaliyotida o'zlashtirish jarayonida ham tushunib etadi. Bunday o'zlashtirishning universalligini hozirgi zamon nemis faylasufi Gadamer «dunyoni sinash» deb nomlagan. Kundalik bilim zahirida odamlar faoliyatining rang-barang shakllari yotadi. Bu faoliyat turlari urf-odatlar, rasm-rusumlar, bayramlar, marosimlar, jamoa harakatlari (o'yin, raqs va h.k.), axloqiy qoidalar va taqiqlar bilan tartibga solinadi. Ular odamlarni jamoaviy ijtimoiy, madaniy tajribaga jalb etish vositalari bo'lib xizmat qiladi, odamlarning tabiatga va bir-biriga munosabatini tartibga soladi, yangi bilimlarning shakllanishiga xizmat qiladigan boshlang'ich bilim sifatida amal qiladi.

O'yin vositasidagi bilim nafaqat bolalar, balki kattalar faoliyatining ham muhim unsuri hisoblanadi. O'yin jarayonida shaxs qizg'in bilish faoliyatini amalga oshiradi, bilimlarning katta hajmini o'zlashtiradi, madaniy boylik – ishga doir o'yinlar, sport o'yinlari, aktyorlarning o'yinlari va shu kabilarni qon-qoniga singdiradi. O'yin bolalarning qiziquvchanligini qondirish, ularning ma'naviy

dunyosi va ma'lum bilimlari, o'zaro til topish ko'nikmalari va shu kabilarni shakllantirishda muhim ijtimoiy rol o'ynaydi.

Hozirgi vaqtda o'yin tushunchasidan matematika, iqtisodiyot, kibernetika va boshqa fanlarda keng foydalanilmoqda. Bu erda murakkab jarayonlar kechishining har xil variantlari, ilmiy va amaliy muammolarning echimlari ko'rib chiqiladigan maxsus o'yin modellari va o'yin stsenariylari tobora ko'proq qabo'l qilinmoqda. Hozirgi zamon falsafiy va ilmiy tafakko'rining bir qancha nufo'zli yo'nalishlari o'yinni mustaqil o'rganish sohasi sifatida ilgari surmoqdalar. Germenevtika (Gadamer), falsafiy antropologiya shunday fanlar jumlasidan. Masalan, Xaydegger o'yinni madaniyat shakllanishining umumiy tamoyili, har qanday davrda kishilik jamiyatining negizi deb hisoblaydi. Gadamer fikriga ko'ra, o'yin – san'at asarlarining mavjudlik usuli, mazkur asarlarning mavjudligi esa, o'z navbatida, haqiqatni aniqlashning muhim usulidir.

Mifologik bilim ayniqsa, insoniyat tarixining dastlabki bosqichida muhim rol o'ynagan. Mifologik bilimning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u borliqning fantastik in'ikosi hisoblanadi. Mifologiya doirasida tabiat, koinot va odamlar, ular mavjudligining shart-sharoitlari, aloqa shakllari va hokazolar haqidagi muayyan bilimlar shakllangan. So'nggi vaqtda (ayniqsa strukturalizm falsafasida) mifologik tafakkur – bu shunchaki fantaziyaning tiyiqsiz o'yini emas, balki ajdodlar tajribasini qayd etish va keyingi avlodlarga berish uchun imkoniyat yaratadigan dunyoni o'ziga xos tarzda modellashtirish ekanligi aniqlandi.

Mifologik tafakkurga uning emotsiyalar sohasi bilan uzviyligi, bilish obyekti va subyektini, predmet va belgini, narsa va so'zni, hodisaning kelib chiqishi (genezisi) va mohiyatini aniq farqlamaslik xos. Unda tabiiy va ijtimoiy hodisalarni, shuningdek butun dunyoni tushuntirish ularning kelib chiqishi va yaralishi haqidagi hikoyalarga bog'langan (genetizm).

Ayrim hozirgi tadqiqotchilarning fikricha, bizning davrimizda mifologik bilishning ahamiyati pasayayotgani yo'q. Masalan, P.Feyerabend dunyo yutuqlari madaniyatga asos solgani, ratsionalistlar esa faqat uni doim yaxshi tomonga o'zgartirishganiga ishonchi komil.

Mif – ibtidoiy odam tafakko'rining tabiat hodisalarini tushunish va tushuntirishning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Mif narsa va obraz, jism va xossa, «asos» va tamoyillarni farqlamaydi. Voqealar o'xshashligi yoki ketma-ketligini sabab va oqibat bog'lanishi sifatida talqin qiladi. Mif oliy darajada universal voqealar, chunonchi: inson o'limi va uning mangu barhayotligi, dunyoning vujudga kelishi, qahramonona qilmishlar, madaniyat yutuqlari (masalan, olovning o'g'irlanishi haqidagi mif) va shu kabilar haqida hikoya qiladi. Mifning mazmuni ramziy tilda ifodalanadi, natijada uning xulosalari keng va ko'p ma'noli tus kasb etadi. Ko'p sonlilik tamoyilini, aks ettirish, muayyanlik va atromorflik (ya'ni inson xususiyatlarini tabiat obyektlariga o'tkazish), obraz va obyekttni tenglashtirish kabilar mifologik bilishning o'ziga xos xususiyatlaridir. Borliqni anglab etish usuli sifatida mif inson, jamiyat, dunyoni modellashtiradi, tasniflaydi va talqin qiladi.

SHaklan mif muayyan voqeani tabiatda yoki ma'lum xalqlar tarixida bo'lib o'tgandek ifodalovchi rivoyatdir. Kosmogonik miflarda Logos yoki Aql

harakatga keltiradigan va boshqaradigan, ierarxik to'zilishga ega bo'lgan yagona va yaxlit kosmos haqidagi tasavvur shakllangan. SHu sababli kosmos oliy barkamollikka ega deb tasavvur qilingan. Bu tasavvurlar kosmosning o'zgarishlarida tabiat hodisalarining uzluksiz aylanishini hosil qiluvchi er, havo va olov stixiyalari podsholigi sifatidagi talqinida muayyanlashgan.

Miflarda qat'iy rioya qilish lozim bo'lgan amaliy tavsiyalar ham ifodalangan. Garchi mifologiyaning amaliy tavsiyalari isbotlanmagan va qoida sifatida belgilangan bo'lsa-da, ular odamlarning juda ko'p avlodlari tajribasini umumlashtirish mahsuli hisoblanadi.

Badiiy bilim borliqni tushunib etish refleksiyaning o'ziga xos shakli bo'lib, u san'at borlig'ining barcha bosqichlarida – asar g'oyasidan boshlab uning odamlar tomonidan qabo'l qilinishigacha – o'ziga xos tarzda ro'yobga chiqadi. Badiiy ijodni ijodkorning fikrlari va kechinmalarini anglab etish obyekti – butun dunyoga uzviy bog'lagan holda san'at tilida moddiylashtirish deb ta'riflash mumkin. SHaklan badiiy faoliyat obyektga qarab mo'ljal oladi, mazmunan esa, u shaxs o'zligining ifodasi, inson ma'naviy hayotining intim tomoni, ijodkor ideallari va didining majmui hisoblanadi.

Borliqni badiiy idrok etishning o'ziga xos xususiyati ko'p jihatdan san'at tilining o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Uning tarjimoni – ijtimoiy aloqalar tizimiga kiruvchi madaniyatning belgilar tizimlaridir. San'at madaniyat tillarini badiiy tafakkur va aloqa vositalariga aylantiradi. Bunda san'at tili ikki xil ma'noda: dastlabki, madaniy (asarni idrok etishda u aynan tushunilishi mumkin) va shartli, badiiy ma'noda keladi. «Ma'nolar o'yini» asl borliqdan chalg'itmaydi, biroq uni mutlaqo kutilmagan tomondan ko'rish imkonini beradi. San'atni idrok etishda muttasil kashfiyotlar yuz beradi. Ularning orasida eng muhimi qalbimizning xilvat burchaklarini yorituvchi yashin chaqiniga o'xshaydigan o'zlikni kashf etishdir. Ongning kutilmagan kashfiyotlar xos bo'lgan bunday holati psixologiyada «insayd» deb ataladi. San'atni idrok etish o'zlikni anglash bilan bog'liq cheksiz va tengsiz lazzat baxsh etadi. San'atni idrok etish mexanizmi sifatida empatiya, ya'ni o'zini obraz bilan tenglashtirish amal qiladiki, bu kuchli emotsional ta'sirlanishga sabab bo'lishi mumkin. Ijobiy va salbiy emotsional holatlarning bir-biriga o'tishi bilan bog'liq murakkab jarayon shaxsni o'z tajribasini qayta tushunishga majbur qiladi va uning qadriyatlar tizimida to'ntarish yasashga qodir.

SHunday qilib, san'atning bilishdagi ahamiyati shundan iboratki, u bilish va o'zlikni anglashning o'ziga xos birligidir. San'at – shaxsni ma'naviy boyitish manbai. U insonning ijodiy imkoniyatlarini faollashtiradi, uning madaniyat dunyosi va umuman jamiyatdagi xulq-atvorni tushunish qobiliyatini rivojlantiradi. San'atni idrok etishda obyekt va subyekt mushtarakdir. SHaxs san'at asarining mazmuniga o'zining daxldorligini his qiladi va uni o'zida kashf etadi. SHu sababli san'atni idrok etish orqali bilish faolligi namoyon bo'ladi.

Bilishning mifologiya bilan uzviy bog'liq bo'lgan qadimgi shakllari diniy va falsafiy bilishdir.

Diniy bilim. Dinning asosiy vazifasi – inson hayoti, tabiat va jamiyat borlig'ining mazmunini aniqlashdan iborat. U insoniyat to'plagan tajribaga tayanib, inson hayotining muhim ko'rinishlari, chunonchi: oila va turmushdagi xulq-atvor,

axloqiy qoidalar, mehnat, tabiat, jamiyat va davlatga munosabatni tartibga soladi. Din universumning pirovard mazmunlari haqidagi o'z tasavvurini asoslab, dunyo va insoniyatning birligini tushunishga ko'maklashadi. U inson hayotini o'zgartirishga qodir bo'lgan haqiqatlar tizimidan iborat. Diniy ta'limotlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular jamoa tajribasini ifodalaydi va shu bois nafaqat har bir dindor odam, balki dinga sig'inmaydiganlar uchun ham qadrlidir.

Diniy ta'limotlarning vazifasi Xudo bormi, uni qanday qilib bilish mumkin, umuman, Xudoni bilish mumkinmi, degan savollarga javob berishdan iborat. Din o'z dunyoqarashini Muqaddas Kitob matnlarida, shuningdek diniy rasm-rusum va urf-odatlarida ifoda etadi. Diniy rasm-rusumlarning bir unsuri ramziy ahamiyatga egadir. Diniy ramzlar g'oya va obraz muvozanatini o'zida mujassamlashtiradi.

Ongning o'ziga xos shakli sifatida din e'tiqod, ishonch va bilish mexanizmlari (hayot tajribasi)ga tayanadi. Diniy e'tiqod refleksiya bilan qo'llab-quvvatlanadi, shaxsning fojeaviy tajribasi (o'lim xavfi yoki yaqinlarini yo'qotishi)ni anglab etish orqali yuzaga keladi yoki mustahkamlanadi, bu tajriba shaxsni o'z hayoti va tafakkur tarzini tubdan o'zgartirishga da'vat etadi. Dindorlar fikricha, diniy e'tiqod diniy vahiy kelishi natijasida tug'ilishi mumkin.

Din dunyo va insonni intuitiv-mistik yo'l bilan anglashning o'ziga xos usullarini yaratgan. Bunday usullar jumlasiga vahiy va meditatsiyani kiritish lozim.

Vahiy tushunchasi diniy tasavvurlarning tadrijiy rivojlanishi jarayonida shakllangan. Dastlab u oliy kuchlar tanlagan ayrim shaxslarning transtsendent holatida shu kuchlar nomidan so'zlash qobiliyati sifatida qaralgan (valilar, shamanlar va h.k.). Muqaddas Kitob matnlariga doimiy murojaat etish dindorga ularda yangi haqiqatlarni kashf qilish, o'z hayotini solishtirish va uni qayta tushunish imkonini beradi.

Meditatsiya – o'z tafakko'rini bir obyektga qaratish, inson e'tiborini chalg'ituvchi barcha begona omillarni chetga chiqarish yo'li bilan fikr yuritish, narsa, g'oya, dunyoni idrok etishdir. Dinda meditatsiya shaxsiy ongning Absolyut bilan birikuvini anglatadi. Xristianlikda meditatsiya inson shaxsi va ilohiy shaxsning muayyan oqibati sifatida talqin qilinadi. Meditatsiya, odatda, tabiiy refleksiya jarayoniga aylanadigan harakatlarning muayyan ketma-ketligi bilan bog'liq. U ayrim psixotexnik usullardan foydalanishni nazarda tutadi. Bunda dindor mazkur usullar yordamida o'zini boshqarish, o'zlikni yoki tabiatni anglashga ko'maklashuvchi g'ayritabiiy ruhiy kuchlardan foydalanayotganiga ishonchi komil bo'ladi. Meditatsiyaning bilish usuli sifatidagi samaradorligini fan tan oladi; davolash uchun mo'ljallangan psixotexnika va autogen mashq tizimlari diniy-mistik g'oyalar bilan bog'liq emas.

Diniy bilishning o'ziga xos xususiyatlari shu bilan belgilanadiki, u odamlarning o'zini boshqaruvchi dunyoviy (tabiiy va ijtimoiy) kuchlarga munosabatining bevosita emotsional shakli bilan bog'liq. Bu kuchlarning xayoliy in'ikosi bo'lgan diniy tasavvurlar borliq haqidagi ma'lum bilimlarni ifoda etadi. Odamlar asrlar va ming yilliklar mobaynida to'plagan diniy va boshqa bilimlar xazinasini sifatida, masalan, Injil va Qur'onni qayd etish mumkin. Biroq din (mifologiya kabi) bilimni izchil va nazariy shaklda ifodalamagan. U umumiy, yaxlit,

o'ziga to'q va isbotlangan obyekt sifatida bilim ishlab chiqarish vazifasini hech bajarmagan va bajarmaydi.

Agar diniy bilishga dunyoga emotsional munosabatning g'ayritabiiy narsalar va hodisalarga ishonch bilan birikuvi xos bo'lsa, ilmiy bilishning zahirida emotsiyalar va e'tiqodni o'ziga bo'ysundiruvchi oqilonalik yotadi.

Falsafiy bilim. *Falsafa* san'at va din kabi, bilish vazifalarini echish bilangina kifoyalanmaydi. Uning bosh vazifasi san'at va din bilan uyg'un holda – insonning dunyoda ma'naviy mo'ljal olishiga ko'maklashishdan iborat. Falsafiy bilish ayni shu maqsadga bo'ysundirilgan. Falsafa umuman dunyo, uning «birinchi» asoslari, hodisalarning universal o'zaro aloqasi, borliqning umumiy xossalari va qonunlari haqida umumiy tasavvo'rni shakllantiradi. Falsafa dunyoni insonga bog'lab o'rganadi. Me'yorlar va ideallar, ilmiy bilimlar va san'at yutuqlari, insonning tashvishlari, ehtiyojlari, hayot mazmunini anglash yo'lidagi izlanishlari faylasufning dunyoqarashini, falsafiy mushohada yuritish shaklini belgilaydi. Falsafa jamiyat ongi, jamiyat madaniyatining nazariy ifodasi sifatida amal qiladi. U tafakkur tarzi, qadriyatlar, ideallar, falsafiy muammolar va ularni ko'rib chiqish xususiyatini belgilaydigan madaniyat bilan uzviy bog'liqdir. Falsafa umuman dunyoga va madaniyat subyekti sifatidagi insonga murojaat etadi. Falsafiy bilim donishmandlik sifatida tavsiflanadi. Donishmandlik – dunyoni va insonning undagi o'rnini yaxlit tushunish andozasi. Falsafa barcha odamlar uchun muhim bo'lgan haqiqatlarning tagiga etish uchun (ilmiy va noilmiy) bilimdan foydalanadi. Kant falsafa inson aqlining boshqa bilimlarga oliy qadriyat tusini beruvchi eng so'nggi maqsadlarini anglab etishni tushunishga, bu bilimlarning inson uchun ahamiyatini aniqlashga yordam beradi deb hisoblagan. Falsafa inson faoliyatini yo'lga soluvchi tamoyillar, yondashuvlar, qadriyatlar va ideallar tizimini, uning dunyoga va o'z-o'ziga munosabatini belgilaydi. Dunyoning inson bilan mushtarak holdagi obrazini yaratib, falsafa muqarrar tarzda qadriyatlar dunyosiga murojaat etadi. Etika, estetika, aksiologiya – falsafiy bilimning qadriyatlar dunyosini o'rganuvchi maxsus sohalaridir. Falsafa san'atda o'zining yorqin va ishonarli ifodasini topishi bejiz emas. Ko'pgina faylasuflar uning metaforalarga boy obrazli tilidan o'z g'oyalarini ifodalash uchun foydalanadi.

Din kabi, falsafiy bilimning ham bosh maqsadi – insonni kundalik tashvishlar sohasidan olib chiqish, unda yuksak ideallarga qiziqish uyg'otish, uning hayotiga chin mazmun baxsh etish, eng zamonaviy qadriyatlar sari yo'l ochishdir. Biroq din – ommaviy ong bo'lsa, falsafa – nafaqat iste'dod, balki kasbiy bilim va ko'nikmalarni ham talab qiluvchi elitar ongdir.

Falsafiy bilimda ikki asos – ilmiy-texnikaviy va nazariy-ma'naviy asoslarning uyg'unlashishi uning ongning betakror shakli sifatidagi o'ziga xos xususiyatini belgilaydi. Bu falsafa tarixida – tarixan vaqtda bir-biri bilan tasodifiy emas, balki muqarrar tarzda bog'langan falsafiy ta'limotlarning g'oyaviy mazmunini meros qilib olish, rivojlantirish jarayonida ayniqsa bo'rtib ko'rinadi. Bu ta'limotlarning barchasi – yaxlit bir butunning qismlari, holos. Oqilonalikning boshqa sohalarida (masalan, fanda)gi kabi, falsafada ham yangi bilim o'zining avvalgi darajasidan voz kechmaydi, balki uni o'zining ayrim ko'rinishi sifatida o'z tarkibida qoldiradi. Tafakkur tarixida biz taraqqiyotni, mavhum (nomukammal,

biryoqlama) bilimdan yanada aniqroq (mukammal, serqirra) bilim sari muttasil yuksalishini kuzatamiz, deb ta'kidlagan edi Gegel. Falsafiy ta'limotlarning ketma-ketligi ham g'oya mantiqiy ta'riflarining ketma-ketligi bilan asosan bir xil, ya'ni bilish tarixi anglab etilayotgan predmetning obyektiv mantiqiga mos keladi. Biroq falsafiy bilimning ma'naviy (qadriyatlar va mo'ljallar) qismi yuksalish qonuniga ham, hokimiyat va vaqtga ham bo'ysunmaydi. U tarixiga «yuksak», «tuban» mezonlari bilan yondashish mumkin bo'lmagan san'atga yaqinroq. Nyuton ta'biri bilan aytganda, olimlar o'z o'tmishdoshlarining «elkalari»da turadi: ular o'z ijodi bilan bir umumiy ishni davom ettiradi, rivojlantiradi. San'atkorlar esa bu safga sirmaydi. Zero, ularning har biri – alohida dunyo, alohida olam (lekin bu davrlar va avlodlarning badiiy tajribasida vorisiylikni istisno etmaydi). Buyuk san'atkor o'z davrining buyuk ifodachisi bo'lib, ayni shu ma'noda uning ijodi odamlar uchun olamshumul ahamiyat kasb etadi. Biroq falsafiy bilimning nazariy qismi, ya'ni uning ichki mantiqi ancha murakkabdir. Bu falsafiy g'oyaning serma'noliligi, u rivojlantirilishi, har xil, hatto qarama-qarshi yo'nalishlarda davom ettirilishi mumkinligi bilan izohlanadi. Masalan, Lokk (XVII asr ingliz faylasufi) falsafasidan uning izdoshlari (idealist Berkli va frantsuz ma'rifatchi materialistlari Didro, Golbax) bir-birini mutlaqo istisno etuvchi xulosalar: Berkli – subyektiv-idealistik, frantsuz mutafakkirlari – esa ma'rifatchilik bilan bog'liq xulosalar chiqarganlar. Kant, va Gegelning falsafiy g'oyalari hozirgi zamon tafakkuriga asos soldi. Biroq har bir kantchi, gegelchining o'z Kanti, o'z Gegeli bor, ularning har biri o'z o'tmishdoshlarini o'zicha talqin qiladi. Boz ustiga, biron-bir yirik faylasuf o'z g'oyalarini bitta yagona manbadan olmagan. Kant Leybnits va YUmga, Forobiy Aristotel va Platonga tayangan va hokazo. Bo'larning barchasi yangi falsafiy bilimning vujudga kelishiga asos bo'ladi. SHakllangan bu yangi falsafiy bilimda esa ijodiy tanqid muhim rol o'ynaydi. Har qanday bilim singari, falsafiy bilim ham haqiqat va ishtiboh birligidir. Biroq gnoseologiyada bu tushunchalar alohida mazmun kasb etadi. Bu mazmun ijtimoiy-tarixiy, ijtimoiy-ma'naviy xususiyatga ega bo'lib, u muqarrar tarzda nafaqat bizning tafakkurimizni, balki unga bog'liq bo'lgan, unga asoslangan bizning harakatlarimizni ham baholashni o'z ichiga oladi. Biroq, insonning oliy maqsadlari – uning universal, jismoniy, aqliy va ma'naviy kuchlarini rivojlantirishga mos keladigan harakat (qilmish, qaror, niyat)gina haqiqiydir. Haqiqat, chin hayot kabi, insonning yuqorida zikr etilgan kuchlari va ijodiy qobiliyatini cheklamaydigan, toraytirmaydigan, balki ularni kengaytiradigan va rivojlantiradigan tamoyillar va qadriyatlarga rioya qilish demakdir. O'z navbatida, ishtiboh ham oddiy subyektiv mantiqiy xato, yanglishish, adashish yoki dushmanlarning kirdikorlari mahsuli emas, balki tarix adashuvining muqarrar natijasidir.

Masalan, kommunistlarning barcha yo'llar bizning asrimizga, jamiyatni erkinlik, tenglik va birdamlikka etaklaydi, degan umid va ishonchlarini xatoga yo'yish mumkin, chunki ularning birontasi ham o'z tasdig'ini topmadi. Biroq xatolar zahirida teran mazmun yotadi. Axloqiy imperativ (ideal, orzu) borliq emas, biroq u mazkur borliqning darakchisi. Jamiyatda axloqiy tushunchalar, qadriyatlarga munosabatning o'zgarishi insoniyat millionlab kishilar hayotida olamshumul o'zgarishlar yuz berishi arafasida to'rganining eng aniq ko'rsatkichidir. Zotan,

g'oyalar yo'q joydan paydo bo'lmaydi, osmondan tushmaydi. Ilmiy bilim ma'nolar, maqsadlar, qadriyatlar va insonning qiziqishlariga befarq bo'lsa, falsafiy bilim insonning dunyodagi o'rni va roli haqidagi bilimdir.

Ilmiy bilim. Bilishning eng oliy shakli fandır. Ayrim fanlarning vaqillari fanni ta'riflar ekanlar, uni muayyan tadqiqotlar sohasi bilan bog'laydilar. Ilmiy bilim boshqa bilim turlaridan o'zining aniqligi bilan ajralib turadi. Ilmiy bilim, ma'naviy ishlab chiqarishning barcha shakllari kabi, pirovardida inson faoliyatini tartibga solish uchun zarur. Bilishning har xil turlari bu vazifani turlicha bajaradi va mazkur farqning tahlili ilmiy bilimning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashning birinchi va muhim sharti hisoblanadi.

Fan amaliy faoliyat predmetlarining (boshlang'ich holatdagi obyektning) tegishli mahsulotlarga (pirovard holatdagi obyektga) aylanish jarayonini oldindan ko'ra bilishni o'z oldiga pirovard maqsad qilib qo'yadi. Bu o'zgarish har doim obyektlarning o'zgarish va rivojlanish qonunlari bilan belgilanadi, faoliyat shu qonunlarga muvofiq bo'lgan taqdirdagina muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. SHu sababli *fanning asosiy vazifasi obyektlarning o'zgarish va rivojlanish qonunlarini aniqlashdan iborat.*

Tabiatning o'zgarish jarayonlariga tatbiqan bu vazifani *tabiiy fanlar va texnika fanlari* bajaradi. Ijtimoiy obyektlarning o'zgarish jarayonlarini *ijtimoiy fanlar* o'rganadi. Hamonki faoliyat jarayonida har xil obyektlar – tabiat predmetlari, inson (va uning ongi holatlari), jamiyatning kichik tizimlari, madaniyat hodisalari sifatida amal qiluvchi belgilar ko'rinishidagi obyektlar va hokazolar o'zgarishi mumkin ekan, ularning hammasi ilmiy tadqiqot predmetlari bo'lishi mumkin.

Fanning faoliyatga jalb qilinishi mumkin bo'lgan obyektlarni o'rganish va ularni faoliyat va rivojlanishning obyektiv qonunlariga bo'ysunuvchi obyektlar sifatida tadqiq qilishga qarab mo'ljal olishi ilmiy bilimning birinchi eng muhim xususiyati hisoblanadi.

Ilmiy bilim o'zining ayni shu xususiyati bilan inson bilish faoliyatining boshqa shakllaridan ajralib turadi. Masalan, borliqni badiiy o'zlashtirish jarayonida inson faoliyatiga jalb qilingan obyektlar subyektiv omillardan ajratilmaydi, balki ularga o'ziga xos tarzda bog'lanadi. Obyektiv dunyo predmetlarining san'atdagi har qanday in'ikosi ayni vaqtda insonning predmetga munosabatini aks ettiradi. Badiiy obraz – bu obyektning shunday bir in'ikosiki, unda inson shaxsi, uning qadriyatlarga munosabati aks etadi, bu xossalar aks ettirilayotgan borliq tavsifidan o'rin oladi. Bu mushtaraklikni istisno etish – badiiy obrazni bo'zish demakdir. Fanda esa, bilim yaratayotgan shaxs hayot faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, uning mushohadalari yaratilayotgan bilim tarkibiga bevosita kirmaydi (Nyuton qonunlari Nyutonga nima yoqqani va yoqmaganligi haqida xulosa chiqarish imkonini bermaydi, vaholanki, masalan, Rembrandt mo'yqalamiga mansub portretlarda Rembrandt esse, uning dunyoqarashi va o'zi tasvirlayotgan ijtimoiy hodisalarga shaxsiy munosabati o'z ifodasini topadi; buyuk musavvir tomonidan yaratilgan portret doim uning avtoportreti sifatida ham amal qiladi).

Ilmiy bilim borliqni moddiy va obyektiv o'rganishga qarab mo'ljal oladi. Biroq bu olimning shaxsiy xususiyatlari, uning qadriyatlarini belgilashda, ilmiy ijodida rol o'ynamaydi va uning natijalariga ta'sir ko'rsatmaydi, degan ma'noni

anglatmaydi. Ilmiy bilim nafaqat o'rganilayotgan obyektning o'ziga xos xususiyatlari, balki ijtimoiy-madaniy xususiyatga ega bo'lgan ko'p sonli omillar bilan ham belgilanadi.

Ilmiy bilimning tarixiy rivojlanishi madaniyatning o'zgarishi ilmiy bilimni bayon etish andozalari, fanda borliqqa yondashish usullari va tafakkur uslublarning o'zgarishga bog'liq. Bu andozalar, usullar va uslublar madaniyat kontekstida, uning har xil hodisalari ta'sirida shakllanadi. Bu ta'sirni ilmiy bilimning rivojlanish jarayoniga har xil ijtimoiy-madaniy omillarning qo'shilishi sifatida tavsiflash mumkin. Biroq har qanday bilish jarayonida obyektiv va subyektiv narsalar va hodisalarning aloqalarini qayd etish hamda fanni inson ma'naviy faoliyatining boshqa shakllariga bog'lab o'rganish zarurligi fan bilan bu shakllar (kundalik bilish, badiiy tafakkur va h.k.) o'rtasidagi farq masalasini kun tartibidan chiqarmaydi. *Ilmiy bilimning obyektivligi va moddiyligi* bunday farqning birinchi va eng muhim xususiyati hisoblanadi.

Fan inson faoliyatida faqat uning moddiy to'zilishini farqlaydi va hamma narsani shu to'zilish nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi. Qadimgi afsonada podsho Midas nimaga qo'l tekkizmasin, hammasi oltinga aylanganidek, fan ham nimaga murojaat etmasin, hamma narsa uning uchun obyektiv qonunlarga ko'ra yashaydigan, faoliyat ko'rsatadigan va rivojlanadigan predmetdir.

Fan nafaqat hozirgi amaliyot jarayonida o'zgartiriladigan, balki kelajakda amalda ommaviy o'zlashtirish predmetiga aylanishi mumkin bo'lgan obyektlarni o'rganishga qarab mo'ljall olishi ilmiy bilimning ikkinchi o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Bu xususiyat ilmiy va odatdagi, stixiyali-empirik bilimni farqlash va fanning tabiatini tavsiflovchi ayrim tushunchalarni ta'riflash imkonini beradi.

SHaxsiy bilim. Bilim shakllari to'g'risida so'z yuritir ekanmiz, M.Polani tomonidan ishlab chiqilgan *shaxsiy bilim* kontseptsiyasini chetlab o'tishimiz mumkin emas. Olim o'z kontseptsiyasini to'zishda bilim – anglash mumkin bo'lgan narsalarni faol o'zlashtirish, alohida mahorat va alohida vositalarni talab qiluvchi harakat, degan tamoyildan kelib chiqqan. Madomiki fanni odamlar yaratir ekan, bilish faoliyati jarayonida olinadigan bilimlarni (huddi shu jarayonning o'zi kabi) odamlardan ajratish mumkin emas. Demak, odamlarni (aniqrog'i, o'z qiziqishlari, maqsadlari va mo'ljallariga ega bo'lgan olimlarni) ular yaratayotgan bilimlardan ajratib yoki boshqa odamlar bilan almashtirib bo'lmaydi.

Polani fikriga ko'ra, shaxsiy bilim muqarrar tarzda intellektual salohiyatni talab qiladi. Unda nafaqat bilish borlig'i, balki bilishga harakat qilayotgan shaxs, uning bilimga qiziqishi, bilimni talqin qilish va undan foydalanishga nisbatan shaxsiy yondashuvi, uni o'ziga xos tarzda anglab etishi mujassamlashadi.

SHaxsiy bilim nafaqat qandaydir fikr-mulohazalar majmui, balki shaxsning kechinmalari hamdir. SHaxs bilimni shunchaki qayd etmaydi, balki u bilan birga yashaydi.

Ijtimoiy bilim asosan o'zi o'rganayotgan borliqning sifat tomonini tavsiflashga qarab mo'ljall oladi. Bu erda hodisalar va jarayonlar miqdor va umumiylik nuqtai nazaridan emas, balki sifat va xususiylik nuqtai nazaridan o'rganiladi. SHu sababli miqdor metodlarining ulushi bu erda tabiiy-matematik

tsiklga mansub fanlarga qaraganda kamroq. Biroq bilimning matematikalashuvi, kompyuterlashuvi jarayonlari bu erda ham tobora kengroq tus olib bormoqda.

«Inson borlig'i», ijtimoiy bilim predmeti sifatida, o'ziga xos xususiyatga ega bo'lganligi tufayli, unda matematik apparatdan foydalanish ancha mushkul. Bu sohaga matematik metodlarni tatbiq etishga ijtimoiy obyektlarning o'ta individualligi (va hatto betakrorligi), subyektiv (shu jumladan sof irratsional) jihatlar doimo mavjudligi, nazorat qilib bo'lmaydigan, tasodifiy munosabatlarning ko'pligi, ma'nolarning mujmalligi, nomukammalligi va hokazolar xalaqit beradi.

Biroq bu ijtimoiy fanlarni matematikalashtirish mutlaqo mumkin emasligidan dalolat bermaydi. Bu borada toq to'plamlar nazariyasiga katta umid bog'lanmoqda. Toq to'plamlar deganda chegaralari aniq bo'lmagan to'plamlar tushuniladi, bunda elementlarning mazkur to'plamga mansubligidan unga mansub emasligiga o'tish keskin emas, balki asta-sekin yuz beradi.

Ijtimoiy fanlarda miqdor metodlaridan foydalanish tobora keng va samarali tus olib bormoqda. Ularning ayrimlari (iqtisodiyot, sotsiologiya)dan miqdor metodlari mustahkam o'rin olgan, ayrimlari (tarix, san'atshunoslik va boshqalar)ga esa ular ehtiyotkorlik bilan kirib bormoqda. Masalan, tarix fani doirasida matematik metodlar tarixni o'rganishning asosiy vositasi bo'lgan alohida fan – kiometriya (so'zma-so'z ma'nosi – tarixni o'lchash) yuzaga keldi va shakllanmoqda. Biroq, ijtimoiy fanlarda matematik metodlar qay darajada keng qo'llanilmasin, ular bu fanlar uchun asosiy emas, balki yordamchi metodlar bo'lib qolayotir.

Ijtimoiy bilimda empirik va nazariy unsurlarning o'ziga xos uyg'unligi kuzatiladi. Ijtimoiy bilimda empirik metodlarning imkoniyatlari cheklangan bo'lsa-da, ular bu erda tobora kengroq va o'ziga xos tarzda qo'llanilmoqda. Bo'lar, avvalo, ko'rib chiqilayotgan hodisalarning sof obyektiv xossalarini emas, balki ularning insoniy ko'rsatkichlarini aniqlashga qaratilgan so'rovlar, anketalash, testlash, modelda eksperiment o'tkazish va hokazolardir.

Bilishda subyekt va obyektning o'zaro aloqasi. Bilish dunyoning obyekt va subyektga bo'linishini nazarda tutadi.

Falsafada bu tushunchalar jonli mavjudot bo'lgan insonni bilish jarayoniga olib kiradigan va bu jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatadigan subyektivlikdan uzoqlashish uchun ishlab chiqilgan. Bilimning obyektivligi, haqiqatning subyektdan mustaqilligini e'lon qilinganda namoyon bo'ladi. Sholastika tabiatshunoslikning rivojlanishiga to'sqinlik qilgan sharoitda ilmiy bilish subyektlarining o'tkinchi manfaatlari ko'pincha obyektivlikka xalaqit bergan, shu bois bu tushunchalarning aniq farqlanishi o'rinli bo'lgan. Faylasuflarni subyektning obyektga ta'siri muammolari, anglab etilayotgan obyektga subyektivlikning ta'siri yo'llari va xususiyati masalalari tobora ko'proq qiziqтира boshlagan hozirgi kunda ham bu muammo o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Subyekt – bu bilish faolligining manbai. Subyekt deganda odatda individ tushuniladi. Biroq bu uncha to'g'ri emas. Subyekt – bu, albatta, avvalo bilish qobiliyatiga ega bo'lgan individ. Subyekt – bu mikroguruh, ijtimoiy guruh sinf, jamiyat hamdir. Tafakkur jarayoni amalga oshadigan bosh miya po'stlog'ida tafakkur muayyan insonning harakatlari, uning kechinmalari, his-tuyg'ulariga

qaratilishi mumkin: bu holda ong o'zining alohida jihati – o'zlikni anglash sifatida amal qiladi, tafakkur (indivud doirasida) nimaga qaratilgan bo'lsa, shu obyekt bo'ladi. Subyekt negizi butun ijtimoiy yaxlitlikni tashqil etuvchi murakkab ierarxiyadan iborat. Pirovard natijada bilim va donishmandlikning oliy yaratuvchisi – butun insoniyat. Uning tarixiy rivojlanishida uncha yirik bo'lmagan birliklar ajratiladi, bu birliklar sifatida ayrim xalqlar amal qiladi. Har bir xalq o'z madaniyatida qayd etiladigan me'yorlar, g'oyalar va qadriyatlarni yaratib, asrdan asrga bilish faoliyatining alohida subyekti sifatida o'tib keladi. U tabiat hodisalari, hayvonlar yoki o'simliklarning shifobaxsh xossalari, turli xalqlarning huquqlari va urf-odatlar haqida ma'lumotlar to'playdi. Jamiyatda maxsus vazifasi va mashg'uloti hayot uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan bilimlar yaratishdan iborat bo'lgan indivudlarning tarixiy guruhlar ajratiladi. Xususan, subyekti olimlar hamjamiyati bo'lgan ilmiy bilimlar shunday bilimlar jumlasidan. Bu hamjamiyatda qobiliyati, iste'dodi va bilimi bilan bilish sohasida yuksak natijalarga erishadigan ayrim indivudlar alohida o'rin tutadi.

Bu odamlarning ismlari tarixda ilmiy g'oyalar evolyutsiyasidagi buyuk bosqichlar ramzi sifatida saqlanib qoladi. Bilishning haqiqiy subyekti hech qachon faqat gnoseologik xususiyatga ega bo'lmaydi: u o'z mayllari, qiziqishlari, fe'l-atvori, mijozi, aql yoki aqlsizlik, qobiliyat yoki qobiliyatsizlik darajasiga ega bo'lgan, irodali yoki irodasi bo'sh tirik shaxs. Biroq ko'pincha bilish subyekti deganda intellektual faollikning qandaydir shaxssiz mantiqiy bo'lagi tushuniladi.

Subyektning bilish faoliyati faqat muayyan tarixiy kontekstda aniq tushunchalarda namoyon bo'lishi mumkin. Ilmiy bilish nafaqat subyektning obyektga nisbatan, balki o'ziga, o'z faoliyatiga nisbatan ham ongli munosabatini, ya'ni tadqiqotchilik faoliyati shartlari, usullari, me'yorlari va metodlarini bilishi, an'analarni hisobga olishi va hokazolarni nazarda tutadi.

Borliqning muayyan parchasi izlanayotgan tafakkur diqqat markazidan o'rin olgach, bilish obyektini tashqil etadi, subyekt bilan «subyekt – obyekt» munosabatlariga kirishib, ma'lum ma'noda subyektning «mulki»ga aylanadi. Binobarin, subyektning ongiga bog'liq bo'lmagan o'zicha borliq va subyekt bilan yuqorida zikr etilgan munosabatga kirishgan borliq mavjud. U go'yo subyektini o'zini bilishga da'vat etadi. Bir so'z bilan aytganda, subyekt bilan munosabatga kirishgan obyekt oddiy borliq emas, balki u yoki bu darajada anglab etilgan, ya'ni ong – o'zining bilishga intilishida ijtimoiy belgilangan ong daliliga aylangan borliqdir, shu ma'noda bilish obyektini endi ijtimoiy dalilga aylanadi.

Obyekt – bu subyektning bilish faoliyati qaratilgan narsa yoki hodisa. Asbob ham (o'rganilayotgan va ta'mirlanayotganida), boshqa indivud ham, indivud bilan bog'liq narsa va hodisalar ham obyekt bo'lishi mumkin. «Obyekt» tushunchasini obyektiv borliq bilan aralashtirmaslik kerak. Masalan, hayvonlarning hujayralaridagi xromosomalar ular tsitologiya va genetikada o'rganish «obyektiga» aylanishidan oldi ham obyektiv mavjud bo'lgan, biroq kashf etilganidan keyingina o'rganish «obyektlari»ga aylangan.

Bu tushunchalar nafaqat bilish faoliyati, balki amaliy va baholash faoliyati bilan ham bog'liq.

Bilish faoliyatida subyekt obyeksiz, obyekt esa – subyektsiz mavjud bo'lmaydi. Masalan, gen jonli narsalar tarkibida mavjud bo'lgan holda, nafaqat antik davrda, balki J.B.Lamark va CH.Darvin uchun ham ilmiy tafakkur obyekt bo'lmagan. Olimlar bu ko'zga ko'rinmas biologik borliqni ma'lum vaqtgacha o'z bilish faoliyatining obyekt sifatida aniqlay olmaganlar. Bunga nisbatan yaqinda, dunyoning umumiy ilmiy manzarasida jiddiy o'zgarishlar yuz berganidan so'ng muvaffaq bo'lindi. YOki, aytaylik, ilmiy tafakkur, texnika yutuqlari va ijtimoiy shart-sharoitlar atigi bir necha o'n yilliklar muqaddam Kosmosning olis kengliklarini tadqiqot obyektiga aylantirish imkonini berdi. Hozirgi zamon gnoseologiyasida bilish obyekt va predmetini farqlash odat tusini olgan. Bilish obyekt deganda borliqning o'rganilayotgan amalda mavjud bo'laklari tushuniladi. Bilish predmeti – bu izlanayotgan fikrning diqqat markazidan o'rin olgan muayyan jihatlar. Masalan, inson juda ko'p fanlar – biologiya, tibbiyot, psixologiya, sotsiologiya, falsafa va hokazolarning tadqiqot obyekt hisoblanadi. Biroq ularning har biri insonni o'rganishga o'z nuqtai nazaridan yondashadi: masalan, psixologiya insonning ruhiyati, ichki olami, xulq-atvorini, tibbiyot – insonning kasalliklari va ularni davolash usullarini o'rganadi va h.k. Binobarin, tadqiqot predmetiga tadqiqotchining muhim mo'ljal kiradi, ya'ni u tadqiqot vazifasi nuqtai nazaridan shakllanadi.

Ma'lumki, inson tarix yaratuvchisi, subyekt hisoblanadi, o'z tarixiy mavjudligining zarur shart-sharoitlari va asoslarini o'zi yaratadi. Ijtimoiy-tarixiy bilish obyekt odamlar tomonidan nafaqat o'rganiladi, balki yaratiladi ham, demak, obyektga aylanishdan oldin u yaratilishi, shakllantirilishi lozim.

SHunday qilib, ijtimoiy bilishda inson o'z faoliyatining mahsuli, amaliy faol jonzot bo'lgan o'zi bilan ham ish ko'radi. Bilish subyekt bo'lgan inson shu tariqa uning obyektiga ham aylanadi. SHu ma'noda ijtimoiy bilish insonning ijtimoiy o'zlikni anglash jarayonidir. Bunda inson tarixiy rivojlanish jarayonida yaratiladigan o'zining ijtimoiy mohiyatini o'zi uchun kashf etadi va o'rganadi.

SHu sababli ijtimoiy bilishda subyekt va obyektning o'zaro aloqasi murakkablashadi, bu erda obyekt bir vaqtning o'zida tarixiy ijod subyekt hamdir.

Ijtimoiy bilishda hamma narsa va hodisalar inson sohasida aylanadi: bilish obyekt – odamlarning o'zi va ular faoliyatining natijalari, bilish subyekt ham insondir. Bilish jarayoni shohidlarning guvohliklari, hujjatlar, so'rovlar, so'rovnomalarsiz, odamlar yaratgan mehnat qurollari va madaniy yodgorliklarisiz bo'lishi mumkin emas. Bo'larning barchasi ijtimoiy bilishga ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazadi va uning o'ziga xos xususiyatlarini shakllantiradi. Ayni shu sababli ijtimoiy bilishda olimning grajdanlik pozitsiyasi, uning ma'naviy qiyofasi, haqiqat ideallariga sodiqligi juda muhimdir.

Bilish faoliyat turi sifatida. Insonning o'zini qurshagan dunyoni tushunib etishi muhim falsafiy muammolardan biridir. Mohiyat e'tibori bilan, dunyoni bilish mumkinmi, degan masala dunyoning inson ongida aniq va to'liq aks etish, insonning bu dunyoda ongli va erkin mo'ljal olish va faoliyat olib borish imkoniyati to'g'risidagi masaladir. Insonning o'zini qurshagan dunyoda mo'ljal olish funktsiyasini bilim bajaradi. Bilim – inson ong yordamida oladigan dunyo haqidagi ma'lumotlarning eng oliy darajasidir. Bilim obrazlar va belgilar shaklida mavjud

bo'ladi va undan odamlar amaliy faoliyatining ideal rejasi sifatida foydalanadi. Bilimsiz (oddiy, ilmiy, badiiy va boshqa bilimlarsiz) dunyoning manzarasini shakllantirish mumkin emas. F.Bekon shu munosabat bilan bilim kuchdir deb ta'kidlagan edi. Bilimni Gegel ta'biri bilan aytganda faqatgina subyektiv tasavvur, erkin mulohaza, tasavvur mahsuli bo'lgan fikrdan farqlay bilish lozim. Insonning dunyoni bilishga intilishining mohiyati u aniq yoki noaniq bilimlarni faol va izchil izlashi va ularni olishidan iborat. Falsafaning bilish muammolari ko'rib chiqiladigan bo'limi gnoseologiya yoki bilish nazariyasi deb ataladi. Insonning dunyoni bilish jarayonini boshqa fanlar – mantiq, psixologiya, sotsiologiya ham o'z nuqtai nazaridan o'rganadi.

Bilish va bilim to'g'risida so'z yuritganda o'rta asrlardagi kabi bilim va e'tiqodni qarama-qarshi qo'yish yaramaydi. E'tiqod – moddiy va ma'naviy dunyo narsalari, jarayonlari va hodisalarini dalil-isbotsiz bilish demak. «Men Xudoning borligiga ishonaman»; «men yaqinda bahor kelishiga ishonaman»; «men o'z ishimning muvaffaqiyatiga ishonaman» va h.k. va h.k. E'tiqod – bu insonning ishonchi. Bilim bizga aniq-ravshan ko'rinib turadigan narsalarni kashf etish imkonini bersa, e'tiqod, ishonch insonga hozircha ko'rinmaydigan sirli narsalarni aniqlashga yordam beradi. SHu tariqa e'tiqod bilish jarayonida faol ishtirok etadi va uning muhim unsuri hisoblanadi. Biroq, shu bilan bir vaqtda, zahirida aqlning so'qirligi, mutaassiblik va insonning kuchsizligi yotuvchi soxta e'tiqod ham mavjudligini qayd etib o'tish lozim. Bunga qarama-qarshi o'laroq, inson kuch-qudratining ramzi sanalgan oqilona e'tiqod mavjud bo'lib, u odamzotning emotsional va intellektual faolligiga imkoniyat yaratadi, bilish yo'lida izlanishga rag'batlantiradi. Barcha olimlarning ilmiy faoliyati zahirida inson tafakkuriga qattiq ishonch yotadi, aks holda ular o'z kashfiyotlarini yarata olmaydilar. SHu ma'noda oqilona e'tiqod go'yo zulmatdagi nur, haqiqat va taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Oqilona e'tiqod bilim yo'lini mash'al kabi yoritadi, ijodga imkoniyat yaratadi, bu yo'lda insonga ishonch va kuch baxsh etadi. E'tiqodning yo'qligi esa, aksincha, skeptitsizm, bo'shliqda mavjudlik va bilishning samarasizligi tuyg'usini uyg'otadi. SHunday qilib, fikr, e'tiqod va bilim haqiqat sari yuksalishning zarur bosqichlari, inson ma'naviy tajribasining muhim shakllari hisoblanadi.

Xo'sh, bilishning o'zi nima? Uning mohiyati nimada? Avvalo, bilish – inson aks ettirish faoliyatining alohida turi. U «inson – mehnat vositalari – tabiat» tizimi doirasida insonning narsalar mohiyati, masalan, magnetizm tabiati, hayot mazmuni va hokazolar yashirinib yotgan dunyoning «qobig'i»ni ochishga yo'naladi. U dunyoning sirlarini ochadi.

Bilish – inson qo'lga kiritadigan axborotning eng oliy darajasi. Bu axborotni u bilish muammolari va vazifalarini qo'yish va echish yo'li bilan, izchil anglab etadi. Axborot miyaning mvhumlashtiruvchi faoliyati yordamida belgi shaklini ($2 + 2 = 4$) kasb etadiki, bu unga ishlov berish, saqlash va keyinchalik undan foydalanish uchun qulaydir. Bilish inson izchil va ijodiy faoliyatining ijtimoiy jarayoni bo'lib, unda tashqi dunyoning ideal obrazlari yuzaga keladi va bilish maqsadi bo'lgan bilim shakllanadi. Bilish jarayoni tarix falsafasida ma'lum vaqt mobaynida (masalan, XVIII asr falsafiy materializmida) insonning sezgi a'zolariga tabiatning mexanik ta'siri sifatida qaralgan. Inson passiv mavjudot va tabiat uni o'z

maqomiga yo'rg'alatadi, deb hisoblangan. «Biz qo'g'irchoqlarmiz va taqdir bizni iplarimizdan tortib o'ynatadi», deb yozgan edi V.Gyugo. Biroq amalda bilish doim ancha faol xususiyatga ega bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Bu odamlarning ehtiyojlari va manfaatlari, ularning umumiy maqsadlarga erishish yo'lidagi hamkorligi va boshqa omillar bilan belgilanadi. Boshqacha aytganda, bilish ijtimoiy tabiat, jihat va xususiyatlarga ega. Bunga, jumladan, nemis klassik falsafasida subyektning faolligi kontseptsiyasida (I.Fixte va boshqalar) alohida e'tibor qaratilgan.

Bilishning ijtimoiy tabiati, agar bu haqda atroflicha so'z yuritadigan bo'lsak, yana quyidagilarni ham anglatadi. Bilish doim ijtimoiy munosabatlar va madaniy dunyosining faol ta'siri ostida yuz beradi. Biz faqat o'zimiz yashayotgan davr shart-sharoitlarida va bu shart-sharoitlar beradigan imkoniyat darajasida bilishimiz mumkin. Bu shart-sharoitlar jamiyatning muhim ehtiyojlari ko'rinishida ijtimoiy buyurtmani yuzaga keltiradi. Ular subyektni shakllantiradi va bilish jarayoniga muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi – uni jadallashtiradi yoki sekinlashtiradi. Masalan, o'rta asrlarda dunyo va insonni bilishga din va cherkov katta ta'sir ko'rsatgan. XX asrda esa bilishga boshqa omillar, chunonchi: kosmosni keng miqyosda o'zlashtirish, ekologiya, oziq-ovqat muammolarini echish va hokazolar kuchli ta'sir ko'rsatmoqda.

Bilish itellektual manbaga tayanishni talab qiladi. Intellektual manba insoniyatning jami bilimlari, bilish metodlari, tushunchalar apparati, mavjud ilmiy dalillar va boshqa bilimlarni o'zida mujassamlatiradi. Ishni har safar bo'sh joyda, «noldan» boshlamaslik uchun bilishda erishilgan yutuqlarga tayanish juda muhim. I.Nyuton bu haqda so'z yuritar ekan, u gigantlar elkasida to'rgani uchungina fanda hammadan uzoqni ko'rganini qayd etgan edi.

Bilish jarayonini muomala vositasi sifatidagi til yordamidagina amalga oshirish mumkin. U butun jamiyatning jamoa boyligi, insoniyat madaniyatining muhim unsuri hisoblanadi. Fan uchun esa til, avvalo, axborotni jamg'arish va saqlash vositasi, dunyo haqidagi bilimlar va ma'lumotlarning ulkan omboridir.

Ijtimoiy munosabatlar subyekt bilish obyektiga o'z manfaatlaridan kelib chiqib yondashishini belgilaydi. SHundan ijtimoiy hayotning aynan bir hodisalari va muammolarini har xil, ba'zan hatto bir-biriga teskari idrok etish va talqin qilish hollari yuz beradi. Masalan, tarixda insoniyatning kelajakdagi rivojlanish yo'li va shakli har xil tasavvur qilingani ma'lum. Hozirgi siyosiy hayotda aynan bir hodisalar (xususiy mulk instituti, bozorning shakllanishi va boshqalar) ayrim ijtimoiy guruhlar tomonidan ijobiy baholansa, boshqa ijtimoiy guruhlar tomonidan salbiy baholanadi. Bo'larning barchasi ijtimoiy hodisalarni bilishda mafkura, ya'ni muayyan ijtimoiy hodisalarni har xil ijtimoiy guruhlar va tabaqalar nuqtai nazaridan baholash mavjudligidan dalolat beradi.

Bilishga insonning sezgilari, uning ehtirolari dunyosi kuchli ta'sir ko'rsatadi. SHu munosabat bilan K.Gelvetsiy: «...ehtiroslar bo'lmasa, buyuk artistlar ham, buyuk sarkardalar ham, buyuk ministrlar ham, buyuk shoirlar ham, buyuk faylasuflar ham bo'lmas edi», deb yozgan edi. Ehtiroslar tadqiqotchiga kuch-g'ayrat beradi va bilish jarayonini olg'a suradi. Inson ehtirolarisiz haqiqatni izlash mumkin emas.

Bilishdagi qarama-qarshiliklar. Bilish jarayoni ma'lum qarama-qarshiliklardan ham holi emas. Ular bilishning murakkab muammolarga to'la xususiyatini aks ettiradi. Bilish jarayonida mavjud qarama-qarshiliklarning ayrimlarini aytib o'tamiz.

Subyekt va obyekt (ya'ni inson va tashqi dunyo) o'rtasidagi qarama-qarshilik mangu va mutlaqo tabiiydir. U insonning dunyoni amalda o'zgartirish ehtiyoji bilan bu dunyo haqidagi bilimlarning kamligi (yoki umuman mavjud emasligi) o'rtasidagi nomuvofiqlikni ifodalaydi. Aslida bilish jarayoni doim ayni shu nomuvofiqlikdan boshlanadi.

Ba'zan bilishga sezgi a'zolari ma'lumotlari bilan tashqi dunyoning fikr va tushunchalardagi in'ikosi o'rtasidagi qarama-qarshilik xosdir. Ma'lumki, Quyoshning chiqishini faqat Quyosh harakatsiz Er atrofida aylanishini taxmin qilib, sezgi a'zolari yordamida tushuntirish mumkin. Biroq bu hodisani ilmiy mushohada yordamida, ikkala osmon jismining harakatchanligini isbotlash yo'li bilan ham tushuntirish mumkin. Bu qarama-qarshilik taxminlarimizning mantiqiy dalillar va mulohazalar tizimi yordamida tajribada sinash yo'li bilan echiladi.

SHakllangan nazariya bilan olingan yangi ilmiy dalillar va eksperimental ma'lumotlar o'rtasidagi qarama-qarshilik ham bilish uchun tabiiy bir holdir. Bunda mazkur dalillar yordamida nazariyaga aniqlik kiritish yoki, aksincha, uni eskirgan va o'z ahamiyatini yo'qotgan deb topish talab etiladi.

Bilish jarayonida fandagi oqimlar, maktablar va ayrim nazariyalar o'rtasida qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Bunday qarama-qarshilik falsafada ham, masalan, «Demokrit yo'nalishi» va «Platon yo'nalishi» o'rtasida mavjud. Insonning tashqi dunyoni to'liqroq va aniqroq bilishga intilishi bilan buning uchun subyektiv va obyektiv chegaralar (inson qobiliyatining cheklanganligi, fan va texnika rivojlanish darajasining etarli emasligi va boshqalar) mavjudligi o'rtasidagi nomuvofiqlik odatdagi hol hisoblanadi. Faol va rivojlanuvchi jarayon bo'lgan inson bilishi uchun qarama-qarshiliklarning mavjudligi tabiiy bir holdir. Ularning umumiy negizini amaliyot, ijtimoiy hayot tashqil etadi. Qarama-qarshiliklar amaliyot jarayonida yangi metodlar va dalillarni izlash, bilish subyektining intellektual qobiliyatini takomillashtirish yo'li bilan echiladi.

Xulosalar. Bilish doimo qandaydir yangi, ilgari noma'lum bo'lgan narsani yaratishga yo'nalgan ijoddir. Ijodning bosh mezoni (ko'rsatkichi) – olingan natijalarning yangiligi va ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligi. U juda katta aqliy va jismoniy harakat («ijod mashaqqatlari» deb bejiz aytmaydilar), ba'zan fuqarolik jasorati va hatto jonbozlik talab qiladi.

SHunday qilib, insonning bilishi rivojlanib boruvchi, faol jarayondir. Bu, avvalo, jamiyatda yangi ehtiyojlarning tug'ilishi, tegishli ravishda amaliyotning rivojlanishi va takomillashuvi bilan belgilanadi. Ayni shu sababli bilish «mangu harakat, qarama-qarshiliklarning yuzaga kelishi va ularning echilishi jarayoni» deb qaralishi lozim.

Hissiy darajadagi bilimning shakllari. Sezgi a'zolari orqali olingan bilim – hissiy bilimlardir. Sezgi a'zolari yoki narsalarning xossalarini sezgi a'zolari sezish va idrok etishi natijasida olingan bilimhissiy bilimdir. Masalan, inson uchayotgan samolyotni ko'radi va buning nimaligini biladi.

Sezgi va idrok. Bilish faoliyatida sezgi – narsalar ayrim xossalarning sezgi aʼzolari orqali his qilingan oddiy obrazi, inʼikosi, nusxasi yoki oʻziga xos surati dastlabki sezgi obrazi hisoblanadi. Masalan, aplesinda biz toʻq sariq rang, oʻziga xos hid, taʼmni sezamiz. Sezgilari insondan tashqaridagi muhitda yuz berayotgan va uning sezgi aʼzolariga taʼsir koʻrsatayotgan jarayonlar taʼsirida yuzaga keladi. Ovoz va yorugʻlik toʻlqinlari, mexanik bosim, kimyoviy taʼsir va hokazolar tashqi taʼsirlantiruvchilar hisoblanadi.

Forobiy bilishning ikki shakli – hissiy va oqilona bilishni farqlaydi. Insonni tashqi dunyo bilan bogʻlovchi sezgilari roliga eʼtiborni qaratar ekan, Forobiy ularni besh turga ajratadi. U sezgilarni bilimning asosiy manbai deb hisoblab, sezgilari faqat narsaning inʼikosi narsaning oʻziga mos tushgan holda haqiqiy boʻlishi mumkin deb qayt etadi. Forobiyning bilishda va umuman hissiy idrok etishda sezgilarning roli haqidagi qarashlari Aristotelning «sezmaydigan odam hech narsani bilmaydi va tushunmaydi», degan fikriga juda oʻxshash.

Insonning hayvondan farqi shundaki, u aql va sezgilari yordamida bilimlarni oʻzlashtirishga qodir. «Aql kuchi» borliq narsalarining fikriy inʼikosini oʻzida gavdalandiradi. Dunyoviy hodisalarning mohiyati va sabablarini bilgan aql osmon jismlari va ularning shakllarini bilishga harakat qiladi. SHu oxirgi bosqichda insonga taʼsir koʻrsatuvchi koinot aql bilan birikadi va boqiylik xususiyatini kasb etadi. Aql dunyoning yaralish bosqichlari sifatida inson va birinchi sabab oʻrtasida bogʻlovchi boʻgʻin boʻlib xizmat qiladi, birinchi sabab esa, oʻz navbatida, aqlga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Harakatlanuvchi aql jon bilan ruh orqali bogʻlanadi, jon inson tanasidan oʻrin oladi, shunday qilib, nodunyoviy hayot jihatlari insonga oʻtadi va pirovardida inson mohiyati, bilimlari – uning aqli boqiylik xususiyatini kasb etadi. Forobiy fikricha, sezgilari tartibga ega boʻlganidek, aqlning ham oʻz tegishli tartibi mavjuddir Birinchi metod tabiiy fanlar (fizika)ga, ikkinchisi – matematikaga mos tushadi. Ikkala metoddan ham faqat fanda narsa va hodisaning u yoki bu jihatini teranroq tushunish maqsadida foydalaniladi. Sezgilari dunyoning sifat jihatidan rang-barangligining obyektiv xususiyatini aks ettiradi va uning taʼsirida yuzaga keladi. Sezgilari hodisalarning miqdor koʻrsatkichlari haqida ham ancha boy axborot beradi. Sezgilari bir xil ohangdagi ovozlari oʻrtasidagi farqni ularning kuchiga qarab, rang tuslarini, temperaturadagi oʻzgarishlarni, narsalar va jarayonlardagi boshqa farqlarni ancha aniq aks ettiradi. Sezish qobiliyatining yoʻqolishi muqarrar tarzda ongning yoʻqolishiga olib keladi. Sezishning koʻrish, eshitish, tebranish, paypaslash, ob-havo, ogʻriq, muvozanat va tezlashishni his etish, hid, taʼm bilish kabi umumiy organik turlari farqlanadi. Sezgilarning har bir shakli oʻzining ayrim koʻrinishi orqali materiya harakatining mazkur shakli va turi, masalan, elektromagnit, ovoqli tebranishlar, kimyoviy taʼsirlari va hokazolarning umumiy xossalarni aks ettiradi. Har qanday predmet juda koʻp har xil jihatlari va xossalarga egadir. Masalan, qand boʻlagini olaylik: u qattiq, oq, shirin, maʼlum shakl, hajm va vaznga ega. Bu xossalarning barchasi bir predmetda mujassamlashgan. Biz bu xossalarni alohida-alohida emas, balki yaxlit holda - qand boʻlagi sifatida idrok etamiz va tushunamiz. Binobarin, yaxlit obrazni idrok etishning obyektiv negizini predmetning turli jihatlari va xossalari birligi va ayni vaqtda ularning koʻp sonliligi tashqil etadi. Sezgi aʼzolariga bevosita taʼsir koʻrsatuvchi predmetlar, ularning xossalari va

munosabatlarini aks ettiruvchi yaxlit obrazni idrok etish deb ataladi. Insonning idrok etishi narsalar, ularning xossalari va munosabatlarini tushunish va anglab etishni o'z ichiga oladi. Bunda inson o'zining har bir yangi taassurotini mavjud bilimlar tizimiga kiritadi. Sezish va idrok etish inson tashqi dunyoga amaliy ta'sir ko'rsatishi jarayonida, mehnatda, sezgi a'zolari faol ishlashi natijasida amalga oshadi va rivojlanadi; masalan, harakatsiz ko'z narsalar rangini farqlashga qodir emas.

Organizmning makroskopik, yaxlit narsalar va jarayonlar olamida mo'ljal olishga bo'lgan ehtiyoji bizning sezgi a'zolarimizni shunday tashqil qilganki, biz narsalarni yaxlit holda idrok etamiz. Aks holda hamma narsa harakatlanayotgan zarralar, molekulalar pardasiga aylangan va biz narsalarning chegaralarini ko'rmagan bo'lur edik. Ko'rish a'zosi organizm hayotida muhim rol o'ynaydigan borliqdagi yorug'lik hodisalarini mumkin qadar yaxshiroq aks ettirish yo'nalishida rivojlangan. SHu sababli ko'z tabiatda mavjud yorug'lik ta'sirida yorug'likni qabo'l qilish, quloq - ovoz tebranishlarini farqlash uchun moslashgan va h.k. Sezgi a'zolarining o'ziga xosligi, «fiziologik» idealistlar fikridan farqli, tashqi dunyoni to'g'ri bilishga nafaqat monelik qilmaydi, balki, aksincha, narsalarning obyektiv xossalari aniqroq va to'liqroq aks etishini ta'minlaydi.

Sezgi – *obyektiv dunyoning subyektiv obrazi, degan tamoyil sifatlarni birlamchi va ikqilamchiga mexaniq tarzda ajratishga qarshi yo'nalgan.* Bu nuqtai nazardan birlamchi sifatlar (shakl, hajm va h.k.) narsalarning obyektiv mavjud xususiyatlari in'ikosi hisoblanadi, ikqilamchi sifatlar (rang, ovoz va h.k.) sof subyektiv xususiyat kasb etadi. Ayni bir sezgiga narsalarning har xil xossalari mos kelishi mumkin: oq rang sezgisi ko'rish doirasidagi to'lqinlar barcha uzunliklarining elektromagnit xossalari qorishmasini ham, qo'shimcha ranglar har qanday juftligi (qizil va ko'k-yashil, sariq va safsar) qorishmasini ham aks ettiradi. Bundan oq rang to'lqin yoki narsa yuzasining obyektiv xossasi sifatida qaralishi mumkin emas, degan yanglish xulosa chiqariladi. Qora rang to'lqin xossasi emas: uning sharti – ko'rish doirasida nurlanishning yo'qligi. To'lqin yo'q narsa haqida axborot bera olmaydi. Bundan quyidagi soxta xulosa kelib chiqadi: rang, hid – bu narsalarning xossalari emas, balki bizning sezgilarimizdir (E.Max); «rang» so'zi bilan ruhiy kechinmalarning muayyan toifasi belgilanadi (V.Ostvald). Dunyo esa ovozsiz, bo'yoqlar va hidlardan holi. Unda issiq ham, sovuq ham mavjud emas. Bo'larning hammasi – faqat bizning sezgilarimiz.

Bu erda masalaning ikki tomonini: sezgilar manbasi nimaligi va ularning psixofiziologik mexanizmi qandayligini farqlash lozim.

Obrazning sifat jihatidan aniqligi predmetning sifat jihatidan aniqligini aks ettiradi. Jismning tebranishi yoki ayni shu elektromagnit nurlarni tarqatishi jism to'zilishi, uning haroratisi va boshqa xossalari bog'liq bo'ladi. Masalan, har bir metall olovni o'z rangiga bo'yaydi; har bir modda u yonayotgan gazga aylanganida o'z rangini kasb etadi. Qor ko'zimizga oq bo'lib ko'ringani uchun oq emas, balki u amalda oq bo'lgani uchun ham biz uni shunday ko'ramiz. Mexanitsistlar va subyektivistlarning narsa unga qarayotganimizdagina rangga va uni hidlayotganimizdagina hidga ega bo'ladi, degan fikriga qo'shilib bo'lmaydi. Ko'z o'zining rang sezadigan apparati bilan o'zi idrok etuvchi rang mavjud bo'lgani tufayli yuzaga kelgan va mavjud.

Xotira, tasavvur, xayol.

Garchi sezish va idrok etish insonning barcha bilimlari manbai sanalsada, hissiy bilish ular bilangina kifoyalanmaydi. U yoki bu predmet insonning sezgi a'zolariga ma'lum vaqt mobaynida ta'sir ko'rsatadi. So'ngra bu ta'sir barham topadi. Biroq predmetning obrazi izsiz yo'qolmaydi. U xotirada gavdalanadi va saqlanib qoladi. Binobarin, biron-bir narsa haqida u yo'qolganidan keyin ham fikr yuritish mumkin, chunki u haqda muayyan tasavvur qoladi. YUmiq ko'zlar bilan ham biz nimalarnidir tasavvur qilamiz.

SHunday qilib, biz haqiqatga eltuvchi yo'l naqadar og'ir ekanligini ko'ramiz: u amalda jonning barcha kuchlari – xotira, iroda, tasavvur, intuitsiya va aqlning bor kuchini ishga solishni nazarda tutadi. Masalan, xotirani olaylik. Bilish haqida xotirasiz fikr yuritish mumkinmi? Albatta, yo'q: xotirasiz jon – baliqsiz to'r degan gap. Bu ajoyib hodisasiz bilishni tasavvur qilish mumkin emas.

Sezish va idrok etish jarayonlari o'zidan keyin miyada «iz» qoldiradi. Bu izlarning mohiyati insonga ayni lahzada ta'sir ko'rsatmayotgan narsalarning obrazlarini gavdalandirish qobiliyatidan va iborat.

Xotira o'tmish va hozirgi zamonni birlashtiradi, ularning bir-biriga o'tishini ta'minlaydi. “Tovushlar va so'zlar soni ko'paygandan keyin, odamga uning xotirasi yordamga keladi... YOzuv ham xotira bilan birga inson imkoniyatlarini oshiradi”¹. Agar obrazlar miyada unga predmet ta'sir ko'rsatgan paytda paydo bo'lib, bu ta'sir to'xtaganidan keyin darhol g'oyib bo'lganida, inson narsalarni har safar mutlaqo notanish narsalar sifatida qabo'l qilgan. U mazkur narsalarni tanimagan, demak, ularni anglamagan bo'lar edi. Biror narsani anglash uchun aqlning ishlashi – hozirgi holatni oldingi holat bilan taqqoslashi talab etiladi. Tashqi ta'sirlarning idrok etilishi va ularning vaqtda saqlanishi natijasida xotirada tasavvurlar uyg'onadi.

Tasavvurlar – bu bir paytlar insonning sezgi a'zolariga ta'sir ko'rsatgan va keyinchalik miyada saqlanib qolgan aloqalar bo'yicha gavdalanadigan narsalarning obrazlaridir.

Sezish va idrok etish ong fikr gavdalanishining boshlanishi hisoblanadi. Xotira olingan axborotni qayd etadi va saqlaydi. Tasavvurda esa ong ilk bor o'zining bevosita manbaidan ajraladi va nisbatan mustaqil subyektiv hodisa sifatida mavjud bo'la boshlaydi. Inson nisbatan yangi obrazlarni erkin yaratishga qodir. Tasavvur – bu idrok etish va nazariy tafakkur o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in.

Xayol insonning muhim xossasi. Xayol tafakkur oqimida etishmayotgan ko'rgazmalilik o'rnini to'ldiradi. **Xayol** kuchi tajribada (ongda) mavjud obrazlarni nafaqat qayta chaqiradi, balki ularni bir-biri bilan bog'laydi va shu tariqa ularni umumiy tasavvurlar darajasiga ko'taradi. Obrazlarni qayta gavdalandirish xayol kuchi bilan erkin va bevosita kuzatish yordamisiz amalga oshiriladi. Tasavvurlar paydo bo'lishining bu shakli bunday erkin faoliyat ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lmagan, biroq amalda kuzatishga muhtoj bo'lgan va obrazlar beyixtiyor paydo bo'lishiga yo'l qo'yadigan oddiy eslashdan shu bilan farq qiladi.

¹ Qarang.S.M.Hotamiy. Islom tafakkuri tarixidan.-T.: Minhoj, 2003.- B.74

Empirik bilim darajasi va uning shakllari. Empirik bilim mavjud narsaning bevosita emas, balki bilvosita in'ikosi bo'lishi mumkin. Masalan, olim o'zi ko'rmayotgan tegishli obyektning holati haqida unga axborot berayotgan asbob ko'rsatkichi yoki elektrokardiogrammaning elektr chizig'ini ko'radi. Boshqacha aytganda, bilishning empirik darajasi har xil asboblardan foydalanish bilan bog'liq; u kuzatish, kuzatilayotgan narsa yoki hodisani tavsiflash, bayonnomalar yuritish, hujjatlardan foydalanishni nazarda tutadi, masalan, tarixchi arxivlar va boshqa manbalar bilan ishlaydi. Xullas, bu oddiy sezgi darajasida bilishga qaraganda bilishning yuqoriroq darajasidir.

Empirik bilimlar nazariy bilim negizini tashqil etuvchi ilmiy dalillar majmuidir. Empirik bilim ikki kuzatish va eksperiment metodlari yordamida shakllanadi.

Kuzatish – *bilish obyektining muhim xossalari va munosabatlarini aniqlash maqsadida ataylab amalga oshiriladigan izchil idrok etishdir.* Kuzatish maqsadini belgilash, uning usullarini aniqlash, o'rganilayotgan obyekt xulq-atvorini nazorat qilishning rejasini to'zish, asboblardan foydalanish kabilar kuzatishning muhim xususiyatlaridir. Kuzatishlarning natijalari bizga borliq haqida ilmiy dalillar ko'rinishida dastlabki axborot beradi.

Kuzatish bevosita yoki bilvosita, masalan, mikroskop yordamida bo'lishi mumkin. Hozirda elektron mikroskop yordamida molekulalarni vizual kuzatish mumkin. Kuzatish – bu faoliyatning muayyan obyektlarga qaratilgan, maqsadlar va vazifalarni ta'riflashni nazarda tutadigan faol shakli. Biron-bir narsani bilishni xohlagan har qanday odam o'z ko'zlarini kuzatuvchanlikka o'rgatishi lozim.

Zehnli, ijodkor va teran aql narsa va hodisalarning ko'pchilik e'tibor bermaydigan muhim jihatlarini ko'rish va sezish qobiliyati bilan ajralib turadi. Bu qobiliyat fan va san'atdagi novatorlik omilidir. Kuzatish maxsus tayyorgarlikni talab qiladi. Kuzatishlarni tayyorlashda kuzatish vazifalari, u javob berishi lozim bo'lgan talablarni aniqlash, kuzatish rejasini va usullarini oldindan ishlab chiqish muhim o'rin tutadi. Kuzatish tabiatning o'zida mavjud narsalar va hodisalarni qayd etadi. Biroq inson kuzatuvchi roli bilan kifoyalana olmaydi. U eksperimentlar o'tkazish orqali faol sinovchiga aylanadi. Miyada tasavvur qilingan model ustida o'tkaziladigan fikriy eksperiment bilishning alohida shaklini tashqil etadi. Unga xayol va tafakko'rning uzviy aloqasi xosdir.

Eksperiment – *bu shunday tadqiqot metodiki, uning yordamida obyekt yo sun'iy tarzda yaratiladi, yo tadqiqot maqsadlariga mos keladigan ma'lum shart-sharoitlarda o'rganiladi. Eksperimentda tadqiqotchi ilmiy tadqiqotni o'tkazish shart-sharoitlariga faol aralashadi.* U jarayonni istalgan bosqichda to'xtatishi mumkin bo'lib, bu obyektни yanada mufassalroq o'rganish imkonini beradi. Tadqiqotchi o'rganilayotgan obyektни boshqa obyektlar bilan har xil tarzda bog'lashi yoki u ilgari kuzatilmagan shart-sharoitlarni yaratishi va shu tariqa fanga ma'lum bo'lmagan yangi xossalarni aniqlashi mumkin.

Eksperiment o'rganilayotgan hodisani sun'iy tarzda gavdalantirish va nazariy yoki empirik bilim natijalarini amalda sinash imkonini beradi.

Eksperiment doim, ayniqsa hozirgi zamon fanida ba'zan juda murakkab texnika vositalari, ya'ni asboblardan foydalanish bilan bog'liq. Asbob – bu

insonning sezgi a'zolari bilishi mumkin bo'lmagan hodisalar va xossalar haqida axborot olish uchun mo'ljallangan, kerakli xossalarga ega bo'lgan moslama yoki moslamalar tizimidir. Asboblarning bizning sezgi a'zalarimizni kuchaytirishi, obyekt xossalarining faollik darajasini o'lchashi yoki ularda o'rganilayotgan obyekt qoldirgan izlarni aniqlashi mumkin.

Tadqiqot maqsadlariga ko'ra o'rganish eksperimenti, yangi narsa yoki hodisani kashf etish hamda yangi xossalarni aniqlovchi va ularni namoyish etuvchi tekshiruv eksperimenti; (gipotezalarning to'g'riligini aniqlash), obyektlar yoki ularning xossalarini aniqlashga qaratilgan sifat eksperimenti va o'rganilayotgan obyektning xossalarini o'lchash bilan bog'liq miqdor eksperimenti farqlanadi. O'rganish obyektiga ko'ra tabiiy va ijtimoiy eksperiment, amalga oshirish usullariga ko'ra esa – tabiiy va sun'iy, modeli va bevosita amaliy va tafakkur vositasida amalga oshiriladigan eksperimentlar farqlanadi. SHuningdek ilmiy va ishlab chiqarish eksperimenti ham mavjud. Ishlab chiqarish eksperimenti sanoat va dala sharoitidagi eksperimentlarni o'z ichiga oladi. Modelli eksperiment alohida ahamiyatga ega. Fizik va matematik modellash tirish farqlanadi. Fizik model o'rganilayotgan obyektning noma'lum xossalarini aniqlash uchun uning ma'lum xossalarini gavdalantirishni nazarda tutadi (samolyotlar, kosmik kemalar yoki neyronlarning modellari va h.k.). Matematik model har xil obyektlarning umumiy, funksional bog'liqligini tavsiflovchi formal (matematik) o'xshashligi asosida to'zilatiladi, bu ham amalda mavjud obyektlarning noma'lum xossalarini aniqlash imkonini beradi.

Eksperimentning asosiy metodi – o'rganilayotgan obyekt mavjud bo'lgan odatdagi shart-sharoitlarni o'zgartirish. U o'rganilayotgan obyekt xossalari bilan shart-sharoitlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish, shuningdek shart-sharoitlarning o'zgarishi munosabati bilan bu xossalarning o'zgarish xususiyatini aniqlash imkonini beradi. SHu bilan bir vaqtda, bu metod predmetlarning tabiiy sharoitda namoyon bo'lmaydigan yangi xossalarini aniqlash uchun imkoniyat yaratadi, masalan, sun'iy iqlim laboratoriyalarida o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga temperatura, yorug'lik, namlik va shu kabilarning ta'sirini u yoki bu darajada to'g'ri aniqlash mumkin. Hamonki shart-sharoitlar o'zgarishi bilan predmetning muayyan xossalari o'zgarar (ba'zan yana yuzaga kelar), boshqa xossalarida esa sezilarli o'zgarishlar yuz bermasligi mumkin. Eksperimentga shart-sharoitlarni nazorat qilish, jarayonlarning ko'rsatkichlarini o'lchash imkoniyatining mavjudligi va asbob-uskunalaridan foydalanish xosdir. Inson tajriba o'tkazish chog'ida yangilishishi mumkin. Asboblarning bu kamchilikdan holi. Mikroskop, teleskop, rentgen apparati, radio, televidenie, telefon, seismograf va shu kabilarning yordamida inson o'zining idrok etish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi va teranlashtirdi. Fan, ayniqsa tabiatshunoslikda erishilgan yutuqlar eksperiment o'tkazish metodlari va vositalarining takomillashuvi bilan uzviy bog'liq. So'nggi yillarda olimlar, masalan, ilmiy ijod jarayoniga bevosita kiritilgan kompyuterlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Eksperimentni ko'p takrorlash va shu yo'l bilan xulosalarni kuzatuvlarning ko'proq soniga tayangan holda asoslash mumkin. Eksperiment o'tkazish uchun dastlabki bilimlar kerak, I.P.Pavlov qayd etganidek, dalillarni

rivojlantirish predmet haqida umumiy tasavvurga ega bo'lish lozim. Bu umumiy tasavvurlar, farazlar, gipotezalar oldingi kuzatishlar, eksperimentlar va insoniyatning barcha tajribasidan olinadi. Ular eksperimentga yo'l ko'rsatadi. Aniq anglanmagan maqsadsiz, ko'r-ko'rona amalga oshiriladigan kuzatish, eksperiment samara berishi mumkin emas. Kallada g'oya bo'lmasa, hech qanday dalilni ko'rolmaysan, degan edi I.P.Pavlov.

Kuzatish va eksperiment o'tkazish jarayonining natijasi tavsiflash yoki bayon etish yo'li bilan ifodalanadi. U umumiy qabo'l qilingan atamalar yordamida to'zilgan, grafiklar, rasmlar, foto va kinotasvirlar ilova qilingan, matematik, kimyoviy formulalar kiritilgan hisobot ko'rinishida ifodalanishi ham mumkin. Tavsifga qo'yiladigan asosiy ilmiy talab – kuzatish va eksperiment ma'lumotlarini to'g'ri va aniq aks ettirishdir. Tavsif to'liq yoki noto'liq bo'lishi mumkin, biroq u doim materialni ma'lum darajada tizimga solishni, ya'ni uni guruhlash va umumlashtirishni nazarda tutadi: sof tavsif ilmiy ijod doirasidagina qoladi.

Bilish empirik metodlarining muhim unsuri – *taqqoslash, ya'ni o'rganilayotgan obyektlarning kuzatish yoki eksperimentda aniqlanayotgan xossalari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashdir*. O'lchash – taqqoslashning ayrim ko'rinishi. Kuzatish va eksperiment natijalari o'lchash yo'li bilan ifodalangan taqdirdagina ilmiy ahamiyatga ega bo'ladi. *O'lchash – obyekt xossalarining rivojlanish darajasini tavsiflovchi kattalikni aniqlash jarayoni*. U o'lchash birligi sifatida qabo'l qilingan boshqa kattalik bilan taqqoslash shaklida amalga oshiriladi.

Ilmiy dalil. Ilmiy dalil empirik bilishning natijasi hisoblanadi. *Dalil* (yoki dalillar)ni aniqlash ilmiy tadqiqotning zarur shartidir. *Dalil – bilimining tasdiqlangan boyligiga aylangan moddiy yoki ma'naviy dunyo hodisasi, biron-bir hodisa, xossa yoki munosabatni qayd etishdir*. A.Eynshteyn so'zlari bilan aytganda, fan dalillardan boshlanishi va boshlanish bilan tugallanish o'rtasida qanday nazariy to'zilmalar bo'lishidan to'zilishidan qat'i nazar, dalillar bilan yakunlanishi lozim. Dalil tushunchasi har xil ma'no-mazmunga ega. «dalil» atamasining ko'p sonli ta'riflari orasida quyidagilarni qayd etish mumkin. Birinchidan, borliq hodisasi, asos qilib olish mumkin bo'lgan voqea, hodisa, holat sifatidagi dalil. Bu inson tomonidan anglangan yoki anglanmaganligidan qat'i nazar mavjud bo'lgan hayot dalillaridir.

Ikkinchidan, «dalil» tushunchasi borliqning anglab etilgan voqealari va hodisalarini belgilash uchun qo'llaniladi. Inson bilish imkoniyatlarining serqirraligi shunda namoyon bo'ladiki, borliqning ayni bir dalili bilishning oddiy va ilmiy darajalarida, san'at, publitsistika yoki yuridik amaliyotda anglab etilishi mumkin. SHu sababli turli usullar bilan aniqlanadigan har xil dalillarning ishonchlilik darajasi ham har xil bo'ladi. Ko'pincha ilmiy dalil bilan borliq voqeasi o'xshash bo'lib ko'rinadi va bu ayrim faylasuflar va olimlarga dalil haqiqatini mutlaq haqiqat sifatida tavsiflash imkonini beradi. Bunday tasavvur bilishning haqiqiy manzarasiga mos kelmaydi, uni dogmaga aylantiradi va soddalashtiradi.

Dalillar murakkab to'zilisga ega. Ular borliq haqidagi axborot, dalil talqini, uni olish va tavsiflash usulini o'z ichiga oladi.

Dalilning muhim tomoni – borliq yoki uning ayrim xossalari haqida tasavvo'ning shakllanishiga imkoniyat yaratuvchi borliq to'g'risidagi axborot.

Dalilning borliqqa muvofiqligi uni haqiqiy deb tavsiflash imkonini beradi. SHu sababli dalillar fanning empirik asosi, nazariyani tasdiqlash yoki inkor etishning muhim usuli hisoblanadi. Dalil yordamida borliq holisona, nazariyaga bog'lanmagan holda anglab etiladi. Dalillar eski nazariya doirasiga sig'maydigan, unga zid bo'lgan hodisalarni kashf etish imkonini beradi.

Talqin qilish dalilning muhim unsuri bo'lib, u har xil shakllarda amalga oshiriladi. Ilmiy dalil nazariya bilan bilvosita bog'liq. Nazariya yordamida empirik tadqiqotning vazifalari aniqlanadi va uning natijalari talqin qilinadi. Talqin qilish dalil tarkibidan uni shakllantirishning nazariy-metodologik sharti, dalildan kelib chiqadigan nazariy xulosa, uning ilmiy izohi yoki har xil mafkuraviy, ilmiy yoki falsafiy nuqtai nazarlardan amalga oshiriladigan baholash sifatida o'rin oladi.

Dalilning moddiy-texnik yoki metodik tomoni, ya'ni uni olish usuli ham bor. Dalilning ishonchliligi ko'p jihatdan u qaysi usulda, qanday vositalar yordamida olinganligi bilan belgilanadi. Masalan, saylovoldi kampaniyalarida nomzodlar reytingi, ularning muvaffaqiyat qozonish imkoniyatlarini ko'rsatuvchi sotsiologik tadqiqotlarning natijalaridan ko'p foydalaniladi. Ko'pincha ularning natijalari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi, ba'zan bir-biriga mutlaqo zid bo'ladi. To'g'ridan-to'g'ri xatoga yo'l qo'yish imkoniyati istisno etilsa, bunday farqlarning sababi metodikalarning har xilligi bilan izohlanishi mumkin.

Fanning ko'p asrlik tarixi nafaqat kashfiyotlar tarixi, balki dalillarni nazariy mavhumlashtirish, umumlashtirish yoki tizimga solishning muhim omili hisoblangan fan tilining rivojlanish tarixi hamdir. SHu sababli har qanday dalil belgi-aloqa jihatiga, ya'ni u tavsiflangan fan tiliga ega bo'ladi. Grafiklar, sxemalar, ilmiy belgilar va atamalar – fan tilining muhim atributlari. Agar ilmiy kashfiyotni odatdagi atamalarda tavsiflashning iloji bo'lmasa, uni idrok etish jarayoni ba'zan uzoq yillarga cho'ziladi.

Ilmiy bilimning rivojlanishiga qarab tabiiy til unda ifodalanayotgan narsalar mazmuniga semantiq jihatdan muvofiq emasligi bo'rtib ko'rinsa boshladi. Tabiiy til iboralarining serma'noliligi, gaplar mantiqiy to'zilishining noaniqligi, til belgilarining ma'nolari kontekst ta'sirida o'zgaruvchanligi, psixologik assotsiatsiyalar – bo'larning barchasi ilmiy bilishda zarur bo'lgan ma'noning aniqligi va ravshanligiga erishishga monelik qilardi. Natijada tabiiy tilni sun'iy tarzda formallashtirilgan til bilan almashtirishga ehtiyoj tug'ildi. Uning kashf etilishi fanning bilish vositalarini juda boyitdi, unga yangi va yangi murakkab vazifalarni echish imkonini berdi. SHuni ta'kidlash lozimki, ilmiy dalillar ham, gipotezalar, nazariyalar, ilmiy muammolar ham fanda yaratilgan sun'iy tillarga tayanadi.

Ilmiy dalil nazariy tizimga kiradi va ikki muhim xossa: ishonchlilik va bir variantlilikka ega bo'ladi. Ilmiy dalilning ishonchliligi shunday namoyon bo'ladiki, uni tadqiqotchilar tomonidan turli davrlarda o'tkaziladigan yangi eksperimentlar yordamida olish va ifodalash mumkin. Ilmiy dalilning bir variantlilik shundan iboratki, u o'zining ishonchliligini talqinlarining rang-barangligidan qat'i nazar saqlab qoladi.

Fan dalillari umumlashtirilishi natijasida ular nazariya uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Dalillarni umumlashtirishning oddiy shakllari – ularni tahlil, sintez qilish, tiplarga ajratish, birlamchi tushuntirish sxemalaridan foydalanish va

hokazolar asosida amalga oshiriladigan tizimga solish va tasniflashdir. Ma'lumki, juda ko'p ilmiy kashfiyotlar olimlarning dalillarni tizimga solish va tasniflash borasidagi fidokorona mehnati natijasida yuzaga kelgan (masalan, CH.Darvin yaratgan turlarning tabiiy tanlanish yo'li bilan paydo bo'lishi nazariyasi, D.I.Mendeleevning kimyoviy elementlar davriy sistemasi).

Dalillar ularni talqin qiluvchi nazariya, ularni tasniflash metodi mavjud bo'lgan, ular boshqa dalillarga bog'lab anglab etilgan holdagina ilmiy ahamiyat kasb etadi. Faqat o'zaro bog'langan va yaxlit ko'rinishda dalillar nazariy umumlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Alohida va tasodifan, hayotdan ajratib olingan dalillar biron-bir narsa yoki hodisani asoslashga qodir emas. Noto'g'ri tanlab olingan dalillardan har qanday nazariyani to'zish mumkin, biroq u hech qanday ilmiy ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Nazariy bilim va uning shakllari. Ilmiy dalillar nazariyaga nisbatan ham ikki xil vazifani bajaradi: mavjud nazariyaga nisbatan ilmiy dalil yo uni mustahkamlaydi (verifikatsiya qiladi), yo u bilan to'qnashadi va uning asossizligini ko'rsatadi (falsifikatsiya qiladi). Biroq, boshqa tomondan, nazariya empirik tadqiqot darajasida olingan ilmiy dalillar yig'indisini shunchaki umumlashtirishgina emas. Uning o'zi yangi ilmiy dalillar olish manbaiga aylanadi. SHunday qilib, empirik va nazariy bilim yaxlit hodisa – ilmiy bilim ikki tomonining birligi hisoblanadi. Bu tomonlarning muayyan ilmiy bilish jarayonidagi o'zaro aloqasi va harakati, ularning o'zaro nisbati nazariy bilimga xos bo'lgan shakllarning izchil qatori yuzaga kelishini belgilab beradi. Nazariy bilimning asosiy shakllari: ilmiy muammo, gipoteza, nazariya, tamoyillar, qonunlar, kategoriyalar, paradigmalar.

Ilmiy muammo. Har qanday ilmiy bilish muammodan boshlanadi. Umuman olganda, inson bilimining rivojlanish jarayonini ayrim muammolarni qo'yishdan ularni echishga o'tish, so'ngra yangi muammolarni qo'yish sifatida tavsiflash mumkin. Biroq muammoning haqiqiy o'rni qanday? Ilmiy muammolar nima uchun yuzaga keladi? Muammoning masaladan farqi nimada? Ilmiy muammolar doirasi qanday?

Muammo – bilishning rivojlanish jarayonida obyektiv tarzda yuzaga keladigan, echimini topish muhim amaliy yoki nazariy ahamiyatga ega bo'lgan masala yoki masalalar majmuidir. SHuningdek muammo, hal qilishni talab etuvchi nazariy yoki amaliy masala; fanda – biron-bir hodisalar, obyektlar, jarayonlarni tushuntirishda qarama-qarshi yondashuvlar ko'rinishida amal qiluvchi va uni echish uchun muvofiq nazariyani talab etuvchi ziddiyatli holatdir.

Muammoni to'g'ri qo'yish uni muvaffaqiyatli echishning muhim shartidir. To'g'ri qo'yilmagan muammo yoki soxta muammo haqiqiy muammolarni echishdan chalg'itadi.

Muammoni qo'yish – ilmiy bilish jarayonining dastlabki bosqichi. Muammoni qo'yishda, avvalo, ayrim holatni masala sifatida anglab etish, qolaversa, muammoning mazmunini aniq tushunish, ma'lum va noma'lum narsalarni ajratgan holda uni ta'riflash lozim.

Ilmiy muammolar predmetga yoki protseduraga doir bo'ladi. Predmetga doir muammolarda o'rganilayotgan obyektlar, protseduraga doir muammolarda esa – bilim olish va uni baholash usullari aks etadi. O'z navbatida, predmetga doir

muammolarning empirik va kontseptual, protseduraga doir muammolarning metodologik va baholash bilan bog'liq turlari farqlanadi. Empirik muammolarni echish uchun materialni sof nazariy tahlil qilish bilan bir qatorda, predmetlar bilan ma'lum amallarni bajarish lozim, vaholanki, kontseptual muammolar borliqqa bevosita murojaat etishni talab qilmaydi. Predmetga doir muammolardan farqli o'laroq, protseduraga doir muammolar doim kontseptual xususiyatga ega bo'ladi; protseduraga doir muammolar o'rtasidagi farq shunda ko'rinadiki, metodologik muammolar nisbiy mushohada ko'rinishida echimga ega bo'lishi mumkin emas, baholash bilan bog'liq muammolar esa fanga mezon vazifasini bajaruvchi ko'rsatkichlar va mo'ljallarni olib kiradi.

Empirik muammo avvalo ma'lumotlarni izlashni nazarda tutadi; empirik muammolarga kuzatish, eksperiment, o'lchash kabi ilmiy metodlar yordamida javob topish mumkin. Bundan tashqari, echimini topish uchun asboblarni yasash, reaktivlarni tayyorlash va hokazolar kerak bo'lgan muammo ham empirik hisoblanadi.

Kontseptual muammolar ilgari olingan ko'p sonli ma'lumotlar bilan bog'liq bo'lib, ularni tartibga solish va talqin qilish, oqibatlarni keltirib chiqarish va gipotezalarni shakllantirish, mantiqiy izchillik talablariga muvofiq qarama-qarshiliklarni bartaraf etishni nazarda tutadi.

Metodologik muammolar asosan tadqiqotni rejalashtirish bilan bog'liq: ularni echish yo'li bilan ayrim kelishuvlar to'ziladi, muammoni echish, kuzatish va eksperimentlar o'tkazish tartibi aniqlanadi, mo'ljallanayotgan kontseptual protseduralar belgilanadi va h.k.

Baholash bilan bog'liq muammolar empirik ma'lumotlar, gipotezalar, nazariyalar va shu kabilarni baholash, hatto muammoning o'zi qay darajada to'g'ri to'zilgan va ta'riflanganligini baholashni nazarda tutadi. Muammo to'g'ri qo'yilgan deb hisoblanishi uchun:

- 1) o'rganilayotgan muammoning tarkibiga kiritish mumkin bo'lgan muayyan ilmiy bilim (ma'lumotlar, nazariya, metodika) mavjud bo'lishi;
- 2) muammo shaklan to'g'ri to'zilgan bo'lishi;
- 3) muammo o'rinli bo'lishi, ya'ni uning asoslari soxta bo'lmasligi;
- 4) muammo muayyan darajada chegaralangan bo'lishi;
- 5) echimning mavjudlik sharti va uning yagonaligi ko'rsatilgan bo'lishi;
- 6) maqbo'l echim belgilari hamda echimning maqbo'lligini tekshirish usullari haqidagi shartlar qabo'l qilinishi lozim.

SHunday qilib, pirovard natijada barcha ilmiy muammolar ham o'z echimini topavermaydi: ayrim muammolar ular qo'yilganidan keyin uzoq vaqt mobaynida echilmay qolaveradi (masalan, Frem teoremasi bir necha yuz yillar mobaynida echilmay kelgan), ayrim muammolar o'z echimini topmaydi (masalan, aylana kvadraturasi, burchak trisektsiyasi va kubning ikqilanmasi haqidagi masalalar), ba'zi bir muammolar esa olimlarning almashayotgan avlodlari diqqat markazidan butunlay yo'qoladi.

Ilmiy muammo boshqa muammolardan quyidagi belgilari bilan ajralib turadi:

- U olimni doim haqiqiy bilim olishga yo'naltiradi.

- Yangi bilim olishga qarab mo'ljallanadi. Olim ongli ravishda yangilik sari intiladi.

SHuni ta'kidlash lozimki, «dunyoning birinchi materiyasi nima?», «obyekt nima?», «harakat nima?», «aql nima?» qabilidagi olamshumul muammolar ayrim fanlarning chegaralarinigina belgilashi mumkin, biroq ilmiy tadqiqotning dastlabki bosqichi hisoblanmaydi.

O'z-o'zidan ravshanki, har qanday muammo ham ilmiy bo'lavermaydi. Ilmiy muammolar qolgan turdagi muammolardan shunisi bilan ajralib turadiki, ular ilmiy asoslar negizida qo'yiladi va asosan ilmiy bilimni kengaytirish maqsadida ilmiy metodlar yordamida o'rganiladi.

Teran, samarali echimini topadigan muammolarni yaratishning umumiy metodi mavjud emas. SHunga qaramay, fan tarixi ko'pgina hollarda teran ilmiy va samarali muammolar quyidagi to'rt mo'ljalni ro'yobga chiqarish paytida yuzaga kelganligidan dalolat beradi:

1) ilgari qo'yilgan muammolarning taklif qilinayotgan echimlariga, hatto bu echimlar bir qarashda shak-shubhasiz bo'lib ko'rinsa ham, tanqidiy yondashish lozim; har qanday holatda ham ayrim kamchiliklarni topish yoki hech bo'lmasa topilgan echimni umumlashtirish ayrim holatga tatbiqan muayyanlashtirish mumkin;

2) yangi holatlarga nisbatan ma'lum echimlarni tatbiq etish, ularning yaroqli yoki yaroqsizligini baholash lozim: agar muammoning echimi o'z kuchini saqlab qolsa, buning natijasida nafaqat echimlar, balki muammolar ham umumlashtiriladi, agar echim yaroqsiz bo'lsa, muammolarning yangi majmui yuzaga keladi;

3) ma'lum muammolarni yangi sohalarga ko'chirish yoki unga yana bir ko'rsatkich kiritish yo'li bilan ularni umumlashtirishga harakat qilish lozim;

4) muammoning mavjudligini bilimning boshqa sohalaridagi bilimlar bilan bog'lash, muammolarni kompleks o'rganishga harakat qilish kerak.

Umuman olganda, muammolarni tanlash ijodiy xususiyatga ega bo'lib, bu erda metodikadan ham ko'ra ko'proq intuitsiya va tajriba ish beradi.

Ilmiy muammo, didaktik tizim kabi, bilimlar va faoliyat usullarini ijodiy o'zlashtirish qonuniyatlariga asoslanadi, u bilish va amaliy faoliyat jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ijodiy tafakko'rni rivojlantirishning samarali vositalaridan biridir.

Ilmiy muammo bilimlarning izchilligi, ularning fundamentalligi va ixtisoslashuvini uyg'unlashtirish, turdosh fanlar metodlaridan foydalanish, bilimlarni ilmiy umumlashtirish va tizimga solish ko'nikmalarini ishlab chiqish, shuningdek o'rganilayotgan masalalarni tanqidiy tahlil qilishni o'z ichiga oladi. U bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga da'vat etadi, yangi muammolarni mustaqil qo'yish, ularning echimlarini izlash va topishga qiziqishni kuchaytiradi. Ayni vaqtda, ilmiy muammo zarur intellektual keskinlikni vujudga keltiradi, bilish jarayonidagi qiyinchiliklarni engish, ijodiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantiradi.

Bosh vazifa – u yoki bu mavzuga mos keladigan muammolarni topish, farqlash va aniq ta'riflash. Puxta ishlab chiqilgan va to'g'ri ta'riflangan muammo ilmiy hamda ijodiy jihatdan diqqatga sazovor bo'lishi mumkin.

Ilmiy muammo sof informativ xususiyatini yo'qotadi, tayyor bilim berishdan iborat bo'lmay qoladi va yangi bilim izlash, haqiqiy ijodiy bilish jarayoniga aylanadi. Insonga zarur bilimlar hajmi jadal sur'atlarda oshib borayotgan hozirgi sharoitda dalillarning ma'lum yig'indisini o'zlashtirishga qarab mo'ljal olishning o'zi kifoya qilmaydi. O'z bilimlarini mustaqil to'ldirish, ilmiy va siyosiy axborotlarning jo'shqin oqimida mo'ljal olish ko'nikmasini shakllantirish muhimdir. Bu tamoyillardan hozirgi davrda inson ega bo'lgan bilimlarning oddiy yig'indisi emas, balki uning bilimlari ijodiy qobiliyati va g'oyaviy e'tiqodi bilan uyg'unlikda har tomonlama etuk shaxsning bosh mezonidir, degan xulosa kelib chiqadi.

Muammoli vaziyat va uning ahamiyati. Mavjud faoliyat strategiyalari va o'tmish tajribasi insonga yuzaga kelgan qiyinchilikni bartaraf etish imkonini bermaydigan, mutlaqo yangi strategiyani yaratish talab etiladigan vaziyat odatda muammoli vaziyat deb ataladi. Muammoli vaziyat aniqlangan dalillarni mavjud bilim doirasida tushuntirish mumkin emasligini ifodalovchi vaziyatdir. Ilmiy kashfiyot sari yo'l muammoli vaziyatni aniqlashdan boshlanadi, uni ta'riflashdan o'tadi va bu vaziyatning echimini topish bilan yakunlanadi.

Muammoli vaziyatning paydo bo'lishi har xil omillar bilan belgilanadi. Avvalo, u dalilni asoslangan xususiyatga ega bo'lgan mavjud nazariy bilim yordamida tavsiflash mumkin bo'lmagan holda yuzaga keladi. Bu erda muammoli vaziyat ko'p jihatdan bizga hali aniq bo'lmagan obyektiv mavjud hodisalar ta'sirida yuzaga keladi. Biroq muammoli vaziyat ba'zan mavjud nazariy dasto'rni rivojlantirish va kengaytirish bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Muammoli vaziyat shaklan subyektiv, biroq mazmuniga ko'ra obyektivdir. Amalda u tadqiqotchi oldida kuzatishlar va eksperimentlarning empirik bilimlar – dalillar va qonunlar shaklida ifodalanuvchi yangi natijalari bilan o'z tasdig'ini topgan nazariy bilimlarning birikuvi ko'rinishida yuzaga keladi. Ko'pincha muammoli vaziyat jamiyatning amaliy yoki nazariy manfaatlari nuqtai nazaridan o'zini namoyon etadi. Uni moddiy va ma'naviy madaniyatning rivojlanish jarayoni, shu jumladan fan nazariyasi va amaliyotining rivojlanishi, unga davlat va jamiyatning munosabati, davlat va jamiyatning uni echishdan manfaatdorligi tayyorlaydi. Muammoli vaziyatning aniqlanishi va hal qilinishiga ijtimoiy-tarixiy muhit sezilarli ta'sir ko'rsatadi. U ilmiy kashfiyotga imkoniyat yaratishi, biroq uning olinishiga to'sqinlik qilishi ham mumkin.

Muammoli vaziyatda olimning o'ziga xos xususiyatlari, chunonchi: uning kasbiy tayyorgarlik darajasi, muammoda mo'ljal ola bilishi, qotib qolgan eskicha qarashlardan uzoqlasha olishi, zehnining o'tkirligi va hokazolar ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi. Muammoli vaziyatni tahlil qilishda shaxsiy-psihologik tusdagi masalalarni ham o'rganishga to'g'ri keladi, chunki bu vaziyatni olim o'z boshidan kechiradi va unda olimning intuitsiyasi, tafakkur uslubi va hokazolar namoyon bo'ladi. Muammoli vaziyatning pirovard negizi amaliyot hisoblanadi. Bizning obyekt haqidagi bilimlarimiz etarli emasligi ayon bo'lib, «salbiy» natijalar olinadi, amaliyot yangi muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bunda fan nisbatan mustaqillikka, o'z rivojlanishining ichki mantiqiga, o'z ichki qarama-qarshiliklariga

ega ekanligi, bu omillar ham muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirishini unutmaslik lozim

Gipoteza – yangi dalillarning mohiyatini tushuntiruvchi qonun mavjudligi haqidagi asosli taxmindir. Gipoteza olimlar tomonidan ilmiy muammoning qo'yilishiga sabab bo'lgan ilmiy dalillarni taxminiy tushuntirish maqsadida ilgari suriladi. Gipoteza tekshiriladigan bo'lishi lozim, u empirik tekshirish imkonini beruvchi oqibatlarga olib keladi. Agar bunday tekshirishning iloji bo'lmasa, gipoteza ilmiy jihatdan asossiz hisoblanadi.

Gipoteza formal-mantiqiy qarama-qarshiliklardan holi va ichki izchillikka ega bo'lishi lozim. Gipotezani baholash mezonlaridan biri – uning mumkin qadar ko'proq ilmiy dalildan kelib chiqadigan oqibatlarni tushuntirish qobiliyati. Biroq ilmiy muammoni qo'yish bilan bog'liq dalillarni tushuntiruvchi gipotezani ilmiy jihatdan asosli deb bo'lmaydi.

Gipoteza ilgari ma'lum bo'lmagan narsalar va hodisalarni, empirik tadqiqot jarayonida hali aniqlanmagan yangi ilmiy dalillarning paydo bo'lishini bashorat qiladi. Gipoteza mumkin qadar sodda bo'lishi lozim. U oz sonli asoslar bilan ko'p sonli hodisalarni tushuntiradi. Unda ilmiy dalillarni va gipotezaning o'zidan kelib chiqadigan oqibatlarni tushuntirish zarurati bilan bog'liq bo'lmagan ortiqcha farazlar bo'lmasligi kerak. Gipoteza qay darajada asosli bo'lmasin, u nazariyaga aylanmaydi. SHu sababli ilmiy bilishning navbatdagi bosqichi – gipotezaning haqiqiyligini asoslash serqirra jarayon bo'lib, mazkur gipotezadan kelib chiqadigan oqibatlarning mumkin qadar ko'prog'i o'z tasdig'ini topishi lozimligini nazarda tutadi. SHu maqsadda kuzatish va eksperimentlar o'tkaziladi, olingan yangi dalillar gipotezadan kelib chiqadigan oqibatlar bilan taqqoslanadi. Empirik darajada qancha ko'p oqibatlar o'z tasdig'ini topgan bo'lsa, ularning boshqa gipotezadan kelib chiqish ehtimoli shuncha kam bo'ladi. Gipotezaning eng ishonarli tasdig'i – empirik tadqiqot jarayonida gipotezada bashorat qilingan oqibatlarni tasdiqlovchi yangi ilmiy dalillarning aniqlanishidir. SHunday qilib, har tomonlama tekshirilgan va amalda o'z tasdig'ini topgan gipoteza nazariyaga aylanadi.

Nazariya – hodisalarning muayyan turkumi, bu turkumdagi hodisalarning mohiyati va ularga nisbatan amal qiladigan borliq qonunlari haqidagi bilimlarning mantiqiy asoslangan va amaliyot sinovidan o'tgan tizimidir. U o'rganilayotgan hodisalarning mazmunini yorituvchi tabiat va jamiyat umumiy qonunlarining kafsh etilishi natijasida shakllanadi. Gipoteza borliqning muayyan bo'lagini tushuntirish yoki talqin qilishga qaratilgan g'oyalar majmuini o'z ichiga oladi. Nazariya tarkibiga uning asoslari sifatida mavjud bo'lgan va yuzaga kelishini belgilagan barcha elementlar kiradi. Dastlabki nazariy negiz, ya'ni jamuljam holda tadqiqot obyekti haqida umumiy tasavvo'rni, obyektning ideal modelini tashqil etuvchi ko'p sonli tamoyillar, aksiomalar, qonunlar nazariyaning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Nazariy model ayni vaqtda asosiy nazariy tamoyillar tizimiga tayanuvchi kelgusi tadqiqotlar dasturi hamdir.

Nazariya tushuntirish, bashorat qilish, amalda sinash va sintez qilish kabi muhim funksiyalarni bajaradi. Nazariya ilmiy dalillar tizimini tartibga soladi, ularni o'z tarkibiga kiritadi va o'zini tashqil etuvchi qonunlar va tamoyillardan oqibatlar

sifatida yangi dalillarni yaratadi. Puxta ishlab chiqilgan nazariya fanga ma'lum bo'lmagan hodisalar va xossalarni bashorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Nazariya odamlar amaliy faoliyatining negizi bo'lib xizmat qiladi, ularga tabiiy va ijtimoiy hodisalar dunyosida yo'l ko'rsatadi. Nazariyada ilmiy g'oyalar, ya'ni unda aks ettirilgan obyektlar turkumi doirasida amal qiluvchi fundamental qonuniyatlar haqidagi bilimlar markaziy o'rinni egallaydi. Ilmiy g'oya mazkur nazariyani tashqil etuvchi qonunlar, tamoyillar va tushunchalarni mantiqan izchil yaxlit tizimga birlashtiradi.

Nazariya boshqa nazariyalarga kirish va shu yo'l bilan ularni qayta qurish qobiliyatiga ega. U har xil nazariyalarning birlashishi va dunyoning ilmiy manzarasi o'zagini tashqil etuvchi tizimga aylanishini rag'batlantiradi. Nazariya butun bir davrning tafakkur uslubini belgilashga qodir bo'lgan yangi g'oyalarga zamin yaratadi. O'z shakllanish jarayonida nazariya mavjud tamoyillar, kategoriyalar va qonunlar tizimiga tayanadi va yangi tamoyillar, kategoriyalar va qonunlarni kashf etadi.

Tamoyillar deganda, asosiy nazariy bilim, ilmiy dalillarni tushuntirishda dasturilamal bo'lib xizmat qiluvchi rahbar g'oyalar tushuniladi. Tamoyillar sifatida, jumladan, isbotlab bo'lmaydigan va isbot talab qilmaydigan aksiomalar, postulatlar amal qilishi mumkin.

Kategoriyalar – borliqning eng muhim tomonlari, xossalari va munosabatlarini aks ettiruvchi umumiy tushunchalardir. Fan kategoriyalariga ham shunday ta'rif berish mumkin. Biroq, umumiy xususiyatga ega bo'lgan falsafiy kategoriyalardan farqli o'laroq, fan kategoriyalari butun borliqning emas, balki borliqning muayyan parchasi xossalarni aks ettiradi.

Fan qonunlari hodisalar o'rtasidagi zarur, muhim, barqaror, takrorlanuvchi munosabatlarni yoritadi. Bu hodisalarning amal qilishi va rivojlanishi qonunlari bo'lishi mumkin. Tabiat, jamiyat va inson tafakkuri qonunlarini bilish – fanning muhim vazifasi. U o'rganilayotgan hodisalarning tushunchalar va kategoriyalarda qayd etiladigan umumiy va muhim tomonlarini yoritishdan ularning barqaror, takrorlanuvchi, muhim va zarur aloqalarini aniqlashga qadar bo'lgan yo'lni bosib o'tadi. Fan qonunlari va kategoriyalari tizimi uning paradigmasini tashqil etadi.

Paradigma – fan tarixining muayyan davrida uning rivojlanishini belgilovchi barqaror tamoyillar, umumiy me'yorlar, qonunlar, nazariyalar va metodlar majmui. U butun ilmiy hamjamiyat tomonidan fanning mazkur darajasida yuzaga keluvchi vazifalarni qo'yish va echish usullarini belgilaydigan andoza sifatida tan olinadi. Paradigma tadqiqotchilik faoliyati, ilmiy eksperimentlarning natijalarini talqin qilishga yo'l ko'rsatadi, yangi dalillar va nazariyalarning bashorat qilinishini ta'minlaydi. U o'ziga mos kelmaydigan kontseptsionalarni inkor etadi va tadqiqotchilik vazifalarini echish uchun andoza bo'lib xizmat qiladi. Paradigma tushunchasi bilish nazariyasiga amerikalik faylasuf T.Kun tomonidan kiritilgan. Uning fikricha, «normal fan»ga tegishli ilmiy paradigmaga tayangan holda muayyan vazifalarni echish xosdir. Fan rivojlanishidagi normal davrlar inqiloblar bilan almashadi. Ular eski paradigma doirasiga sig'maydigan hodisalarning kashf etilishi bilan bog'liq. Natijada fanda inqiroz davri boshlanadi va u eski paradigma o'z

ahamiyatini yo'qotishi va yangi paradigmaning yuzaga kelishi bilan yakunlanadi. Yangi paradigmaning qaror topishi fanda inqilob yasalishiga sabab bo'ladi.

Tafakkur va uning mohiyati. Inson hamisha nimalar haqidadir o'ylaydi. O'ysiz holat ham, psihologlar fikriga ko'ra, amalda hech bo'lmasa hech narsa haqida o'ylamaslikni o'ylash holatidir. Bilishning dialektik yo'li sezgi a'zolari orqali bilish, dalillarni aniqlashdan mantiqiy tafakkur sari olib boradi. Tafakkur – bu insonning narsalar muhim xossalari va munosabatlarini izchil, bilvosita va umumiy aks ettirishidir. Ijodiy tafakkurlash amaliyot, fan, texnikada yangi natijalar olishga qaratiladi. Tafakkurlash – muammolar qo'yish va ularni echishga qaratilgan faol jarayon. Tirishqoqlik – fikrlayotgan odamning muhim belgisi. Sezgidan fikrga o'tish zahirida bilish obyektining ichki va tashqi mohiyatning ifodasi, ayrim va umumiyga bo'linishi yotadi. Zotan, ilmiy va falsafiy bilim faqat sezgi va tasavvurlardan iborat emas: sezgi idroki naqadar go'zal bo'lmasin, mazmunan qashshoqdir – u narsaning mohiyatini yoritmaydi.

Narsalardagi umumiylik – avvalo, muhim xossalari va munosabatlar majmuidir. Ma'lumki, ular ayrim predmet kabi aniq ko'rinib turmaydi, ularni bevosita idrok etish mumkin emas. Narsa, hodisalarning tashqi tomoni asosan amalda kuzatish, empirik bilish yo'li bilan, narsalarning mohiyati, umumiy jihatlari esa – tushunchalar, mantiqiy fikrlash yordamida aniqlanadi. Fikrlashda, tushunchalarda narsalar bilan bevosita aloqa mavjud bo'lmaydi. Biz idrok etishga qodir bo'lmagan narsalarni ham tushunishimiz mumkin.

Maxsus to'zilishga ega bo'lgan oz sonli sezgi a'zolarimiz shuning uchun ham bilishning mutlaq chegaralarini o'rnatmaydiki, ularga nazariy tafakkur faoliyati qo'shiladi. Inson fikri hodisalarning tashqi qobig'idan o'tib, obyektning ichiga kiradi. Sezgi darajasida aniqlangan ma'lumotlar va empirik tajribadan kelib chiqib, tafakkur sezgi a'zolarining ko'rsatmalarini mazkur individ miyasida mavjud barcha bilimlar, bundan tashqari, insoniyatning umumiy tajribasi, bilimlariga, ular mazkur odamning boyligiga aylangan darajada faol solishtirishi va hodisalar orqali yanada teranroq mohiyatni anglab, amaliy va nazariy muammolarni echishi mumkin.

Mantiqiy tafakkur – tafakkur qoidalari, qonunlari va tamoyillariga muvofiq bir haqiqatdan boshqa, yanada teranroq haqiqatga intilishdir. Tafakkur qoidalari, qonunlari fan sifatidagi mantiqning mazmunini tashqil etadi. Bu qoidalar va qonunlar tafakkurga ichdan xosdir. Mantiqiy qonunlar – narsalarning obyektiv munosabatlarini amaliyot asosida umumlashtirish. Demak inson tafakko'rining barkamollik darajasi uning mazmuni obyektiv borliq mazmuniga qay darajada muvofiqligi bilan belgilanadi. Bizning aqlimiz amaliy harakatlar mantiqi va ma'naviy madaniyat tizimida aks etgan narsalar mantiqiga bo'ysunadi. Tafakkur jarayoni amalda nafaqat ayrim shaxs miyasida, balki butun madaniyat tarixi shakllanadi. Asosiy qoidalar to'g'ri bo'lgan holda fikrning mantiqiyliги uning tafakkurda, tushunchalar harakatida aks etishida namoyon bo'ladi. Inson teran fikr yuritishida, mantiq qonunlariga bo'ysunadi, uning biron-bir tamoyilini buzmaydi.

Hozirgi zamon fani va texnikasi qarshisida ko'ndalang bo'lgan muammolarning murakkabligi mantiqni faol rivojlantirish, tafakko'rning mantiqiy apparatini, ayniqsa kibernetika texnikasining juda o'sgan talablari bilan muvofiq holatga keltirishni talab qildi. Bu muhim ehtiyoj mantiqda yangi yo'nalishlar – ko'p

ma'noli, ehtimol tutilgan va boshqa mantiqiy fanlarning paydo bo'lishini belgilab berdi, formal mantiqni matematika bilan yaqinlashtirdi va matematik mantiq yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Obyektiv borliq jarayonlarining aloqasi, ularning rivojlanishi o'ziga xos «narsalar mantig'i», obyektiv mantiqni tashqil etadi. Bu mantiq bizning tafakkurimizda tushunchalar aloqasi ko'rinishida aks etadi – bu subyekt mantig'i tafakkur mantig'i. Fikrlarimizning mantiqiyliigi shu bilan belgilanadiki, biz narsalarni ular amalda qanday bog'langan bo'lsa, shunday bog'laymiz. Hamonki borliq dialektika qonunlariga bo'ysunar ekan, inson tafakko'rining mantig'i ham shu qonunlarga bo'ysunishi lozim.

Tafakkur va borliqning birligi. Tafakkur bilan borliq o'rtasida birlik mavjud. Tafakkur ularning birligi zahirida mantiqiy shakllar va tafakkur qonunlarini shakllantiruvchi ijtimoiy amaliyot yotadi. Dunyo rivojlanishining obyektiv umumiy qonuniyatlaridan mantiqiy qonuniyatlarning farqi shundaki, inson mantiqiy qonuniyatlarni ongli ravishda qo'llashi mumkin, tabiatda esa dunyoning rivojlanish qonuniyatlari o'ziga ongsiz tarzda yo'l ochadi.

Inson o'zini qurshagan dunyo haqidagi barcha bilimlarni pirovard natijada sezgi a'zolari orqali oladi. Biroq ular ayrim soxta g'oyalar, masalan, Erning yassi to'zilishi, Quyosh Er atrofida aylanishi kabi g'oyalar manbai hamdir. Bu ko'pincha sezgi a'zolarining ma'lumotlariga ishonchsizlik uyg'otgan, ratsionalistlar bu a'zolarining bilishdagi rolini kamsitishi va bilishda asosiy rolni tafakkur o'ynashini qayd etishiga sabab bo'ladi. Biroq empiriklar bu fikrga e'tiroz bildirib, bilishda xatolarga ko'proq tafakkur yo'l qo'yganini qayd etadilar. Ularning fikricha, hayvon tabiat yo'llaridan chetga chiqa olmaydi: uning motivlari zahirida sezgi a'zolari orqali idrok etiladigan narsalar yotadi. Hayvonlar hech narsani o'ylab topmaydi va shuning uchun ham ular aqlsizlik holatiga tushmaydi. Inson esa har xil xomxayollar qurboni bo'ladi.

Sezgi darajasida bilishning rolini mutlaqlashtiradigan va mavhum nazariy tafakkurga ishonmaydigan empirizm ilmiy bilishning rivojlanishiga monelik qiladi. Mutaxassislar qayd etishicha, qadimgi matematiklar, faylasuflar, pifagorchilar, matematikaga irratsional, ba'zan – kasr sonlarining kiritilishiga qarshi chiqqanlar, o'z fikrlarini bu sonlarning noaniqligi bilan isbotlashga harakat qilganlar. Bunday fikrlar yunonlarni algebrani fan sifatida inkor etishga majbur qilgan, bu esa matematikaning analitik metodlari Uyg'onish davriga qadar zamondan orqada qolishining sabablaridan biri bo'lgan. Qadimgi mutafakkirlar sezgida bo'lmagan narsa tafakkurda ham bo'lmaydi deb qayd etgan. Tafakkur jarayoni modellar, sxemalar, tabiiy, sun'iy til va hokazolar ko'rinishidagi sezgi unsurlariga tayanmay ish ko'ra olmaydi.

Tafakko'rning asosiy shakllari. Tafakkur jarayonining oqilona mazmuni tarixiy rivojlanish jarayonida yaratilgan mantiqiy shakllar qobig'iga o'raladi. Tafakkur o'zining asosiy shakllari – tushunchalar, mulohazalar va xulosalar ko'rinishida yuzaga kelgan, rivojlanmoqda va amalga oshirilmoqda.

Tushuncha – narsalar va hodisalarning umumiy, muhim xossa va aloqalari aks etuvchi fikr. Tushuncha – tafakkur, tushunish faoliyatining mahsuli. Ular nafaqat narsalar va hodisalarning umumiy jihatlarini aks ettiradi, balki ularni

bir-biridan ajratadi, ular o'rtasida mavjud farqlarga qarab ularni guruhlaydi, tasniflaydi. Bundan tashqari, biz biror narsa haqida tushunchaga ega ekanligimizni ta'kidlar ekanmiz, bunda mazkur obyektning mohiyatini tushunishimizni nazarda tutamiz. Masalan, «inson» tushunchasi nafaqat muhim umumiy, ya'ni barcha odamlarga xos bo'lgan jihatni, balki har qanday odamning boshqa har qanday narsalardan farqini ham aks ettiradi, mazkur odamning mohiyatini tushunish esa, umuman insonning mohiyati, ya'ni inson haqidagi tushunchaning mazmunini bilishni nazarda tutadi: «Inson – aql, so'zlashish va mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan bioijtimoiy mavjudot».

Sezgi, idrok va tasavvurlardan farqli o'laroq, tushunchalar ko'rgazmalilik yoki hissiylikdan holidir. Idrok daraxtlarni, tushuncha – umuman daraxtni aks ettiradi. Tushunchaning mazmunini ko'pincha aniq obraz ko'rinishida tasavvur qilish mumkin emas. Inson, masalan, yaxshi odamni tasavvur qilishi mumkin, biroq u yaxshilik, yomonlik, go'zallik, qonun, yorug'lik tezligi, sabab, qiymat kabi tushunchalar va jarayonlarni sezgi obrazi ko'rinishida tasavvur qila olmaydi. Har qanday fanning barcha tushunchalari haqida shu fikrni aytish mumkin. Ularning obyektiv ta'rifi ko'rgazmalilik chegaralaridan tashqarida bilvosita aniqlanadi.

Tushuncha muhim jihatlar va xossalarni aniqlaydi va ularni o'zida mujassamlashtiradi: tushuncha mohiyatning fikrda ifodalangan obrazidir. SHuning uchun ham oz sonli tushunchalar son-sanoqsiz narsalar – xossalalar va munosabatlarni qamrab oladi. Tushunchalar turli davrlarda mazmunan har xil bo'lgan. Ular ayni bir inson rivojlanishining turli darajalarida har xildir.

Haqiqiy ilmiy tafakkur madaniyati biron-bir tushunchani aniq ta'rifsiz qoldirmaslikni o'zi uchun qoida deb biladi. Buyuk mutafakkir Suqrot tushunchalarni mantiqiy jihatdan aniq ta'riflash haqiqiy bilimning bosh shartidir, degan edi.

Tushunchalar inson ongida ma'lum bog'lanishda, mulohazalar ko'rinishida yuzaga keladi va mavjud bo'ladi. Tafakkur – biror narsa haqida hukm chiqarish, narsaning turli tomonlari o'rtasidagi yoki narsalar o'rtasidagi muayyan aloqalar va munosabatlarni aniqlash demakdir.

Mulohaza – fikrning shunday bir shakli, unda tushunchalarni bog'lash yo'li bilan biror narsa haqidagi biron-bir fikr tasdiqlanadi (yoki rad etiladi). Masalan, «Terak – o'simlik» degan shunday bir mulohazaki, unda terak haqida uning o'simlik ekanligi xususida fikr bildiriladi. Tasdiqlash yoki rad etish, soxtalik yoki haqiqiylik, shuningdek ehtimol tutilgan narsalar bor joyda biz mulohazalarga duch kelamiz.

Agar bizning ongimizda faqat tasavvurlar, o'z holicha tushunchalar mavjud bo'lgan va ular bir-biri bilan mantiqan bog'lanmaganida, tafakkur jarayoni ham bo'lmas edi. Ma'lumki, so'zning hayoti faqat nutqda, gapdagina haqiqiydir. Huddi shuningdek, tushunchalar ham faqat kontekstida «yashaydi». Ayrim tushuncha sun'iy «preparat», masalan, organizmdan ajratib olingan hujayra bilan barobar. Tafakkur – biror narsa haqida xulosa chiqarish demak. Bunda biz mulohaza ko'rinishida ifodalay olmaydigan tushuncha biz uchun mantiqiy ma'noga ega bo'lmaydi.

Mulohaza (yoki mulohazalar) – keng ma'noda ifodalangan tushuncha, tushunchaning o'zi esa – toraytirilgan mulohaza (yoki mulohazalar), deb aytish

mumkin. Nima yuksakroq - tushunchami yoki mulohaza, degan masala atrofida bahslar sholastik, shuning uchun ham besamardir.

Fikrning bevosita, moddiylashtirilgan ifodasi bo'lgan gap mulohazani ifodalashning og'zaki shaklidir. Har qanday mulohaza subyektning predikat, ya'ni tavsiflanayotgan narsa yoki hodisa bilan birikuvidir. SHu sababli mulohazalarning mantiqda ko'rilmaydigan turlari subyekt, predikat va ular o'rtasidagi aloqaning ehtimol tutilgan modifikatsiyalari bilan bog'liq. Biz: «Olov quydiradi», deymiz. Bu – mantiqan subyekt predikat bilan bog'langan hukm. Olovni ham, quyishni ham sezish mumkin, biroq ular o'rtasidagi aloqani fikrimiz anglaydi.

Subyektning o'zgarishiga qarab hukmlar, masalan, shaxssiz bo'lishi mumkin: «Tong otyapti», «Kayfiyat yo'q». YAkka, ayrim va umumiy hukmlar farqlanadi: «Nyuton tortilish qonunini kashf etgan», «Ayrim odamlar yovuz niyatli bo'ladi», «Suyak – faol to'qimalardan biri». Hukmlar tasdiqlovchi va inkor etuvchi bo'ladi: «Tanang kuchni o'simlik sharbatlaridan oladi», «Sayyoralar yuldo'zlar emas».

Inson u yoki bu mulohazaga biron-bir dalilni bevosita kuzatish orqali yoki bilvosita yo'l bilan – xulosa chiqarish yordamida kelishi mumkin.

Tafakkur faqat mulohaza yuritish emas. Tafakkur jarayonida amalda tushunchalar va mulohazalar alohida o'rin to'tmaydi. Ular aqlning yanada murakkabroq harakatlari zanjiri – mushohadaning bo'g'inlari hisoblanadi.

Xulosa – mushohadaning nisbatan tugallangan birligi. Mushohada yuritish jarayonida mavjud mulohazalardan yangi mulohaza – xulosa chiqariladi. Xulosa chiqarish tafakko'rning shunday bir amaliki, unda ayrim fikrlarni taqqoslash yo'li bilan yangi mulohaza yaratiladi.

Inson narsalarning, xossalari va munosabatlarini teran bilish orqali vaqti-vaqti bilan hozirgi zamon chegaralaridan o'tib, sirli kelajakka nazar tashlashi, hali ma'lum bo'lmagan narsalarni oldindan ko'rishi, yuz berishi ehtimol tutilgan va muqarrar bo'lgan voqealarni bashorat qilishi mumkin.

Bashorat qilish «murakkab narsani oddiy narsaga aylantirish»ning oliy darajasini tashqil etadi. Ilmiy bilim taraqqiyoti ilmiy bashorat kuchining o'sishi va mazkur hodisa chegaralarining kengayishi bilan bog'liq. Bashorat qilish jarayonlarni nazorat qilish va boshqarish imkonini beradi. Ilmiy bilish nafaqat kelajakni bashorat qilish, balki bu kelajakni ongli ravishda shakllantirish uchun imkoniyat yaratadi. Har qanday fanning hayot mazmunini shunday tavsiflash mumkin: bashorat qilish uchun bilish, ish ko'rish uchun bashorat qilish kerak. Masalan, D.I.Mendelev yuz yil keyin kashf etilgan kimyoviy elementlarning mavjudligini bashorat qilgan edi.

Hissiy, empirik va ratsional bilish birligi. Ko'p sonli ma'lumotlar sezgi a'zolari orqali va oqilona bilish nafaqat bir-biri bilan bog'liq, balki bir-birini taqozo etishidan dalolat beradi. Inson ruhiyati bir-birini belgilashning ko'p sonli zanjirlariga ega bo'lgan murakkab tizimdir. SHu sababli, sezgining mazmuni nafaqat tashqi ta'sirlantiruvchi kuch, balki tafakkur, xotira, xayolning holati bilan ham belgilanadi. Sezish va tafakkur mumkin bo'lgan narsalar o'zaro mushtarakdir.

Aytaylik, bizni - sariq, yumaloq va shirin «olma»ning ruhiy obrazi qiziqtiradi. Bu erda uch tushuncha: rang tushunchasi, geometrik shakl tushunchasi

va ta'm tushunchasi aniq-ravshan ko'rinib turibdi. Rang tushunchasi har xil ranglarni qamrab oladi, biroq ayni holda ularning orasida faqat sariq rang mavjud. Ta'm tushunchasi ayni holda «shirin» tushunchasi bilan ifodalangan. Olmaning ruhiy obrazi ko'p sonli tushunchalar va ularning sezgi darajasida aniqlash mumkin bo'lgan ko'rsatkichlarining kesishuvi sifatida amal qiladi.

Agar tushunchalarni chiziqlar, sezgi shakllarini – nuqtalar bilan ifodalasak, har qanday obyektning ruhiy obrazi chiziqlar va nuqtalarning kesishish markazi sifatida amal qiladi.

Bilishning sezish va tafakkur shakllari kesishish nuqtasida yaxlit bir butun narsani hosil qiladi. «Bu olma»ning yaxlit ruhiy obrazi sifatida «olma» tushunchasi bilan olma haqidagi tasavvo'ning sintezi amal qiladi. Olma tushunchasi aynan «shu» olmaning yaxlit ruhiy obrazi emas. Olma haqidagi tasavvur olma obrazini yaratmaydi. Faqat birgalikda, bir-biri bilan chatishgan holda olma tushunchasi va olma haqidagi tasavvur «bu olma»ning yaxlit ruhiy obrazini yaratadi.

Sezgi a'zolari orqali va oqilona bilishning birligini ifodalash uchun alohida atama kerak. Antik falsafa va adabiyotda qo'llanilgan «eydos» atamasi, bizningcha, sezgi a'zolari orqali va oqilona bilishning birligini ifodalash uchun eng qulay va aniq atamadir. Eydos «ko'rinish, obraz» degan ma'noni anglatadi. Antik falsafada eydos deganda ko'pincha tafakkur va ko'rish mumkin bo'lgan narsalar tushunilgan. «Eydos» atamasi odatda sezgi a'zolari orqali va aql bilan bilish mumkin bo'lgan narsalar to'g'risida so'z yuritilgan hollarda qo'llaniladi.

Bilish nafaqat sezish va anglash mumkin bo'lgan narsalar, balki eydoslardan ham iborat. Hodisaning eng yaxlit ruhiy obrazi eydosdir.

Bilishning empirik va nazariy darajalarini farqlash mezonlari.

Nazariy va empirik narsalar va hodisalar muammosi xususida juda ko'p metodologik adabiyotlar mavjud. Bilishning bu darajalari XX asrning 30-yillarida pozitivizm ta'limotida fan tilini tahlil qilish natijasida empirik va nazariy atamalar ma'nosidagi farqlar aniqlangan. Bu farq tadqiqot vositalariga ham taalluqli. Biroq, bundan tashqari, tadqiqot predmetining xususiyati va uni o'rganish metodlarining har xilligini e'tiborga olib, ilmiy bilishning ikki darajasini ham farqlash mumkin. Bu farqlarni mufassalroq ko'rib chiqamiz. Nazariy va empirik tadqiqot vositalarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi. *Empirik tadqiqot* zahirida tadqiqotchining o'rganilayotgan obyekt bilan amalda bevosita aloqa qilishi yotadi. U kuzatishlarni amalga oshirish va eksperiment o'tkazishni nazarda tutadi. SHu sababli empirik tadqiqot amalda kuzatish va eksperiment kuzatishda asboblardan, moslamalar va boshqa vositalarni o'z ichiga oladi.

Nazariy o'rganishda tadqiqotchi obyektlar bilan amalda bevosita aloqa qilmaydi. Bu darajada obyekt faqat bilvosita, amalda emas, balki tafakkur yo'li bilan amalga oshiriladigan eksperimentda o'rganilishi mumkin.

Eksperimentlar va kuzatishlarni tashqil etish bilan bog'liq vositalardan tashqari, empirik tadqiqotda tushunchalar apparatidan ham foydalaniladi. Tushunchalar bu erda ko'pincha fanning empirik tili deb ataladigan alohida til sifatida amal qiladi. Bu til ancha murakkab to'zilikka ega bo'lib, unda empirik atamalar va nazariy til atamalari o'zaro ta'sirga kirishadi. Empirik atamalar empirik obyektlar deb nomlash mumkin bo'lgan alohida abstraktsiyalarni anglatadi. Ularni

borliq obyektlaridan farqlash lozim. Empirik obyektlar – bu amalda narsalar xossalari va munosabatlarining ayrim to'plamiga ega bo'lgan abstraktsiyalardir. Borliq obyektlari empirik bilishda aniq qayd etilgan va cheklangan belgilar to'plamiga ega bo'lgan ideal obyektlar obrazida namoyon bo'ladi.

Nazariy bilishga kelsak, unda boshqa tadqiqot vositalari qo'llaniladi. Bu erda o'rganilayotgan obyekt bilan moddiy, amaliy o'zaro ta'sirga kirishish vositalari mavjud emas. Biroq nazariy tadqiqot tili ham empirik tavsiflar tilidan farq qiladi. Uning negizi sifatida nazariy ideal obyektlarni anglatuvchi nazariy atamalar amal qiladi. Ular shuningdek ideallashtirilgan obyektlar, mavhum obyektlar yoki nazariy konstruktlar deb ham ataladi. Ular borliqning mantiqiy rekonstruktsiyalari hisoblanadigan alohida abstraktsiyalardir. Birorta ham nazariya bunday obyektlar yordamisiz yaratilmaydi.

Bilishning empirik va nazariy turlari nafaqat tadqiqot faoliyatining vositalari, balki metodlariga ko'ra ham farq qiladi. Empirik darajada asosiy metodlar sifatida amalda eksperiment o'tkazish va kuzatishdan foydalaniladi. Bu erda o'rganilayotgan hodisalarni obyektiv tavsiflashga qaratilgan empirik tavsiflash metodlari ham muhim o'rin tutadi. Nazariy darajada bilishga kelsak, bu erda alohida metodlar, chunonchi: ideallashtirish (ideallashtirilgan obyektни yaratish metodi); ideallashtirilgan obyektlar bilan nazariy eksperiment o'tkazish; nazariyani yaratishning alohida metodlari (mavhumdan muayyanga yuksalish, aksiomatik va gipotetik-deduktiv metodlar); mantiqiy va tarixiy o'rganish metodlari va hokazolardan foydalaniladi. Metodlar va vositalarning bu o'ziga xos xususiyatlari empirik va nazariy o'rganish predmetining o'ziga xosligi bilan bog'liq. Bu darajalarning har birida tadqiqotchi ayni bir obyektiv borliq bilan ish ko'rishi mumkin, biroq u mazkur borliqni har xil nuqtai nazardan o'rganadi, shu sababli uning bilimlardagi ifodasi har xil ko'rinishga ega bo'ladi. Shunday qilib, empirik va nazariy bilimlar bir-biridan predmeti, tadqiqot vositalari va metodlariga ko'ra farq qiladi. Biroq ularning har birini farqlash va alohida ko'rib chiqish abstraktsiyadan iborat. Amalda bilimning bu ikki qatlami doimo o'zaro aloqa qiladi.

Intuitsiya – haqiqatni mantiqiy dalillar yordamisiz, bevosita anglab etish qobiliyatidir. U doim inson aqli va joni birgalikda amalga oshirgan katta ish mahsuli hisoblanadi. SHu ma'noda faqat iste'dodli, mehnatkash va tirishqoq odamlargina intuitiv bilishga qodir. Intuitsiya muammosi falsafa va tabiatshunoslik tarixida har xil, ba'zan bir-birini istisno etuvchi yondashuvlar, nuqtai nazarlar va tasavvurlar bilan tavsiflanadi. Antik falsafadayoq bu muammo atrofida keskin bahslar bo'lgan. Ioniya falsafasi namoyandalari intuitsiyaga bevosita bilim, sezgi a'zolari orqali bilish shakli deb qaragan bo'lsalar, eley maktabi vaqillari, shuningdek Levkipp va Demokrit bevosita bilim va sezgi a'zolari orqali bilishni rad etganlar, sezgilarni soxta deb e'lon qilganlar. Suqrot talqinida intuitsiya «daymoniy» yoki «predmet g'oyasiga egalik»dir. Platon ham hissiy bilishni haqiqat emas deb hisoblagan.

YAngi davrda Dekart, Spinoza, Leybnits intellektual intuitsiya haqidagi ta'limotni yaratdi. Dekart intuitsiya deganda sezgilarning omonat guvohligi va tartibsiz xayolning aldamchi mulohazasiga bo'lgan ishonchni emas, balki teran va zehnli aqlni tushunadi. Spinoza intuitsiyani narsalarning mohiyatini qamrab oluvchi eng ishonchli bilish deb hisoblaydi. Sensualistlar sezgi darajasidagi intuitsiyani

targ'ib qiladi, sezgi a'zolari orqali, bevosita bilishni birinchi o'ringa qo'yadi. J.Lokk fikriga ko'ra, aql – sezgi a'zolari faoliyatining haqiqiy natijalarini uzluksiz qayd etuvchi ko'zgu, holos. Bilishning bu tomonini rad etib bo'lmaydi: aql shu tomonga o'z e'tiborini qaratgani zahoti u, huddi quyoshning yorqin nurlari kabi, o'zini bevosita idrok etishga majbur qiladi. Ikqilanish, shubhalanish, o'rganishga hech qanday o'rin qolmaydi: aql shu zahoti uning yorqin nurlari bilan to'ladi, isbotlash yoki o'rganishga muhtoj bo'lmaydi, biroq haqiqatni faqat unga o'z e'tibori qaratilganligi tufayli idrok etadi. Muammoni o'rganishga nemis klassik falsafasi muhim hissa qo'shdi. Kant intellektual intuitsiya qobiliyatini inkor etib, sof apertsepsiya g'oyasini ilgari suradi. Biroq keyinchalik Fixte Kantning sof apertsepsiyasi amalda intellektual intuitsiyaning o'zi ekanligini, u Dekart, Spinoza va Leybnitsning amalda mavjud narsalarni bilish qobiliyati sifatida qaralgan intellektual intuitsiyasidan Kantda intuitsiya faoliyatni bilishga qaratilganligi bilan farq qilishini ko'rsatdi. Fixtening o'zi intellektual intuitsiyaning amalda mavjud narsalarni emas, balki mutlaq narsalar faoliyatini bilish sifatida tushunadi. SHelling Kant-Fixte yo'nalishini rivojlantirib, ularning ta'limotini o'zining transtsendental idealizmi – «substantsiyaning bilish uchun» o'z naturfalsafasi bilan to'ldiradi, estetik tasavvo'ni birinchi o'ringa qo'yadi. O'tmish ratsionalistlaridan farqli o'laroq, u intuitsiyaning sabablarini idrok emas, balki aql faoliyatidan qidiradi.

Gegel o'z o'tmishdoshlarining intellektual intuitsiya haqidagi ta'limotlariga tanqidiy yondashib, bilish mantig'i, nazariyasi sifatida dialektikani ishlab chiqadi. U falsafani tafakkur faniga aylantiradi, uning sof tafakkurga asoslangan mantiqiy oqilona tizimini yaratadi, shu sababli uning ta'limotida intellektual intuitsiya o'rnini dialektika egallaydi.

XX asr boshida har xil maktablar: Gusserlning fenomenologik intuitsiya (reduktsiya), Bergsonning intuitivizm, Freydning ong osti intuitsiyasi va boshqa yo'nalishlar yuzaga keldi. Bu maktablar intuitsiyaning bilishning instinkt, ong osti hodisasi, diniy e'tiqod va hokazolarni o'zida uyg'unlashtirgan irratsional harakati sifatida tushunadi. Bu yo'nalishlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular dunyoni ilmiy bilishda aqlning, tushunchalar vositasida tafakko'ning rolini kamsitadi. Tafakkur o'rniga predmetni keraksiz ratsionalistik mulohazalarsiz «asl holicha» qamrab olish imkonini beruvchi intuitsiya qo'yiladi.

Bugungi kunda irratsionalizm g'oyalarini ekzistentsializm, neopozitivizm va hozirgi zamon falsafasining ayrim boshqa yo'nalishlari rivojlantirmoqda. Masalan, ekzistentsialist Xaydegger fikriga ko'ra, «ekzistentsiya»ni mantiqiy tushunish mumkin emas. YAspersda e'tiqod, intuitiv tarzda qaraladigan mistik «vahiy» birinchi o'ringa qo'yiladi. Marsel «abstraktsiyalar ruhi»ga qarshi ayovsiz ko'rashni targ'ib qiladi. Inglizlar Ross, Mur, Richard moddiy narsalarni bilishning sezgi va aql darajalarini chetlab o'tib, qandaydir mistik intuitsiya yordamida, bevosita bilish mumkinligini isbotlashga harakat qiladi.

SHunday qilib, o'tmishda faylasuflar intuitsiya deganda insonning haqiqiy borliqni bilish qobiliyatini tushungan, ularning ayrimlari (Spinoza) intuitsiyaga aqlning oliy ko'rinishi sifatida yondashgan bo'lsalar, hozirgi intuitivistlar aqlning, tafakko'ning rolini kamsitadilar yoki inkor etadilar, alogizm va mistik irratsionalizmni targ'ib qiladilar.

Mantiq sifatida tushuniladigan dialektika intuitsiyaning shakllanishi va uning natijalariga tanqidiy yondashilishiga imkoniyat yaratadi. Garchi intuitsiya deduktiv nazariyaning muhim bo'g'inlarini ko'rsatib bersa-da, u bizni ularni isbotlash zaruriyatidan xalos etmaydi. Bevosita, kutilmagan va anglab etilmagan bilim sifatida intuitsiya quruq joyda emas, balki vazifalarni echish, echimni «intuitiv» topishni belgilaydigan muayyan asoslar mavjud bo'lgan holda yuzaga keladi. Biroq intuitsiya natijalarini bilimning tegishli shart-sharoitlar mavjud bo'lgan sohalarida tekshirish lozim. Masalan, matematika va fizikada olingan natijalarni faqat tajriba o'tkazish yo'li bilan tekshirish mumkin.

Inson ruhiyati hissiy, oqilona va eydetik bilimning yangi shakllarini yaratish uzluksiz jarayoni sifatida amal qiladi. Ingliz olimi G.Uolles ma'naviy ijod jarayonlarining tayyorgarlik, etilish, anglash va tekshirish quyidagi bosqichlarini qayd etgan. Ijodning muhim bosqichi – yangilikni intuitiv anglash, tushunib etish. Intuitsiya – kutilmaganda bevosita olingan bilim.

Xulosalar. Inson bilimining jadal sur'atlarda rivojlanishi ijod qilishni o'rganish vazifasini qo'yadi. Ijodiy faoliyat hamda ta'lim metodlarini o'rganish haqidagi fan evristika deb ataladi. Ilmiy davralardagi suhbatlar, fikrlar almashinuvi, munozaralar, muammoli vaziyatlar tahlili – shaxsning ma'naviy, ijodiy qobiliyati rivojlanishiga ko'maklashadi.

Intuitsiya va ijodni formal mantiq vositalari yordamida tavsiflash mumkin emas, biroq evristik metodlar orqali subyektning iste'dodi, xotirasi, zehni, tasavvurini safarbar etishni talab qiluvchi yangilik ustida izlanishlar olib boriladi. Induktiv tafakkur – hodisalarning bir qismini o'rganish orqali olingan bilimni hodisalarning butun turkumiga nisbatan tatbiq etish evristik usul hisoblanadi. O'xshashlik bo'yicha tafakkur ham evristik mushohada yuritishning haqiqatga erishishni kafolatlamaydigan, biroq oddiy faraz ham hisoblanmaydigan usulidir.

Matematik modellashtirish ham evristik usul hisoblanadi. Fanning barcha tamoyillari evristik mazmunga ega. Masalan, fizikada muvofiqlik printsiptan foydalaniladi: eski va yangi nazariya o'rtasida muvofiqlik bo'lishi kerak, yangi nazariyaning matematik apparati ma'lum darajada eski nazariyaga mos kelishi lozim. Falsafa evristik xususiyatga ega, shu sababli yuksak cho'qqilarni egallash intuitsiya va ijodni anglab etishning ta'sirchan vositalaridan biri hisoblanadi.

6-Mavzu: Jamiyatning falsafiy anglash asoslari – bilishning metodologiyasi.

Vaqt-2 soat

Reja:

1. Jamiyat tushunchasi. Jamiyatning nazariy modeli va real jamiyat. Taraqqiyotning o'zbek modeli.
2. Jamiyat moddiy va ma'naviy hayoti.
3. Boshqaruvning mohiyati va tarkibi. Davlat va fuqarolik jamiyati.
4. Kishilarning tabiiy va ijtimoiy birliklari, ularning jamiyat hayotidagi o'rni va vazifalari. Oila.

Tayanch so'z va iboralar

Jamiyat, ijtimoiy munosabat, ijtimoiy uyushma, davlat, taraqqiyotning o'zbek modeli, siyosat, huquq, demokratik jamiyat, fuqarolik jamiyati, kishilarning tabiiy va ijtimoiy birliklari: oila, urug', qabila, elat, millat, xalq; ehtiyoj va manfaat.

Adabiyotlar

- SH.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Tosh.: "O'zbekiston", 2017.
- SH. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta'minlashning muhim omilidir. –"Xalq so'zi" gaz-si, 2017 yil 10 yanvar.
- O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2017 yil 7-fevral – Xalq so'zi, 2017 yil 8-fevral.
- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Tosh.: O'zb., 2011.
- Karimov I. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008
- Karimov I. A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T.: O'zb., 1992.
- Karimov I.A. YAngi hayotni eskicha qarash va yondashuvlar bilan qurib bo'lmaydi. T.: O'zb., 2005.
- Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. T.: O'zb., 2010
- Falsafa asoslari (Q. Nazarov va boshqalar). Darslik. T., 2005.
- Falsafa (M. Ahmedova va boshqalar). Darslik. T., 2006.
- Falsafa: qomusiy lug'at. T.: SHarq, 2004.
- Falsafa: qisqacha izohli lug'at. T.: SHarq, 2004.
- Konstitutsiya – demokratik tamoyillar poydevori. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Andijon 2017
- "Harakatlar strategiyasida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va aholi ijtimoiy faolligini oshirish vazifalari" ilmiy-nazariy anjuman materiallari. Andijon 2017

Ma'ruza mavzusining maqsadi: Jamiyat, jamiyatning nazariy modeli va real jamiyat, taraqqiyotning o'zbek modeli, jamiyat moddiy va ma'naviy hayoti, boshqaruvning mohiyati va tarkibi, davlat va fuqarolik jamiyati, kishilarning tabiiy va ijtimoiy birliklari, xususan oilaning jamiyat hayotidagi o'rni va vazifalari to'g'risida ilmiy-nazariy bilimlarni shakllantirish.

Mavzuning vazifasi - jamiyatni dinamik rivojlanishdagi tizim sifatida qisqacha nazariy tahlil qilish va uni bilishning metodologiyasini ochib berishdir.

1. Jamiyat - falsafiy tahlilning eng murakkab obyektlaridan biri. Jamiyat nima, uning tarkibiy to'zilishi qanday, jamiyatning nazariy modelini to'zish mumkinmi yoki yo'qmi, jamiyat rivojlanishining ko'rsatkichi bormi, jamiyat tarixining subyeksi va harakatlantiruvchi kuchlari faoliyati haqida nimalar deyish mumkin kabi sonsiz savollar faylasuflarning qizg'in bahslari mavzusi bo'lib kelgan va bo'lib qolmoqda. Mazkur savollarning bizning kunlarda yanada faolroq muhokama qilinayotganligi tabiiy. Har qanday normal odam o'zini jamiyatdan, uning buguni va ertasidan ajratib tasavvur qila olmaydi. Bu masalalarni nazariy to'g'ri hal qilish Sizning ertangi kundagi jamiyatdagi faol harakatingizning asosidir.

Jamiyatni tahlil etishni "jamiyat" tushunchasini aniqlashdan boshlash maqsadga muvofiq.

"Jamiyat" so'zining lug'aviy ma'nosi (arabcha) to'plangan. yig'ilgan demakdir.

Jamiyat kategoriyasi falsafada keng va tor ma'nolarda qo'llaniladi. Keng ma'noda bu tushuncha tabiatning yuksak darajada rivojlangan tarkibiy qismi, o'z-o'zidan rivojlanib boruvchi ijtimoiy organizmni, kishilar hayot-faoliyati va munosabatlarining jamini ifodalaydi... Tor ma'noda esa jamiyat-bu insoniyat tarixining muayyan bosqichi yoki ijtimoiy tizimning aniq turini bildiradi. Umumbashariy ma'noda jamiyat odamzodning umri, hayoti o'tgan hamma davri, joy va hududi bilan bog'liq barcha o'zgarish, jarayonlarni ifoda qiladi.

Jamiyat tushunchasi - o'ta keng va murakkab.

Jamiyatni, uning u yoki bu jihatlarini, konkret tomonlarini, qirralarini o'nlab fanlar o'rganadi. Mas, tarix muayyan mamlakat, xalqning kelib chiqishi, uning moddiy va ma'naviy hayoti, turmush tarzi, urf-odati, tarixiy shaxslar faoliyati, muhim voqea-hodisalarini xronologik tartibda bayonini beradi. Iqtisodiy nazariya fani ishlab chiqarishni boshqarish qonunlari, moddiy boyliklarni taqsimlash va ayriboshlash, mulk shakllarining amal qilish qonuniyatlarini o'rganadi. Tilshunoslik tilning paydo bo'lishi, amal qilishi va rivojlanishi qonunlarini, muomalada qanday rol o'ynashini aniqlaydi va h.k.

Jamiyatning muayyan hodisalari, ijtimoiy hayotning ma'lum tomonlari, jihatlarini o'rganuvchi konkret ijtimoiy fanlarning barchasi tadqiqot obyektlarini tahlil qilish jarayonida ba'zi metodologik tamoyillarga amal qiladi. Bu tamoyillar esa jamiyatni yaxlit bir ijtimoiy tizim sifatida o'rganuvchi falsafa fani tomonidan ishlab chiqiladi.

Demak, falsafa jamiyatni yaxlit bir ijtimoiy organizm sifatida eng umumiy tarzda o'rganadi.

Jamiyat o'zaro o'ta murakkab va serqirra munosabatlarda to'rgan ulkan miqdordagi element va tizimlar jamidan iborat. Bu ulkan dinamik tizim doimo harakatda: o'sishda, yangilanishda. Jamiyatning biz tahlil qiladigan asosiy tushunchalarining ba'zilar quyidagilardir: ijtimoiy borliq jamiyatning nazariy modeli, jamiyatning moddiy hayoti, ijtimoiy munosabatlar, siyosiy tashqilotlar, davlat, kishilarning ijtimoiy birliklari, jamiyat tarixining subyeksi va harakatlantiruvchi kuchlari, tarixiy jarayon va h.k.

Jamiyat-borliqning yuksak darajada rivojlangan tarkibiy qismi. Jamiyat va borliq munosabati o'ziga xos va ziddiyatli...

Ijtimoiy borliq - obyektiv ijtimoiy reallik, o'ziga xos ijtimoiy materiyadir.

Ijtimoiy ong - jamiyatning o'z-o'zini, o'zining ijtimoiy borlig'i va atrofdagi voqelikni anglashidir.

Ijtimoiy borliq va ijtimoiy ong o'zaro bog'liq hamda o'zlarining amal qilish va rivojlanish qonunlariga ega.

Jamiyat va uning konkret tizimlari, elementlari hamda ularning munosabatlarini tahlil qilishda jamiyatning nazariy tizimi va konkret-tarixiy turining nisbatiga taalluqli ba'zi bir muhim qoidalarni bilib olish maqsadga muvofiqdir.

Ilmiy-nazariy tahlilning eng karakterli xususiyatlaridan biri u ideallashtirilgan obyektni, boshqacha aytganda, ideal modelni tadqiq qilish asosida olib boriladi. Bunda ulkan empirik materiallar umumlashtirilib, mavjud obyektning eng mavhum xossalari toboraga konkret xossalari tomon boriladi.

Real jamiyat va uning ideallashtirilgan modeli aynan bo'lishi mumkin emas. Jamiyatning ideal modeli real jamiyatning mohiyatini aks ettiradi. Uning ichki, barqaror, zaruriy, takrorlanuvchi aloqa va munosabatlarini e'tiborga oladi. Ideal model - "sof", quruq, qat'iy qonun va mantiq kuchiga asoslangan obyekt. Real jamiyat murakkab, rang-barang, boy. Unda qonuniy, zaruriy, muhim, takrorlanuvchi aloqa va munosabatlardan tashqari konkret vaziyat, tarixiy sharoitdan kelib chiquvchi takrorlanmas, tasodifiy, muhim bo'lmagan, beqaror aloqa va munosabatlar ham bo'ladi. Real jamiyat dinamik rivojlanishdagi hayotiy organizmdir.

O'zbekistonda jamiyatimizni rivojlantirishning o'z modeli ishlab chiqilgan. Ushbu kontsentsiyaning asosiy qoidalari I.A.Karimovning "O'zbekiston-bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li" (1993) asarida nazariy asoslab berilgan. Bozor iqtisodiyotiga o'tishni bu yo'li-besh tamoyilga asoslanib Respublikamizning iqlimiy o'ziga xosligi va manfaatlariga, uning hayot sharoiti va imkoniyatlariga, o'zbek xalqi an'analari, tarixi va ma'naviyatiga mos keladi, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishdek maqsadni aks ettiradi.

O'zbek modelining asosiy tamoyillari quyidagilardir:

- iqtisodni mafkuradan holi etish, uning siyosatdan ustunligini ta'minlash;
- davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi, ya'ni islohotlar tashabbuskori bo'lishi va ularni muvofiqlashtirib borish;
- qonun ustuvorligini ta'minlash;
- kuchli ijtimoiy siyosat yuritish;
- bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich, tadrijiy yo'l bilan o'tish.

Mazkur "O'zbek modeli" va uning muvaffaqiyat bilan amalga oshirilayotganligi boshqa rivojlangan davlatlar tomonidan tan olindi va olinmoqda.

Respublikamizning izchil va samarali taraqqiyoti, uning jahonning ilg'or mamlakatlari qatoridan joy olishi uchun olib borayotgan sa'i-harakatlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan milliy modelimizning hayotbahshligini yanada oshirishni, uni davr talabidan kelib chiqib takomillashtirishni, yangi bosqichga ko'tarishni talab qilmoqda.

Bu haqda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni (2017-yil 7-fevral)da uqtirilganidek, mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon’yunkturasi keskin o‘zgarib, globallashtirish sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro‘yobga chiqarishni taqozo etmoqda¹.

Bu sohada Prezidentimiz SHavkat Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, Vatanimiz istiqbolini ko‘zlab olg‘a surilayotgan kontseptual g‘oya va fikrlar keng ko‘lamli tub islohotlarni ro‘yobga chiqarishning nazariy va amaliy asosi, yo‘riqnomasi vazifasini o‘tamoqda.

Prezidentimizning 2017 yil 7 fevraldagi Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” mamlakatimiz hayotining barcha sohalarini yangi, yanada yuksak marralarga olib chiqishning aniq dasturi bo‘lib, unda belgilab berilgan fundamental vazifalar jadal sur‘atlarda amalga oshirila boshlandi.

Birgina 2017 yilda Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga ko‘ra, Oliy Majlis palatalari 50 ta qonun loyihasi ustida ish olib boradi. Jumladan, davlat va jamiyat qurilishi bo‘yicha 17 ta, qonun ustuvorligini ta‘minlash hamda sud-huquq tizimini isloh qilish bo‘yicha 18 ta, iqtisodiyotni liberallashtirish sohasida 7 ta, ijtimoiy sohada 4 ta, tashqi siyosiy faoliyatda 3 ta qonun loyihalari ishlab chiqilishi rejalashtirilgan².

II. Har qanday nazariy modelning reallikka aylanishi jamiyatning moddiy va ma‘naviy hayoti sharoitlari bilan bog‘liq. Jamiyatning moddiy hayot sharoitlari o‘z mohiyatiga ko‘ra tabiiy va ijtimoiy bo‘ladi. Jamiyatning mavjudligi va rivojlanishining doimiy va zaruriy shart-sharoiti tabiiy muhit, biosferadir. Jamiyatning tabiiy muhitga bog‘liqligi darajasi uning tarixiy rivojlanishi darajasi bilan belgilanadi.

Aholi – jamiyat mavjudligi va rivojlanishining asosi va subyektidir. Geografik sharoit singari aholi sonining o‘shishi va zichligi ham jamiyatning mavjudligi va taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etadi. Agar jamiyat zarur miqdorda aholiga ega bo‘lmasa, sust rivojlanadi. Jamiyatning iqtisodiy ahvoli, mudofaa quvvati, mamlakat ichida olib borilayotgan ishlar ko‘lami, darajasi ko‘p jihatdan shu mamlakat aholisining tarkibi, o‘shishi va zichligi bilan bog‘liq. Aholining o‘shishi va zichligi ziddiyatli jarayon bo‘lib jamiyat rivojiga turlicha ta‘sir ko‘rsatadi. Aholi soni va zichligi, geografik sharoit kabi, jamiyat rivojiga kuchli ta‘sir ko‘rsatishi mumkin, lekin belgilovchi asosiy omil bo‘la olmaydi. Bu vazifani jamiyatning moddiy va ma‘naviy omillari uyg‘unligi bajaradi.

Jamiyat tarixi insonlarning moddiy va ma‘naviy faoliyatining rivojlanishi jarayonidir.

¹O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning Farmoni (2017-yil 7-fevral). - “Xalq so‘zi” gaz-si, 2017 yil 8-fevral

² S.Artikova. Fuqarolik burchi va daxldorlik tuyg‘usi. - “Xalq so‘zi” gaz-si, 2017 yil 21-fevral

Odam faoliyati murakkab va keng qamrovli bo'lib, u xilma-xil ko'rinish va shakllarga ega: moddiy ishlab chiqarish faoliyati, ma'naviy ishlab chiqarish faoliyati, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-tarixiy faoliyat, texnik va texnologik faoliyat va hokazo.

XX asrning II yarmida dunyoda tan olingan zabardast yapon faylasufi Daysaku Ikedaning aytishicha, «Inson hayotdagi barcha o'zgarishlarning sababchisidir. Hayotda nima yuz bermasin, ularning barchasi inson o'y-fikrlari va faoliyatining oqibatidir» («Xalq so'zi» gazetasi, 2002 yil 13 fevral).

Inson hayot faoliyati barcha ko'rinishlari va shakllariga kudratli ta'sir ko'rsatuvchi omil moddiy ishlab chiqarish faoliyati, moddiy boyliklar ishlab chiqarishdir.

Ishlab chiqarish ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining uyg'unligidan iborat.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar mehnat predmeti, ishlab chiqarish vositalari hamda ishchi kuchi jamidan tashqil topadi...

Ishlab chiqarish munosabatlari odamlarning moddiy ne'matlar yaratish, taqsimlash, oldi-sotdi, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonidagi o'zaro aloqalaridir.

Bizning tariximizda uzoq o'n yillar davomida mulkchilikda "ijtimoiy mulk muhimdir" deb uqtirishdi. Buning oqibatida iqtisodiy manfaatlarni shakllanish sharoiti, taraqqiyot tarixi noto'g'ri izga tushib qoldi. Butun ijtimoiy va siyosiy munosabat ana shu me'yor asosiga kurildi.

Jamiyatni inson va fuqarolar manfaatiga qaratish maqsadini ko'zlagan Respublika hukumatining bugungi iqtisodiy siyosatida mazkur xatolik to'g'rilandi. Zero, O'zbekiston mustaqilligining qonuniy qomusi bo'lmish Konstitutsiyada ko'rsatilishicha, «Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashqil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir...» (53-modda).

Mazkur rivojlanish yo'lini tanlashdan maqsad: 1-dan, iqtisodiyotni o'ta markazlashtirishdan qochish; 2-dan, yakka hokimlikka barham berish; 3-dan, korxonalar, tashqilotlar va xususiy tadbirkorlarning mustaqilligini kengaytirishdir.

Islohotning asosiy maqsadi har bir mahsulot yaratuvchiga o'z mulkiga o'zi egalik qilishini, uni o'zi tasarruf etishini ta'min qilib berishni, faqat mehnat qilish emas, balki ijobiy yaratuvchilik bilan shug'ullanishga sharoit yaratishni ta'minlashdan iboratdir.

Yaqin davrlargacha jamiyat rivojini faqat moddiy omillarga bog'lab qo'yilar edi. Holbuki, jamiyatning tub mohiyati uni tashqil etuvchi inson mohiyati bilan uzviy bog'liq. Inson tanasini uning ruhidan ajratib bo'lmagani kabi, jamiyatning moddiy va ma'naviy jihatlarini ham bir-biridan ajratish va ularning birini ikkinchisidan ustun qo'yish mantiqqa ziddir. I.A.Karimov asarlarida jamiyatning

moddiy va ma'naviy manfaatlarini uyg'unlashtirish ijtimoiy taraqqiyot asosi ekanligiga alohida ahamiyat berilgan.

Inson ma'rifatini, ma'naviyatini yuksaltirish orqaligina iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin. Hozirgi davrda aholi ma'naviyatini yuksaltirish, milliy g'oya va mafkura asoslarini shakllantirish va rivojlantirishga juda katta e'tibor berilayotgani ham mana shundan. Xalq ma'naviyatini yuksaltirish orqali iqtisodiy farovonlikka erishish hozirgi davrda tamoyilga aylanib qoldi.

Jamiyatning ma'naviy hayotiga olamni tushunish, jamiyat va inson to'g'risidagi qarashlar, nazariyalar, ta'limotlar, g'oyalar, mafkura, ijtimoiy ong shakllari, ta'lim-tarbiya, axborot vositalari, madaniyat, ilm-fan muassasalari va boshqalar kiradi.

Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotini boshqarish, kishilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda turli siyosiy institutlar (davlat, siyosiy partiyalar, tashqilotlar, turli uyushmalar) muhim o'rin tutadi. Jamiyatni boshqarishning siyosiy-huquqiy jihatlari ham muhimdir. Kishilar tomonidan siyosiy va huquqiy bilimlarning chuqur o'zlashtirilishi jamiyatning barqaror yashashi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

III. Ijtimoiy hayot jarayonlarini boshqarish alohida ijtimoiy-siyosiy sohadir. Jamiyatni boshqarish tizimining kompleksligi. Stixiyali va ongli boshqaruv.

Boshqaruvning mohiyati va tarkibi: iqtisodiyotni, ijtimoiy-siyosiy hayotni, ma'naviy-axloqiy hayotni boshqarish.

Boshqarishning ikki tomoni: informatsion va tashqiliy jihati.

Jamiyatning siyosiy tashqiloti davlatlar, xalqlar, ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi va jamiyat rivojiga amaliy rahbarlik qiluvchi davlat, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy muassasa va tashqilotlardir. Bu muassasa va tashqilotlar harakteriga ko'ra, ikkiga bo'linadi:

a) siyosiy (davlat, siyosiy partiyalar);

b) ijtimoiy (kasaba uyushmalari, diniy tashqilotlar, turli uyushma va ittifoqlar) tashqilotlar.

Davlat - jamiyatning asosiy siyosiy tashqiloti bo'lib, jamiyatni boshqarish, tartibga solish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, uning iqtisodiy va ijtimoiy tarkibini qo'riqlashni amalga oshiradi. Davlat umuminsoniy qadriyat, insoniyat ma'naviy taraqqiyotining muhim yutug'idir.

Belgilari:

a) fuqarolarning hududlarga bo'linganligi;

b) xalqdan ajralgan maxsus ijtimoiy hokimiyatning mavjudligi;

v) soliqlar.

Davlat o'zining muhofaza qiluvchi tashqilotlariga (sud, proko'ratura, militsiya, armiya kabi) ega bo'lib, o'zining ichki va tashqi siyosatini yurgizadi.

Davlatni boshqarish shakllari: monarxiya, demokratiya, aristokratiya, respublika.

Monarxiya (mutloq, cheklangan, konstitutsion).

Respublika (prezidentlik, parlamentar respublika).

O'zbekistonda milliy davlatchilik shakllantirildi. Davlat hayotining yangi demokratiq huquqiy asoslari yaratildi. "Davlat tushunchasi, uning ma'no-

mohiyati tubdan o'zgardi. U islohotlarning bosh tashabbuskori hamda ularni muvofiqlashtiruvchi asosiy kuchga aylandi" (I.A.Karimov).

O'zbekiston, o'zbek xalqining tarixiy vazifasi-ijtimoiy yo'nalishdagi bozor iqtisodiga asoslangan ochiq demokratik davlat barpo etish.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining V bo'limi «Davlat hokimiyatining tashqil etilishi»da, jumladan, Oliy Majlisi funktsiyalari, Prezident - davlat boshlig'i, Vazirlar Mahkamasi Davlatning ijro etuvchi hokimiyat, Vazirlik va Davlat ko'mitalari boshqaruvning markaziy organlari, shuningdek, mahalliy boshqaruv organlari sifatidagi vazifalari belgilab berilgandir.

Davlat organlari tizimi: davlat boshlig'i bo'lgan Prezident (Prezidentlik instituti), qonun chiqaruvchi hokimiyat (Oliy Majlisi), ijro etuvchi hokimiyat (Vazirlar Mahkamasi).

Vaqillik hokimiyati organlari: oliy organ - Oliy Majlisi, mahalliy organ-xalq noiblari viloyat, tuman, shahar kengashlari; qishloq, ovul, mahalla aholisi yig'inlari.

Oliy va mahalliy vaqillik hokimiyat organlari xalq irodasini ifodalaydi, unga umumiy majburiy tus beradi. Davlat organlari tizimidagi vaqillik hokimiyat organlari etakchi ahamiyatga ega, chunki ular davlat hayotining barcha masalalarini hal qiladi.

Hozirda ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimi avvalgi rejalash - taqsimotlash vazifalaridan holi bo'lib, iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish va tartibga solish rolini bajarmoqda.

Ko'rinadiki, mustaqillik yillarida davlatning ma'no-mohiyati tubdan o'zgardi. Davlat jamiyatni yangilashning eng faol kuchiga aylangani holda, islohotlarning bosh tashabbuskori va yo'naltiruvchisi, ijtimoiy hayotdagi yangi g'oyalarning asosiy amalga oshiruvchisi bo'lib qoldi.

Davlat hayotining yangi demokratik huquqiy asoslari yaratildi va takomillashtirilmoqda.

Harakatlar strategiyasida **“Xalq Davlat idoralariga emas balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilish kerak”** degan tamoyil davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangani albatta bejiz emas (O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. Yoshlar ovozi, 2017 yil 1-sentabr).

Siyosiy ong - turli ijtimoiy guruhlarining davlat hokimiyatiga, siyosiy tashqilotlarga, ularning jamiyat hayotidagi roliga, boshqa davlatlar va millatlar bilan munosabatlar va shu kabilarga qarashlarining tizimlashtirilgan ifodasidir.

Siyosat - «davlatni boshqarish san'ati» - millatlar, ijtimoiy guruhlarining davlatni boshqarish, saylash-saylanish ishlarida ishtirok etish bilan bog'liq munosabatlari. Siyosat davlat faoliyatining bosh yo'nalishini belgilaydi. Siyosiy faoliyat jamiyatning mavjud siyosiy tuzumini, tartiblarini saqlash, mustahkamlash, takomillashtirish yoki boshqa siyosiy tuzum tartiblarini o'rnatishga qaratilgan xatti-harakatlardir. Siyosiy faoliyat davlat mahkamalari, tashqilotlari, siyosiy partiyalar, siyosiy arboblarning zimmasidadir.

Mustaqil O'zbekistonda siyosiy ong rolining keskin ortib borishi, aholining tobora keng qatlamlarini qamrab olishi tamoyildir.

Davlatning ichki va tashqi siyosati. Ichki siyosatimizning bir-biriga bog'liq ikki vazifasi: yangi davlatchilikni barpo etish hamda keng ko'lamli siyosiy va

iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish (I.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida... T.: O'zb., 1997, 153-bet).

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi IV bobining «Tashqi siyosat» deb nomlangan 17-moddasida mamlakatimizning tashqi siyosat sohasidagi faoliyati belgilab berilgan...

HUQUQ - davlat hokimiyati tomonidan belgilanadigan va qo'riqlanadigan, jamiyatda kishilarning yurish-turishlari, xatti-harakatlari, faoliyatlari, o'zaro munosabatlarini tartibga soladigan, majburiy qonun-qoidalar, normalar tizimidir.

Huquq fuqaroning ish-harakat doirasi davlat qonunlari yoki boshqa xil qonun-qarorlar bilan mustahkamlangan, kafolatlangan imkoniyat, erk, ixtiyoridir.

Huquq insonning jamiyatdagi butun hayotini o'z ichiga oladi. Davlat o'z faoliyatini huquq va uning organlari orqali amalga oshiradi. O'zbekiston huquqiy demokratik davlatni qurish yo'lidan borayotganligi bois mamlakatimizdagi barcha faoliyatlar O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinishiga asoslanadi.

Respublikada xalqning huquqiy madaniyatini yuksaltirish tarixiy zarurat, hayotiy ehtiyojdir.

Harakatlar strategiyasining “Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish” deb nomlangan ikkinchi yo'nalishida qonun ustuvorligini ta'minlash, sud-huquq islohotlarini davr taqozosi darajasida chuqurlashtirish, sudni mustaqil davlat instituti darajasiga ko'tarish masalalari belgilangan. Bu sohada mamlakatimizda juda keng qamrovli va samarali ishlar olib borilmoqda. “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2016 yil 28 dekabrda Farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi, joylarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi ishga tushirildi. Bu Farmon jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashning sifat jihatdan yangi tizimini joriy etdi va barcha darajadagi davlat organlari, rahbar xodimlari faoliyatida “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan tamoyilni amalga oshirish boshlandi.

Prezidentning 2017 yil 7 yanvarda Prokuratura organlari xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlari bilan uchrashuvida qonun ustuvorligi inson manfaatlarini ta'minlashning muhim omili ekanligiga e'tibor qaratildi³.

Prezidentimizning “Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, “Qonun hujjatlarini tarqatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi 2017 yil 8 fevral Qarorlari, shuningdek, “O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2017 yil 21 fevraldagi Farmonining asosiy maqsadi Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kengaytirish, ularning odil sudlovga erishish darajasini, sud ishi yurituvining samaradorligi va sifatini oshirish kabi masalalarni qamragan. Mazkur

³ SH.Mirziyoev. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta'minlashning muhim omilidir - “Xalq so'zi” gaz-si, 2017 yil 10-yanvar

hujjatlar ushbu sohadagi davlat siyosatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

Zamonaviy yangi davlatning shakllanishida demokratik jamiyatning xalqaro miqyosda e'tirof etilgan tamoyillari, ya'ni insonning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi hamda amalga oshirilishi, ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi, barcha fuqarolarning teng huquqliligi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi, davlatning asosiy organlari saylanishi, ularning saylovchilar oldida hisob berishi, tayinlash yo'li bilan shakllanadigan davlat organlarining saylovchi tashqilotlar oldidagi javobgarligi va boshqalar asos bo'lib xizmat qilishi kerak.

Ayni paytda, SHarqda demokratik jarayonlarning qadimdan shakllangan o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlari borki, buni aslo nazardan soqit qilib bo'lmaydi. YA'ni SHarkda demokratik jarayonlar uzviy ravishda va asta-sekin taraqqiy topadi. Agar G'arbda demokratiya ko'p hollarda individualizm falsafasiga tayansa, SHarqda demokratiya tushunchasi hamjihatlik g'oyasi, jamoatchilik fikrining ustuvorligi zaminida shakllanadi.

Bizda demokratik jarayonlar qonunni hurmat qilish, unga itoat etish kabi fazilatlarga mos ravishda rivojlanishi zarur. Axloqiy, ma'naviy qadriyatlar siyosiy munosabatlarda ham ustunlik kasb etishi darkor. (qarang: I.Karimov. O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T.: O'zb., 1995, 7-15 betlar).

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson salohiyatini yanada yuksaltirishga, yurtimizda fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgandir.

Fuqarolik jamiyati kishilarning yuksak axloqiy-siyosiy va huquqiy madaniyatiga asoslanadigan demokratik jamiyat taraqqiyotining yuqori bosqichidir. Fuqarolik jamiyati – har bir inson manfaatini ustuvor biluvchi, huquqiy an'ana va qonunlarga hurmat muhiti shakllantirilgan, umuminsoniy qadriyatlar e'zozlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari so'zsiz ta'minlanadigan, davlat hokimiyatining samarali jamoatchilik nazorati mexanizmlari vujudga keltirilgan, insoniy munosabatlar chuqur ma'naviy – madaniy qadriyatlarga tayanadigan erkin, demokratik huquqiy jamiyat. Bunday jamiyat erkin uyushmalarning ko'pqirrali aloqasi bo'lib, davlat qonunlarini hurmat qilib bajaruvchi, jamiyat tarkibiga kiruvchi elementlarning nisbiy mustaqilligiga asoslanuvchi, turli ziddiyat va ixtiloflarni qonun doirasida o'zaro kelishuv, sabr-toqat va muzoqaralar orqali hal etishga asoslanuvchi jamiyatdir.

Fuqarolik jamiyatida davlatning qator vazifalari fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari qo'liga o'ta boshlaydi, mahalliy hokimiyat organlarining vakolati kengayadi. Fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etish kishilarniig yuksak siyosiy va huquqiy madaniyati, ijtimoiy - siyosiy faoliyatiga tayanadi.

Jamiyat hayoti va taraqqiyotida respublikada faoliyat ko'rsatayotgan siyosiy partiyalar (O'zbekiston liberal demokratik partiyasi, O'zbekiston xalq demokratik partiyasi, O'zbekiston milliy tiklanish demokratik partiyasi, O'zbekiston "Adolat" sotsial demokratik partiyasi) muhim rol o'ynamokda.

Respublika aholisi ijtimoiy faolligining ortishida, hayotimizning ko'plab etilgan muammolarini hal qilishda nodavlat notijorat tashqilotlari katta rol o'ynamokda. Hozirda nodavlat notijorat tashqilotlarining faol, eng muhimi, amaliy

harakati uchun keng huquqiy makon vujudga keltirildi. Hozir ularning umumiy soni 5100ga etdi: "Navro'z", "Mahalla", "Mehr-shafqat", "Ekosan" va hokazo.

Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisii Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida (12-noyabr, 2010 yil) Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Mazkur ustuvor yo'nalishlar 6 ta bo'lib, ular quyidagilar:

- I. Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish.
- II. Sud – huquq tizimini isloh etish.
- III. Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash.
- IV. O'zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish.
- V. Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish.
- VI. Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish.

YUqorida ko'rsatib o'tilgan ustuvor yo'nalishlar o'z mohiyatiga ko'ra, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotimizning, butun dunyoda e'tirof etilgan o'zbek modelining amaliy namoyonidir. Ayni paytda, ustuvor yo'nalishlarni bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda xavfsizlikka solinayotgan taxdid va xurujlarga nisbatan bizning javobimiz, deb bilmog'imiz kerak. Zero, ana shu ustuvor yo'nalishlarni izchil va samarali amalga oshirilishi tufayli asosiy maqsadimizga - ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishga erishamiz.

IV. Kishilik jamiyatining shakllanishi va rivojida odamlarning tabiiy va ijtimoiy birliklari muhim ahamiyatga ega.

Insoniyat tarixining muayyan bosqichlarida odamlar tabiiy va ijtimoiy birlikning irq, oila, nikoh, urug', qabila, elat, millat, ijtimoiy qatlam, tabaqa, sinflar, xalq kabi shakllariga uyushganlar. Mazkur birliklar o'zining shakli, mohiyati, vazifasiga ko'ra bir - birlaridan farqlanadilar.

Irq (ar. - tomir, ildiz) kishilarning tabiiy birligi bo'lib, uning asosiy mezoni odamlarning o'zaro gavda to'zilishi, tashqi qiyofasi, teri, ko'z va soch rangi, ko'rinishi kabi belgilari bilan farqlanishidir. Irqlar asosan uchta: evropoid, mongoloid, negroid. Lekin hozir aralash irqlar ko'payib ketgan.

Irqlar jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida teng mavqega ega bo'lishlari kerak.

Tabaqalar o'zlarining iqtisodiy, huquqiy mavqelari bilan farqlanuvchi ijtimoiy guruhlar...

Urug' qon-qarindoshlikka asoslangan ijtimoiy - etnik guruh - birlik. Urug'ning kelib chiqishi, hayot tarzi, tili, urf - odat, e'tiqodlari bir. Urug'da qon - qarindoshlik va ishlab chiqarish aloqalari belgilovchi ahamiyat kasb etgan.

Qabila - bir necha urug'lardan tashqil topgan, bir hududda yashovchi, o'z tili, urf - odatlari, turmush tarziga ega bo'lgan birlik. U iqtisodiy, madaniy, axloqiy munosabatlarni rivojlantirish imkoniyatini kengaytirgan.

Elat (xalq - etnik qatlam ma'nosida) - kelib chiqishi, tili jihatidan qon-qardosh bo'lgan, bir hududda istiqomat qilib, bir xil madaniyatga ega bo'lgan qabilalar uyushmasi.

Millat kishilarning tarixan tashqil topgan birligi bo'lib, u xo'jalik hayoti, til, hudud, madaniyati, milliy o'zligini anglash va milliy ruhiyat xususiyatlarining yagonaligi bilan ajralib turadi. Til, hudud, iqtisodiy turmush, madaniyatdagi umumiylik -bo'lar millatning eng muhim belgilari hisoblanadi.

Millat bozor munosabatarining qaror topishi jarayonida shakllangan.

Xalq tushunchasiga ijtimoiy - tarixiy taraqqiyotning olg'a intilishiga xizmat qiluvchi va muayyan hududda yashovchi ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, sinflar kiradi.

Falsafiy ma'noda "xalq" tushunchasi ijtimoiy taraqqiyotning faol harakatini ta'minlovchi, ijobiy o'zgarishlarni amalga oshiruvchi mehnatkash ommani tavsiflash uchun ishlatiladi. Bu tushuncha ijtimoiy birlik sifatida o'zgaruvchidir...

U moddiy va ma'naviy boyliklarning yaratuvchisidir...

Tarixiy jarayonda xalq ommasi rolining osha borishi qonuniyatdir. O'zbekiston xalqi buyuk tarixiy yaratuvchilik faoliyati bilan band. U yangi jamiyat qurishdek, O'zbekiston kelajagini buyuk qilishdek vazifani amalga oshirmoqda.

Oila kishilarning tabiiy (jinsiy munosabatlar, bola tug'ish) va ijtimoiy (iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy va boshqa) munosabatlari birligidir. Oilaning ijtimoiy hayot taraqqiyotida, shu jumladan, bola tarbiyasida o'rni beqiyosdir.

Mustaqillik oila va uning ma'naviyatini yuksalishida beqiyos omil bo'ldi. Oila nufo'zini oshirish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishi deb belgilandi.

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi XIV bobida oilaning ijtimoiy maqomi belgilab berilganligi, uning 64-, 66-, moddalarida o'zbek oilasi mentalitetiga xos talablarning qo'yilishi jahon konstitutsiyaviy tajribasida kam uchraydigan noyob hodisadir.

1998 yil "Oila yili", 1999 yil "Ayollar yili", 2000 yil "Sog'lom avlod yili", 2001 yil "Onalar va bolalar yili", 2005 yil "Sihat salomatlik yili", 2010 yil "Barkamol avlod yili", 2012 yil "Mustahkam oila yili" bo'lganligi davlatimizning sog'lom oilani shakllantirish, oilada yuksak ma'naviy – axloqiy muhitning kamol topish uchun zarur shart – sharoit yaratish borasidagi ulkan sa'i – harakatlari dalolatidir. Mamlakatimiz Prezidentining tashabbusi bilan respublikada va joylarda "Oila" markazlari to'zildi, "Oila kodeksi" qabo'l qilindi, "Onalik maktabi", "Ona bola dasturi", "Barkamol avlod yili" dasturlari ishlab chiqilib, hayotga joriy etildi. "Sog'lom avlod uchun" xalqaro hayriya jamg'armasi, "Oila dorulfununlari", "Ona va bola skiriningi" tibbiy markazlari faoliyat yurgiza boshladi. Bo'larning barchasi davlatimizning sog'lom oila haqida amaliy harakati natijasidir.

7-Mavzu: Globallashuvning falsafiy muammolari

Vaqt-2soat

Reja:

1. Globallashuv hodisasi va globalistika.
2. Global muammolarning mohiyati va ularning tasnifi
3. Globallik mezonlari.

Tayanch soʻz va iboralar

Globallashuv, globalistika, global jarayonlar, fundamental globallashuv, serqirra globallashuv, global muammolar, ijtimoiy rivojlanish, global tendentsiyalar, texnokratik nazariya, texnooptimizm, texnopessimizm, Rim klubi, globallik mezonlari, global muammolarning tasnifi, demografik tizim, taʼlim muammosi, sogʻliqni saqlash, oziq-ovqat muammosi, energetika va xom ashyo resurslari, urush va tinchlik, global ongni shakllantirish, xalqaro kuchlar, axborot inqilobi, inqiroz ildizlari, umuminsoniy qadriyatlar.

Adabiyotlar

SH.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Tosh.: “Oʻzbekiston”, 2017.

Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2017 yil 7-fevral – Xalq soʻzi, 2017 yil 8-fevral.

Karimov I.A. Oʻzbekiston XXI asr boʻsagʻasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari.-T.: Oʻzbekiston, 1997.

Karimov I.A. YUksak maʼnaviyat – engilmas kuch.-T.: Maʼnaviyat, 2008

Otamurodov S. Globallashuv va millat.-T.: YAngi asr avlodi, 2008.

Bjezinskiy Z. Globalnoe gosподstvo ili globalnoe liderstvo. -M.: Mejdunarodnye otnosheniya, 2005.

Grani globalizatsii: Trudnye voprosy sovremennogo razvitiya. -M.: 2003.

Muntyan M.A., Ursul A.D. Globalizatsiya i ustoychivoe razvitie. -M.: 2003.

Falsafa va hozirgi zamon. Falsafa nafaqat insonning azaliy muammolari va gʻam-tashvishlarini, balki uning soʻnggi yillarda fan-texnika taraqqiyoti taʼsirida tobora jadalroq surʼatlarda, shu jumladan dunyo miqyosida oʻzgarayotgan real hayoti kundalik amaliyotini ham aks ettiradi. SHu munosabat bilan yuzaga kelayotgan yangi hodisalar, gʻayrioddiy qiyinchiliklar va alohida sharoitlar olimlarning ham, faylasuflarning ham eʼtiborini tortmoqda.

Bunda falsafaning fandan ustunligi shundaki – u oʻz xulosalarida tafsilotlar va muayyan dalillarga mahkam yopishib olmaydi, ayrim, uzuq-yuluq va oʻtkinchi narsalarni osongina chetlab oʻtadiki, bu unga asosiy eʼtiborni ishning mohiyatiga qaratish, rivojlanishning eng muhim omillari va asosiy jarayonlarini qayd etish imkonini beradi. Falsafaning mazkur fazilatlari insonning ijtimoiy munosabatlar tizimida yoki «jamiyat-tabiat» tizimida yuzaga kelayotgan murakkab, kompleks vazifalarni hal qilishga majbur boʻlayotgan hozirgi sharoitlarda alohida

ahamiyat kasb etadi. SHu munosabat bilan falsafiy tahlilning, muhim narsalarni ikkinchi darajali narsalardan, qonuniy narsalarni tasodifiy narsalardan farqlash, tarixiy rivojlanishda obyektiv jarayonlarning subyektiv omillardan farqi kabi usullari va metodlari hozirgi vaqtda insoniyat duch kelgan olamshumul muammolarni nazariy anglab etish va amalda bartaraf etish uchun ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Globallashuv hodisasi. Hozirgi davr haqida aniqroq tasavvur hosil qilish uchun XX asr boshigacha jahon tarixi asosan mustaqil rivojlangan va bir-biriga jiddiy ta'sir ko'rsatmagan tsivilizatsiyalardan iborat bo'lganini nazarda tutish muhimdir. Hozirgi vaqtda dunyo so'nggi yuz yillik ichida yuz bergan jamiyat hayoti barcha jabhalarining faol integratsiyalashuvi natijasida sezilarli darajada o'zgardi va yaxlit bir butun organizmga aylandi. Buning oqibati o'laroq, ayrim xalqlar va butun insoniyatning ijtimoiy ongida global jarayonlar va ularning ta'sirida yuzaga kelgan umumiy (dunyo miqyosidagi) muammolar bilan belgilangan jiddiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Jahon hamjamiyati o'z rivojlanishining yangi bosqichiga qadam qo'ygani, u avvalgi bosqichlardan nafaqat o'zgarishlar miqyosi, balki faollik darajasi va universal xususiyati bilan ham farq qilishi ayon bo'ldi.

Bu o'zgarishlarning butun majmui, shuningdek ularning sabablari 1990-yillarda **globallashuv** (lot. *globus* – er kurrasi) deb nomlandi. *Globallashuv jamiyat hayotining turli jabhalarida butun Er sayyorasi uchun yagona bo'lgan to'zilmalar, aloqalar va munosabatlarning shakllanishi, universallashuv jarayonidir.* SHuningdek globallashuv global makonning tutashligi, yagona jahon xo'jaligi, umumiy ekologik o'zaro aloqadorlik, global kommunikatsiyalar va shu kabilar bilan tavsiflanadi.

Globalistika. Jahon rivojlanishining eng yangi tendentsiyalarini anglab etish borasidagi ko'p sonli sa'y-harakatlar globallashuv jarayonlarining mohiyati, tendentsiyalari va sabablarini, ular ta'sirida yuzaga kelayotgan *global muammolarni* aniqlash va bu jarayonlarning oqibatlarini anglab etishga qaratilgan fanlararo ilmiy tadqiqotlar sohasi – **globalistika** paydo bo'lishiga olib keldi. Kengroq ma'noda «globalistika» atamasi globallashuvning turli jihatlarini va global muammolarga oid ilmiy, falsafiy, madaniy va amaliy tadqiqotlarni, jumladan ularning olingan natijalarini, shuningdek ularni ayrim davlatlar darajasida ham, xalqaro miqyosda ham iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jabhalarda amalga joriy etish borasidagi amaliy faoliyatni ifodalash uchun qo'llaniladi.

SHuni ta'kidlash lozimki, globalistika odatda ilmiy bilimning tabaqalanishi natijasida yoki turdosh fanlar tutashgan joyda paydo bo'ladigan ayrim fanlar qatoriga kirmaydi. Uning vujudga kelishi zamirida qarama-qarshi jarayonlar – hozirgi zamon faniga xos bo'lgan integratsiyalashuv jarayonlari yotadi. Globalistika tadqiqotlar va bilishning shunday bir jabhasiki, bu erda turli fanlar va falsafa, asosan bir-biri bilan uzviy aloqada, har biri o'z predmeti va metodi nuqtai nazaridan, globallashuvning turli jihatlarini tahlil qiladi, global muammolarni bir-biridan alohida va yaxlit tizim sifatida o'rganib, ularning echimlarini taklif qiladi.

Globalistika mustaqil ilmiy yo'nalish va ijtimoiy amaliyot jabhasi sifatida 1960-yillarning oxirlaridan e'tiboran shakllana boshladi, lekin uning paydo bo'lishi uchun obyektiv asoslar ancha oldin yuzaga kelgan edi.

Global jarayonlarning shakllanish tarixi. Hozirgi globallashuv jarayonlarining ilk nishonalariga XV asr oxirlaridan boshlab duch kelish mumkin, XIX asr boshiga kelib esa u amalda real shakl-shamoyil kasb etdi. Bu pirovardida yagona geografik, ma'lum darajada iqtisodiy va siyosiy jahon maydoni shakllanishiga olib kelgan Buyuk geografik kashfiyotlar yuz bergan davr edi. Ayni shu davrda dunyoni tushunishga nisbatan geotsentrik yondashuvlar geliotsentrik yondashuvlarga o'rin bo'shatdi, insoniyat esa, nihoyat, kun va tunning almashishini to'g'ri talqin qilishga muvaffaq bo'ldi. Fan falsafadan ajralib chiqib, bilimlar to'planishi va texnikaning rivojlanishiga kuchli turtki berdi, fan-texnika taraqqiyoti va sanoat inqilobi yuz berishiga sabab bo'ldi. So'nggi zikr etilgan voqealar pirovard natijada insonning tabiatni o'zgartiruvchi imkoniyatlari va uning atrof muhit bilan munosabatini butunlay o'zgartirdi.

Er kurrasi shar (globus) ko'rinishida ekanligini nazariy va amaliy jihatdan isbotlab insoniyat o'z tarixida birinchi bo'lib savdo-sotiq sohasida dunyo darajasiga chiqdilar va dunyo miqyosida xalqaro munosabatlarga asos soldilar. Ayni shu davrda ilk transmilliy savdo kompaniyalari vujudga keldi. Tez orada ularning faoliyati sof savdo chegarasidan tashqariga chiqdi va ular qullarni qo'lga kiritish va ularni ekspluatatsiya qilish, bosib olingan hududlarda plantatsiyalar va manzilgohlar barpo etish jarayonida ishtirok eta boshladi, nihoyat, o'z davlatlari amalga oshirayotgan mustamlakachilik siyosatining asosiy ijrochisiga aylandi.

Bo'larning barchasi jiddiy migratsiya jarayonlari yuz berishiga ham sabab bo'ldi; xususan, mustamlakachilar qora tanli qullarni Afrikadan Amerikaga ommaviy tarzda tashib keltira boshladilar va shu tariqa uning demografik tarkibini butunlay o'zgartirdilar. SHuning o'ziyoq globallashuv turli xalqlarning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti bilan avvalboshdan uzviy bog'liq bo'lgan, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

XVII asr boshlariga kelib evropalik savdogarlar ulkan hududlarni o'zlashtirdilar va deyarli butun dunyo bo'ylab joylashdilar. SHu tariqa ular insoniyat tarixida birinchi bo'lib yagona global iqtisodiy va siyosiy tizimning zaruriy asoslarini yaratdilar va mazkur tizim shakllanishi uchun zamin hozirladilar.

SHunday qilib, XV-XVI asrlarda yuz bergan Buyuk geografik kashfiyotlar jahon tarixining rivojlanish jarayonida tub burilish yasadi va «Evropa siyosati keskin, misli ko'rilmagan darajada kengayishiga olib keldi. Dunyo chegaralari muayyan darajada kengaydi. Endilikda Evropa mamlakatlari o'rtasidagi turli ziddiyatlarga mustamlakalar uchun ko'rashda raqobat ham qo'shildi». SHu tariqa yangi xalqaro iqtisodiy va siyosiy munosabatlarga, turli madaniyatlarning o'zaro ta'siriga va G'arbiy Evropa dengiz davlatlarining o'zlari kashf etgan er kurrasining turli hududlaridagi ekspansiyasiga asos solindi.

Fundamental globallashuv. Globallashuvning navbatdagi bosqichi dunyo miqyosidagi aloqalar, to'zilmalar va munosabatlar yuzaga kelishi bilan bog'liq. Mazkur jarayonlar natijasida *dunyo o'zining deyarli barcha jihatlarida yaxlit bir butun organizm sifatida uzil-kesil shakllanishi* fundamental globallashuv deb nomlanadi. *Fundamental* deb nomlanuvchi bunday globallashuvning ilk alomatlari XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi, XX asr o'rtalariga kelib esa u to'la darajada borliqqa aylandi.

Ayni shu davrda dunyoni iqtisodiy bo'lib olish yakunlandi va buning natijasida turli mamlakatlar va xalqlarning kuchayib borayotgan o'zaro bog'liqligidan kelib chiqadigan mutlaqo yangicha tushdagi keskin xalqaro muammolar yuzaga keldi. Bu jarayonlar nafaqat iqtisodiyot, siyosat va ijtimoiy hayotni, balki aloqa va kommunikatsiya vositalarini, shuningdek ma'naviy jabha – madaniyat, fan va falsafani ham qamrab oldi. Turli-tuman xalqaro tashqilotlar, forumlar, s'ezdlar, kongresslar vujudga kela boshladiki, bunga o'sha davrda aloqa va ommaviy kommunikatsiya vositalarining faol rivojlanishi ham imkoniyat yaratdi.

SHunday qilib, amalda butun dunyo kuchli davlatlar va yirik monopoliyalar o'rtasida keskin ko'rash va ta'sir doiralarini bo'lib olish maydoniga aylandi va bu pirovardida Birinchi jahon urushi boshlanishiga olib keldi. Bu urushda jahonning ko'p sonli xalqlari bevosita yoki bilvosita ishtirok etdi, chunki shu davrgacha dunyo miqyosida yuzaga kelgan iqtisodiy va siyosiy bog'liqlik sayyoraning birorta ham yirik davlatiga urushdan yoki hech bo'lmasa uning ta'siri va oqibatlaridan butunlay chetlashish imkonini bermas edi. Bu mazkur davrdan e'tiboran tarix faqat Evropa tarixi yoki, aytaylik, alohida Xitoy, Rossiya, Amerika, G'arb, SHarq tarixi bo'libgina qolmasdan, insoniyat tarixiga, ya'ni tom ma'nodagi jahon tarixiga ham aylanganidan dalolat beradi.

1918 yilda Birinchi jahon urushining tugashi xalqaro maydonda kuchlarning yangicha nisbati yuzaga kelishiga sabab bo'ldi va turli davlatlarning urushdan keyingi munosabatlari, manfaatlari va qarama-qarshiliklarini yanada tarangroq tugunga bog'lagan oqibatlarga olib keldi, shu tariqa butun dunyoni barcha asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha jahon hamjamiyatiga aylantirdi. Pirovardida Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari oralig'idagi davrda globallashuv jarayonlari yanada bo'rtibroq namoyon bo'ldi. Bu davrda,

a) biosferaga antropogen ta'sirning kuchayishi va insonning real «geologik kuch»ga aylanishi;

b) ommaviy madaniyat, avvalo kino, musiqa, adabiyot, keng iste'mol mollari ishlab chiqarish sohasida faol rivojlana boshlashi;

v) televizorning ixtiro etilishi. Vaqt o'tishi bilan u ommaviy madaniyatning asosiy targ'ibotchisiga va globallashuv ramziga aylanishi;

g) makon va vaqtni ilk bor insonning kundalik hayoti ko'rsatkichlariga qadar uzil-kesil «qisqartirgan» havo kemalarida qit'alararo qo'nmay, to'g'ri uchib o'tishlar globallashuvning asosiy belgilariga aylandi.

Ammo echilmagan ziddiyatlar va umumiy bog'liqlikning kuchayishi insoniyat tarixidagi eng katta va davomli urush – Ikkinchi jahon urushi boshlanishiga olib keldi. Bu safar dunyo miqyosidagi urushda Er aholisining to'rt dan uch qismi ishtirok etdi, Birinchi jahon urushiga qaraganda bir necha baravar ko'proq qurbonlar berildi.

Dunyo miqyosidagi jarayonlarning globallashuvi nuqtai nazaridan bu urushlarning ikkalasi ham amalda ayni bir *global urush*ning turli bosqichlari edi. Ularning o'rtasidagi farq faqat miqdor ko'rsatkichlarida ko'rinadi. Mohiyat e'tibori bilan, ikkala urush ham ayni bir masalalarni echish – XX asr boshida bo'lib olingan, yaxlit va o'zaro bog'langan dunyoni qayta bo'lib olishga qaratilgan edi. Urush olib borish usullari ham deyarli bir edi, farqi esa, texnik jihozlanish darajasi va miqyosi

Ikkinchi jahon urushida bir necha baravar yuqori, mafkuraviy ta'sir esa avvalgi urushda yo mavjud bo'lmagan radio, telefon, yo hali yaxshi rivojlanmagan aviatsiya, dengiz, temir yo'l, avtomobil transporti aloqa va kommunikatsiya vositalaridan keng foydalanish bilan ko'p karra kuchaytirilishida namoyon bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushi ham, huddi avvalgi jahon urushidek, urushdan keyingi dunyoviy tartibning o'ziga xos xususiyatiga aylangan bir qator olamshumul oqibatlariga olib keldi. Ularning orasida eng muhimi shu bo'ldiki, urush mutlaqo yangi qurol turi (atom va reaktiv qurol) yaratish borasidagi tadqiqotlar va amaliy ishlarni rag'batlantirdi. Mazkur davrda ularning ilk namunalari jangovar sinovdan o'tkazildi va insoniyatga butun dunyoni harobazorga aylantirish va barcha tirik mavjudotlarni qirib tashlash uchun cheksiz imkoniyatlar yaratdi. Fan-texnika taraqqiyotining ayni shu yutuqlari keyinchalik «sovuq urush» davrida avj olgan qurollanish poygasining mohiyati va mazmunini belgilab berdi va sayyoramizning nozikligi va makonda tutashligini amalda namoyish etdi.

Ikkinchi jahon urushining boshqa bir oqibati jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy jabhasida yuzaga keldi va u turli-tuman xalqaro tashqilotlarning mislsiz darajada o'sishida namoyon bo'ldi. Ularning orasida Birlashgan Millatlar Tashqiloti (BMT), hech shubhasiz, ajralib turadi. Evropadagi integratsiya jarayonlari ham urushning tugashi bilan bog'liq bo'lib, Buyuk Britaniya bosh vaziri *U. Cherrill* Evropa qo'shma SHtatlarini to'zishga chaqirgan 1946 yilni ularning sanoq boshi deb hisoblash mumkin.

Bosh harbiy jinoyatchilar guruhi va natsistlarning asosiy tashqilotlari ustidan o'tkazilgan Nyurnberg sud jarayoni yana bir muhim tadbir va ayni vaqtda xalqaro munosabatlarni huquqiy tartibga solish sohasida dunyo miqyosidagi hamkorlikning ilk tajribasi bo'ldi. Bu jarayon 1945 yil 8 avgustda g'olib mamlakatlar – SSSR, AQSH, Buyuk Britaniya va Frantsiya tomonidan tashqil etilgan tarixdagi birinchi Xalqaro harbiy tribunal tomonidan amalga oshirildi va hozirgi xalqaro sud tizimini tarkib toptirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Ayni shu davrda liberalizm va demokratiya g'oyalari dunyo miqyosida keng tarqala boshladi, ijtimoiy borliq asoslarini, jamiyatning axloqiy negizlari va ijtimoiy rivojlanishning asosiy tamoyillarini qayta anglab etishga qaratilgan jiddiy tadqiqotlar va nazariy ishlovlar majmui paydo bo'ldi.

Globallashuvning serqirraligi. 1970-yillardan globallashuv o'z rivojlanishining yangi bosqichiga ko'tarildi va serqirra tus oldi. Dunyo miqyosidagi tahdidlar va globallashuv jarayonlarini aholining keng qatlamlari anglab etishi, shuningdek jahon hamjamiyati va unga mos keluvchi qadriyatlarga munosabat, madaniyat, turmush tarzining shakllanishi mazkur bosqichga xos xususiyat hisoblanadi. Ayni shu davrda *axborot-texnologiya inqilobining* rivojlanishi jadallashdi, mif, din, falsafa, fan, ekologiya bilan bir qatorda *global ong* ijtimoiy ongning yana bir shakli sifatida paydo bo'ldi.

Globallashuvning serqirragi jahon bozorini sezilarli darajada o'zgartirdi, jahon xo'jaligi o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etib, milliy xo'jaliklardan kuchliroq va muhimroq tus olishiga imkoniyat yaratdi. Quyidagilar uning muhim xususiyatlari hisoblanadi:

a) «rezonans effekti»ning paydo bo'lishi. Bunda iqtisodiy yuksalishlar yoki tangliklar bir mamlakatdan u bilan uzviy bog'liq bo'lgan boshqa mamlakatlar va mintaqalarga o'tadi;

b) turli tovarlar va xizmatlar jahon bozorlarining yaratilishi;

v) ko'rsatilgan tovarlar va xizmatlarga jahon narxlarining shakllanishi, ular mazkur tovarlar va xizmatlar milliy ishlab chiqaruvchilarining siyosatini ko'p jihatdan belgilashi.

Iqtisodiyotning internatsionallasuvi va pul rolining unifikatsiyalashuvi bilan bir qatorda ommaviy jamiyat va unga mos keluvchi ommaviy madaniyatning shakllanishi serqirra globallashuvning o'ziga xos xususiyatiga va muayyan darajada uning qonuniy mahsuliga aylandi.

Zamonaviy transport va aloqa vositalari sharofati bilan makon va vaqt omillari amalda muhim ahamiyatga ega bo'lmay qolgan globallashuv sharoitida, til turli xalqlarning iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, maishiy va hokazo aloqalari va muloqoti yo'lidagi oxirgi jiddiy to'siq bo'lib qoldi. Umumiy qabo'l qilingan tilga obyektiv ehtiyoj doimo mavjud bo'lgan, lekin jahon savdosi va kapitallarni bir joydan boshqa joyga o'tkazish hajmlari ko'p karra o'sgan, siyosiy munosabatlar global darajagacha kengaygan, xalqaro jamoat tashqilotlari, sport musobaqalari, turistik industriya va shu kabilar paydo bo'lgan serqirra globallashuv davrida u ayniqsa kuchaydi. Bugungi kunda ingliz tili bir qator obyektiv sabablarga ko'ra madaniyatlararo muloqot tiliga aylandi.

1991 yilda Internet paydo bo'lganidan so'ng dunyo informatsion jihatdan ham uzil-kesil tutashdi. Kompyuter inqilobi va Internet tarmog'ining rivojlanishi chegaralardan boshqa hamma narsa mavjud bo'lgan yangi axborot maydonini vujudga keltirdi. Globallashuvning serqirraligi siyosatning ham sezilarli darajada o'zgarishiga olib keldi. 1990-yillargacha «sovuq urush» holatida bo'lgan ikki harbiy-siyosiy blokning qattiq qarama-qarshiligi bilan tavsiflangan ikki qutblilik xalqaro munosabatlarning asosiy xususiyati sanalgan bo'lsa, sotsialistik tizim parchalanishi bilan vaziyat butunlay o'zgardi. So'nggi yillarda milliy davlatlar faoliyati bilan bir qatorda xalqaro munosabatlarning yangi, «noan'anaviy» subyektlarining faolligi va ta'siri ham ancha o'sdi. Bu subyektlar o'z soni, moliyaviy imkoniyatlari va siyosiy ta'siriga ko'ra ayrim davlatlar bilan bimalol bellasha oladi. Xalqaro munosabatlarning mazkur subyektlari orasida eng muhimlari hukumatlararo tashqilotlar, transmilliy korporatsiyalar, xalqaro nohukumat tashqilotlar hisoblanadi. «YAshillar», «muqobillar», *antiglobalistlar* kabi ijtimoiy harakatlar ham keng dovruq qozondi. Globallashuvning serqirraligi madaniyat, xalqaro munosabatlar va xalqaro huquq sohasida jiddiy tarkibiy o'zgarishlar yasash bilan bir qatorda axloq, xulq-atvor me'yorlari, qadriyatlarga munosabat va mo'ljallarda ham muhim o'zgarishlarga kuchli ehtiyojni yuzaga keltirdi. Mutlaqo yangi hodisa – jahon jamoatchilik fikri yuzaga keldi va sayyoramizda o'zini jahon fuqarosi deb hisoblovchi odamlar soni ko'paydi. Jahon hamjamiyati yangi ming yillik chegarasidan o'tib, o'z tarixiy rivojlanishining butunlay yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Bu bosqich jahon ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy aloqalarining tarqoqligi va parokandaligidan ularning birligi, yaxlitligi, yagonaligi va globalligiga o'tish bilan tavsiflanadi.

Global muammolar globallashuvning oqibati sifatida. Ko'rib chiqilgan globallashuv jarayonlari odamlarga yangi g'am-tashvishlar va ijtimoiy hayotning internatsionallashuvidan kelib chiqadigan yangi (global) muammolar keltirdi. YUqorida qayd etib o'tilganidek, ular ijtimoiy rivojlanishda, shuningdek «jamiyat-tabiat» tizimida uzoq vaqt mobaynida yuz bergan miqdor va sifat o'zgarishlari mahsuli bo'ldi. SHuni ta'kidlash lozimki, jahon hamjamiyati nafaqat yanada rang-barang, balki avvalgidan ham ziddiyatliroq shakl-shamoyil kasb etgani bilan tavsiflanadigan hozirgi vaziyat tarixda hech qachon bo'lmagan edi. Bir tomondan, u bir-biriga o'xshamaydigan, katta va kichik, rivojlangan va qoloq, tinchliksevar va urushqoq, yosh va qadimgi ko'p sonli madaniyatlar, millatlar va davlatlardan iborat. Boshqa tomondan esa, insoniyat uchinchi ming yillikka yagona organizm sifatida, bir «umumiy uy», aniqroq aytganda, yashash sharoitlari nafaqat tabiiy ko'rsatkichlar, ya'ni yashash uchun yaroqli hudud bilan, balki hayot faoliyati uchun zarur resurslar mavjudligi bilan ham chegaralangan Er deb atalmish katta va odamga to'lib ketgan «kommunal kvartira» aholisi sifatida qadam qo'ydi. Bu to'la anglab etish jarayoni so'nggi o'n yilliklardagina yuz bergan va endilikda u bilan barcha mamlakatlar va xalqlar hisoblashishga majbur bo'lgan borliqdir.

Ayni vaqtda shuni ta'kidlash lozimki, global muammolarning paydo bo'lishi qandaydir yanglishish, kimningdir xatosi yoki ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishning ataylab tanlangan strategiyasi natijasi emas. Bu tarix injiqligi yoki tabiiy anomalialar mahsuli ham emas. Ushbu muammolarning ildizlari ancha chuqur bo'lib, industrial jamiyat, umuman texnokratik yo'naltirilgan madaniyatning keng miqyosdagi inqirozini yuzaga keltirgan hozirgi tsivilizatsiyaning vujudga kelish tarixiga borib taqaladi. Mazkur inqiroz odamlarning bir-biri bilan, jamiyat va tabiat bilan o'zaro aloqalarining butun majmuini qamrab oldi va deyarli butun jahon hamjamiyatiga, rivojlanayotgan mamlakatlarga va rivojlangan mamlakatlarga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Insonning atrof muhitga salbiy ta'siri aynan rivojlangan mamlakatlarda, asosan bu erda jadal sur'atlarda va stixiyali tarzda rivojlangan iqtisodiyot bilan bog'liq sabablarga ko'ra oldinroq va bo'rtibroq namoyon bo'ldi.

Ijtimoiy rivojlanishning jadallashuvi. Bunday rivojlanish, avvalo, *atrof muhitning tanazzuliga* olib keldi va tez orada insonning o'zi ham tanazzulga yuz tutganini namoyon etdi. Zero inson xulq-atvori, tasavvurlari va fikrlash tarzi uning atrofida shitob bilan yuz bera boshlagan o'zgarishlarga muvofiq o'z vaqtida o'zgarishga qodir bo'lmay qoldi. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning jadal sur'atlarda rivojlanishiga esa insonning o'zi va uning fan va texnika sohasidagi yangi va yangi yutuqlar bilan ko'p karra kuchaytirilgan izchil o'zgartiruvchi faoliyati sabab bo'ldi.

So'nggi o'n yilliklarning o'zida fan-texnika yutuqlari shitob bilan o'sishi natijasida jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishida avvalgi yuz yilliklarga qaraganda ko'proq o'zgarishlar yuz berdi. Bunda o'zgarishlar jarayoni o'sib boruvchi tezlikda yuz berdi va ijtimoiy-iqtisodiy jabhalarda yanada chuqurroq va jiddiyroq o'zgarishlar yasadi. Masalan, verbal (og'zaki) muloqotdan yozuvning yaratilishiga qadar insoniyat taxminan uch million yilga, yozuvdan kitob bosmasi ixtiro qilingunga qadar taxminan besh ming yilga, kitob bosmasidan telefon, radio, televidenie kabi audiovizual vositalar yaratilgunga qadar taxminan besh yuz yilga teng yo'lni bosib o'tgan bo'lsa, odatdagi audiovizual vositalardan zamonaviy

kompyuterlarga o'tish uchun ellik yildan kamroq vaqt talab etildi. Misli ko'rilmagan sur'atlarda – atigi 10-15 yil ichida odamlar Internet va uyali aloqa yordamida muloqot qilish uchun cheksiz imkoniyatlarni qo'lga kiritdilar. YAngi ixtirolar yaratilganidan ular amalga joriy etilgunga qadar o'tadigan vaqt ham yanada qisqardi; ular endi aksariyat hollarda yillar bilan emas, balki oylar va hatto kunlar bilan o'lchanadi. XXI asrning eng so'nggi kashfiyotlaridan biri bo'lmish nanotexnologiyalarning (mitti texnologiyalar) yaratilishi insonning barcha sohadagi imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Jumladan, bugungi kunda sog'likni saqlash sohasidagi nanotexnologiyalar yug'ir operatsiyalar va ularning salbiy oqibatlarining oldini olmoqda. Xususan lazer qaychilari odam organizmining yalliqlangan joyidagi yarani hech qanday qiyinchiliksiz olib tashlamoqda. (Burun, jigar va boshqa organlardagi o'simta) 2020 yillarda nanotexnologiyalar yordamidagi operatsiyalar yanada takomillashishi ko'zda tutilmoqda, ya'ni organizmga 20 mingta nanorobotlar in'ektsiya orqali yuboriladi, nanorobotlarning hajmi bitta bakteriya hajmiga teng, bu nanorobotlar organizmning qaysi qismi yalliqlanganligi aniqlab shu parchani yo davolaydi yoki kesib tashlaydi. SHuningdek magazinlarda avtomobil haloqatidan ogohlantiruvchi, kiyganda qaysidir organning kasallanganligidan xabar beruvchi nanoquylaklarning sotilishi ko'zda tutilmoqda. O'tgan asrlarda suv osti kemalari, soatiga ikki ming qilometrgacha ucha oladigan avialaynerlar, kompyuterlar, suv osti tunnellarining yaratilishiga insoniyat ishonmagan va ular yaratilganidan so'ng foydalana boshlagan. SHu bois nanotexnologiyalarnig imkoniyatlariga ham hozircha shubha bilan qarash mumkin, lekin 2020 yilga juda oz vaqt qoldi, dushman to'pponchasidan otilgan o'qni boshqa tomonga yo'naltiruvchi birinchi harbiylar kiyimlari esa yaratildi. SHunday qilib, atigi ikki-uch yuz yil muqaddam turli millatlar asosan alohida-alohida yashagan, ularning o'zaro aloqalari yaxshi yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, endilikda Erda nafaqat «oq dog'lar», ya'ni inson oyog'i etmagan joylar qolmadi, balki tabiiy holatiga inson bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatmagan sof hududlar, suv va fazo bo'shliqlari ham deyarli mavjud emas. Bo'larning barchasi endi bizning sayyoramizni «umumiy uy», «Koinotdagi orolcha», «qattiq to'lqinlanayotgan okeandagi qayiq», «dunyoviy qishloq» deb, barcha odamlar uchun umumiy tus olgan muammolarni esa - olamshumul, umuminsoniy, global deb nomlash uchun asos bo'lmoqda.

Global tendentsiyalarni anglashning ahamiyati. Jahonda yuz berayotgan o'zgarishlarning ba'zi bir tendentsiyalari olimlar va faylasuflar diqqat markazidan bu o'zgarishlar barchaga ravshan bo'lishidan oldinroq o'rin oldi. Masalan, ijtimoiy rivojlanishga turli tsivilizatsiyalarning oldinma-ketin almashishi sifatida qaragan ingliz tarixchisi *A.Toynbi* (1889-1975) kompyuter inqilobidan ancha oldin «XX asrda umumjahon tarixi boshlandi» degan xulosaga keldi. SHu tariqa tub o'zgarishlar nafaqat jamiyat qurilishi negizlarida, balki dunyo miqyosida yuz berayotgan ijtimoiy jarayonlarning asosiy tendentsiyalarida ham aks etgani ta'kidlandi.

Hozirgi zamon nemis falsafasining atoqli namoyandasi *K.Yaspers* (1883-1969) bu xususda yanada aniqroq fikr bildirdi. U 1948 yilda e'lon qilgan «Tarix ko'rtaklari va uning maqsadi» asarida, jumladan, shunday deb yozadi: «Ilk bor olamshumul ahamiyat kasb etgan bizning tarixan yangi sharoitimiz Erda

odamlarning real birligidan iboratdir. Zamonaviy aloqa vositalarining texnik imkoniyatlari sharofati bilan sayyoramiz insonga to'la ochiq bo'lgan yagona yaxlitlikka aylandi» Bu, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, tarixiy o'lchovlarga ko'ra jadal sur'atlarda emas, balki misli ko'rilmagan shitob bilan yuz berdi. Bunda dunyoning yagonaligi tarixiy taraqqiyotni belgilovchi muhim omilga aylandi. Ikkinchi jahon urushi jahon hamjamiyatining parokandaligiga uzil-kesil chek qo'ydi. «SHu davrdan e'tiboran yaxlit bir butunning yagona tarixi sifatidagi jahon tarixi boshlanadi, - deb qayd etdi K.YAspers urush tugagani zahoti. – Endi butun dunyo asosiy muammo va vazifaga aylandi. SHu tariqa tarixning butunlay o'zgarishi yuz beradi. Dunyo mamlakatlari va xalqlari tutashdi. Er kurrasi yaxlit va yagona tus oldi. YAngi xavflar va imkoniyatlar paydo bo'lmoqda. Barcha muhim muammolar dunyo miqyosidagi muammolarga, vaziyat – butun insoniyat vaziyatiga aylandi».

Borliq, ong, hayotning mazmuni azaliy falsafiy muammolariga va falsafada muttasil muhokama qilinadigan boshqa masalalarga **hozirgi davr shu tariqa ilgari hech qachon mavjud bo'lmagan, mutlaqo yangi mavzu – insoniyatning yagona taqdiri va Erdagi hayotni saqlash** mavzusini qo'shimcha qildi.

XX asrda fan va texnika sohasidagi aqlni lol qoldiradigan natijalar ta'sirida ilk texnokratik ijtimoiy nazariyalar paydo bo'ldi. SHulardan birining muallifi – amerikalik iqtisodchi va sotsiolog T.Veblen jamiyatning rivojlanishida sanoat ishlab chiqarishi va texnika taraqqiyotining etakchi rolini birinchilardan bo'lib falsafiy jihatdan asoslab berdi. Uning fikricha, hozirgi zamon davlati muhandislar va texniklar tomonidan boshqarilishi lozim, chunki ishlab chiqarishni jamiyat manfaatlarida rivojlantirish (bu g'oya T.Veblen texnokratik nazariyasining mag'zini tashqil etadi) faqat ularning qo'lidan keladi va siyosiy hokimiyat ularga ayni shu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun kerak. SHu davrda yangi tendentsiyalarga nisbatan boshqacha munosabatni ilgari suruvchi yondashuvlar ham paydo bo'ldi. Xususan, biz tabiat bilan jamiyatning o'zaro munosabati muammolarini anglab etishda *V.I.Vernadskiy*ning roli va u noosferani yaxlit umumbashariy hodisa sifatida tushunishi haqida to'xtalib o'tdik. SHunga o'xshash fikrlarni taniqli frantsuz faylasufi, teolog *P.Teyyar de SHarden* ham ilgari suradi. Biosferaning tarkibiy qismi sifatida insonning betakrorligini asoslashga harakat qilar ekan, u insonning tabiat bilan munosabatlarini uyg'unlashtirish kontseptsiyasini rivojlantirdi va butun insoniyatning birlashishi yo'lida egoistik niyatlardan voz kechishga chaqirdi

SHunday qilib, faylasuflar va olimlar XX asrning birinchi yarmidayoq nafaqat yangi davr – umumbashariy hodisalar davri boshlanayotganini, balki bu yangi sharoitlarda odamlar tabiiy va ijtimoiy stixiyaga faqat bahamjihat qarshilik ko'rsata olishi mumkinligini ham anglab etdilar.

Texnooptimizm. Ammo qayd etilgan qarashlar 60-yillarning boshlariga kelib texnokratik kayfiyatlarning yangi to'liqlini bilan chetga surib qo'yildi va qariyb ikki o'n yillik mobaynida ommaviy ongga o'z ta'sirini yo'qotdi. Bunga urushdan keyingi davrda jahonning deyarli barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarini qamrab olgan sanoat yuksalishi sabab bo'ldi. 50-60-yillarda ijtimoiy taraqqiyot istiqbollari G'arbda ham, SHarqda ham aksariyat mamlakatlar uchun porloq bo'lib tuyular edi. Ijtimoiy ongda *har qanday dunyoviy va hatto koinot muammolarini fan*

va texnika yordamida hal qilish mumkin degan illyuziyani yaratgan **texnooptimistik kayfiyatlar** kuchaydi. Bunday qarashlar «iste'mol jamiyati»ni ijtimoiy rivojlanish maqsadi deb e'lon qilgan ko'p sonli nazariyalarda o'z aksini topdi. Ayni shu davrda «*industrial*», «*postindustrial*», «*texnotron*», «*informatsion*» jamiyatlarning turli kontseptsiyalarini yaratish ustida faol ish olib borildi.

1957 yilda taniqli iqtisodchi va sotsiolog *J.Gelbreyt* «Serobgarchilik jamiyati» kitobini e'lon qildi va uning asosiy g'oyalarini keyinchalik o'zining «YAngi industrial jamiyat» deb nomlangan boshqa asarida rivojlantirdi. Uning asarlarida inson fan va texnika sohasida erishayotgan yutuqlarga yuksak va faqat ijobiy baho beriladi, mazkur yutuqlar ta'sirida jamiyat iqtisodiy va ijtimoiy to'zilmalarida chuqur o'zgarishlar yuz berayotganiga e'tibor qaratiladi.

Taniqli frantsuz faylasufi *R.Aron* asarlarida, shuningdek, uning 1956-1959 yillarda Sorbonna universitetida o'qilgan ma'ruzalarida, amerikalik siyosatshunos *U.Rostouning* 1960 yilda chop etilgan va o'z davrida shov-shuvga sabab bo'lgan «Iqtisodiy o'sish bosqichlari. Nokommunistik manifest» kitobida «industrial jamiyat» nazariyasi yanada to'laroq asoslab berildi.

Bu olimlar fikriga ko'ra, fan-texnika inqilobi ta'sirida «odatdagi» agrar jamiyat o'rnini sanoat jihatidan taraqqiy etgan «industrial» jamiyat egallaydi va bu erda bozor sharoitida ommaviy ishlab chiqarish birinchi o'ringa chiqadi. Sanoatning rivojlanish va texnika yutuqlaridan foydalanish darajasi bunday jamiyat progressivligining bosh mezonlariga aylanadi.

Jamiyat hayotining barcha jabhalariga kompyuterlarning keng joriy etilishi yangi nazariyalar, chunonchi: «*postindustrial*», «*informatsion*» (*D.Bell, G.Kan, J.Furaste, A.Turen*), «*texnotron*» (*Z.Bjezinskiy, J.J.Servan-SHrayber*), «o'ta industrial», «kompyuter» (*A.Toffler*) jamiyati nazariyalari yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Ularda ijtimoiy taraqqiyotning asosiy mezoni sifatida texnika yutuqlari, aniqrog'i faqatgina ular emas, balki fan va ta'limning rivojlanishi amal qiladi. Kompyuter texnikasi negizida yaratilgan yangi texnologiyalarning amalga joriy etilishi taraqqiyotning muhim mezoni hisoblanadi.

Amerikalik taniqli faylasuf va sotsiolog *D.Bell* bo'lg'usi ijtimoiy qurilish shakl-shamoyillarini belgilar ekan, hali Internet paydo bo'lishidan ancha oldin shunday degan edi: «SHunga ishonchim komilki, axborot va nazariy bilim postindustrial jamiyatning strategik resurslaridir. Bundan tashqari, o'zining yangi rolidida ular hozirgi tarixning tub burilish nuqtalaridir»

D.Bell birinchi burilish nuqtasi sifatida hozirgi jamiyatda «umumiy bilim» sifatida *asosiy ishlab chiqaruvchi kuchga* aylangan fan xususiyatining o'zgarishini qayd etadi. Ikkinchi burilish nuqtasi yangi texnologiyalar paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, ular, sanoat inqilobi davri texnologiyalaridan farqli o'laroq, o'ta moslashuvchan va osongina qayta ixtisoslashtirilishi mumkin. U «Hozirgi texnologiya betakror va ayni vaqtda rang-barang natijalarga erishish uchun ko'p sonli muqobil yo'llar ochadi, bunda moddiy ne'matlar ishlab chiqarish mislsiz darajada o'sadi. Bo'lar – imkoniyatlar, hamma gap ularni ro'yobga chiqarishda», deb qayd etgan edi.

Texnopessimizm. Ko'rib chiqilayotgan nazariyalarning ayrim tarafdorlari fan-texnika inqilobining salbiy oqibatlariga, xususan atrof muhitning ifloslanishi

muammolariga ma'lum darajada e'tibor bergan bo'lsalar-da, lekin, umuman olganda, ularning hech biri bundan 1980-yillarning o'rtalarigacha jiddiy tashvishga tushmadi. Chunki, fan-texnika taraqqiyoti hamma narsaga qodir ekanligiga ishonch haddan tashqari katta edi.

Ayni vaqtda 1960-yillarning oxirlaridan ekologik qiyinchiliklardan tashqari aksariyat davlatlar va hatto qit'alarga tahdid solgan boshqa muammolar: *aholining nazoratsiz o'sishi, turli mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining notekisligi, xom ashyo resurslari va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash* va boshqalar tobora bo'rtibroq namoyon bo'la boshladi. Tez orada ular fan va falsafa diqqat markazidan o'rin olib, qizg'in bahs va munozaralar predmetiga aylandi.

Ko'rsatilgan muammolarni falsafiy tahlil qilish borasidagi dastlabki urinishlarning o'ziyoq texnokratik tendentsiyalarga zid bo'lgan, keyinchalik «**texnologik pessimizm**» deb nomlangan qarashlarni namoyon etdi. Asosiy e'tibor inson faoliyatining salbiy oqibatlari va atrof muhit muammolariga qaratilgan, ularni echish imkoniyatlari salbiy tusda ko'rilgan holda, bunday qarashlar «**ekopessimizm**» deb ataladi.

Ko'pgina taniqli olimlar va faylasuflar, xususan *G.Markuze, T.Rozzak, P.Gudmen* va boshqalar o'z o'tmishdoshlarini shafqatsiz stsentizmida, insonni fan va texnika quliga aylantirishga urinishda ayblab, fan-texnika taraqqiyotiga qarshi chiqdilar. Fan-texnika taraqqiyotiga va umuman ijtimoiy taraqqiyotga qarshi norozilikning yangi to'lqini yuzaga kela boshladi. Bu to'lqin ta'sirida paydo bo'lgan g'oyalar «aksiliste'mol» jamiyatini asoslashga harakat qilar va «o'rtacha odam»ni ozginaga qanoat qilish lozimligiga ishontirishga qaratilgan edi. Global muammolar paydo bo'lishining aybdorini topishga urinish jarayonida asosiy ayb «zamonaviy texnologiya»ga qo'yildi. Nafaqat fan yutuqlari, balki taraqqiyot g'oyasi ham shubha ostiga olindi. O'z davrida *J.J.Russo* ilgari so'rgan «tabiat bag'riga qaytish»ga chorlovlar paydo bo'ldi, iqtisodiy rivojlanishni erishilgan darajada «to'xtatish» taklif qilindi.

Rim klubi. YUqorida qayd etilgan qarashlardagi tub burilish asosan Rim klubi faoliyati ta'sirida yuz berdi. 1968 yil Rimda o'zining birinchi majlisiga yig'ilgan olimlar, faylasuflar va jamoat arboblarning bu nufuzli xalqaro tashqiloti hozirgi davrning eng muhim umuminsoniy muammolari bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash va e'lon qilishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ydi. Bu tashqilotning 1972 yilda e'lon qilingan «O'sish chegaralari» deb nomlangan birinchi ma'ruzasiyoq juda katta shov-shuvga sabab bo'ldi, chunki insoniyat o'zi anglamagan holda «poroxli bochka ustida o'tirib, gugurt o'ynayotgani»ni ko'rsatib berdi. Rim klubining asoschisi va birinchi prezidenti *Aurelli Pechcheyi* mazkur tadqiqotga yozgan so'zboshisida shunday deb qayd etgan edi: «Endilikda ona-Erimiz har qanday o'sish sur'atlariga dosh berishga, insonning har qanday erkaliklarini ko'tarishga qodir ekanligiga sog'lom fikrlaydigan odamlarning birortasi ham ishonmaydi. O'sish chegaralari borligi ravshan, lekin ularning qandayligi va qasrdaligini hali aniqlash lozim».

Mazkur ma'ruza mualliflari shunday aniqlash bilan shug'ullandilar. Olingan natijalarning muxtasar mazmuni shundan iborat ediki, sayyoramiz

hajmining chegaralari muqarrar tarzda inson ekspansiyasining chegaralarini ham nazarda tutadi; moddiy o'sish cheksiz darajada davom etishi mumkin emas; ijtimoiy rivojlanishning haqiqiy chegaralari moddiy omillar bilan emas, balki ekologik, biologik va hatto madaniy omillar bilan belgilanadi. Ular jahon rivojlanishi asosiy tendentsiyalarining kompyuter modelini to'zib, mazkur tendentsiyalar saqlangan holda uchinchi ming yillik boshidayoq insoniyat voqealar ustidan nazoratni butunlay yo'qotishi va natijada haloqatga yuz tutishi mumkin, degan to'xtamga keldilar. Bundan ishlab chiqarishning o'sishini to'xtatish, tobora ko'payib borayotgan aholi sonini esa tegishli ijtimoiy siyosat yordamida barqarorlashtirish lozim, degan xulosaga kelindi. Ma'ruza jahonning ko'plab tillariga o'girildi va dunyo bo'ylab keng tarqaldi, ishlab chiqarishning o'sishini to'xtatish g'oyasi tarafdorlari va muholiflari o'rtasida qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. So'ngra navbatdagi ma'ruzalar majmui (bugungi kunda ular yigirmatadan oshib ketdi) paydo bo'ldi. Bu ma'ruzalar umuminsoniy muammolarning ko'pgina jihatlarini yoritib berdi va ularga nafaqat olimlar va faylasuflar, balki siyosatchilar, jamoat arboblari, umuman jahon hamjamiyati e'tiborini qaratdi.

Global muammolarni echishda falsafaning roli. Og'ir va murakkab vazifalarni echishda insonga fan doim yordam bergan. Bir paytlar erishib bo'lmaydigan, inson imkoniyatlari darajasidan tashqarida bo'lib tuyulgan narsalarning aksariyatiga aynan fan yordamida erishilgan. Ayni shu sababli global muammolar xavf solayotgani haqidagi ilk ogohlantirishlarning o'ziyoq odamlarni fanga o'z e'tiborini qaratishga, olimlarni esa bu muammolarni echish yo'llarini izlashga majbur qildi.

YUzaga kelgan vaziyatning o'ziga xosligi va yangiligi shundan iboratki, har qanday muayyan muammolarni ayrim fan yoki bir necha fanlar majmui doirasida o'rganish mumkin bo'lsa, inson, jamiyat va tabiatni ularning ko'p sonli o'zaro aloqalari va o'zaro bog'liqliklarida qamrab oluvchi murakkab tizimdan iborat global muammolarni tadqiq etishga ayrim fanlar qodir emas. Zero o'z tadqiqoti obyektini – u yoki bu ayrim muammoni boshqa global muammolar kontekstida talqin qilishga muayyan fanlar doirasi torlik qiladi. SHu sababli u yoki bu fan qaysi muayyan vazifalarni echishidan qat'iy nazar, ular bilan bog'liq jarayonlar va hodisalarga, ya'ni butun vaziyatga, shu jumladan oxir-oqibatda olingan natijalarga nisbatan falsafiy yondashuv doimo tadqiqotning zaruriy sharti hisoblanadi. Har qanday ayrim fanlar muayyan bosqichda o'z tadqiqot predmetini falsafiy jihatdan anglab etishga u yoki bu darajada muhtoj bo'ladi. Muayyan fan predmetiga va insoniyat oldida to'rgan muammolarga nisbatan bunday keng yondashuvsiz fundamental kashfiyotlar qilish ham, umuman fanning rivojlanishi ham mumkin emas. SHunday qilib, ayni holda, bir tomondan, masalalarning falsafiy echimi to'g'risida, boshqa tomondan esa – falsafa fanlarning keng doirasi o'zaro aloqa qilishini rag'batlantirishi, bunda ularning fanlararo birlashuvi muhim o'rin tutishi to'g'risida so'z yuritiladi. Garchi falsafa odamlarning kundalik hayoti va amaliyotidan ancha uzoqda bo'lgan haddan tashqari umumiy masalalarni o'rganadi, degan fikr mavjud bo'lsa-da, u (falsafa) global muammolarni echishda muhim rol o'ynaydi. Zero, umumiy nazariyalar ba'zan bilimning aksariyat muayyan sohalariga qaraganda ko'proq samara berishi mumkinligi yaxshi ma'lum.

Albatta, falsafa siyosiy va boshqa qarorlar qabo'l qilish jarayoniga muqarrar tarzda va bevosita ta'sir ko'rsatadi, deb aytish uncha o'rinli bo'lmaydi. Zero, *uning bosh vazifasi dunyoqarashni shakllantirish va shu tariqa amaliy qarorlar ishlab chiqish jarayoniga bilvosita ta'sir ko'rsatishdan iborat*. Uning vazifasi global muammolarning tabiiy-ilmiy va texnikaviy jihatlarini bevosita o'rganishdan emas, balki boshqa fanlar taklif qiladigan tegishli echimlarning falsafiy, metodologik, madaniy va axloqiy negizini ta'minlashdan iborat. Falsafiy tadqiqot muayyan fanlarning mazkur sohadagi yutuqlariga tayanib, masalaning ayrim jihatlarini mavhumlashtiradi va global muammolarni ular bir-birini qay darajada taqozo etishi nuqtai nazaridan o'rganadi. Boshqacha aytganda, falsafiy yondashuv global muammolarni ularning ijtimoiy ahamiyati va ijtimoiy belgilanganligi nuqtai nazaridan yaxlit o'rganishni nazarda tutadi. Bunday tadqiqot avvalo global muammolarning mohiyatini aniqlashni nazarda tutadi, chunki ularning asl tabiati va genezisini aniqlash bu muammolarning ilmiy va amaliy echimini topish yo'llarini ko'p jihatdan belgilab beradi.

Global muammolarni falsafiy anglab etishning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflar ekanmiz, falsafaning asosiy funktsiyalaridan kelib chiqadigan va bilishning shu shakligagina xos bo'lgan xususiyatlarni qayd etib o'tamiz.

Birinchidan, falsafa, *dunyoqarashni shakllantirar ekan*, inson faoliyati yo'nalishini ko'p jihatdan belgilaydigan muayyan mo'ljallar beradi. SHu tariqa falsafa o'zining **dunyoqarashni shakllantirish** va **aksiologik** funktsiyalarini bajaradi.

Ikkinchidan, turli fanlar doirasida o'rganiladigan murakkab tizimlar haqida yaxlit tasavvur mavjud emasligi bu fanlarning o'zaro hamkorligi yo'lida jiddiy to'siq hisoblanadi. SHu ma'noda falsafaning mazkur fan doirasida yuzaga keladigan *nazariyalarni umumlashtiruvchi* **metodologik** funktsiyasi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ilmiy bilimning integratsiyalashuviga ko'maklashadi.

Uchinchidan, falsafa ijtimoiy hodisalar va jarayonlarni tarixiy kontekstda tushuntirish imkonini beradi. U jamiyat va tabiat rivojlanishining umumiy qonunlarini ta'riflaydi va shu sababli global muammolarni o'rganishda ularni ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy bog'liq bo'lgan qonuniy hodisa sifatida tushunishga yo'l ko'rsatadi. SHunday qilib, global muammolarning paydo bo'lishi tasodif yoki insoniyatni haloqatga oldindan mahkum etuvchi taqdirning hukmi sifatida emas, balki *qarama-qarshiliklarga to'la insoniyat tarixi obyektiv rivojlanish jarayonining mahsuli* sifatida qaraladi.

To'rtinchidan, falsafa global muammolar rivojlanishining umumiy tendentsiyasini, ularning o'zaro aloqasi va bir-birini taqozo etish darajasini falsafiy nuqtai nazardan anglab etish imkonini beradi.

Beshinchidan, falsafa *nazariy fikrlash madaniyatini rivojlantirish* uchun imkoniyat yaratish orqali ma'naviy - madaniy funktsiyani bajaradi. Turli xalqlarning falsafa tarixini o'rganish, ularning madaniyati bilan ham tanishish imkonini beradi. Muayyan xalqlar oldida to'rgan muammolarning birortasini ham ularning madaniyatiga bog'lamasdan echish mumkin emas.

Oltinchidan, global muammolarga oid ilmiy axborotning shiddat bilan o'sib borayotgan oqimida yanada aniqroq mo'ljal olish imkoniyati tabiiy-tarixiy

jarayonni yaxlit ko'rish va uni talqin qilishga nisbatan dialektik yondashuv mahsuli hisoblanadi.

Ettinchidan, falsafa inson hayotining mazmuni, o'lim va umrboqiylik masalalarini kun tartibiga qo'yadiki, bu insoniyatga global muammolar tahdid solayotgan sharoitda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Nihoyat, falsafaning yana bir muhim metodologik funktsiyasi shundan iboratki, u insoniyatning hozirgi muhim muammolari bilan bevosita bog'liq bo'lgan va bashariyat rivojlanishining obyektiv tendentsiyalarini tushunish va anglab etishda ulkan rol o'ynaydigan «*tabiat*», «*jamiyat*», «*tsivilizatsiya*», «*ijtimoiy taraqqiyot*», «*fan-texnika inqilobi*» kabi boshqa kategoriyalarni ishlab chiqadi. Hozirgi davrning global muammolarini o'rganishga nisbatan falsafiy yondashuv haqida muayyan tasavvur hosil qilgach, endi globallashuv jarayonlari kuchayishiga qarab ahamiyati oshib borayotgan muammolarning o'zini shu nuqtai nazardan ko'rib chiqamiz.

Global muammolarning mohiyati. «Hozirgi davrning global muammolari» tushunchasi 1960-yillar oxiri – 1970-yillarning boshlarida keng tarqaldi va shundan beri ilmiy va siyosiy muomala(leksikon) hamda ommaviy ongdan mustahkam o'rin oldi. Aksariyat hollarda u global sanalmagan voqealar va hodisalarga nisbatan qo'llaniladigan atama sifatida ishlatiladi. Bunday holga milliy va umumbashariy ahamiyatga molik voqealar tenglashtirilganida, masalan, muayyan bir mamlakatning ijtimoiy muammolarini nazarda tutib, ular «global» deb nomlangan holda duch kelish mumkin.

Falsafada bu vazifani echish uchun tegishli mezonlar belgilangan bo'lib, ularga muvofiq u yoki bu muammo global deb belgilanadi va shu tariqa bunday xususiyatga ega bo'lmagan boshqa ko'p sonli muammolardan farqlanadi. Etimologik jihatdan «global» atamasi, «globallashuv» atamasi kabi, er kurrasi bilan bog'liq. Ayni shu sababli butun insoniyat manfaatlariga daxldor muammolarni ham, dunyoning turli nuqtalaridagi har bir ayrim insonga tegishli bo'lgan, ya'ni umuminsoniy xususiyat kasb etadigan muammolarni ham «global» deb nomlash odat tusini olgan. Ular jahon iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining muhim obyektiv omili sifatida ayrim mamlakatlar va mintaqalarning rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ularni echish *aksariyat davlatlar va tashqilotlarning kuch-g'ayratini xalqaro darajada birlashtirishni nazarda tutadi. Ayni vaqtda global muammolarning echilmay qolishi butun insoniyat kelajagi uchun haloqatli oqibatlarga olib kelishi mumkin.*

Muammolarning turli darajalari. Global muammolar butun dunyogagina tegishli bo'lmay, uning mintaqalari va hatto ayrim mamlakatlar darajasida namoyon bo'lgani bois, ilmiy adabiyotlarda ularning umuminsoniy ahamiyatini tan olish bilan bir qatorda, ularni mohiyati o'zgacha, ta'sir doirasi esa torroq bo'lgan ayrim, mahalliy, mintaqaviy muammolardan farqlash ham amalga oshiriladi. Turli darajadagi muammolarni «umumiylik», «xususiylik» va «yakkalik» falsafiy kategoriyalarining muayyan ifodasi sifatida o'rganar ekanlar, ularni odatda shunday talqin qiladilarki, xususiy muammolar ayrim muammolar sifatida, mahalliy va mintaqaviy muammolar – xususiy muammolar sifatida, global muammolar esa – umumiy muammolar sifatida amal qiladi. Zikr etilgan muammolarni farqlash zahirida yotuvchi asosiy mezon ham ayni shu yondashuvni belgilaydi. U geografik

deb ataladi, chunki makon omilini yoki, boshqacha aytganda, muayyan muammolar mavjud hududni aks ettiradi.

Xususiy muammolar davlat faoliyatining muayyan jabhasiga, ayrim aholi yashaydigan punktlarga yoki kichik tabiiy obyektlarga tegishli bo'lgan muammolardir. Bo'lar, odatda, turli avariylar, nosozliklar natijasida yuzaga keladigan har xil muammolar, mahalliy ijtimoiy konfliktlar va h.k.

Mahalliy muammolar tushunchasi yuqoriroq darajadagi muammolarga, aniqroq aytganda, ayrim mamlakatlarga yoki yirik mamlakatlarning ancha katta hududlariga tegishli bo'lgan muammolarga nisbatan tatbiq etiladi. Bu erda odatda kuchli zilzilalar, yirik suv toshqinlari yoki, masalan, kichik davlatdagi fuqarolar urushi nazarda tutiladi.

Milliy muammolar tushunchasi ijtimoiy-siyosiy va ilmiy muomalada ba'zan muayyan davlat yoki milliy hamjamiyatning ma'lum qiyinchiliklari, g'am-tashvishlarini aks ettiradi. Miqyos darajasiga qarab ular mintaqaviy yoki mahalliy muammolar sifatida talqin qilinishi mumkin.

Mintaqaviy muammolar ayrim qit'alar, dunyoning yirik ijtimoiy-iqtisodiy hududlari yoki ancha yirik davlatlarda yuzaga keladigan muhim masalalar doirasini qamrab oladi. Bunday muammolarga SHarqiy Evropaning bir necha mamlakatlari hududi radioaktiv zaharlanishiga olib kelgan CHernobil fojiasi yoki bir qator davlatlarni qamrab oluvchi ancha katta hududlarda yuz bergan iqlim o'zgarishlari misol bo'lishi mumkin. Masalan, 1968 yilda Saxel mintaqasida yuz bergan qurg'oqchilik «asr faloqati» degan nom oldi. U Afrika qit'asining 18 davlatini qamrab oldi, bunda ocharchilik natijasida 250 mingdan ko'proq odam halok bo'ldi, taxminan 18 million bosh qoramol nobud bo'ldi, xavfli kasalliklarning epidemiyalari yuzaga keldi, bu ulkan mintaqada hududi esa deyarli to'la sahroga aylandi.

Global muammolar butun er kurrasini, uning nafaqat odamlar bevosita yashaydigan qismini, balki Erning qolgan yuzasi, er osti bo'shliqlari, atmosfera, gidrosfera va hatto inson faoliyati doirasiga kiruvchi kosmik fazoni qamrab olishi bilan izohlanadi.

SHunday qilib, *global muammolar* to'g'risida so'z yuritilgan holda butun sayyora nazarda tutiladi, uning eng yirik tarkibiy birligi sifatida esa mintaqa qabo'l qilinadi. Bunda mintaqalar soni va ularning miqyosi ko'rib chiqilayotgan muammolar xususiyati bilan belgilanadi. Masalan, dunyo miqyosidagi iqtisodiy qoloqlik muammosini tadqiq etishda odatda butun sayyorani ikki mintaqaga – rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga ajratish bilan kifoyalaniladi. Demografik, energetik muammolar yoki xom ashyo muammolarini o'rganishda esa, mintaqalar soni, ko'payadi va har safar tadqiqotning muayyan maqsadlari bilan belgilanadi.

Bunda shuni qayd etish lozimki, har qanday muammo sayyoraning istalgan mintaqasiga nisbatan muhim sanalgan, ya'ni ularning har birida namoyon bo'lgan holdagina global deb hisoblanishi mumkin. Aks holda bir yoki bir necha mintaqalarning muammolari (yoki bundan ham kichikroq miqyosdagi muammolar) to'g'risida so'z yuritiladi.

Bundan barcha global muammolar ayni vaqtda mintaqaviy ahamiyat ham kasb etadi, lekin mintaqaviy darajada aniqlangan barcha muammolar ham global bo'la olmaydi, degan xulosa kelib chiqadi. O'z-o'zidan ravshanki, global muammolar soni kamroq bo'ladi. Boshqa darajalarga kelsak, global muammolar bevosita mahalliy yoki xususiy ko'rinishga ega bo'lmashligi yoki bu erda uncha sezilmasligi mumkin.

Masalan, Antarktidada yoki sayyoramizning atrof muhit ifloslanadigan asosiy markazlari va manbalaridan ancha uzoqda joylashgan boshqa burchaklarida havo yoki suv havzalarining holati qoniqarli bo'lishi, tabiiy muhitga antropogen ta'sir esa deyarli sezilmasligi mumkin. SHunga qaramay bu keskinlik darajasi tabiiy muhitga antropogen ta'sirning notekisligiga bog'liq bo'ladigan ekologik muammoning global xususiyatiga shak-shubha tug'dirmaydi. O'z navbatida, barcha mahalliy yoki xususiy muammolar global muammolar bilan bog'lanmaydi, zero ularning soni taqqoslab bo'lmaydigan darajada ko'proqdir.

Keltirilgan mulohaza global va mintaqaviy muammolarni nafaqat ilmiy balki, amaliy jihatdan ham farqlash imkonini beradi, chunki barcha global muammolar o'z miqyosida o'zgarmaydigan yagona tizim – butun sayyoraga tegishlidir. SHu sababli mazkur tizim uchun ularning soni ma'lum tarixiy bosqichda muayyan hisoblanadi. Ayni vaqtda boshqa darajadagi muammolar sonining aniq hisobini yuritish mumkin emas, zero mintaqalarning va turli hududlarning chegaralari tadqiqotning maqsad va vazifalariga qarab shartli olinadi.

Globallik mezonlari. Fan va falsafada global muammolarni yanada aniqroq tavsiflash uchun yuqorida zikr etilgan «geografik» mezondan tashqari bu muammolarni boshqa tomondan – ularning sifati, va muhim xususiyatlar nuqtai nazaridan tavsiflovchi qo'shimcha mezonlar qo'llaniladi.

Birinchidan, global muammolar o'z mohiyatiga ko'ra nafaqat ayrim kishilarning manfaatlariga, balki butun insoniyat taqdiriga daxldordir.

Ikkinchidan, ularni bartaraf etish uchun butun sayyora aholisi hech bo'lmasa aksariyat qismining kuch-g'ayratini birlashtirish va ular bahamjihat, izchil ish ko'rishi talab etiladi.

Uchinchidan, bu muammolar dunyo rivojlanishining obyektiv omili hisoblanadi va biron-bir mamlakat ularni e'tiborga olmasligi mumkin emas.

To'rtinchidan, global muammolarning echilmagani kelajakda butun insoniyat va uning yashash muhiti uchun jiddiy, balki tuzatib bo'lmaydigan oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Qayd etilgan mezonlardan tashqari ba'zan global muammolarning boshqa bir qator xususiyatlari ham ko'rsatiladi. Xususiy, mahalliy va mintaqaviy muammolardan farqli o'laroq, global muammolar nisbatan turg'unroqdir. Ular globallikning yuqorida sanab o'tilgan barcha mezonlariga mos kelishdan oldin zimdan va uzoq shakllanadi, echilishiga qarab esa (nazariy jihatdan) quyiroq darajaga tushib, dunyo miqyosida o'z ahamiyatini yo'qotishi mumkin. Ammo tendentsiyalarni teskari yo'nalishda o'zgartirish kamida butun jahon hamjamiyatining izchil harakatlarini talab etuvchi o'ta og'ir ish bo'lib, hali bunga erishilganicha yo'q. Global muammolar mavjudligining nisbatan qisqa tarixiga

nafaqat ularning quyiyoq darajaga tushishi, balki susayish hollari ham ma'lum emasligining sababi ana shundadir.

Global muammolarning boshqa bir muhim xususiyati – ularning barchasi bir-biriga shu darajada bog'liqlik, ulardan birini echish hech bo'lmasa unga boshqa muammolarning ta'sirini hisobga olishni nazarda tutadi.

Global muammolarning tasnifi. Global muammolarning keltirilgan mezonlari va o'ziga xos xususiyatlari asosan mazkur sohadagi aksariyat tadqiqotchilarning qarashlarini aks ettiradi va global muammolarni boshqa barcha muammolardan farqlab, aniq aytish imkonini beradi. Bunda u yoki bu muammoning keskinlik va muhimlik darajasini belgilash, uning boshqa muammolar bilan o'zaro nisbatini aniqlash uchun odatda turli tasniflashlar amalga oshiriladi, ular alohida guruhlariga ajratiladi.

Tasniflash birdan-bir maqsad hisoblanmaydi, balki hozirgi davrning o'ta keskin ziddiyatlarini kompleks o'rganishning muhim elementi sifatida amal qiladi va mazkur muammolarni ularning o'zaro aloqasi va bir-birini taqozo etishi nuqtai nazaridan o'rganish imkonini beradi. U muhim aloqalarni farqlash, ustuvorliklarni va obyektiv mavjud global muammolarning keskinlashuv darajasini aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, tasniflash global muammolarning tizimli o'zaro aloqasini yanada teranroq tushunishga ko'maklashadi va amaliy qarorlar qabo'l qilish ketma-ketligini belgilashga yordam beradi.

Izchil va aniq amalga oshirilgan tasniflash bilishning mazkur sohasidagi avvalgi tadqiqotlarni ma'lum darajada sarhisob qiladi va ayni vaqtda bunday tadqiqotlarning rivojlanishida yangi bosqich boshlanganini qayd etadi.

Hozirgi vaqtda global muammolarni tasniflashga nisbatan har xil yondashuvlar orasida ayniqsa keng e'tirof etilgan tasnifga muvofiq global muammolarning barchasi ularning keskinlik darajasi va echimining ahamiyatiga, shuningdek real hayotda ularning o'rtasida qanday sababiy bog'lanishlar mavjudligiga qarab uch katta guruhga ajratiladi.

*Birinchi guruh*ni eng katta umumiylik va muhimlik darajasi bilan tavsiflanadigan muammolar tashqil etadi. Ular turli davlatlar o'rtasidagi munosabatlardan kelib chiqadi. Ayni shu sababli ular interijtimoiy global muammolar deb ataladi. Bu erda *jamiyat hayotidan urushni bartaraf etish va adolatli dunyoni ta'minlash; yangi xalqaro iqtisodiy tartib o'rnatish* kabi ikki o'ta muhim muammo farqlanadi:

Ikkinchi guruh jamiyat va tabiatning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan muammolar bo'lib, ular odamlarni energiya, yonilg'i, chuchuk suv, xom ashyo resurslari va shu kabilar bilan ta'minlash kabilardir. Bu guruhga ekologik muammolar, shuningdek Jahon okeani va kosmik fazoni o'zlashtirish ham kiradi.

Nihoyat, *uchinchi guruh*ni «inson – jamiyat» tizimi bilan bog'liq muammolar tashqil etadi. Bo'lar demografiya muammosi, sog'liqni saqlash, ta'lim, xalqaro terrorizm tahdidi masalalari va h.k.

U yoki bu muammoning muayyan guruhga kiritilishi ma'lum darajada shartli xususiyat kasb etadi va muhim omillarga, ularni ajratish asoslariga bog'liq bo'ladi. SHu sababli har qanday shunday tasnif masala echimining uzil-kesil varianti sifatida emas, balki murakkab tizimni qayta to'zishning global muammolar o'zaro

aloqasi tabiatini yaxshiroq tushunishga ko'maklashadigan usullaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Endi butun insoniyatga jiddiy xavf tug'dirayotgan eng muhim muammolarga qisqacha tavsif beramiz.

Asosiy global muammolar tizimi. Hozirgi davrning global muammolari o'z holatini vaqtda tinimsiz o'zgartiradigan yagona, faol va ochiq tizim hisoblanadi, chunki unga umuminsoniy ahamiyatga molik bo'lgan yangi muammolar kirishi, avvalgi muammolar esa, ularning echilishiga qarab, yo'qolishi mumkin. Rim klubining asoschisi va birinchi prezidenti A.Pechcheyi bu holatga e'tiborni qaratib, insoniyat qarshisida ko'ndalang bo'lgan aksariyat muammolar «bir-biri bilan mahkam chirmashib oldi, ulkan sprut changali yanglig' butun sayyorani o'z iskanjasiga olmoqda... echilmagan muammolar soni o'sib bormoqda, ular yanada murakkabroq tus olmoqda, ularning chirmashuvi yanada chigallashmoqda, ularning «iskanjasi» esa sayyoramizni o'z changalida tobora qattiqroq siqmoqda», deb yozgan ed

Ammo global ziddiyatlar tuguni qanchalik chigal bo'lmasin, uni fan va falsafa yordamida echish, ya'ni sababni oqibatdan, muhim tafsilotlarni ikkinchi darajali tafsilotlardan, obyektivni subyektivdan farqlash uchun nazariy jihatdan anglab etish lozim. Dunyo miqyosidagi jarayonlarga ta'sir ko'rsatish uchun odamlarning imkoniyatlari va resurslari cheklanganini hisobga olib, muammolarning qaysi biri darhol echishni talab qilishi va qaysi biri ikkinchi darajali ahamiyat kasb etishini ham farqlash muhimdir.

Demografik muammo. Hozirgi vaqtda insoniyatning eng muhim muammolari orasida, aksariyat davlatlar va mintaqalarda aholi haddan tashqari ko'payishiga sabab bo'layotgan aholining nazoratsiz o'sishi qayd etiladi. Ayrim mutaxassislarining baholashlariga ko'ra, sayyorada mavjud energetika, xom ashyo, oziq-ovqat va boshqa resurslar Erda faqat bir milliardga yaqin kishi («oltin milliard») munosib hayot kechirishini ta'minlashi mumkin. Vaholanki, oxirgi ming yillik mobaynida sayyoramiz aholisi 15 baravar ko'paydi va bugungi kunda 6 milliard kishidan oshib ketdi. Bunda nafaqat miqyos, balki aholining o'sish sur'atlari ham aqlni lol qoldiradi. Xususan, birinchi ikki baravar ko'payish 700 yil ichida, ikkinchisi – 150 yil ichida, uchinchisi – 100 yil ichida va oxirgisi – 40 yildan kamroq vaqt ichida yuz berdi. SHuni aytishning o'zi kifoyaki, 1956 yil Erda 2,8 milliard kishi yashagan bo'lsa, XX asr oxiriga kelib bu raqam 6 milliardga etdi.

XX asrda er kurrasi aholisining «demografik portlash» deb nomlangan mislsiz darajada o'sishi biologik qonunlarning emas, balki stixiyali, notekis ijtimoiy rivojlanish va insoniyat katta mashaqqatlar bilan bartaraf etishga harakat qilayotgan chuqur ijtimoiy ziddiyatlar mahsuli bo'ldi. Bu avvalo rivojlanayotgan mamlakatlarga tegishli bo'lib, ularga jahon aholisi o'sishining o'ndan to'qqiz qismidan ko'prog'i to'g'ri keladi. Bu erdagi vaziyat rivojlangan mamlakatlarga XX asr boshidayoq xos bo'lgan o'lim darajasining yuqoriligi va butun insoniyatga XVIII asrga xos bo'lgan tug'ilish darajasining yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Ayni vaqtda mehnat unumdorligi darajasi va aholi jon boshiga olinadigan daromad miqdoriga, qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorlik darajasi va qishloq xo'jaligining

samaradorligiga, aholining savodxonlik darajasi va umumiy madaniy saviyasiga ko'ra bu mamlakatlar xalqlarining aksariyati hali XIX asrda yashamoqda.

Demografik muammolar juda murakkab va o'ta turg'un bo'lib, ularni tez bartaraf etish mumkin emas. Ayni vaqtda ularni echish kechga surilgani sari, ular yanada murakkabroq va chigalroq tus oladi. SHu sababli rivojlanayotgan mamlakatlarda barcha hukumatlar tug'ilish darajasini pasaytirishga qaratilgan demografik siyosatni amalga oshirishga harakat qilmoqda. Jumladan O'zbekistonda 1995 yilda "Oilani rejalashtirish" davlat dasturi qabo'l qilindi. Bu dasturda har bir oilada farzand tug'ilishini rejalashtirishning ona va bola sog'ligini asrashga yo'naltirilgan sa'y harakatlardan biri bo'lishi bilan bir qatorda, mamlakatda demografik portlashning oldini olish vazifasini bosqichma-bosqich amalga oshirish ko'zda tutilgan. Bu borada barcha viloyatlarda, qishloq va ovullarda reproduktiv salomatlik bo'yicha targ'ibot ishlari olib borilmoqda.

Mazkur muammo rivojlangan mamlakatlarda ham keskinlashdi, lekin bu erda uning aks ko'rinishiga duch kelish mumkin. Umr uzunligining va keksa odamlar sonining o'sishi jarayonida hatto aholining oddiy ko'payishini ham ta'minlamaydigan tug'ilish darajasining pasayishi kuzatilmoqda. Ayni holda depopulyatsiya, ya'ni aholi sonining kamayishi to'g'risida so'z yuritiladiki, (Rossiya aholisi o'rtacha 54 yoshni tashqil qiladi,)bu ham milliy manfaatlar, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish, pensiya ta'minoti va shu kabilarga tegishli qo'shimcha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Rossiyadagi hozirgi demografik jarayonlar bunga yorqin misol bo'ladi.

Ta'lim muammosi. Demografik portlash sabablari ta'lim muammosi bilan uzviy bog'liq. So'nggi vaqt ichida jahonda savodsizlar soni foiz hisobida kamaygan bo'lsa, mutlaq hisobda o'sishda davom etmoqda. Bunda ma'lumotsiz odamlarning hayoti amalda ko'p bolalikni xurofiy aqidalar bilan oqlaydigan arxaik oilaviy an'analarga bo'ysunadi. Pirovardida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi tafovut bu jihatdan ham ortishda davom etmoqda. Hozirgi vaqtda ajabtovur vaziyatni kuzatish mumkin: savodxonlik mutlaq raqamlarda o'sayotgan bir paytda, savodsizlar, ya'ni o'qish, yozish, oddiy arifmetik amallarni bajarishni bilmaydigan odamlar soni ham o'sib bormoqda (Hindiston aholisining 70%, Pokiston aholisining 60%, Afrika mamlakatlari aholisining 80% savodsiz).

SHu bilan bir qatorda aksariyat odamlarning ma'lumot darajasi yangi texnologiyalar va kompyuter texnikasidan keng foydalanuvchi hozirgi jamiyatda to'laonli yashash va mehnat qilish imkonini bermasligi bilan bog'liq *funksional savodsizlik* ham o'sib bormoqda.

Bu muammoning boshqa bir jihati shundan iboratki, jahonning aksariyat davlatlarida ta'lim olish imkoniyati barchaga teng darajada ta'minlanmagan bo'lib, bu ijtimoiy keskinlikning qo'shimcha manbai hisoblanadi. SHuningdek hozirgi davrda ta'lim sifatini yaxshilash, unnig mazmunini ijtimoiylashtirish masalasi ko'ndalang bo'lib turmoqda. SHuni alohida ta'kidlash lozimki ta'limning ijtimoiylashuvi o'quv jarayonida gumanitar fanlarning o'quv soatlari yoki fanlar sonini ko'paytirish emas balki, tabiiy ilmiy fanlar mazmunini gumanitarlashtirish, har qanday ilmiy kashfiyotni inson manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirish lozim. SHundagina inson o'z mavjudligini saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Sog'liqni saqlash. Aholi soni va uning yashash sharoiti, shuningdek atrof muhit holati hozirgi davrning yana bir global muammosi bilan uzviy bog'liq. Aksariyat kasalliklar va atrof muhitdagi antropogen o'zgarishlar o'rtasida bevosita va bilvosita aloqa mavjud. Hozirgi odamlar avlodiga atrof muhit ifloslanishining hali o'rganilmagan yoki kam o'rganilgan ko'p sonli fizik (avvalo elektromagnit), kimyoviy va biologik omillari ta'sir ko'rsatmoqda. Avvalo, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar aholisi kasalliklarining tarkibi va xususiyatida yuz bergan o'zgarishlar ayni shu hol bilan izohlanadi.

Bu erda yuqumli kasalliklar bartaraf etilgan bo'lib, odamlar o'limining asosiy sabablari hisoblanmaydi. Lekin yurak-qon tomir kasalliklari, ruhiy kasalliklar sezilarli darajada ko'paydi, «tsivilizatsiya kasalliklari» deb nomlangan butunlay yangi kasalliklar: rak, OITS va boshqalar paydo bo'ldi. Bunday kasalliklar, xususan yurak-qon tomir kasalliklari o'sishining asosiy sabablari kam harakatchan turmush tarzi, semirish, chekish, ruhiy zo'riqish, stress holatlari ekanligi aniqlangan. Bu hodisalar insonga tabiatning qudratli kuchlarini jilovlash va o'zini jismoniy mehnatdan asosan xalos etish, mazkur ishni mashinalar, texnika vositalariga yuklab, o'ziga asosan aqliy mehnat, tartibga solish va nazorat qilish funksiyalarini qoldirish imkonini bergan XX asr tsivilizatsiyasining rivojlanish mahsulidir.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda boshqacha vaziyatni kuzatish mumkin: bu erda kasalliklardan azob chekayotganlar soni rivojlangan mamlakatlardagidan ko'proq, kasallikning oldini olish yoki davolanish imkoniyati esa sezilarli darajada kamroqdir. Tibbiyot sifatining pastligi, qashshoqlik va antisanitariya tufayli rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalar o'limi, bezgak, sil, traxoma, qoqshol bilan kasallanish darajasi, epidemik yuqumli kasalliklarning paydo bo'lish ehtimoli rivojlangan mamlakatlardagi holat bilan taqqoslab bo'lmaydigan darajada yuqoridir.

So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha yurak qon—tomir kasalliklari kun sayin ortib bormoqda. Bunday kasalliklar aksariyat hollarda o'lim bilan tugaganligi sababli jamiyat uchun katta tahdid sanaladi. Butunjahon sog'liqni saqlash tashqiloti (WHO) hisobotiga ko'ra, 2005 yilda yurak qon-tomir kasalliklaridan 17,5 million inson vafot etgan. Ushbu ko'rsatgich barcha o'lim holatlarining 30 foizini tashqil qiladi. SHu jumladan, 7,6 million kishi yurak ishemik kasalligidan 5, 7 million kishi insult oqibatida hayotdan ko'z yumgan Hozirgi vaqtda o'rnatilgan internatsional aloqalar natijasida davlatlar o'rtasidagi ulkan yuk oqimlari, odamlarning faol migratsiyasi va kengaygan iqtisodiy munosabatlar olamshumul xususiyat kasb etdi va ko'pgina yuqumli kasalliklarning tarqalish tezligini oshirdi. *Notipik zotiljam, qush grippi, cho'chqa grippi* kabi ilgari hech qachon mavjud bo'lmagan, yangi kasalliklarning paydo bo'lishi sabablarini ham ayni shu erdan izlash lozim. Ayni paytda shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, XX-XXI asrda yangi kasalliklar soni ko'payib borsada, kasalliklarga qarshi ko'rash vositalari ham takomillashib bormoqda. Jumladan XXI asr fanining eng katta yutug'i sifatida 2008 yilda nemis olimi G.Hareld tomonidan bachadan saratoni kasalligini keltirib chiqaruvchi sabab aniqlandi va unga qarshi emlash vositasi yaratildi. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda 12-14 yoshdagi qizlarda bachadon saratoni kasalligiga qarshi faoliyat keng ammalga oshirilmoqda. Bu bilan

dunyo bo'yicha har yili 17 mingta ayolning ushbu xastalikdan halok bo'lishi kamayadi.

Oziq-ovqat muammosi. Ommaviy kasalliklar va umrning sezilarli darajada qisqarishi sabablaridan biri oziq-ovqat muammosidir. Xususan, surunkali to'yib ovqat emaslik va nomutanosib ovqatlanish kam rivojlangan mamlakatlar aholisida ommaviy tarzda namoyon bo'layotgan muttasil oqsil ochligi va vitamin taqchilligiga olib kelmoqda. Natijada jahonda har yili ochlikdan bir necha o'n millionlab odamlar, kattalardan ko'ra ko'proq bolalar halok bo'lmoqda. Oziq-ovqat taqchilligiga duch kelgan mamlakatlar uni import qilishga majbur, lekin bu, odatda, ocharchilikka qarshi ko'rashda kam samara beradi va bundan tashqari, mazkur mamlakatlarni eksportchilarga qaram qilib qo'yadi. SHu tariqa g'alla ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tazyiq o'tkazishning samarali vositasiga va mohiyat e'tibori bilan, avvalo eng qashshoq mamlakatlarga qarshi «oziq-ovqat quroli»ga aylanadi.

1960-yillarda oziq-ovqat muammosini echish rivojlanayotgan mamlakatlar uchun «yashil inqilob»ni amalga oshirish bilan bog'langan edi. Bu tadbirning mohiyati bug'doy va sholining o'ta unumli yangi navlaridan foydalanib, qishloq xo'jalik mahsuldorligini keskin oshirishdan iborat edi. Buning uchun qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini zamonaviy texnologiyalar yordamida modernizatsiya qilish mo'ljallandi. «YAshil inqilob» aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarda qabo'l qilindi, lekin amalda ham ijobiy, ham salbiy oqibatlariga olib keldi. Qishloqni qayta tashqil etish uchun tegishli ijtimoiy shart-sharoitlar va buning uchun zarur mablag'lar mavjud bo'lgan davlatlarda u ijobiy samara berdi. Ammo bunday mamlakatlar uncha ko'p emas, masalan Hindiston, Pokiston shular jumlasidan. Texnika va o'g'itlar harid qilish uchun mablag'lar mavjud bo'lmagan, aholining ma'lumot darajasi juda past bo'lgan, turg'un an'analar va xurofiy aqidalar xo'jalik yuritishning ilg'or shakllarini amalga joriy etishga to'sqinlik qilgan o'ta qoloq mamlakatlarda esa «yashil inqilob» samara bermadi. SHuningdek, u odatdagi mayda xo'jaliklarni vayron qila boshladi, qishloq aholisining shaharga migratsiyasini kuchaytirdi. «YAshil inqilob» eski qishloq xo'jaligi o'rnida yangi, zamonaviy qishloq xo'jaligini barpo eta olmadi, ya'ni eski uyni bo'zib, uning o'rnida yangi imorat qura olmadi, bu esa oziq-ovqat muammosini yanada keskinlashtirdi.

Iqtisodiy rivojlanishning notekisligi. Rivojlanayotgan mamlakatlarni qoloqlikdan chiqarish va yangi xalqaro iqtisodiy tartib o'rnatish hozirgi davrning global muammolari orasida alohida o'rin egallaydi, chunki bu erda vujudga kelgan xalqaro munosabatlar tizimi beqarorlashuvining kuchli omillari yashirilib yotadi. So'nggi yillarda dunyo miqyosida yalpi mahsulot ishlab chiqarish o'sgani holda, boylar va kambag'allar, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi ulkan tafovut yanada oshdi. Bu muammo ba'zan «boy SHimol» va «qashshoq Janub» o'rtasidagi qarama-qarshilik sifatida ham tavsiflanadi.

1960-yillarda aksariyat mamlakatlarning to'g'ridan-to'g'ri mustamlaka qaramligidan xalos bo'lish jarayoni yangi, lekin o'zgacha tusdagi qaramlik o'rnatilishiga olib keldi. Urushdan keyingi davrda jahon savdosining o'sishi va davlatlararo aloqalarning kuchayishi yuz berdi. Ayni vaqtda G'arb davlatlari

iqtisodiyotida monopoliyalashuv jarayoni kuchaydi va transmilliy korporatsiyalar paydo bo'la boshladi. Ular arzonroq ishchi kuchi topish va atrof muhitni muhofaza qilishga qo'shimcha harajatlardan qutulish maqsadida mehnat sarfi katta bo'lgan va ekologik jihatdan iflos ishlab chiqarishlarni rivojlanayotgan mamlakatlarga eksport qila boshladilar. Bu hol, bir tomondan, rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda atrof muhitni himoya qilish uchun ommaviy harakatning faollashuvi va ekologik qonunchilikning yanada qattiqlashuvi bilan, boshqa tomondan esa, rivojlanayotgan mamlakatlar o'zining qashshoqligi tufayli, qattiq ekologik me'yorlar va bu bilan bog'liq cheklov choralari joriy etishni o'ziga doim ham ep ko'ra olmasligi bilan izohlanar edi.

So'nggi o'n yilliklarda vaziyat yana rivojlanayotgan mamlakatlar zarariga o'zgara boshladi. Rivojlangan mamlakatlarda jamiyat hayotining barcha jabhalariga va iqtisodiyotga kompyuterlar va mikroelektronika jadal sur'atlarda joriy etila boshladi. SHuningdek texnologik novatsiyalar va yangi (yuksak) texnologiyalar roli ham sezilarli darajada oshdi, bu esa ishlab chiqarishga ma'lumotli, malakali ishchi kuchini jalb qilishni taqozo etdi. SHu sababli iqtisodiy o'zaro aloqalar va jahon savdosi asosan iqtisodiy rivojlangan davlatlar o'rtasidagi almashinuv hisobiga amalga oshirila boshlandi, rivojlanayotgan mamlakatlar esa, agar ular ko'p miqdorda xom ashyo resurslariga ega bo'lmasa, jahon bozoridan siqib chiqarildi.

Energetika va xom ashyo resurslari. YAna bir global muammo – insoniyatni energetika va xom ashyo resurslari bilan ta'minlash xalqaro maydonda ko'p sonli ziddiyatlar, shu jumladan harbiy mojarolar manbaiga aylandi. Bu resurslar moddiy ishlab chiqarishning negizi hisoblanadi va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga qarab inson hayotida tobora muhimroq rol o'ynaydi.

Mazkur resurslar *tiklanadigan*, ya'ni tabiiy yoki sun'iy yo'l bilan tiklash mumkin bo'lgan resurslarga (gidroenergiya, yog'och, quyosh energiyasi va h.k.) va miqdori mavjud tabiiy zahiralalar bilan chegaralangan *tiklanmaydigan* resurslarga (neft, ko'mir, tabiiy gaz, har xil rudalar va minerallar) bo'linadi.

Hozirgi iste'mol sur'atlari saqlangan taqdirda tiklanmaydigan resurslarning aksariyati insoniyatga bir necha o'n yillardan bir necha yuz yillargacha bo'lgan muddat bilan o'lchanadigan yaqin kelajakda foydalanishgagina etishi hisoblab chiqildi. SHuningdek mavjud zaxiralarning anchagina qismi murakkab sharoitda joylashgan konlarda jamlangan yoki nisbatan qashshoq rudalardan iborat.

YAqindagina odamlar aksariyat foydali qazilmalarni ochiq usulda yoki 600 m dan oshmaydigan chuqurlikda qazib olgan bo'lsalar, bugungi kunda vaziyat sezilarli darajada o'zgardi. Qulay joylardagi foydali qazilmalar tugab bormoqda va endilikda 8-10 km chuqurlikda yoki okean tubida joylashgan konlarni ishga solish vazifasi paydo bo'lmoqda. Bu esa nafaqat ko'p miqdorda kapital qo'yilmalarni, balki ularni qazib chiqarish va qayta ishlash uchun yangi texnika va texnologiyalar yaratishni ham taqozo etadi. SHu sababli chiqindisiz texnologiyalarni rivojlantirish bilan bir qatorda insoniyat ixtiyorida mavjud resurslardan oqilona foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Urush va tinchlik muammosi. Harbiy soha jamiyat hayotining eng isrofgar sohasi hisoblanadi. Ayni shu sababli jamiyat hayotidan urushni bartaraf etish va Erda mustahkam tinchlikni ta'minlash butun dunyoda mavjud barcha global

muammolar orasida eng muhimi deb e'tirof etiladi. Uning keskinligi barcha zamonlarda hech qachon pasaymagan bo'lsa-da, XX asrda u nafaqat ayrim kishilar, xalqlar, balki butun insoniyat oldiga «o'lish yo qolish?» degan mudhish savolni qo'yib, alohida, fojeaviy mazmun va ahamiyat kasb etdi.

Bu hol ilgari mavjud bo'lmagan imkoniyat – Erdagi hayotni yo'q qilish imkoniyatini yaratgan yadro quroli paydo bo'lishi bilan izohlanadi. YAdro quroli 1945 yil avgustda (Xirosima va Nagasaki) ilk bor qo'llanilgan paytdan e'tiboran mutlaqo yangi davr – inson hayotining barcha jabhalari: siyosat, iqtisod, tafakkurda, jahon maydonidagi kuchlar nisbatida tub o'zgarishlar yasagan yadro davri boshlandi. Ammo muhimi shundaki, mazkur davrdan e'tiboran nafaqat ayrim inson, balki butun insoniyat o'lishi mumkin bo'lib qoldi. Teyyar de SHarden yangi vaziyatga baho berar ekan, shunday deydi: «Bir individ o'lsa, uning o'rnini doim boshqa bir individ egallaydi. Individning o'limi hayotning davom etishiga to'siq bo'la olmaydi. Ammo butun insoniyat o'lsa-chi?..» 1940-yillarning oxirida ta'riflangan bu masala vaqt o'tishi bilan ayniqsa muhim ahamiyat kasb etdi. Atom bombasi paydo bo'lishi bilan «qiyomat-qoyim» xom-xayol bo'lmay qoldi. O'sha davrda yangi ixtironing butun xavfini ko'pchilik hali tushunmagan, ayrim faylasuflar va olimlar yadro urushi tahdid solayotgan sharoitda odamlar o'zining o'zgargan holatini anglab etishlari va insoniyat halok bo'lishining oldini olish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanishlari lozimligi haqida ogohlantirgan edi. Albatta, o'zini o'zi qirib tashlash imkoniyati odamlarda darhol paydo bo'lgani yo'q. YAdro qurolini yaratish va uni butun tiriklikni qirib tashlash uchun etarli miqdorda jamg'arish uchun vaqt, juda katta moddiy, moliyaviy va boshqa harajatlar, shuningdek jahonning turli mamlakatlaridagi olimlar, muhandislar va ishchilar ko'p millionli armiyasining kuch-g'ayrati talab etildi. Ammo birinchi yadro portlashlaridan so'ng yuzaga kelgan vaziyatning jiddiyligini jahon hamjamiyatining keng davralari anglab etishi uchun ham qariyb 30 yil vaqt o'tishi kerak bo'ldi.

AQSH va Sovet Ittifoqida bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda ish olib borgan olimlar ikki jamoasi tadqiqotlarining aqlni lol qoldiruvchi natijasi bo'lgan «yadro qishi» kontseptsiyasi paydo bo'lgan 1980-yillarning boshiga kelibgina insoniyat yadro quroli yaratilishi, shuningdek global muammolar paydo bo'lishi bilan u o'zining avvalgi «umrboqiyli»ni yo'qotganini uzil-kesil anglab etdi.

Kompyuterda yaratilgan modellarda ancha aniq hisoblab chiqilgan mazkur kontseptsianing asosiy mazmuni shundan iboratki, jahonda Erdagi hayotni butunlay yo'q qilish uchun etarli miqdorda yadro zaryadlari to'plangan. Ular portlatilgan taqdirda to'g'ridan-to'g'ri shikastlantiruvchi ta'sirdan tashqari havoga son-sanoqsiz miqdorda chang, tutun va kul ko'taradi va ularning qalin pardasi sayyoramizni quyosh nurlaridan butunlay to'sib qo'yadi. Bu atmosfera va Er yuzasining temperaturasi keskin pasayishiga sabab bo'ladi va uni muz bosishiga olib keladi. «YAdro qishi» kontseptsiyasi odamlarni ular yangi xavf darajasini anglab etishga va tsivilizatsiyani qutqarish uchun harbiy kuch ishlatishdan voz kechib, choh yoqasidan uzoqlashishga qodirmi, degan savolga javob berishda muqobildan uzil-kesil mahrum qildi. Muhokama qilinayotgan muammoning boshqa bir o'ziga xos xususiyati shundaki, u mohiyati va hozirgi holati «Tabiat falsafasi» mavzusida ko'rib chiqilgan ekologiya bilan uzviy bog'liq. Biz fan-texnika taraqqiyoti darajasi

ekologik tanglikni bartaraf etish borasidagi imkoniyatlarni belgilashini qayd etgan edik, ammo qurol-yarog'larning vayronkor imkoniyatlari, ularning shakllari, qo'llash metodlari va usullarining rang-barangligi ham ayni shu darajaga bog'liq bo'ladi. Boshqacha aytganda, inson o'z hayotini tabiat bilan uyg'unlikda yo'lga qo'yish imkoniyatlarini qo'lga kiritish bilan bir qatorda butun tiriklikni yo'q qilish qobiliyatini ham ko'p karra oshirdi. Jamiyatning harbiylashuvi, qurollanish poygasi va harbiy mojarolarning salbiy oqibatlari atrof muhitning bo'zish jarayonlarini yanada jadallashtirmoqda. Yadro quroli bilan bir qatorda urush olib borishning «geografik» vositalari ham oldindan aytib bo'lmaydigan oqibatlardan iborat alohida xavf tug'diradi. Bu oqibatlar inson sun'iy yo'l bilan tabiiy ofatlar, vayrongarchiliklar va shu kabilarga erishish maqsadida tabiiy jarayonlarga izchil ta'sir ko'rsatishi natijasida kelib chiqishi mumkin. Urush harakatlari olib borishning bunday usullari, masalan muayyan hudud ustidagi ozon qatlamini ataylab vayron qilish va shu kabilar yadro qurolining qo'llanilishi bilan teng oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda harbiy qarama-qarshilik ma'lum darajada susayganiga qaramay, aksariyat mamlakatlarda mudofaa va atrof muhitni muhofaza qilish harajatlarida ulkan nomutanosiblik hanuzgacha saqlanib qolmoqda. Bu tafovut mudofaa foydasiga ba'zan ellik baravar va undan ko'proq darajaga etadi. Bu hol «uchinchi dunyo» mamlakatlarida ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Bu erga, bir tomondan, qurol-aslaha, boshqa tomondan esa – murakkab ekologik vaziyatni yanada og'irlashtiruvchi eskirgan asbob-uskuna va noekologik texnologiyalar tobora ko'proq etkazib berilmoqda. Natijada ifloslanish va tabiatning zavol topish sur'atlari bu erda rivojlangan mamlakatlardagidan ancha yuqoridir. Qurollanish poygasi nafaqat ulkan moddiy resurslarni, balki mehnat resurslari, intellektual resurslarni ham behuda sarflamoqda. Butun dunyoda olimlarning to'rtidan bir qismi, odatda, eng malakali qadrlar urushga tayyorgarlik ko'rish borasidagi ishlarga jalb qilingan bo'lib, ularning bilim va ko'nikmalari vayronkorlik vositalarini yaratishga yo'naltirilgan. Ammo olimlar insoniyat duch kelgan xavf darajasini birinchi bo'lib (ularning eng ilg'or vaqillari) anglab etdilar. Qurollanish poygasi avj ola boshlagan 1955 yilda taniqli ingliz faylasufi *B.Rassel* tinchlik va qurolsizlanish uchun ko'rash tashabbusi bilan chiqdi. U *A.Eynshteyn* bilan hamkorlikda *F.Jolio-Kyuri*, *M.Born*, *S.Pauell*, *L.Infeld* va boshqa yirik olimlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan mashhur Manifestni e'lon qildi. Bu Manifestda insoniyat unga tahdid solayotgan xavf haqida ogohlantirildi, shuningdek yadro asrida tsivilizatsiyani asrab qolish uchun «yangicha fikrlashni o'rganish» lozimligi uqtirildi. B.Rassel nafaqat xavf-xatarlar haqida ogohlantirdi, balki ularni echish yo'llarini ham taklif qildi. Xususan, u barcha urushlarga chek qo'yishi lozim bo'lgan jahon hukumatini tashqil etish g'oyasini ilgari surdi. Uning fikricha, BMT bunday hukumat negizi bo'lishi mumkin. U shuningdek davlatlar o'rtasidagi nizoli masalalarni tinch yo'l bilan echish uchun jahon konferentsiyasi chaqirishni talab qildi. Tinchlik, qurolsizlanish va xalqaro xavfsizlik uchun ko'rash boshlagan jahon ilmiy hamjamiyati bu borada o'z kuch-g'ayratini birlashtirish lozimligini anglab etdi va 1957 yilda Pagoush (Kanada)da o'z tarafdorlarining birinchi konferentsiyasini o'tkazdi. Pagoush harakati deb nomlangan bu tashqilot tinchlik uchun ko'rash olib boruvchi nufo'zli xalqaro

tashqilotlardan biriga aylandi. Endilikda unga hozirgi globallashuv muammolari va nomutanosibliklarini bartaraf etish yo'lida ko'rash olib borayotgan boshqa ko'p sonli tashqilotlar va harakatlar (Grinpis, Rim klubi, antiglobalistlarning harakatlari va boshqalar) qo'shildi. Tinchlik va qurolsizlantirish, xalqaro terrorizmga qarshi birgalikdagi ko'rash g'oyasini 1993 yilda I.A. Karimov BMTning 48 sessiyasida taklif qilgan edi. O'zbekistonda 1999 yil 16 fevral voqealari, 2001 yil 11 sentyabrda AQSHning markazida ko'p qavatli savdo uyining portlatishi, CHechenistondagi cheksiz terrorchilik harakati natijasidagi minglab qurbonlar I.A. Karimovning nechog'lik haqligini yana bir karra isbotladi.

Global ongni shakllantirish zaruriyati. Globallashuv jarayonlarini nazariy jihatdan anglab etish va global muammolarni bartaraf etish nafaqat o'ta og'ir va uzoq davom etadigan, balki kutilgan natijalarga qanday erishish mumkinligi xususida hali aniq javoblar va uzil-kesil echimlarga ega bo'lmagan ishdir. Ayni vaqtda aksariyat tadqiqotchilar global tangliklarni bartaraf etish imkoniyatini ommaviy ongda yangicha axloqning shakllanishi va mustahkamlanishi, madaniyatning rivojlanishi va uning insonparvarlashuvi bilan bog'lamoqdalar. Buning uchun jiddiy asoslar bor, zero odamlarning fe'l-atvori, xatti-harakatlari, pirovard natijada esa ular erishishga harakat qiladigan natija asosan ularning hayotga munosabati va fikrlash tarzi bilan belgilanadi.

Ayni vaqtda asrlar mobaynida saqlanib qolayotgan dunyo haqidagi tasavvurlarni o'zgartirish, qotib qolgan fikrlash andozalarini bartaraf etish va odamlar ongida insoniylikning yangicha tamoyillarini shakllantirishning o'zi umuminsoniy muammolar echimi emasligi ham ravshan. Bu mazkur muammolarni bartaraf etish yo'lidagi zarur, lekin faqat birinchi qadam va u muttasil o'zgaruvchi vaziyatga mos bo'lgan va hozirgi davr ruhini aniq aks ettiradigan dunyoqarashning shakllanishi bilan bog'liq. Bunday yangilangan dunyoqarash zamirida faqat so'nggi yuz yillikka xos bo'lgan jamiyat hayoti internatsionallashuvining keskin o'sishi bilan belgilanadigan ijtimoiy munosabatlarning yangicha mazmuni va shakl-shamoyillarini aks ettiruvchi yangicha insoniylik yotishi lozim. Mazkur yangicha insoniylik global ongni shakllantirishga qaratilishi va kamida uch asosiy negiz: globallik tuyg'usi, zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik va insonning asosiy huquqlarini tan olishdan kelib chiqadigan adolatparvarlikni o'z ichiga olishi darkor.

Xalqaro kuchlarning birlashuvi. Odamlar dunyoqarashi nafaqat ularning dunyo haqidagi bilimlarida, balki ular bu bilimni qanday talqin qilishi, qanday xulosalar chiqarishi va qanday ish ko'rishida ham namoyon bo'ladi. SHu sababli global muammolarni butun dunyo bahamjihat va zudlik bilan hal qilishi lozimligi to'g'risida so'z yuritir ekanmiz, insoniyat nazariyada muayyan yutuqlarga va ba'zi bir amaliy natijalarga erishgan holda, dunyo rivojlanishining salbiy jarayonlarini to'xtatishga hali muvaffaq bo'lmaganini e'tibordan chetda qoldirishimiz mumkin emas. Xalqaro kuchlarning lozim darajada birlashuvi, ularning muvofiqlashtirilgan, izchil va eng muhimi, samarali harakatlari ham hali mavjud emas. Nega shunday bo'lyapti va bunga nima xalaqit beryapti? Hozirgi rang-barang va ziddiyatlarga to'la dunyoda kelishilgan harakatlarni amalga oshirish mumkinmi? Agar mumkin bo'lsa, bunga qanday asosda erishish mumkin? Bo'lar bugungi kunda ijtimoiy tafakkur, shu jumladan falsafa echishga harakat qilayotgan

bosh masalalardir. Tarixiy tajriba turli xalqlarning yaqinlashuvi ularning manfaatlari mos kelgan joyda ayniqsa yaxshiroq yuz berishini ko'rsatadi. O'zaro manfaatdorlik turli qiyinchiliklarni tez bartaraf etish, savdo-sotiqni faol rivojlantirish, iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni mustahkamlashga ko'maklashadi.

Odatda bu yo'lda engishga to'g'ri keladigan eng katta qiyinchiliklar eskicha qarashlar, qotib qolgan fikrlash uslubi, an'analar bilan bog'liq bo'ladi. Ular o'zgarish xususiyatiga ega, lekin bu juda uzoq, katta qiyinchiliklar bilan va odatda tashqi yoki ichki omillar ta'sirida yuz beradi. Masalan, tashqi omillar qatoriga ekologik tanglikning kuchayishi, «demografik portlash» oqibatlari, urush xavfi va nafaqat odamlarning turmush tarzini sezilarli darajada o'zgartirgan, balki ularning ongiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan boshqa global muammolar kiradi. Ichki omillar inson manfaati, uning subyektiv, shaxsiy asosi bilan bog'liq. U yoki bu muammolarning keskinlik darajasi, hatto buning uchun zarur shart-sharoit va etarli asoslar paydo bo'lgan hollarda ham, nima uchun pasaymayapti, degan savolga javob topishda yuqorida zikr etilgan omillar, ayniqsa manfaat omili albatta hisobga olinishi lozim.

Global muammolarni hal qilishda xususiy va umumiy manfaatlar. Har bir xalq, har bir mamlakat xalqaro munosabatlarning u yoki bu tartibida, davlatlararo savdo oqimlarining yo'nalishi va kapitallarning taqsimlanishida o'z muayyan manfaatiga ega bo'ladi. Ular tabiiy resurslardan foydalanish, atrof muhitni saqlash va shu kabi masalalarda doim o'z manfaatlarini himoya qiladiki, bu ularning siyosatida umumiy masalalarda ham, xususiy masalalarda ham bevosita aks etadi va boshqa mamlakatlar siyosatiga o'xshamasligiga sabab bo'ladi. Ba'zan ichki manfaatlar umumiy manfaatlardan ustunlik qiladi. Bunday hollarda mazkur siyosat boshqa davlatlarning manfaatlariga zid ravishda amalga oshiriladi. Masalan, ekologiya nuqtai nazaridan bu qo'shni hududlarda yashovchi xalqlarning qarama-qarshi manfaatlari to'qnashgan hollarda ko'p kuzatiladi. Ammo hozir, jamiyat hayotining internatsionallashuvi va iqtisodiy aloqalarning o'sib borayotgan integratsiyalashuvi sharoitida, sayyoramizning turli burchaklarida jahon hamjamiyatining yadro urushi, ekologik tanglik, demografik keskinlik va resurslar taqchilligini bartaraf etishdan iborat obyektiv manfaatlarini o'zlarining umumiy manfaati deb biluvchi odamlar soni tobora ko'payib bormoqda. Ma'rifatli siyosiy va jamoat arboblari yanada aniqroq anglab etayotgan kelishilgan harakatlarga bo'lgan bu obyektiv ehtiyoj hozirning o'zidayoq ayrim davlatlar xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatmoqda va hatto ularning ichki va tashqi siyosatini ma'lum darajada belgilamoqda.

Axborot inqilobi. 1981 yilda birinchi shaxsiy kompyuter paydo bo'lishi bilan boshlangan axborot inqilobi (u kompyuter inqilobi deb ham ataladi) jahonning aksariyat mamlakatlarida odamlar turmush tarzini va ularning mehnati xususiyatini butunlay o'zgartirib yubordi. Bu inqilobning o'ziga xos xususiyati shundaki, axborot muhim resursga, hozirgi dunyo jarayonlarini boshqarishning zaruriy omiliga aylandi. Uning natijasi o'laroq, nafaqat chiqindisiz, energiya va resurslarni asrovchi texnologiyalar paydo bo'ldi, balki iqtisodiy faoliyatning o'zi ham ishlab chiqarishning maydalanishi va tabaqalanishi tomonga o'zgardi. Masalan, hozirgi vaqtda AQSH eksportining atigi etti foizi 500 dan ortiq odam ishlaydigan

korxonalarda yaratiladi. Qolgan barcha mahsulotlarni kichik jamoalar, ba'zan bir necha kishi ishlaydigan o'rta va kichik kompaniyalar ishlab chiqaradi. Yangi texnologiyalar va xalqaro mehnat taqsimoti sharofati bilan endilikda global iqtisodiyotda muhim rol o'ynash uchun katta mamlakat bo'lish shart emas. Bunga o'z yutuqlari bilan ham, chuqur iqtisodiy tangliklari bilan ham jahon iqtisodiyotining umumiy holatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatayotgan Singapur, Tayvan, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar misol bo'lishi mumkin. Yangi texnologiyalar va axborot inqilobi odamlarning atrof muhitda, ijtimoiy va siyosiy hayotda yuz berayotgan o'zgarishlar ustidan nazorat olib borish borasidagi imkoniyatlarini ham ko'p karra oshirdi. «Kompyuter shaxsning qudratini kengaytirgan sharoitda fuqarolar o'z hukumatlarining harakatlarini hukumatlar fuqarolarning harakatlarini kuzatganidan samaraliroq kuzatishlari mumkin», deb qayd etadi amerikalik futurologlar *D.Nesbit* va *P.Eburdin*.

XXI asrda insoniyat axborot texnologiyalarining takomillashgan shakli nanotexnologiyalarni yaratdi. Nanotexnologiya-mitti texnologiya bo'lib, uning prototipi tabiatning o'zida mujassam. Ko'zga ko'rinmas bakteriyalar, chumoli, o'rgimchak va shunga o'xshash hasharotlar tabiiy nano jismlardir. Olimlarning bashorat qilishicha 2020 yilda insonni avtomobil haloqatidan saqlaydigan, kayfiyatini ko'taradigan, organizmining qaysi qismi nosog'lom ekanligidan xabar beruvchi nanokiyimlar yaratilib, ular oddiy magazinlarda sotilishi, shuningdek odam organizmiga 20mingda nanorobotlar (ularning kattaligi bitta bakteriya hajmiga teng) yuborilib, kasal organni davolash yoki kesib tashlash imkoniyati bo'lishi bashorat qilinmoqda Biroq hozirgi kunda XX asrning boshida kir yuvish mashinalari, mobil telefonlari, rangli televizorlar, soatiga 2500 km tezlikda uchadigan avialaynerlarning yaratilishiga shubha bilan qaralgani kabi bu taxminlarga ham shubha bilan qaralmoqda.

Inqiroz ildizlari. Ayrim mamlakatlarda ham, butun dunyoda ham barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish texnokratik jamiyat to'zilishi va mohiyatidan kelib chiqadigan katta qiyinchiliklar bilan bog'liq. U kompyuter inqilobi ta'sirida o'zgarganiga qaramay, texnogen tsivilizatsiyaning asosiy shakl-shamoyillarini saqlab qolmoqda va shu sababli hozirda mavjud ko'rinishda nafaqat bunday jamiyat tanqidchilarini, balki texnika taraqqiyoti tarafdorlari (texnokratik optimistlar) sobiq izdoshlarining bir qismini ham qanoatlantirmayapti.

Ularning aksariyati fikriga ko'ra, hozirgi G'arb tsivilizatsiyasi insoniyat uchun shikastli bo'lgan ko'pgina ziddiyatlarni yuzaga keltirdi, chunki uning zahirida tabiat va uning resurslariga nisbatan iste'molchilik yondashuvi yotadi. Tegishli qadriyatlar tizimidan mustahkam o'rin olgan bunday tasavvurlar tarixan sanoat inqilobi, keyinroq - fan-texnika inqilobi davrida shakllangan bo'lib, o'z ildizlari bilan inson, huddi Erdagi Xudo kabi, dunyoni bunyod etadi, uni tabiat imkoniyatlari bilan ham, o'z imkoniyatlari bilan ham uncha hisoblashmasdan o'z ixtiyoriga ko'ra o'zgartiradi, degan dunyoqarashga borib taqaladi. Pirovardida nafaqat ekologik va demografik tangliklar, balki ma'naviy inqiroz ham yuzaga keladi, bunda avvalgi dunyoqarash mo'ljallari obyektiv sharoit tazyiqi ostida o'zgarayotgan amaliyot bilan to'qnashadi.

Yangi qadriyatlar tizimi. Ayni shu sababli qadriyatlar muammosi, ijtimoiy rivojlanishning yangi ustuvorliklarini va boshqa dunyoqarash mo'ljallarini izlash jamiyatni ma'naviy yangilashning bosh vazifalariga aylanadi. Bugungi kunda turli mamlakatlarning olimlari boshqa qadriyatlarga muvofiq bunyod etilgan o'zga tsivilizatsiyaga o'tish amalga oshirilgan taqdirdagina insoniyat ekologik va boshqa global muammolarni bartaraf eta olishi mumkinligini deyarli yakdillik bilan qayd etmoqdalar. Ularning fikricha, mazkur qadriyatlar tabiat va uning ehtiyojlarini tabiatdan ustun qo'yuvchi antropotsentrizmga emas, balki hayot fenomenining betakrorligiga va biosferani muvozanat holatida saqlash lozimligiga e'tiborni qaratuvchi biosferotsentrizmga asoslanishi lozim. Inson esa, aqlli mavjudot va mazkur murakkab tizimning tarkibiy qismi sifatida, bu bilan nafaqat hisoblashishi, balki tegishli tarzda ish ko'rish ham lozim. Uning dunyoga munosabatini o'zgartirish, insonparvarlik va koevolyutsiya, ya'ni tabiat va jamiyatning mushtarak rivojlanishi tamoyillariga tayanib, yangi qadriyatlar tizimini va ijtimoiy rivojlanish mo'ljallarini yaratishdan boshqa yo'li yo'q.

Dunyo xalqlar o'rtasida o'zaro aloqa va asosli hamkorlik yo'liga yanada ishonch bilan kirishi, odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati esa tabiat bilan ziddiyatga kirishmasligi uchun dunyoda yuz berayotgan hozirgi jarayonlar haqidagi ilmiy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, shuningdek odamlarning yuz berayotgan hodisalar va jarayonlarga o'z javobgarligini yanada teranroq tushunishiga erishish lozim. Bu yana shuning uchun ham muhimki, zamonaviy elektron qurilmalar va hisoblash texnikasi insonning o'z faoliyati natijalarini ham, ular olib kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarni ham chamalash va bashorat qilish qobiliyatini ko'p karra oshiradi. SHu sababli ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishda olimning roli ortishi bilan bir qatorda uning inson uchun ham, atrof muhit uchun ham muayyan ekologik, tibbiy va boshqa oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan texnik loyihalar bo'yicha qarorlar va tavsiyalar uchun javobgarligini mislsiz darajada oshirish masalasi ham alohida ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda genetika sohasidagi tadqiqotlar va amaliy ishlar o'ziga tobora ko'proq e'tiborni tortmoqda. Bu erda jonli organizmlarni, shu jumladan insonni ham klonlash imkonini beruvchi gen injeneriyasi uchun keng imkoniyatlar ochilmoqda. Bu ko'p sonli axloqiy va psixologik masalalarni yuzaga keltiradi, chunki inson shaxs sifatida genlar ta'sirida faqat ellik foizga shakllanadi, qolgan jihatdan u ijtimoiy muhit va muayyan yashash sharoitlari bilan belgilanadigan ijtimoiy mavjudotdir.

SHu munosabat bilan eng yangi falsafiy adabiyotlarda insonparvarlik masalalari yana birinchi o'ringa chiqmoqda. Fan-texnika taraqqiyotini nafaqat ayrim insonning, balki butun insoniyatning axloqiy fazilatlariga bevosita bo'ysundiruvchi inson faoliyatini butunlay o'zgartirish lozimligini ifodalovchi «ilmiy insonparvarlik» atamasi faol ishlab chiqilmoqda. I.A.Karimov bu xususda shunday degan edi: «Ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir – oqiatda jamiyatni inqirozga olib kelishi».

Xulosalar. Insoniyat o'zini o'zi tashqil etuvchi jonli tizim sifatida o'z mavjudligi uchun ko'rash olib bormoqda, yaxshiroq kelajakka erishishga harakat qilmoqda. Bunda hozirgi globallashuv jarayonlari va ular yuzaga keltirayotgan turli muammolar insoniyat oldida tarqoqlik va ixtiloflarni engib, o'z birligi sari harakat qilish, ayni vaqtda madaniyatlar, asriy an'analarning o'ziga xosligini, ayrim millatlar va xalqlarning xususiyatlarini saqlashdan boshqa chora qoldirayotgani yo'q. Bunday birlashuvga esa, yuqorida qayd etib o'tilganidek, faqat umuminsoniy qadriyatlarni e'tirof etish va ularga rioya qilish orqali erishish mumkin.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

Rahbariy adabiyotlar:

1. O'ZBEKISTON Respublikasining Konstitutsiyasi – Tosh.: O'ZBEKISTON, 2017
2. Sh.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak – Tosh.: O'ZBEKISTON, 2017
3. O'ZBEKISTON Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'ZBEKISTON Respublikasi mustaqilligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. Yoshlar ovozi, 2017 yil 1-sentabr.
4. Sh.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Tosh.: “O'ZBEKISTON”, 2017.
5. Sh. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta'minlashning muhim omilidir. –“Xalq so'zi” gaz-si, 2017 yil 10 yanvar.
6. O'ZBEKISTON Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'ZBEKISTON Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2017 yil 7-fevral – Xalq so'zi, 2017 yil 8-fevral.
7. Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'ZBEKISTON Respublikasi Prezidentining qarori. 2017 yil 20 aprel. – Xalq so'zi, 2017 yil 21-aprel
8. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-22 jildlar.- T.: O'ZBEKISTON, 1996-2016.
9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
10. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'ZBEKISTON sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'ZBEKISTON, 2009.
11. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. –T.: O'ZBEKISTON, 2010. -78 b.
12. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi:
13. O'ZBEKISTON Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning O'ZBEKISTON Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 12 noyabr. – T.: O'ZBEKISTON, 2010.
14. Karimov I.A. O'ZBEKISTON mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'ZBEKISTON, 2011. -370 b.

Darslik va o'quv qo'llanmalar:

1. Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi. –T.: O'FMJ, 2004.
2. Nazarov Q.N. Bilish falsafasi. – T.: Universitet, 2005.
3. Nazarov Q. G'oyalar falsafasi . – T.: Akademiya, 2011.
4. Soifnazarov I. Kurs lektsiy po filosofii. – T.: 2004.
5. To'ychiev B.T. Sotsialnaya filosofiya. Albom sxema –T.: 2009.
6. Falsafa asoslari. Nazarov Q tahriri ostida. –T.: Sharq, 2005.
7. Falsafa. Mamashokirov S. Tahriri ostida. -T.: Sharq, 2005.

8. Falsafa. Axmedova M. tahriri ostida.-T.: UFMJ, 2006.
9. Xayitov Sh., Xayitova K., Ziyautdinova X. Falsafa asoslari. Albom sxema. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'ZBEKISTON Milliy kutubxonasi, 2009.
- 10.Shermuxamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi.-T.: Universitet, 2005.
- 11.Shermuxamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi – T.: Axborot texnologiyalari, 2008.
- 12.Shermuxamedova N.A. Gnoseologiya – bilish falsafasi. -T.:“Noshir”, 2011.
- 13.Emirova Ye., Streltsova A. Vvedenie v filosofiyu. – T.: Universitet, 2008

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Aristotel. Sochineniya V 4-x tomax. -M.: 1975. ch.1.
2. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. Nazarov Q. tahriri ostida. – T.: Sharq, 2004.
3. G'arb falsafasi. Nazarov Q. tahriri ostida. – T.: Sharq, 2005.
4. Falsafa entsiklopedik lug'at. Nazarov Q.tahriri ostida. –T.: Sharq, 2011.
5. Jo'raev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – T.: Ma'naviyat, 2008.
6. Karimov B.R. Dialektika ob'ektivnogo i sub'ektivnogo v metode vosxojdeniya ot abstraktnogo k konkretnomu. -T.: 1998.
7. Shpengler O. Zakat Yevropi. Rostov na-Donu. 1998.
8. Asmus V. Antichnaya filosofiya. -M.: 1999.
9. Klassicheskaya nauka Sredney Azii i sovremennaya mirovaya tsivilizatsiya pod redaktsiey Fayzullaeva O. - T.: Sharq, 2000.
- 10.Noveyshiyy filosofskiy entsiklopedicheskiy slovar. -M.: 2001.
- 11.Gurevich P.S.Osnovi filosofii – M.: 2002.
- 12.Xotamiy S.M. Islom tafakkuri tarixidan. – T.: “Minxoj”, 2003.
- 13.Ochildiev A. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. – T.: O'ZBEKISTON, 2004.
- 14.Plutarx. Saylanma. Z.A'lam va Urfon Otajon tarjimasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.
- 15.Choriev A. Inson falsafasi. –Toshkent.: O'FMJ, 2006.
- 16.Yoqubova M. Jamiyat axborotlashuvning falsafiy asoslari. Fals.fan. nomz. Diss. –T.: Universitet, 2007.
- 17.Madaeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. –T.: Falsafa va huquq, 2007.
- 18.Musaev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy huquqiy asoslari. – T.: O'ZBEKISTON, 2007.
- 19.TSitseron. Notqlik san'ati haqida ikki risola. Tarjimon Urfon Otajon. –T.: Yangi asr avlodi, 2007.
- 20.Haqiqat manzaralari. S.Jo'raeva tarjimasi.– T.: Yangi asr avlodi, 2007.
- 21.Qurbonova L. Ijodiy tafakkurning falsafiy metodologik tahlili. Fals.fan. nomz. Diss. –T.: Falsafa va huquq, 2007.
- 22.Yoqubova M. Axborot texnologiyalarining falsafiy asoslari. –T.: Universitet, 2008.
- 23.Otamurodav S. Globallashuv va millat. – T.: Yangi asr avlodi. 2008.
- 24.Yunusov A. Huquq ma'naviyati. – T.: Adolat, 2008.

25. Mamashokirov S., Usmanov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalari. –T.: Fan, 2009.
26. Ochilova B. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. –T.: Istiqlof, 2009.
27. Qurbonova L. Borliq falsafasi. –Andijon: ADU, 2009
28. Qurbonova L. Inson falsafasi. –Andijon: ADU, 2009
29. Qahhorova Sh. Global ma'naviyat – globallashuvning g'oyaviy asosi. – T.: Tafakkur, 2009.
30. Allayarova S.N. Falsafiy hermenevtikaning metodologik jihatlari. Fals.fan. nomz. Diss. –T.: Universitet, 2010.
31. Bozarov D. Sinergetik paradigma. –T.: Tafakkur, 2010.
32. Yoqubova M. Fan axborotlashuvining jamiyat rivojida o'rni- T.: "Star-Poligraf", 2010.
33. Allayarova S. Badiiy ijod hermenevtikasi – T.: Universitet, 2011.
34. Hamidov Z.Sh. Yusuf Xos Hojibning falsafiy qarashlari (tavalludining 1000 yilligi munosabati bilan) Andijon 2017.
35. Amir Temur va temuriylar davri merosining barkamol avlod tarbiyasidagi o'rni. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Andijon 2017. Hayot nashriyoti
36. Konstitutsiya – demokratik tamoyillar poydevori. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Andijon 2017
37. "Harakatlar strategiyasida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va aholi ijtimoiy faolligini oshirish vazifalari" ilmiy-nazariy anjuman materiallari. Andijon 2017

Elektron ta'lim resurslari:

1. www.philosophy.ru.
2. <http://www.intencia.ru>.
3. <http://www.anthropology.ru>
4. <http://www.ido.rudn.ru>.
5. <http://www.filosofia.ru>.
6. <http://www.falsafa.dc.uz>.
7. <http://www.phenomen.ru>.
8. <http://www.lib.ru/FILOSOF>.
9. <http://www.filam.ru/sait.phg>.
10. [www. Ziyo net.uz](http://www.Ziyo.net.uz)